*In this paper, the image of a lot sufi's such as Khoja Bahauddin Naqshband, Khoja Ahrar Ubaydullah Valiy, Nuriddin Abdurahman Jami mentioned in Alisher Navai's epic of “Hayrat ul-Abra” were ideologically analyzed. The content of the stories about mystics, their role and significance in the play is also highlighted.*

**Key words:** epic, story, mystic, sacred man, sufi, perfect man, pir.

Alisher Navoiy ijodida inson haqidagi tushunchalar islomiy aqidalar negizida shakllangandir. Shu bois biz Qur’oni karim va Hadisi sharifda inson haqida bildirilgan fikrlar bilan Navoiy qarashlari muvofiqdir. Birinchidan, Qur’ondagi oyatlar ba’zan mazmunan dostonlarda qaytariladi va inson mukarram zot ekanligi, uning vujudi tuproqdan bo‘lsa-da, ammo ruhi ilohiy ekanligi bayon etiladi. Navoiy islomiy aqidalarga qat’iy amal qilgani holda insonni ta’riflar ekan, uning imonli bo‘lishi, shariat talablariga qat’iy rioya qilishi lozimligi, o‘zini anglashi, o‘z Robbini anglashi zarurligi

haqida yozadi. Bu g‘oyalar o‘zbek shoirining ustozlari tomonidan ham bayon etilgan.

Navoiy insonni ikki asos – modda va ruhdan iborat deb, insonning qalbini Alloh ilmi, qudrati va nurining maxzani deb qaraganlar. Inson ana shu maxzanni kashf etishi, ruhini kamol toptirib, poklanib, fonyilikka yetib, ilohiy olamga yetishishi kerak. Komil inson – ilohiy ilmlarni egallagan, qalbi nurli, har narsadan ogoh odam. Ammo bu yo‘l bag‘oyat mushkulliklar bilan, Alloh sari poklanib borish bilan amalga oshadi. Alisher Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) va shayxlar, so‘fiylar haqidagi qarashlari bilan hamohang ekani ma’lum. Navoiy na’tlarida Muhammad (s.a.v.) ta’rifi, ulug‘vorligi, nuri Muhammadiyaning olam boshida mavjudligi, Payg‘ambar me’roji bir so‘fiyona e’tiqod bilan tasvir etilgan. Bundan tashqari, Bahouddin Naqshband bilan Xoja Ahror Valiy obrazlari lirik-tavsiyif tusda gavdalantirilib, valiy zotlarni Payg‘ambarning davomchilarini, karomatli insonlar sifatida olib qarash ochiq aytilmasa-da mavjud.

«Hayrat ul-abror» dostonida avliyo zotga bag‘ishlangan Bahouddin Naqshband haqidagi bob bor. Alisher Navoiy Payg‘ambarga bag‘ishlangan na’tlardan keyin Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusravga bir bob, Abdurahmon Jomiyga alohida bir bob ajratib, ularning dostonnavislikdagi mahorati ta’rifini beradi, bu boblardan keyin so‘z haqida ikki bob keltirib, adabiy-estetik qarashlarini bayon etadi. Ya’ni hamd-u na’t orqasidan adabiy an’anaga munosabat keladi. Hazrati Bahouddin Naqshband bobi Husayn Boyqaro bag‘ishlovi, ko‘ngil haqidagi bob va uch «hayrat»dan so‘ng kelgan. Navoiy hamd-u na’tdan keyin asarning yozilish sababi, ustoz-salaflariga munosabatini izhor etib, keyin dostonning asosiy mavzusi bo‘lgan tasavvufga o‘tgan. «Hayrat»lar – bu tasavvufiy g‘oyalarini ifodalovchi boblardir. Tasavvufga muvofiq holda Bahouddin Naqshbandga bag‘ishlangan bob keltiriladi. Bahouddin Naqshband Navoiy uchun «naqshbandiya» silsilasi asoschisi – ruhiy murabbiy, bevosita qo‘l bergen piri emas. Navoiyning bevosita qo‘l bergen piri, biz bilamizki, Abdurahmon Jomiydir. Ammo Naqshband va uning ta’limoti Navoiy ijodida chuqur iz qoldirgan. Olimlarimiz o‘z tadqiqotlarida buni isbotladilar [Olim, 1996].

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, «Hayrat ul-abror»dagi 21-bob alohida ahamiyatga ega. Unga quyidagicha sarlavha qo‘yilgan: “*Xoja Bahouddin Naqshband quddusa sirruhu madhidakim, sun’ naqqoshi hikmat xomasi bila ro‘zgor sahifasida aning vujudi naqshin islomiy tarh etti va surati irshodi bila kufr ahli ko‘ngli varaqidin xitoiy va farangiy naqshi ketti va Xoja Ubaydulloh sallamahumullohg‘a niyoz arzikim, ul hazratqa xalafi mutlaq, balki xalifayi barhaqdurur*” [Navoiy, 1960: 48]. Ko‘rinib turibdiki, bu bobda ham Xoja Bahouddin Naqshband, ham Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy ta’rif-u tavsif etilyapti. Bobning dastlabki 15 bayti – Xoja Bahouddin Naqshband, keyingi 30 bayti esa – Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy haqida.

Bu bob alohida ahamiyatga ega adabiy masala deb qarashga arziydi. Chunki Alisher Navoiyning boshqa asarlarida ham Hazrati Naqshband haqida fikrlari bor, lekin bu bobda u silsila asoschisi haqida keng to‘xtab, uning mavqeyi va salohiyati, qarashlari – maslagini bayon etib berishga muvaffaq bo‘ladi. Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyni esa “Xamsa” yozilgan zamondagi uning o‘rnibosari sifatida ta’riflaydi.

Navoiy hazrati Bahouddinning ulviy martabasi, tariqatdagi xizmatlari haqida yozar ekan, «naqsh» so‘zining ko‘p ma’noligidan foydalanib, zanjirli so‘z o‘yini hosil qiladi – ajoyib tasvir yaratadi. Ma’lum bo‘lishicha, «naqsh» so‘zi bir nechta ma’noga ega ekan. Birinchidan, Navoiy «naqsh» deganda dunyoni, «naqqosh» deganda esa xoliqi olamni ko‘zda tutadi:

*Xojaki, naqqosh sipehri baland,  
Bo ‘lg‘ali har safhasiga naqshband,  
Ayladi avroq munaqqash base,*

*Naqsh raqam ayladi dilkash base* [Navoiy, 1960: 48].

Shunday qilib, dunyo ashylari, go‘zal hayot, falaklar barchasi Alloh, ya’ni Naqqoshi azalning naqshi suratlari. Shu kabi nabilar va valilar ko‘nglidagi limmo-lim ilm ham Allohnинг naqshidir. Jumladan, Bahouddindagi valiylik qobiliyati, ilohiy iste’dod tangri ne’mati natijasi. Bahouddinning «naqshband»ligi ilohiy naqshbandlikning inson zotiga zuhur etishi. Bahouddin ko‘ngillarga ilohiy ishq naqshini, fano va faqirlar naqshini soladi. Bu zotning

qalbida dunyo – g‘ayr naqshi yo‘q, uning qalbi shunday tozaki, unda faqat Alloh suvrati namoyon. Zikr orqali ko‘ngillarni Alloh ism-u sifatlari bilan to‘ldirgan.

Xoja Ahror ham – naqshbandiyaning buyuk murshidi. U ilm-u donish, karomat-u valiylikda tengi yo‘q bir zot:

*Ulki bu ofoq ichida toq erur.  
Toq nekim, murishdi ofoq erur.  
Charxi nigun dargahida xokro ‘b,  
Balki jabini bila xoshokro ‘b.  
Yuz qo‘yubon qullug‘ig‘a shohlar,  
Bazmida bexud o‘lub ogohlar* [Navoiy, 1960: 49].

Albatta, bular – shoirona baland pardali tavsiflar. Bu baland ruh Navoiyning Xoja Ahrorga ehtiromini ko‘rsatadi. Ul zotning sharafi buyukligini ta’kidlash orqali tasavvuf g‘oyalarining, so‘fiylar e‘tiqodining buyukligi ta’kidlanadi.

Xoja Ahrorning suhbatlarida beiymon iymon topadi, iymoni sustlarning iymoni mustahkamlanadi, u balolarni qaytaruvchi, ruh olamini sayr etib, mujdalar keltiruvchi, shayx asrorini kashf etuvchi odam. U shohlarga emas, shohlar unga qulluq qiladilar, lekin Xoja Ahror uchun shoh-u gado – barobar:

*Haq so‘zini elga qilurda ado  
Teng ko‘runub olida shoh-u gado* [Navoiy, 1960: 49].

O‘zigma emas, xalifa – shogirdlari ham olam eliga rahnamo. Xoja Ahror tijorat bilan shug‘ullanib, safarlar qilgan bo‘lsa ham, ammo «yuklarida tuhfayi naqdi fano». Xoja Ahror Navoiy nazarida poklik va ruhiy-ma‘naviy kamolot timsoli, ezgulikka hidoyat etuvchi rahbar, har qanday sharoitda haq so‘zni aytuvchi, shohlar va sultonlardan yuqori turadigan, Tangri taolo va Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ishini bandalar orasiga joriy etadigan zot. Yurtning obodligi, osoyishtaligini shoир shunday valylarning sharofatidan deb biladi. Xoja Ahror hazratlari – yurtlarning qo‘riqchisi, sultonlar uzra sulton:

*Mulki jahon mazrayi dehqoni ul,  
Balki jahon mulki nigahboni ul.  
Yo‘qqi mamolikka nigahbon o‘lub,  
Borchha salotin uza sulton o‘lub* [Navoiy, 1960: 49].

Shuni aytish kerakki, Alisher Navoiyning hazrati Jomiyga bag‘ishlangan baytlari ham pirga bo‘lgan mehr-muhabbatini ifoda etadi. Jomiy Navoiy uchun ham pir va ham iste’dod ilhomchisi – ustoz suxan. «Hayrat ul-abror»dagi Abdurahmon Jomiy haqidagi bobda shu ikki jihat birga ifodalangan. Masalan, quyidagi satrlar Jomiyning buyuk so‘fiy, piri murshidligiga ishoradir:

*Qaysi jahon, olami kubro degil,*

*Kudrati Allohu taolo degil.*

*Xirqa aning jismida qapton bo ‘lub,*

*Qaptoni tan, jismi aning jon bo ‘lub.*

*Xirqa bila topmagani ixtisos,*

*Tanni riyo to ‘nidin etmak xalos.*

*Chunki tavajjuhda quyi salsa farq,*

*Soyiri ravshan ravish andoqqi barq* [Navoiy, 1960: 31].

Demak, Jomiy garchi shayxlar kabi hirqa (maxsus so‘fiyona quroq to‘n) kiymasa ham, lekin unda valiylikning, so‘fiylikning barcha belgilari muhayyo. Bu odamda Xudoning qudrati mujassam bo‘lgan, u go‘yo olami kubro – ilohiy olamning yerdagi ifodasi. Boshini tavajjuh – tafakkurga egsa, o‘n sakkiz ming olamni sayr qilib chiqdi. Mana bu baytdagi ma’no esa Jomiy bilan Bahouddin Naqshband orasidagi munosabat salohiyat va martabadagina emas, balki axloq va ravishda ham o‘xshashlik borligini ko‘rsatib turadi:

*Fayzi gado-vu shah aro muntashir;*

*Xizmatiga shoh-u gado muftaxir* [Navoiy, 1960: 31].

Ya’ni shoh-u gado unga barobar bo‘lib, xizmatiga kelish, nafasidan bahra olishdan faxrlanib yuradilar. Jomiy Navoiy uchun hayotdagi komil inson edi.

Komil inson haqidagi g‘oyalalar asrdan-asrga, shoirdan-shoirga o‘tib, to‘lishib, teranlashib borgan, bu bir ideal, obraz sifatida adabiyotdan mustahkam o‘rin olgan. Ruhoniy shayxlar, nomdor so‘fiylar komillik timsoli deb qaralgan, ularning axloqi elga namuna qilib ko‘rsatilgan. Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror»da o‘zi e’tiqod qo‘ygan shayxlar, valiylar siyemosini chizib, insoniy barkamollik iyomon va e’tiqod g‘oyalalarini targ‘ib etdi.

Navoiy «Hayrat ul-abror»da Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Abdulloh Ansoriy, Shayx Ironiy, Imom Faxriddiniy Roziy, Xoja

Muhammad Porso, Abdulloh Muborak nomi bilan bog‘lab hikoyatlar keltiradi. «Hayrat ul-abrор»dagi ikki vafoli yor, rindi Bani Isroil, chinlik go‘zal va uning oshig‘i haqidagi hikoyatlarni ikkinchi qism hikoyatlarga kiritamiz. Navoiyda No‘siravon, Hotami toyi, Bahrom Go‘r, Ayub payg‘ambar hayotidan olingan hikoyatlar ham mavjud. Hikoyatlarning umumiy xususiyati shuki, ularning har birida bir so‘fiyona g‘oya ixcham, esda qoladigan darajada ifodali qilib tasvir etiladi.

«Hayrat ul-abrор» hikoyatlariga ko‘z tashlaydigan bo‘lsak, shoir hirotlik mashhur so‘fiy (XI asr) Abdullohi Ansoriy haqida so‘zlaydilar. Navoiy bu zotni iloh vasliga yaqinlashgan («Muqarrabi bori») avliyo biladi va qattiq hurmat qiladi. Abdulloh Ansoriy «Piri hirot» laqabi bilan nom qozongan edi, tasavvuf tariqatida u kishining alohida o‘rni bor. U tariqat odobi va maqomatning 100 ta bosqichini ishlab chiqqan bo‘lib, tasavvufning qariyb barcha savollariga javob yozgandir.

Hikoyatda Navoiy keltiradiki, Abdulloh Ansoriy jannat umidida yoki do‘zaxdan qo‘rqib, ta‘ma yuzasidan mol-mansab uchun emas, balki «Tangrining amriga itoat» yuzidan toat qilar edi. U qo‘rqishdan emas, muhabbatdan xudojo‘ylik qilardi. Tama umidida so‘fiylik qilish chin so‘fiylik emas, Ansoriy deydi:

*Menki, ishim bo‘ldi parastish mudom,  
Biymu umid ikkisi bo‘lmish harom.  
Bandaliq amriga chu ma‘murmen,  
Tun-kun ishim bu esa ma‘zurmen* [Navoiy, 1960: 66].

Qalbim amri bilan Tangri amring bajaraman, «raddu qabuli bila ishim yo‘q», deydi u. Ko‘rinadiki, ushbu hikoyada mazmunan beg‘araz, sidqidildan xudojo‘ylik qilish targ‘ib etilgan. Bu g‘oya riyyoga, ta‘maga qarshi g‘oyadir. Chunki Navoiy mazkur to‘rtinchı maqolatda riyo va manfaatparastlik, munofiqlikni tanqid qilgan edi.

«Hayrat ul-abrор»ning ikkinchi hikoyatida Ibrohim Adhamning Ka‘baga safari va Makkada Ka‘baning o‘z joyida yo‘qligi naql qilinadi. Ibrohim Balxda toj-u taxtni tashlab, mulk-u hashamdan kechib darvesh bo‘lgach, sahrolarni piyoda kezib, kecha-kunduz namozni kanda qilmay Ka‘ba ziyorati uchun Makkaga yo‘l oladi. Ammo Makkaga borsa, Ka‘ba o‘z joyida ko‘rinmaydi. Shunda

u hayron bo‘lib turganida, haqdan nido keladikim, «Ey, piri roh badiya qat’iga durur bir ajuz (kampir), shavq-u muhabbat yukidin qaddi ko‘z (bukri), ul kampir zaif-u notavon bo‘lgandan keyin Ka’ba uning tavofiga bordi. Ibrohim qarasa, Robiya kelardi, ammo u Ka’ba bilan birga edi. Ibrohimning hayron bo‘lib bergen savoliga Robiya Adviya deydi:

*Bo‘ldi ishing arzi namoz aylamak,  
Sheva manga arzi niyoz aylamak.  
Sanga samar berdi namozu riyo,  
Bizga bu bar berdi niyozu fano* [Navoiy, 1960: 15].

Shoir bu hikoyatda namoz va niyoz tushunchalarini qiyoslaydi. Ibrohim Adham namoz, ya‘ni ibodatga beriladi, buni Xudoga xizmatning yo‘li deb biladi. Robiya Adviya esa niyozmand, ya‘ni oshiq, u yonib-o‘rtanib xudoni sevadi, Parvardigor ishqida na o‘zini biladi, na olamni, na namozni, na ibodatni. Navoiy ana shunday oshiqona sadoqatni zohiriy toat-ibodatdan ustun qo‘ygan.

Bu hikoyat ikkinchi «maqolat» sharhi uchun keltirilgan. Ikkinchi «maqolat»da islom xususida so‘z boradi. Demak, Alisher Navoiy islom mohiyatini ham so‘fiyona ruhda idrok etadi. Shunga o‘xhash har bir hikoyat tasavvufning biror masalasini badiiy talqin etishga bag‘ishlangan bo‘lib, asarning umumiy mazmuniga singdirilgan.

Boyazid Bistomiy, Shayx Iroqiy, Muhammad Porso hikoyatlari ham shunday xarakterga ega. Ammo Hotami Toyi, qanoatli javonmard, Ayyub va o‘g‘ri hikoyatlarini tasavvufga aloqasi yo‘q deb bo‘lmaydi. Ularda so‘fiy axloqi umumbashariy axloq, nuqtai nazaridan olib qaraladi. Hikoyatlar dostonlarning badiiy-tasviriy qiyamatini oshirishga xizmat qilgan. Shayxlar, alloma zotlar e’tiqodi, prinsplarini ko‘rsatish barobarida, kichik lavhada ularning xarakterli xususiyati ochilgan. Ularning hammasiga xos xislat, obrazlarni birlashtiruvchi jihat ham bor. Tangri taologa sadoqat, o‘z e’tiqodi yo‘lida, poklik, iymon yo‘lida jon fido qilishga tayyor turish, ibrat-namuna ko‘rsatish, Boyazid, Ibrohim, Shibliy kabi tarixiy shaxslar hayotining o‘zi afsonaga aylangan, ular timsol darajasiga ko‘tarilgan – valiylik, komillik timsoli bo‘lib qolganlar. Hikoyatlar ana shu timsol siyemosidagi chizgilar hisoblanishi mumkin. Shu bois atoqli olim A. Hayitmyetovning «Hayrat ul-abror»dagi

hikoyatlar bilan mohir hikoyanavis sifatida ham maydonga chiqdi» degan fikrlariga qo'shilmoq kerak.

Xullas, Alisher Navoiy qarashlarida tasavvuf g'oyalari keng o'rein egallaydi. Navoiy so'fiy axloqi haqida qator fikrlar bayon etishdan tashqari, Bahouddin Naqshband siymolarini chizgan va valiy inson qanday bo'lishini ko'rsatgan. Alisher Navoiy o'zining bevosita ustozni, piri Jomiyni ham shunday zotlar qatoriga qo'yib ta'riflaydi, uni real hayotiy komil inson deb biladi. Hazrat Navoiy hayotga munosabatda ham tasavvuf ta'limotidan kelib chiqadilar. Chin so'fiyning axloqi – namuna. Odamlar undan ibrat olishi kerak. Insoniy nuqson va kamchiliklar kishilarni ilohdan va odamiylikdan uzoqlashtiradi. Kishi qancha Allohga yaqin bo'lsa, u shuncha insoniyidir, shuncha buyukdir.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Хамса. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев.  
–Т.: Фан, 1960.
2. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Моварауннахр – Ўзбекистон, 2009.
3. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти.  
– Т.: Халқ мероси, 2002.
4. Ислам: Энциклопедический словарь – Москва: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1991.
5. Ислом тасаввуфи манбалари (Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев). – Т.: Ўқитувчи, 2005.
6. Олим С. Нақшбанд ва Навоий. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
7. Муллахўжаева К. Алишер Навоий “Хамса”сини ўрганишда профессор Нажмиддин Комилов роли // Темурийлар даврида яратилган хамсаларнинг компаративистик тадқиқи ва уларнинг Шарқ адабиётида тутган ўрни. 2020. – Б. 203-206.

# **OQQO‘YUNLILAR DAVRIDA O‘G‘UZ LAHJASIGA O‘GIRILGAN ALISHER NAVOIY DEVONI<sup>1</sup>**

## **ALISHER NAVOI’ DIVAN TRANSLATED INTO OGUZ DIANCE DURING AKQOYUN**

**Tanju SEYHAN**

*Mimar Sinan nomidagi*

*Nafis san’atlar universiteti*

*(Turkiya)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada Alisher Navoiyning “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” unga yaratilishi davri yaqin bo‘lgan Navoiyning o‘zi tartib bergan birinchi rasmiy devoni – “Badoye’ ul-bidoya” bilan lingistik nuqtai nazardan solishtirildi.*

**Kalit so‘zlar:** “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”, “Badoye’ ul-bidoya”, leksika.

### *Annotation*

*The article “Divan of Ak-Koyunid admirers” compares with his first “Baday al-Biday”, which was also compiled by him, from the perspective of linguistics.*

**Key words:** “Dīvān of Aq Qoyunlu Admirers”, “Badae‘ al-bidaya”, linguistics.

Turkiylar tarixga yaxlit hodisa sifatida qaraladigan bo‘lsa, u – urug‘lar tarixi. Davlatchilik an’anasiga ko‘ra, XV asrda turk dunyosida sharq va g‘arbda ikki buyuk imperiya, va bunga bog‘liq

---

<sup>1</sup> Mazkur maqola muallifning shu nomdagi maqolasi asosida turk tilidan tarjima qilindi. Maqola manbasi: Seyhan Tanju. “Akkoyunlular döneminde Ali Şir Nevâyiş şîirlerinden seçmelerin lehçelerarasi aktarımıyla ortaya konulan oğuzca divan” / “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. B.17-50. Tarjimonlar: A.Qurbanov, G.Yuldasheva.

ravishda ikkita turk adabiy tili mavjud bo‘lgan. O‘g‘uz lahjasiga asoslangan g‘arbiy turk tili uyg‘ur lahjasiga asoslangan sharqiy turk tiliga nisbatan kechroq yozuv tiliga aylangan. G‘arb turkiylari hisoblangan o‘g‘uzlar turli urug‘lardan tashkil topgan bo‘lib, katta bir hududni egallagan. Hududning kattaligiga qaramay, urug‘lar o‘rtasida muammolar yuzaga kelsa-da, madaniy sohalarda o‘zaro mustahkam aloqlalar davom etgan. Har ikki hududdagi ijodkorlar ayni asarlardan ma’naviy ozuqa olganlar, bir-birlarining asarlarini kuzatib borganlar va o‘zaro ta’sirlanganlar. Insonlar o‘z asarlari bilan mamlakatlarni zabit etganlar. Sharqiy turk tilini badiiy jihatdan yuqori darajaga ko‘targan Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” asarida quyidagi misralarni keltirib, bu fikrni juda go‘zal tarzda ifodalagan:

*Eger bir kavm ger yüz yoksa miñdür  
Mu‘ayyen Türk ulusu hod mениñdür  
Alıp mén taht-i fermānumğa āsān  
Çērig çékmey hitā’dan tā Horāsān  
Horāsān démegim şīrāz u Tebrīz  
Ki kılımışdur ney-i kilkim şeker-rız  
Köñül bermiş sözümge Türk cān hem  
Ne yalğuz Türk bel-kim Türkman hem*

(Ferhad ü Şirîn: 92-95).

Navoiy davrida Sharqiy Onado‘li, Ozarbayjon, Iroqda va yuqoridagi misralarda nomi tilga olingan Sheroz shahrini ham o‘z ichiga olgan hududlarda o‘g‘uzlarning Bayindir urug‘iga mansub Oqqo‘yunlilar sulolasini hukmronlik qilgan. Bu turkman sulolasini davrida madaniyat juda ham rivojlangan. “Turk va fors tillarida ijod qilgan Yoqub Beyning atrofida juda ko‘p shoirlar to‘plangan edilar” (Sumer 1989: 274). Alisher Navoiyning “Majolis-un nafois” asarining Hokimshoh nomi bilan mashhur Muhammad bin Muborak Shoh al Qazviniy tomonidan Istambulda 927-929-yillarda (1521-1523) amalga oshirilgan forscha tarjimasiga Oqqo‘yunli hukmdori Yoqub Bey saroyidagi 41 shoirning tarjimai holi kiritilgan. Asarning oltinchi bo‘limidan joy olgan bu ilovalar juda muhim manba hisoblanadi (Eraslan 2003: 216).

XI asrda yozilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida ham ta’kidlanganidek juda katta hududni egallagan turkiy urug‘larning

hayotidagi turli siyosiy voqealar natijasida asosi bir bo‘lsa-da, yangi adabiy tillarning hosil bo‘lishi jarayonida adabiy turk tilida bitilgan asarlarda sheva farqlari yuzaga keladi va barcha urug‘lar uchun umumiy adabiy til davri tugaydi. “Tarixdan ma’lumki, turli davrlarda turk xalqlari bir necha marotaba birlashib, yana bir-birlaridan uzoqlashganlar. Bunday birlashuv va ajralishlar ham lahjalarning takror va takror o‘zaro ta’sirlanishiga sabab bo‘lgan (Kaydarov-Orazov: 1992, 2012). “Bu lahjalarning birlashishi va ajralishi davomida yuzaga kelgan tildagi o‘zgarishlar ba’zan adabiy tilda ham aks etadi... O‘g‘uzlarning sharqiy turk adabiy tilini qo’llaganliklari tarixiy haqiqat bo‘lib, turli urug‘larga mansub kishilar tomonidan o‘g‘uz turkchasida asarlar yozilishi esa shevalarning imkoniyatlarini namoyish etadi” (Turk, 2012: 396).

“So‘zni ko‘ngil dengizidagi inju, ko‘ngilni barcha ma’nolarning bulog‘i” deb bilgan, o‘ziga “so‘z ahli xirmonining boshqochisi, beba ho so‘z gavharlari xazinasining qo‘riqchisi, nazm gulshanidagi sayroqi bulbul (ML 214) deb ta’rif bergan Alisher Navoiyning she’rlari Oqqo‘yunlilar saltanatida ham mutolaa qilinadi va o‘g‘uz lahjasiga o‘giriladi.

Navoiy she’r yozishni boshlagan yillarda eng qimmatbaho gavharlarni namoyish eta olmaydi, albatta. Shoirning o‘zi ijodini boshlagani haqida shunday yozadi: “Kamina ilk bolalik chog‘larimda og‘iz qutichasidan gavharlar chiqa boshladи. Lekin bu gavharlar hali nazm shodasiga terilmagan edi. Ko‘ngil daryosidan nazm shodasiga terilgan gavharlar yaratilish g‘ovvosining sa’yi bilan og‘iz sohiliga kela boshlaganida aytilgan qoidaga ko‘ra ado topdi” (ML 214).

Hozirgi lahjalarning yuzaga kelish tarixini o‘rganishida, xususan, mana shu davrlarda yaratilgan asarlar va lahjalar o‘rtasida amalga oshirilgan o‘girmalar juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlardan biri A. Erkinov tomonidan Misir Milliy kutubxonasida amalga oshirilgan tadqiqot natijasida ma’lum bo‘ldi. Matnning faksimili bat afsil kirish so‘zi bilan birgalikda 2015-yili Tokioda “*Alī Shīr Navā’ī. Admirers (1471)*” nomi bilan nashr etildi. Erkinovning ma’lum qilishicha, devondan Alisher Navoiyning 1471-yilgacha yozilgan she’rlaridan ayrim namunalar joy olgan. 2012-yilda

“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1-soni 10-18-betlarda chop etilgan “Navoiyning muxlislar tomonidan tuzilgan yana bir devoni” nomli maqolasida muallif qo‘lyozma haqida to‘liq ma’lumot beradi. Asar nasta’liq (Eastern/Mashhadī and Western/Anīṣī schools) xatida yozilgan bo‘lib, Erkinov asarning yozilish sanasiga oydinlik kiritish uchun Navoiyning ilk devoni “Badoyi ul-bidoya”dan 217 g‘azal kiritilganini aytib o‘tadi.

Navoiy hayotligida o‘girilgan ana shu devon lahjalarni muqoyosa qilish imkonini berishi bilan ham juda muhimdir. Ushbu maqola asarning to‘liq shakini tayyorlash jarayonidagi boshlang‘ich ish sifatida yozildi. Erkinov nashr ettingan

*“Dīvān of the Aq qoyunlu”* dagi faksimili, Parij Milliy kutubxonasida 746-raqam ostida saqlanayotgan 885/1480-yilda ko‘chirilgan “Badoyi ul-bidoya” nusxasi, Turk Til Qurumi nashrlaridan Gunay Kut, Metin Karao‘rs, Kaya Turkay va O‘nal Kaya tomonidan tayyorlangan Navoiy devonlari, Nursel O‘zdarandeline doktorlik ishi bo‘lgan “Ilk devon” (Qo‘lyozma Sultan Ali ibn Muhammad Mashhadiy tomonidan 1465-66-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustahzod, 1 muxammasdan iborat nusxa Peterburgdagi Saltikov-Shedrin xalq kutubxonasida 564-raqami ostida saqlanadi. Tadqiqotda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashr etgan faksimildan foydalananildi).

Mazkur tadqiqotda Oqqo‘yunli Devonidagi ga‘zallarga raqamlar berildi. “Badoyi ul-bidoya”da va “Ilk devon”da keltirilgan 45 g‘azal ustida ish olib borildi. Raqamlar Oqqo‘yunli devoniga oid bo‘lib, matnlarning nashrida varaq kunyalarini ham berilgan. Devondan 224 g‘azal, 1 mustahzod, 3 muxammas, 1 tarji‘band o‘rin olgan. 4, 21, 24, 68, 107, 115, 122, 124, 126, 129, 136, 138, 146, 148, 149, 158-(=16) g‘azallar va 63b/7 dagi muxammas “Navodir ush-shabob”da; 6, 14, 15, 17, 20, 23, 76, 114, 127- (=9) g‘azallar bilan 63a/5 dagi muxammas va 65a/2-27a/4 dan joy olgan tarji‘band “Badoyi ul-vasat”da; 2, 9, 11, 12, 19, 66, 77, 78, 79, 81, 117, 120, 200-(=13) g‘azallar “Favoyid ul-kibar”da, 1 mustahzod, 1 muxammas va 181 g‘azal “G‘aroibus-sig‘ar”dan ‘rin olgan. Quyida birinchi baytlari berilgan 5ta g‘azal “Turk Til Qurumi” nash etgan 4 devonga kiritilmagan.

*Sənsizin èy ‘ömr cism rūhdañ bīgānedür ā  
Tilbe gönlüm hem melāmet kūyida efsānedür* (19a/10-19b/2)  
*Bir ħaber vērey şabā serverdānumdan mēnūm  
Kim köyer cān lāle teg dāğ-i nihānumdan mēnūm* (38b/9-  
39a/3)

*Köydi gönlüm kim neden menzil degül cānā yēne  
Düsti od genc ārzüsünden yérüñ vīrā<ñ yēne>* (52b/7-13)  
*Hoş siz cān kim yaşur mēn cism-i ǵam-perverdāni  
Muṭlaq ol dīvāne tégdür kim yatupdur gerdanı* (61b/1-5)  
*Munça kim her dem yér ħusūme hicriüñden ǵami  
Rūzī olmasun maña sənsiz neşət imek demī* (61b/6-62a/1)

54, 58, 80, 86, 92, 106, 113, 114, 115, 134, 179, 182, 190, 191, 200, 204, 220, 221, 222, 223, 224-(=21) g‘azallar va mustahzod, muxammas, tarji’band “Badoyi ul-bidoya”da yo‘q. Asarning Parij nusxasini ko‘rmaganimiz uchun u yerda bor-yoqligi bizga noma‘lum. “Badoyi ul-bidoya” asarining bizga ma‘lum boshqa nusxalari 1) London Or. 401 (887/1482), 2) Boku Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Jumhuriyat qo‘lyozmalari No:3010 (889/1484), 3) Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot muzeyi No: 84 (891/1486)dir. “Navodir un-nihoya” asari bilan ham qiyoslash ko‘zda tutilgan.

Navoiy g‘azallarida baytlarning soni odatda 9ta bo‘lsa, Oqqo‘yunli devonida ko‘pi bilan 7ta. Ba’zi istisnolardan tashqari g‘azallarda 2 bayt o‘girilmagan.

Ba’zan esa Navoiyda bo‘lmagan baytlar ham qo‘shilgan ko‘rinadi.

*Nāmesin cān perdesine çirmadim ki ‘iṣk ara  
El-ħisāb ele nişānum başida turğu görüp* (33/6)  
*Gerçi ‘iṣk odında gönlümni oħi-ki sişlediūñ  
Cevr kılma kim henüz ni sīh köymış ni kebāb* (25/6)  
*Yüz ü zülfüñni diler miskin Nevāyī şubħ u şām  
Uşbu durur di anuñ va llāhu a’lem bi’s-savāb* (25/7).

She’riy tarjimalar o‘giruvchining tarjima imkoniyatlarini anchagina cheklab qo‘yishini unutmasligimiz kerak. Ayniqsa, aruz vazni bu jihatdan nihoyatda murakkab shakl hisoblanadi. Nasriy asarlar lahja xususiyatlari haqida kengroq ma‘lumot berishi mumkin, lekin nazmda ham ba’zi farqli xususiyatlarni ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqotimizning til bo‘limida misollarni berishda avval o‘g‘uzcha o‘girma, keyin esa “Badoyi ul-bidoya” (Parij 746) va agar farq bo‘lsa, “Ilk devon”dagi qo‘llanilishlar keltiriladi. Har ikki lahjaning lug‘at boyligi qiyoslanadi, ba’zi imlo xususiyatlari, tovush o‘zgarishlari, otlarning turlanishi va fe’llarning tuslanishi, olmosh va ko‘makchi so‘zlar solishtiriladi, matn qismida esa 45 ta g‘azalning o‘g‘uzcha o‘girmasi (Oqqa‘yunli devoni) va sharqiy turkchadagi asli (“Badoyi ul- bidoya” Parij 746) yonma-yon ikki ustun shaklida beriladi.

1. Oqqa‘yunli devoni va “Badoyi ul-bidoya”ning Parij nusxasidagi so‘zlar qiyosi.

Oqqa‘yunli devonida qo‘llanilgan turkcha so‘zlar lahja fonetik xususiyatlariga mos ravishda aynan keltirilgan, ba’zan esa boshqa so‘zlar tanlangan. Ba’zi o‘rinlarda ham o‘xshash, ham lahjaga xos so‘zlearning aruz vazni imkoniyatlari doirasida qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘g‘uz lahjasining lug‘at boyligini namoyish etishi bilan ahamiyatlidir. Ammo so‘zlearning aynan ishlatilishi, lahjalar o‘rtasidagi farqlarni ifodalovchi alohida qo‘shimchalarining bo‘lishiga qaramay, qo‘shimchalarining ham aynan qo‘llanilishi har ikki lahja egalarining bir-birini qiyinchiliksiz tushuna olganliklarini ko‘rsatadi.

Yér / yér (5/1), oh / ok (34/3), kirpigümden / kirpikimge (31/4), bēlgü / bēlgü (33/5), ték / ték “yalnız, sadece” (112/1), bir ocağıdur / derd ocağıda (31/3), mezār yasañ / mezār yasañ (9/6); delü / tilbe (163/5) - tilbe / tilbe (12/5), қuyaş / қuyaş (28/7) - güneş / қuyaş (30/2) (31/5), su / yağıñ “yağmur” (103/5), bögrügüme / kökrekimge (31/1), itleriñ ögine / itleriñ allida (116/2), çoh / köp (108/5), uğradı / uçradı (167/3), beyle odlar / mundaç oti (26/3), bu saru / bu sarıg (29/5), uşta / muna (116/2), eyle kim / andaç kim (11/7, 28/4), beyledür / mundağ bolur (128/1), beyle / mundağ(mundaç) (166/5), beyle kim / eyle kim (119/2), mezārum üstine / mezārim taşıda (119/6).

O‘zlashgan so‘zlar ko‘pincha aynan keltirilgan. Ba’zan esa turkiy so‘zlar qo‘llanilgan bo‘lib, bunday holatni juda kam uchratdik.

Cüdā / cüdā (5/1), belā / (belā 5/1) (5/3), belālar / belālar (5/3), cāndadur / cāndadur (5/1), dīvāne / (dīvāne 5/1), hātā / hātā (5/1),

‘ışkı / ‘ışk (5/2), esīr / (esīr 5/2), şād / şād (5/3), halāş / halāş (5/3), naşīhat / naşīhat (5/6), def<sup>f</sup>/def<sup>f</sup> (5/6), kažā / (kažā 5/6), şiddet / şiddet (5/7), yār / (yār 5/7), zindānī / (zindānī 5/3); dudağūñ / lebiň (27/1), halķa / ēlge (30/3), yaşum / eşkim (125/5), hürşīd kimi / kün dēk (108/4), sorduğ / fehm ittük (28/5).

Bir nechta orında aslidagi so‘zdan boshqa so‘z qo‘llanilgan. Asar to‘lig‘icha tadqiq etilmagani sababli bunga oid statistik ma’lumatlar hozircha keltirilmagan:

‘uşşākdan / ‘ışk ehlidin (29/3).

Bir necha misolda esa boshqa qo‘shimchalar bilan o‘girilganini ko‘rishimiz mumkin:

ķavlamağıñ / ķavlamagliç (30/5)

O‘g‘uzchaga o‘giruvchi tomonidan tanlangan so‘zlar:

ķanını alğaç / cānını alğaç (12/4), ol lāmī durur ki / ol lāmdur ki (19/6), gerçi kim bī-hūşa / gerçi bī-hūş ēlge (25/3), nēççe bir köyem / nēççe köygey mēn (26/2), bir bir beyle virseñ / bir bir savursaň (26/4), sén dudağūñ şoricalň / sén lebiň surğan sayı (27/1a), sağın èy hürşīd ‘arız yolda görgüzdüñ şitā**< b >** / güyiyā hürşīd yañlığ yolda körgüzdüñ şitāb (28/2), devlet vaşlı haçan ola müyesser kim èrür / vaşl nè yañlığ müyesser bolgusidur çün èrür (30/4), mēni ikin anıñ içmağı kıldı mest ü harāb/ ki anıñ içkeni ok kıldı mēni mest ü harāb (32/6), ‘akl u dāniş lāfini üzən / (35/2), tīgī itmiş çäkler / oklarıň çäk ittiler (103/5), yerdeki toprağ / yerdeki yafrag (128/2), zevāl gëlsün / sén zevāl tapkay (130/3).

2. Oqqo‘yunli devonining ba’zi lahja farqlarini ko‘rsatuvchi imlo xususiyatlari.

Oqqo‘yunli lahjasida so‘zlarning yozilishida ikki lahja o‘rtasidagi imloviy farqlardan biri orqa qator unlilari bilan kelgan so‘zlarda sod (ص) va to(ت) ning qo‘llanilishidir. Oqqo‘yunli devonida asosan sod harfi ishlatilganligini ko‘ramiz:

tütüyā şalmek / tütüyā salmak (11/5), şararan / sarğargan (27/5)

Sharqiy turk tilida foydalanan xatti ta’liq-i Chig ‘toy-i deb nomlanuvchi yozuvdagı sin harfi Oqqo‘yunli devonida doim bo‘lmasa ham, ancha qo‘llanilgan. Bu ham lahjalarning o‘zaro ta’sirlanganini ko‘rsatadi: o‘t socha (12/3). Bundan tashqari, til orqa burun tovushi n (ñ) ham sharqiy turk tilida bo‘lganidek (ڭ) tarzida yozilgan.

### **Foydalanalılgan adabiyotlar:**

1. Alpay Tekin, Gönül (1975), *Ali Şir Nevâyî, Ferhad ü Şîrîn: İnceleme-Metin*, Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara.
2. Atmaca, Emine (2011), *Eski Oğuz Türkçesinden Türkiye Türkçesine söz varlığındaki değişimeler ve anlam olayları*, Danışman: prof. dr. prof. dr. Vahit Türk, Sakarya Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü / Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı / Türk Dili ve Edebiyatı Bilim Dalı, Basılmamış doktora tezi.
3. Eckmann, Janos (1989), “Nevaî’nin İlk Divanları Üzerine”, *TDAY-Belleten*, 1970, Ankara: 253–269.
4. Eraslan, Kemal (1970), Doğu Türkçesinde Ek Uyumsuzluğuna Dair, *İstanbul Üniversitesi*
5. Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi, C.18, İstanbul: 113–124.
6. Eraslan, Kemal (2003), “Mecâlisü’n-Nefâis”, *İslâm Ansiklopedisi*, Cilt 28, İstanbul: 216-217 (Ali Şir Nevâî, Mecâlisü’n-nefâis (trc. M. Fahrî-yi Herâtî - Hakîm Şâh Kazvînî, nr. Ali Asgar-i Hikmet), Tahran 1323)
7. Ergin, Prof. Dr. Muharrem (2008), Orhun Abideleri, 41. Baskı, Boğaziçi Yayıncıları.
8. Erkinov, Aftandil (2015), “From Herat to Shiraz: the Unique Manuscript (876/1471) of ‘Alî Shîr Nawâî’s Poetry from Aq Qoyunlu Circle”, *Littérature et société*: 47-80.
9. Erkinov, Aftandil (ed.) (2015), *‘Alî Shîr Navâî. Dîvân of the Aq qoyunlu Admirers (1471)*, Research Institute For Languages And Cultures Of Asia And Africa (ILCAA), *Studia Culturae Islamicae*, No.101, MEIS Series No.18, Tokyo.
10. Gezer, Hanife (2012), *Mecâlisü ’n-Nefâis ’in iki nûşasının karşılaştırılması*, Danışman: prof. Dr. Vahit Türk, Erciyes Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü / Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı / Yeni Türk Dili Bilim Dalı, Basılmamış Yüksek Lisans Tezi.
11. Karaörs, Metin (2006), *‘Alî Şir Nevâyî, Nevâdirü ’ş-Şebâb*, Türk Dil Kurumu Yayınevi, Ankara.
12. Kaya, Önal (Mart 2007), ““Alî Şir Nevâyî’nin Divanları”, *Modern Türkçük Araştırmaları Dergisi*, Cilt 4, Sayı: 1, Ankara Ünv. Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve

Edebiyatları Bölümü: 46-56.

13. Kaya, Önal (1996), ‘*Ālī Ṣīr Nevāyī, Fevāyidü ’l-Kiber*, Türk Dil Kurumu Yayıni, Ankara.
14. Kaydarov, E., Orazov, M. (1992), *Türkitanuvga Kirispe*, Kazak Üniversitesi Yay., Almatı.
15. Kurnaz, Cemal (2002), “Tarih Boyunca Anadolu ve Orta Asya Kültür Çevreleri Arasındaki İlişkiler”, *Türkler Ansiklopedisi*, C. 8, sayfa: 832, Yeni Türkiye Yayınları, Ankara.
16. Kut, Günay (2003), *Ali Ṣir Nevāyī, Garaibü’s-Sigar*, Türk Dil Kurumu Yayıni, Ankara.
17. ML:, *Muhakemetü ’l-Lugateyn*, bakınız: Özönder Barutçu, F. Sema.
18. Nalbant. Bilge (2013), “Türkiye Yazmaları Arasında Bir Çağatayca-Oğuzca Kısa Sözlükçe”, *Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Türkoloji Dergisi*, 20, 2(2013), Ankara: 79-90.
19. Özdarendeli, Nursel (2001), *Ali Ṣir Nevāyī İlk Divan inceleme-metin-dizin*, Danışman: Doç. Dr. Vahit Türk, Trakya Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü / Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı, Basılmamış doktora tezi.
20. Özönder Barutçu, F. Sema (1996), *Muhakemetü ’l-Lugateyn*, Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara. R. Topkapı Sarayı Kütüphanesi Revan Bölümü.
21. Sertkaya, Osman Fikri (2004), “Osmanlı Şairlerinde Ali Şir Nevâyî Tarzı ve Nevâyî’ye Anadolu’da yazılan Nazireler”, *560. Doğum, 500. Ölüm Yıldönümelerini Anma Toplantısı Bildirileri* (24-25 Eylül 2001), S. 129, Türk Dil Kurumu Yay., Ankara.
22. Sümer, Faruk (1989), “Akkoyunlular”, *İslâm Ansiklopedisi*, Cilt 2, İstanbul: 270c-274c.
23. Türk, Prof. Dr. Vahit (1990), *Nevâ ’î Mecalisü ’n-Nefâ ’is (Metin-Inceleme, Dizin)*, 2 Cilt, Basılmamış Dr. Tezi, Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili Ve Edebiyatı Bölümü Türk Dili Anabilim Dalı, Danışman: Prof. Dr. Tuncer Gülensoy, Elazığ.
24. Türk, Vahit (2012), “Lehçeler Arası İlişkiler ve Oğuz Türkçesinde Bir Nevai Eseri”, *Türklük Bilimi Araştırmaları-TÜBAR*(28).
25. Türkay, Kaya (2002), ‘*Ālī-Ṣīr Nevāyī, Bedāyi ’ü ’l-vasat*,

*Üçüncü Dīvān*, TDK Yayınları Ankara.

26. Uğurlu, Mustafa (2011), “Oğuzca ve ‘Anadolu Merkezli Oğuz Türkçesi’”, *Turkish Studies – International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic*, Volume 6/1, Turkey: 123-156.

27. Yılmaz, Çağlayan (2011), *Ahmedî (Akkoyunlu) Esrâr-Nâme Tercümesi: İnceleme-metin-dizin*, Danışman: Prof. Dr. Avni Gözütok, Atatürk Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü / Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı, Basılmamış doktora tezi.

### Maqolada qo'llanilgan transkripsiya jadvali

ا	a, ā, e	ص	ş
آ	ā	ض	ż, ɖ
ء	'	ط	ṭ
ب	b	ظ	ẓ
پ	p	ع	'
ت	t	غ	g̡
ث	s̡	ف	f
ج	c, ç	ق	k̡
چ	ç̡	ك	k̡, g̡
ح	h̡	ل	l
خ	h̡	م	m
د	d	ن	n
ذ	z̡, d̡	و	o, ö, u, ü
ر	r	ه	a, e, h
ز	z̡	ى	i, ī, ī, y
ڙ	j̡	كڙ	ñ
س	s̡	اوخ	h̡vā
ش	ş̡	ا / يا	é (Kapalı e)

(Turk tilidan Abdumalik Qurbonov va Gulandom Yuldasheva tarjiması)

# MA'NAVIY VALODAT VA O'ZLIK KAMOLI

## SPIRITUAL MATURITY AND PERSONALITY

*Odam bo‘lish o‘zlikni anglash ekan....  
(Mirzo Bedil)*

**Ibrohim HAQQUL**  
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va  
folklor instituti (O‘zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada inson o‘zligini anglash masalasi muhokama qilingan. Sharq tasavvuf adabiyotidagi “men”ni bilishga nafsn ni yengish orqali erishib borish va ularning Navoiy ijodidagi talqinlari tahlil qilingan.*

**Kalit сўзлар:** *o‘zlik, menni anglash, bashariy menlik, ma’naviy menlik.*

### *Annotation*

*The article discusses the issue of human identity. Achieving knowledge of the “I” in the mystical literature of the East by overcoming lust and their interpretations in the works of Navoi are analyzed.*

**Key words:** *identity, self-understanding, human self, spiritual self.*

Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyoti Sharq xalqlarining dunyoqarashi, og'zaki ijodi, dini, madaniyati, ma'naviy ehtiyojlari va badiiy zavqiga asoslangan. G'arb dunyosiga uni o'qib o'rganishga qiziqishning kengayishi, hech shubhasizki, uning foydasiga xizmat qilgan. Ilmiy tadqiq va talqinda bu adabiyotning tub mohiyati, psixologik tamoyili, ramziy-majoziy tarkibini to‘g‘ri anglamaslik esa unga ziyon etkazgan. Sovet davri rus adabiyotshunosligi ta'sirida shakllangan o‘zbek adabiyotshunosligi bunga qarshi turib, o‘z nuqtai nazarini ilgari surish erkiga ham,

layoqatiga ham ega bo‘lman. Natijada o‘zbek adabiyotshunoslari o‘rgangan mavzu va masalalar, asosan, xorijdan o‘zlashtirilgan yoki nusxa ko‘chirilgan. Buning boshqa yo‘li ham bo‘lman. Chunki sinfiylik, partiyaviylik, g‘oyaviylik hamma amal qilishi shart va zarur bo‘lgan qonun-qoida o‘larоq belgilangan chiziqdan chiqmaslikni to‘la ta’minlagan.

Sharq klassik adabiyotida olam va odamga muhabbat Alloh va uning suyukli rasuli Muhammad alayhissalomga ishqidan boshlanadi. Inson o‘zini bilishi va o‘zligini namoyon aylashi uchun, eng avvalo, ilohiy ishq sir-asrorini bilishi va o‘zlashtirishi zarur. Aks holda u hayotning ulkan va boqiy haqiqatlari qatori ishq-muhabbatda ham adashadi. Umrini o‘tkinchi hirs-u havas va mayllardan muhofaza qilolmay xatolar girdobiga tushadi. Alloh, din va shariatga qarshi murosasiz hujum boshlagan dahriylik aqidasi g‘alabasidan keyin adabiyotshunoslikda ham xalq va Xoliq, payg‘ambar va ummat, tiriklik va oxirat masalalaridan so‘zlash ta’qiqlangandi. Sho‘ro hokimiyati siyosati va kommunistik partiya ko‘rsatmalariga maqbul fikr-mulohazalarni bayon etish esa misli ko‘rilmagan yolg‘on va uydirmalarni joriy qilish edi. Shunday qilib diniy adabiyot bilan bir qatorda qariyb etmish yil mobaynida adabiyotdagi diniy-axloqiy mavzularni tekshirish ta’qiqlab kelindi. Qur’oni karim va nubuvvat ta’limoti zaminida rivojlanib kelgan adabiyot namunalarini asriy o‘zanidan ajratib uning tabiatini va tarixiga butunlay yot bir ideologiyaga muvosiq ravishda tadqiq va talqin qilishning samarasini qanday bo‘lgan? Afsuski, bu savolga hanuzgacha ochiq va aniq javob berilgani yo‘q. Mumtoz shoirlarimizdan hech biri sinfiylik yoki g‘oyaviylik tushunchalarini xayolga ham keltirgan emas. Ammo ularning hayoti va ijodiyotiga doir tadqiqotlar bilan tanishilsa, sinfiylik aqidasini har biri o‘zicha oldindan payqab qalam tebratganday taassurot uyg‘onadi. Markazida Alloh va Payg‘ambar turgan adabiyotda inson va insoniyatga tegishli deyarli barcha g‘oya yoki masalalar bevosita yo bilvosita tarzda ana shu zotlar bilan aloqadorlikda hal etiladiki, buning tafakkur, ta’lim-tarbiyaga ta’siri ham o‘zgacha bo‘ladi. Mumtoz asarlarni o‘qishdan tug‘iladigan ma‘rufiy rag‘bat va irfoniy zavq nima uchun vaqt o‘tgan sayin susayib, so‘nib borgan? Chunki ularning zamirida yashiringan

mohiyat bilan, olimlar tomonidan ilgari surilgan mazmun bir-biridan keskin farqlangan. Adabiy matndagi tuyg‘u, kayfiyat, holat, ruh ohangi qayta jonlantirilmasa, she’rxonni na sharh, na talqin chuqur qiziqtirmaydi. Sarbon tuyg‘u, bosh maqsaddan yiroqlashtiruvchi tahlillarning-ku foydasi ham bo‘lmaydi.

Insonni o‘ziga tanitish, o‘zlik dunyosini obrazli shakllarda suvratlantirish badiiy ijodning bиринчи vazifalaridandir. Zero, “men” uning mavjudligini ta’minlaydi. “Men” shaxsning o‘zgalarga o‘xshamaydigan xususiyatlarini aks ettiradi. Unda bandaning kuchli va kuchsiz, xususiy va umumiy tomonlari ochiladi.

Sharq madaniyati va ma’rifati tarixida “O‘z”, “O‘zlik”, “Men”, “Menlik” tavsifi ikkiga ajratilgan. Birinchisi, bashariy, ikkinchisi, ma’naviy menlik. Bashariy menlik insonning tabiiy, ya’ni tug‘ma xususiyatlari, nafsoniy mayllari asosida shakllangani bois tasavvuf va malomat ahli uni tubdan isloh qilish, hayvoniy, shaytoniy hirslardan forig‘, sayqallangan bir “men”ni shakllantirish g‘oyasini ilgari surishgan. Va bunga ma’naviy – ikkinchi tug‘ilish deyilgan. Bu tug‘ilish asosan sayri suluk jarayonida komil bir pir yoki murshidning ta’lim-tarbiyasi orqali yuzaga kelgan. Yunus Emroning “Bir men bordir menda, mendan ichkari”, degan e’tirofi ana shu menga tegishlidir. Tasavvuf va tariqatda nafsni tanish, nafsga qarshi murosasiz kurashish tajribasi insonning o‘zi, ichki tasavvurlari haqidagi fikrlarini o‘zgartirib yuborgan.

“Inson o‘zining ichki olamini bilishdan, – deydi turk faylasufi Nuriddin To‘pchi, – mohiyatan o‘zi bilan yuzlashishdan qo‘rqadi. Shuning uchun u hayotining bir bosqichida oldingilariga o‘xshamaydigan bir tarzda o‘zidan qochadi” [Топчи, 2011: 75]. Vaholanki, inson o‘zining kimligini bilish, menligini to‘g‘ri mushohada etmog‘i uchun qo‘rqish, chekinish, ikkilanish tuyg‘ularidan g‘olib kelishga urinmog‘i kerak.

Mashhur psixolog G.Gurjiyevga ko‘ra: “Inson o‘zini qachon anglay boshlasa, u o‘zida o‘zi qo‘rqadigan dahshatlarni ko‘radi... Odam shunday qo‘rqish holiga yetmas ekan, o‘zi haqida hech nimani bilmaydi” [Гуржиев, 1993: 180]. So‘fiy, darvesh, tariqatchilar esa inson botinidagi salbiy quvvat va noqisliklarni murosasizlik bilan o‘rganib ma’naviy valodat – yangi ma’naviy menlik ta’limotini

yaratganlar. Ularning ishonchi bo'yicha, Iso alayhissalom "Ikki karra tug'ilman malakut (poklik, erkinlik, ilohiylik) samosiga yuksalolmaydi", – degan ekan. Shu fikrga tayanib so'fiy va mutasavviflar ikki valodat, ya'ni insonning jismoniy va ma'naviy tug'ilishidan so'z yuritishgan. Bu tug'ilish va ulg'ayishga esa badanni bilish (Navoiy buni "O'z vujudingg'a tafakkur aylagil", – deya urg'ulagan), nafsn ni tanish, axloqni quvvatlantirish, qalb va ruhni soflashtirish bilan erishilgan.

Vujud, nafs, axloq, qalb va ruh ilmi o'zlikni tanish, odamiylik mohiyatini keng kashf aylashga ravnaq bergenidek, tasavvuf va tasavvuf adabiyotining rivojini ham ta'minlagan. Adabiyot, ayniqsa, nafsshunoslikdan yiroqlashib, ruhoniyat olamiga qiziqishi susaygandan keyin XX asrga kelib, odamshunoslikning badiiy ijoddagi nufuzi va ta'siri keskin pasaygan. Nafs nima, ruh va go'zallik nimaligini farqlashga zaruriyat aytarli qolmagan. Navoiy yangi "menlik" tushunchasini ko'pincha uchta so'zda hal qiladi. Bular: nafs, o'zlik va fano. Bashariy "menlik" talablariga chek qo'yishni shoir bitta ruboiyda ham talqin qilib bergan.

*Nafs amrida har nechaki tolping 'aysen,  
Ko 'p garchi butunluq tilasang sing 'aysen,  
Kom istayu necha elg'a yoling 'aysen,  
Nafsingg'a xilof aylakim ting 'aysen.*

Inson butunlik tilashi, o'zini butun shaxs qiyofasida ko'rishi mumkin. Lekin xotiri nafs va xotiri shayton gumashtasi bo'lar ekan, u sinish, tama' va hirs tegirmonida ezilishdan o'zini qutqarolmaydi. Mashhur arab tasavvufshunosi A.A.Afifiy yozadi: "Ihvoni safo" tashkilotining namoyandalariga ko'ra, "men" va "sen" deb ifodalananadigan narsa har birimizning nafs deb ataganimiz mavjudlikdir. Xoh amaliy, xoh nazariy bo'lsin, nafsnинг mavjudligiga ma'rifatdan boshqa dalil yo'qdir" [Афиғий, 359]. Tariqatga mansub orif zotlar esa "men"ninng "sen"dan ajralishini, ajralganda ham olamshumul ma'no kasb etishini asoslab berishgan. Darvoqe, menlikni bilish, uni o'zgartirish uchun nega, asosan, ma'rifatga suyaniladi. Chunki ma'rifat – qalb mushohadasi va zavqidan tug'iladigan botiniy ilmdir. Ma'rifatda ko'ngilnnig ruhoniy kuch-quvvati, pokizaligi va imtiyozlari aksini topgan.

Ilk so‘fiylarda fano so‘zi menlik shuurni tark aylash va “men”ning ayrim sifati hamda xususiyatlariga barham berish mazmunida ishlataligancha. Keyinchalik esa nafsdan fone bo‘lish, Alloh visoliga vosil bo‘lishning asosiy sharti sanalgan. Qit’alaridan birida Navoiy yozadi.

*Kimki o‘zluk imoratin buzdi,  
Bo‘ldi naqdi fano muzdi.  
Ul imoratni buzmayin solik,  
Bo‘la olmas bu naqdg‘a molik.*

“O‘zluk imoratin” buzib, naqdi fanoni qo‘lga kiritish bashariy sifatlardan forig‘ qudratli yangi bir ma’naviy “men”ga sohib bo‘lishdir. “O‘zluk imorati”, albatta, nafs. Undan qutulish iztirobi tasavvuf adabiyotidagi asosiy iztirobdir. Mashhur sharqshunos R.Nikolsonning yozishicha, “so‘fiy shoir nafsindan xalos bo‘lmoq uchun sharob ich, deganda ilohiy tomosha og‘ushida moddiy borlig‘ingni tark qil, deyishni istagan” [Nicholson, 1914: 28]. Tasavvuf va tasavvuf adabiyotining, deyarli, barcha vakillarining nuqtai nazarida bashariy “men” va menlikning o‘rni, maqomi past, ikkinchisi – ma’naviy “men”niki juda yuqori hisoblangan. Chunki dastlabkisi bashariy, ya’ni jismoniy, moddiy, zohiriyligi, hissiy, hayvoniy va nafsoniy o‘zlikdir. Ikkinchisi esa ma’naviy, ruhoniy, g‘aybiy, malakiy sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Tasavvuf shu ikki “men”dan ustunlikka erishganini namuna va ibrat etib ko‘rsatgan. Va solik neki axtarsa, fanodan topishiga vakolat bergen. Fano aslida yo‘qni bor, borni esa yo‘q, deb bilishdir. Mavjudlik, ya’ni dunyo adam – yo‘qlikdan yaralgan va yana yo‘qlikka qaytajak. Shuning uchun inson, eng avvalo, erishishida yo‘qotish, yo‘qotishda erishuv borligini anglashi zarur. Ana shunda u nimagadir bog‘lanib, ma’nan to‘xtab qolmaganidek, xom va o‘tkinchi maqsad, nafsoniy manfaat va iddaolar tuzog‘iga tushib, umrini g‘aflatda o‘tkazmaydi. “Boyazid Bistomiying oliy maqsadi, – deydi Sulaymon Ulutog‘, – bir “men” va “menlik”dan kechib, ta’sir, manfaat, tahlikaga berilmaydigan mutlaqo erkin bir o‘zlikni yaratishdir” [Улутов, 153]. Xullas, eran, faqir va darveshlar hur, faol, mustaqil “men”ni kamolga etkazishga shunchalik diqqat qilishganki, ular nafs ta’siridan xalos bo‘limguncha, so‘zlash yoki yozishdan ko‘ra, sukul saqlashni afzal bilib, bunga

qat’iy rioya qilishgan. Ularning fikr-qarashlari bo‘yicha, “So‘z aqlni sarkush qiluvchi sharobga o‘xshaydi. Bu sharobni ichishga mubtalo bo‘lgan kimsa hech qachon undan voz kecholmaydi. So‘zning ofati tasavvuf ahliga ayon bo‘lganligi bois chindan zaruriyat sezilmaguncha, ular hech gapirmaydilar. Va so‘zning avvaliga ham, oxiriga ham, nihoyatda, diqqat bilan qaraydilar” [Хужвирий, 503]. So‘zga, fikrga bunday daqiq munosabat bugun ertakka o‘xshaydi. Iste’dodning birinchi belgisi so‘zni teran his qilish, ma’nida unga yangi hayot bag‘ishlashdir. Nafsiga tobe shoir, adib, olim hech vaqt bunday ishni amalga oshirolmaydi.

So‘fiy va mutasavviflar dunyoqarashning yana bir jihatiga to‘xtalish zarurga o‘xshaydi. Odam qavmi necha asrlar davomida yaxshilik, ezzulik, himmat, mehr-muhabbat, fidoyilik to‘g‘risida gapirib boshqalarni shu xislat va fazilatlarni egallashga chorlagan. lekin vaqt o‘tgan sayin so‘z bilan amal, maqsad bilan ish orasida uzilish ortib borgan. Yolg‘on, aldov, riyo, safsata javrini tortgan kishilarning so‘z va gapdan hafsalasi pir bo‘lgan. Shunda ahli tasavvuf targ‘ib yo tashviq yo‘li bilan yaxshilik va xayrni ko‘paytirish uchun emas, balki qalb va xotirni dunyoviy qayg‘u, moddiy hirslardan tozalab, axloqlarini tarbiyalash, ko‘ngildan g‘aflatni quvish uchun qat’iyat va aziyat chekishgan [Кушайрий, 198].

Navoiy olam ahli deganda molparast, dunyosevar, vaziyat va sharoitga qarab qiyofasini o‘zgartirishdan toliqmaydigan kazzob, yulg‘ich va ashaddiy tovlamachi kimsalarni ham nazarda tutib, hamisha ulardan chetlashishni targ‘ibu tashviq qilgan. Ulug‘ mutafakkir shoir bir g‘azalida:

*Fard bo‘lkim ul kishi dunyoda bo‘lmish ahli tark,*

*Kim fano yo ‘lida tarki ahli dunyo aylamish,—*

desa, boshqa birida:

*Ey Navoiy, qilsang erdi ofiyat kunjin vatan,*

*Muncha munslug‘ jonigg‘a ozor bo‘lg‘aymu edi, — deydi.*

Bugungi ahli dunyo, ahli davlat, ahli g‘aflat oldingilariga qaraganda o‘zgarib, boshqacha bo‘lib qolganmi? Mana bu orzuga e’tibor bering:

*Muhandise topayu egnima qanot yasatay,*

*Uchub havosida qushlar aro o‘zumni qotay.*

Kimda-kim bu tuyg‘u moziyda qolib ketgan, bunday firor – qochish hech kimni ilhomlantirmaydi desa, demak, bashariy menligidan qutulish uchun shoir qanchalik ranj va iztirob chekkanini xayoliga ham yaqinlatolmaydi.

Javonmardlik, so‘fiylik, rindlik, malomatiylik maslagi Sharq xalqlarining o‘zini tanish va yangi ruhoniy “men”ni yaratish orzusini ruyobga chiqarishda zo‘r ta’sir o‘tkazgan. Ammo ushbu ta’limotlarni birlashtirgan ruhiy qudrat va imkoniyat fano va fanovashlik holi edi. Buni har jihatdan xolis o‘rganmay, bilmay mumtoz shoirlarning, xususan, Alisher Navoiyning “men” va “menlik” tushunchasini haqqoniy yoritib bermasligi aniq.

Bundan-da foydalisi esa fano suvrati odam, siyrati hayvon, zohiran farishta, botinan shayton, ko‘rinishda do‘sst, pinhona ashaddiy g‘anim kimsalarning asl qiyofasini tanish va xayolga ham kelmas makru hiylalariga aldanmaslikka yaqindan yordam beradi.

Pokistonning buyuk mutafakkir shoiri Muhammad Iqbol “Dunyo foni, “men” boqiy. Menlikdan o‘zga hech nimaning baqosi yo‘q. Menlik haqiqatiga etishtirmoq uchun siyratingga yashirin...”, deydi. Shu ma’noda ham Navoiy ijodiyotini o‘qib-o‘rganish ilhombaxsh, qaytarilmas darsxonadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Афифий А. Ислом тушунчасига доир мақолалар.
2. Гуржиев Г. Вестник грядущего добр. Петербург: 1993.
3. Nicholson R. The Mystics of Islam. 1914.
4. Тўпчи Н. Мавжудлик. Истанбул: 2011.
5. Кушайрий А. Рисолаи Кушайрий.

# DİDAKTİK EDEBİYATIN ŞAHESERİ

## MASTERPIECE OF DİDACTİC LİTERATURE

Ramiz ASKER  
Baku Devlet Üniversitesi  
(Azerbaycan)

### Özet

Büyük Özbek düşünürü Alişer Nevayi'nin 'Mahbub ul-kulub' eseri dünya edebiyatında felsefi ve ahlaki didaktik konulu eserler arasında özel bir ere sahiptir. Makalede orta çağlarda Arap, İran, Hind edebiyatında yaygın olan bu edebi tür üzerine bilgi verilmiş, Batı saraylarında kaleme alınmış siyasetnamelarından bahsedilmiştir. Bu bağlamda 'Mahbub ul-kulub' eseri türün diğer örnekleriyle karşılaştırmış, kendine has özelliklerini, kişiye ve topluma yönelik mesajları mercek altına almıştır.

**Anahtar kelimeler:** Alisher Nevayi, Mahbub ul-kulub, didaktik tür, konu ve mesajlar.

### Annotation

The great Uzbek thinker Alisher Nevayi's work "Mahbub ul-kulub" has a special place in the world literature among the works of philosophical and moral didactic themes. The article provides information on this type of literature, which was widespread in Arab, Iranian, and Indian literature in the Middle Ages, and discusses the political names written in Western palaces. In this context, the work 'Mahbub ul-kulub' is compared with other examples of the genre, and its peculiarities, messages to the individual and the community are underlined.

**Key words:** Alisher Nevayi, Mahbub ul-kulub, didactic type, topic and messages.

'Mahbub ul-kulub' ulu şair ve düşünür Alişer Nevayi'nin felsefi ve ahlaki-didaktik eserleri ('Minacat', 'Çehel hadis', 'Nazm ül-cevahir', 'Lisan üt-teyr', 'Sirac ül-müslimin') arasında özel bir ere

sahiptir. Nevayı bu eserini ömrünün sonuna yakın, 1500'de kaleme almıştır. Özbek nesrinin en parlak örneklerinden olan ‘Mahbub ul-kulub’ Nevayı’nın bedii tefekkürüün hülasası, hayatı gözlemlerinin ekunu olup, onun derin felsefi görüşlerini yansıtmaktadır. Nevayı bu türde yazılmış eserlerin en güzel geleneklerini yaratıcılıkla geliştirmiş, döneminin toplumsal-politik sorunlarını dile getirmiştir [1].

Ahlaki-didaktik eserler edebiyatda, özellikle de Doğu edebiyatında çox populer olmuştur. Mesela, Sasaniler döneminde kaleme alınmış ‘Andzarname, yahut Pendname’, ‘Tansarın mektubu’ ve ‘Büzürcmehr risalesi’ bunların ilk örneklerindendir. Aslı Hindistan’dı sanskritçe yazılmış ünlü ‘Pançatantra’ (‘Beş kitabı’), orijinali gene sanskritçe olup çeşitli dillere, o sıradan ana dilimize ‘Kelile ve Dimne’ adı ile çevrilmiş ‘Karataka Damanaka’ da bu kabildendir [2]. Didaktik eserler Araplarda da çok rağbet görmüştür. Bunların en meşhurları ‘Kitab ül-edeb ül-kebir’, ‘Üyun ül-ahbar’ adlı eserlerdir. Orta asrlarda bazı hükümdarlar, vezirler ve mutasavvıflar da bu türde kitaplar yazmışlar. Mesela, Abdullah Ensari’nin ‘Nesayih’ ve ‘Minacatname’ risaleleri, Selçuklu devletinin ünlü veziri Nizam-ül-mülk’ün ‘Siyasetname’si [3], tanınmış İtalyan mütefakkiri ve alimi Nikkolo Makiavelli’nin ‘Hükümdar’ traktatı [4], Çin yazarı ve siyaset adamı Sun Tszu’nun ‘Savaş sanatı’ kitabı bunlardan bir kaçıdır. Ünlü mutasavvıf Nasır Hüsrev’in ‘Saadetname’ eseri, Teberistan-Kuhistan hakimi Keykavus ibn İskender ibn Kabus ibn Veşmgir’in kaleminden çıkan ‘Kabusname’ [5] kitabı didaktika türünün en değerli örneklerindendir. Sadi Şirazi’nin ‘Gülüstan’ ve ‘Bustan’ adlı iki kitabı asırlar boyu okullarda okutulmuştur [6]. Nihayet, türk edebiyatında ilk manzume yazarı Yusuf Xas Hacib Balasagunlu’nun ünlü ‘Kutadgu Bilig’ [7] eseri ve Uygurların ‘Altın Yaruk’ eseri bu türé damgasını vurmuştur. Şark’da yazılan hamseler, özellikle de onların ilk destanları derin didaktik seciye taşımıştır. Burada ilk sırada Nizami’nin ‘Sırlar Hazinesi’ ve Nevayı’nın ‘Hayret ül-ebrar’ı dikkatimizi çeker.

Büyük Azerbaycan alimi ve düşünürü Nasreddin Tusi’nin ünlü ‘Ahlak-i Nasiri’ eseri ise Yakın ve Orta Doğu’daki ahlaki-felsefi fikirlerin sunucu olarak ortaya çıkmıştır. Uzmanların fikrine son edi asırda bu düzeyde ikinci özgün eser yaranmamış, ona yazılan nazireler (‘Ahlaki-Celali’, ‘Ahlaki-Muhsini’, ‘Ahlaki-Mansuri’, ‘Ah-

laki-Cemali' vs.) halk arasında eterli derecede yaygın olamamıştır. 13-14. asırlar Azerbaycan edebiyatının ünlü kalemi Evhededdin Maragayı de didaktik janrıñ bir sıra güzel örneklerini ['Dehname' ('Mantık ül-üşşak') ve 'Cam-i cem']) yaratmıştır. İstisnasız olarak bütün şairlerimizin, özellikle maarifci yazarlarımızın eserleri genç nesle ibretli nasihat, ögüt ve tavsiyelerle doludur [8].

Avropa'da da bir hayli ahlaki-didaktik eser kaleme alınmıştır. Bunlar Doğuya nazaran asırlarca sonra, esasen de Aydınlanma çağında meydana çıkmıştır. İngilizlerde 'Mirror of princes', Fransızlarda 'Miroire des princes', Almanlarda ise 'Fürstenspiegel' (her üçü 'Şehzadeler için ayine' demektir) adlanan bu eserler monarşik saraylarda şezhadeleri dövlet hizmetine hazırlamak gayesi taşımıştır. Slavlarda ve Ruslarda da buna benzer eserler yazılmıştır. Bunlara misal olarak 'Zlatastruy' (Altın Şua'), 'Zlataust' ('Kızıl Söz', yahut 'Tuti-Zeban' ve ya 'Tatlı Dil') ve 'Domostroy' ('Ev Düzeni') gibi eserleri gösterebiliriz. Bunlar siyaset ve maişet konulu ayinelerdir [9].

Şimdi karşımıza böyle bir soru çıkıyor: Nevayı 1483'te kaleme aldığı 'Hayret ül-ebrar' gibi didaktik bir eserden sonra neden 'Mahbub ul-kulub'u yazmaya ihtiyaç duymuştur? Birincisi, bu iki eser arasında 17 yıllık zaman farkı vardır. Bu süre zarfında Nevayı'nın hayatında mühüm olaylar vuku bulmuş, şair, hamse müellifi gibi büyük ün kazanmış, defalarca ihanet ve facialarla yüzleşmiş, sevinç ve ızdıraplar yaşamış, insan karakterinin çeşitli yönleriyle karşılaşmış, bunların da bedii edebiyata yansımاسını istemiştir. Nevayı bu konuda böyle yazmıştır: men, "el-fakir ül-hakir Alişer el-mulakkab bin Nevayı", muhtelif erlerde bulundum, türlü kişiler gördüm, iyi ve kötü insanların davranışlarını öğrendim... Sonunda başka adamlar ve dostlar bunlardan haberdar olsunlar diye şu kitabı yazdım. İnsan "kalbinin temayülünü dikkate alarak eserimi "Kalblerin sevgilisi" (mahbubu) adlandırdım..."

İkincisi, dostu ve meslektaşı Abdurahman Caminin didaktik 'Baharistan' eserinin etkisi altında kendi felsefi düşüncelerini yazmak ihtiyacı hissetmiştir. Nevayı'nın iki felsefi-didaktik eserini mukayese ederken aşağıdaki farkları görüyoruz. 'Hayret ül-ebrar' hacimce daha büyük olsa da, 'Mahbub ul-kulub' konu bakımından daha elvan ve çeşitlidir. 'Hayret ül-ebrar' bismillah, tevhid, 4 münacat, 5 nat,

Nizami Gencevi ve Hüsrev Dehlevi'ye dair, Molla Abduraehman Cami ve 'Hayret ül-ebrar'ın yazılışı hakkında, söz ve onun manası hakkında, Sultan Hüseyin Baykara hakkında, gönül hakkında, üç hayret, Hace Bahaeeddin Nakşbend hakkında, tasavvufi haletlere dair, padışah ve hizmetçinin hikayesi ve 'Hayret ül-ebrar'ın adı ve yazılma tarihi hakkında olan bablar dışında genelde 20 makale ve onlarla ilgili 20 hikayeden ibarettir. Bu makaleler aşağıdaki konuları ihtiva eder: 1) imanın şerhi, 2) islamın şerhi, 3) sultanlar ve yönetme, 4) riyakar din adamları, 5) cömertlik ve cimrilik, 6) edeb, haya, terbiye ve tevazö, 7) kanaat, 8) vefa, 9) aşk ateşi, 10) doğruluk, 11) ilm ve cehalet, 12) kalemden istifade, 13) başkalarına yardım etmek, 14) dünyanın vefasızlığı, 15) içkiye müptela olan cahiller, 16) mertler ve namertler, 17) ömrün baharı ve hazanı, 18) dünya malina özen göstermemek, daim güleryüz olmak, başkasının malina ve namusuna göz dikmemek, 19) Horasan'ın güzellikleri ve Hera'tın abathığı, 20) Sultan Bediüzzaman'a kaside ve nasihatlar [10].

'Mahbub ul-kulub' üç hisseden ibarettir. "Halayik ehval ve ef'al ve ekvalinin keyfiyeti" adlı ilk hissede 40 fasıl, "Hemide ef'al ve zemime hisal hasiyetinde" 10 fasıl, "Müteferrika fevayid ve emsal sureti" adlı üçüncü hisse ise 127 tenbihten ibarettir. Sonuç olarak bu eserde toplam 177 konu, epizod ve makale işlenmiştir ki, bu da 'Hayret ül-ebrar'dakinden defalarca fazladır [11].

Detaylara gelince, müellif 'Mahbub ul-kulub'da adil sultanlar, islampenah beyler, namünasib naibler, zalim, cahil ve fasiq padışahlar, vezirler, nakabil sadrlar, esavul guruhi, şeyx ül-islam, kadılar, müderrisler, hekimler, şairler, katipler, hafızlar, imamlar, müträbler, muganniler, nasihat ehli ve vaizler, müneccimler, tacirler, dehkanlar, etim ve leimler, kuşcu ve seyyadlar, dervişler ve başqa sınıf, zümre ve kategoriye mensup insanlar (bunların büyük kısmı dövletin üst düzey memurlarıdır) hakkında fikir beyan etmiştir.

Alişer Nevayı insanın manevi alemine nüfuz ederek tövbe, zöhd, tevekkül, kanaat, sabır, tevazö ve edeb, zikir, teveccüh, riza ve aşk hakkında fikirlerini dile getirmiştir.

Büyük muallim ve mürebbi olan Nevayı ayrıca Allahın sıfatları, cömertlik ve himmet, kerem ve fütüvvet, vefa, haya ve hilm, şaha özgü hisletler, zulüm ve sabır, muteber ve muhteser söz, cahillik, şükür

ve özür, doğru ve yalan söz, yahşı ve yaman, pişmanlıq, hikmet ve akıl, nefş, nadanlık ve heyvanlık, ta'zim ve edeb, hata, ihsan, ilim ve alım, şeytan, akıl insan, mey, vefa ve cefa, şükür, fikir ve ümid kimi kavramlar hakkında da orijinal felsefi fikirler yürütmüştür. Nevayı kaleme aldığı fikirlerin, verdiyi nasihat, tavsiye ve öğretlerin okurlar tarafındanraigbetle karşılaşacağına inandığını bildirmiştir: “Ümid ol kim, okuyanlar dikkat ve itibar gözü ile nazar salsınlar ve her kes öz fehmü idraklarına göre behre alsinlar, yazana hem bir dua ile behre etirsinler ve ruhunu ol dua fütuhu ile sevindirsinler” [12].

‘Mahbub ul-kulub’ eserindeki mikyas, enginlik ve zenginlik yalnız ‘Kutadgu Bilig’ ile mukayese edilebilir. ‘Kutadgu Bilig’in ele aldığı konular daha genişir. Burada vezir, serkerde, hacip, kapıcıbaşı, elçi, katib, hazinedar, aşpaz, sakibaşı, hizmetçi, kara budun, alım, tabip, efsuncu, rüya yorumcusu, müneccim, şair, ekinçi, satıcı, hayvancı, sanatkar vb. sosyal tabakalara mensup adamların özellikleri, onlara nasıl davranmak zarureti vurgulanmıştır. Ek olarak, cemiyet hayatına dair bazı meselelerin gündeme getirilmesi de (evlenme, çocuk terbiyesi, hizmetçilerle ilişkiler, ziyafet kuralları vs.) özel önem kesediyor. Bu iki eserin karşılıklı tahlili, benzerlikleri ve farklılıklarını ayrıca bir araştırma konusudur [13]. Geleneğe göre, ‘Mahbub ul-kulub’ Allaha hamd ile başlıyor. Muhammed peygamberin (s.e.s.) medhi ise nat kısmında veriliyor. Daha sonra Nevayı kendi hayatı, karşılaştığı zorluklar hakkında bilgi vererek, eserin gayesini ve mündericesini açıklıyor.

‘Mahbub ul-kulub’ da müellifin hakim dairelere, özellikle de sultanlara, zalim ve cahil padişahlara, kabiliyetsiz naiblere, cahil vezirlere ve beylere karşı münasibeti dikkate şayandır. Ulu şair onları iyi ve kötü, adil ve cahil diye iki guruba ayırıyor, “Adil padişah güzgündür ve cahil onun tersidir. Ol yaruk subh, bu onun karanlık gecesidir” diye yazıyor. Adaletsiz şahin zulmünden abatların viraneye, kebutter yuvalarının baykuş için aşiyane çevirdiğini, şah zalim ve ayyaşsa, saray erkanının, özellikle vezirin şaha benzediğini dile getiriyor: “Bu yaman padişah ki, olsun veziri hem yaman, nice ki, fir’on yanında Haman”.

Saray çevresine yakın olan üst düzey yöneticiler, din adamları, o cumleden şeyxüislam, müfti, kadı, imam, müezzin, hafız, müneccim, tabip ve başkalarının karakterindeki müsbet ve menfi ci-

hetler teker teker tesbit ediliyor, ikiyüzlülük ve rüşvethorluk hulusile sert tenkit ediliyor.

Nevayi ilme, tahsile, medeniyete ve edebiyata büyük önem vermiş, alimlerin, müderrislerin, katiplerin, mektep ehlinin, naseh ve vaizlerin emeğine yüksek değer biçmiş, özellikle şairlerin (Nevayi onları “nazım gülüstanının hoşnağme kuşları” adlandırmıştır) cemiyet hayatında oynadıkları rolü en ulvi duygularla vasfetmiştir [14].

Nevayi'nin dikkat ettiği başka bir qurub çarşı pazar ve ticaret ehlidir ki, bunlar biri yüz yapmak istiyor, alanda ketana bez diyor, satanda bez vasfinde ketandan artık yüz söz diyor, şalı keşmir erine satıyorlar. Onların dükkânında her türlü meta' mevcuttur, insafdan başka. Burada dilenci ve gedalar, seyyar hünermendler, etim ve leimler, garip ve biçareler, kuşcu ve avcılar, nankör nökerler ve dervişler hakkında esasen menfi görüşlerini bildiren Nevayi yalnızca dehkanlar hakkında müsbet düşüncede olduğunu gösteriyor. Kendi döneminin en aktUEL manevi, toplumsal ve sosyo-ekonomik sorunlarını dile getiren Nevayi bunları felsefi bir sepkide, amma didaktik bir tarzda işlemiş, neticeleri bir şiir ve ya hikaye takdim etmekle genelleştirmiştir. Şairin dedikleri yalnız bu şekilde tavsiye, öğüt ve nasihat anlamı kazanmıştır .

Alişer Nevayi kitabını se'cli (kafiyeli) nesirle kaleme almış, eri geldikçe mazmuna uygun olarak onu güzel şiir parçaları (rûbai, mesnevi, kit'a, nazm, beyt) ile bezemiştir. Kitabda illüstrasiya olarak toplam 165 şiir, o cumleden 19 rûbai, 29 kit'a, 6 nazm, 22 mesnevi, 89 beyt işlenmiştir. Eserdeki nesir ve nazm hisseleri dahi Nevayi'ye özgü olan yüksek sanatkarlıkla yazılmıştır. Metinde mazmuna uygun olarak 12 ibretamız hikaye verilmiştir [15].

Eserin dili çok ağıdalıdır, burada nesrin se'cli olması, kafiye icabı çetin ifade ve ibarelerin kullanılması, Kur'anı kerimden alıntılar onun dilini zorlaştırmıyor. İşte bunlara göre, aynen Füzuli'nin dili gibi Nevayinin dili de sıradan okurlar için çetin ve anlaşılmazdır.

Çıkış yolu olarak eserin çağas Özbekçeye tebdili neşr edilmiştir [16]. Bu durumda ise eserin orijinalliği, o cumleden nesr kısmındaki kafiye sistemi tümüyle yitmiştir. Uygunlaştırma zamanı bizim karşımızda da iki yol vardı: orijinale sadık kalmak, yahut metni sa-deleştirmek. Biz birinci yolu seçdik ve kitabın sonuna geniş lugat

ekledik. Neticede, kitab bir hayli çetin, hatta usandırıcı alındı. Ne-vayı babamızın ruhu bizi bağışlasın! Biricik tesellimiz o ki öğüt ve nasihat seven okurlarımız ulu şairin ruhuna rahmet okuyacaklar.

### Literatür:

1. Боровков А.К. Алишер Навои / Советское востоковедение. I, М.-Л., 1940, изд.-во АН СССР. – С. 110-111.
2. Kəlilə və Dimnə. Bakı, Öndər nəşriyyatı, 2004, 304 s. Farscadan tərc. edəni, şərhlərin və izahların müəllifi Rəhim Sultanov.
3. Əbu Əli Həsən ibn Əli Xacə Nizamülmülk. Siyasətnamə. Bakı, Çıraq, 2007, 273 s. Farscadan tərc. edəni Rəhim Sultanov.
4. Nikkolo Makiavelli. Hökmədar. Bakı, Bakı Kitab Klubu, 2018, 150 s. Tərc. edəni Fikrət Təbibi.
5. Keykavus. Qabusnamə. Bakı, Şərq-Qərb, 2006, 216 s. Farscadan tərc. edəni Rəhim Sultanov.
6. Sə'di Şirazi. Seçilmiş əsərləri. Bakı, Öndər, 2004, 400 s. Farscadan tərc. edəni M.Seyidzadə, M.Soltan, R.Sultanov, İ.Şəms. Ön sözün müəllifi M.Məmmədli.
7. Yusif Balasağunlu. Qutadğu Bilig. Bakı, Azərnəşr, 1994, 492 s.
8. Ramiz Əskər. Özbək ədəbiyyatı tədqiqatları. Bakı, Füyuzat nəşriyyatı, 2020, 192 s.
9. Yenə orada.
10. Алишер Навоий. Возлюбленный сердце. Ташкент, 1983, изд.-во лит. и искусство, 111 с.
11. Ramiz Əskər. Ulu bilgə // Özbək ədəbiyyatı tədqiqatları. Bakı, Füyuzat nəşriyyatı, 2020, s.94-98.
12. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. Ж.9. – Т., 2011.
13. Ramiz Əskər. Qutadğu Bilig. Bakı, Elm, 2003, s. 4-5.
14. Ҳусанхўжаев И. Алишер Навоий таълим-тарбия ҳакида. Тошкент: Ўрта ва Олий мактаб нашриёти, 1963. – Б. 49.
15. Ҳайитов Ш. Алишер Навоий “Махбуб ул-қулуб” асарининг манбалари ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. Филол. фан. номз. дис. ... автореферати. Тошкент: 1997. – Б. 9.
16. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Т.: Сано-стандарт, 2008.

**OLTI DEVON MUQOYASASI**  
**(«Badoyi’ ul-bidoya”ning yangi topilgan Tehron nusxasi  
asosida)**

**COMPARISON SIX DIVANS**  
**(From Badoyi ul-Bidaya based on a newly found copy of  
Tehran)**

**Muhammadjon IMOMNAZAROV**  
*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*  
*(O’zbekiston)*

*Annotatsiya*

*Mazkur maqolada Navoiyning olti devoni tarkibidagi g’azallar miqdori qiyoslangan. G’azallarning yozilish sanasiga aniqlik kiritilgan. Dunyo kutubxonalaridagi qo’lyozmalar asosida tahlil qilingan.*

*Kalit so‘zlar:* devon, tasnif, qo’lyozma, matn, g’azal.

*Annotation*

*This article compares the number of gazelles in Navoi’s six divans. The dates when the poems were written have been specified. They were analyzed based on the manuscripts kept in libraries around the world.*

**Key words:** devan, classification, manuscript, text, ghazal.

1961-yili zahmatkash matnshunos Hamid Sulaymon ulug‘ bir ishni nihoyasiga yetkazdi – Alisher Navoiy lirik merosining ilk matnshunoslik tadqiqini amalga oshirdi. Ishning samarasi sifatida “Xazoyin ul-maoniy” tarkibiga kirgan 4 devon 1959-1960-yillari kirill alifbosida to‘liq nashr etildi. Keyinchalik 15 jildlik tarkibida “Devoni Foni” ham bosilib chiqди. Hamid Sulaymon tadqiqotining eng katta yutug‘i va yangiligi, bizning nazarimizda, Alisher Navoiy lirik merosining davrlashtirilishi edi.

Professor Hamid Sulaymon o‘z tadqiqotida “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi devonlarga she’rlarning taqsimlanishi bu

she'rlar yaratilish davrining haqiqiy xronologiyasi emasligini manbalar asosida aniqlab, Alisher Navoiyning o‘z qo‘li bilan tuzilgan ilk devonlari – “*Badoyi’ ul-bidoya*” va “*Navodir un-nihoya*”ning muallif hayotligida ko‘chirilgan turli nusxalaridagi barcha she’rlarning janrlar bo‘yicha aniq hisobini jadval tarzida keltirib, keyingi qiyosiy tadqiqotlarga keng yo‘l ochdi. Matnshunos olim keyinroq Sankt-Peterburgda Saltikov-Shedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida saqlanuvchi “*Ilk devon*”ning faksimil nusxasini nashr ettirdi. Keyinchalik ustozning izidan taniqli adabiyotshunoslarmiz Y.Is’hoqov va Dilorom Salohiylar shu yo‘nalishda o‘z tadqiqotlarini yaratdilar.

Hamid Sulaymon o‘z tadqiqotida “*Badoyi’ ul-bidoya*” devonining shoir hayot paytida shakllantirilgan 4 nusxasi – 1) 1480-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma (Parij nusxasi, Milliy kutubxona, inv. № 746), 2) 1482-yilga oid qo‘lyozma (London nusxasi, Britaniya muzeyi, inv. № 401, 887-hijriy, 231 varaq), 3) 1484-yilgi qo‘lyozma (Boku nusxasi) va 4) 1486-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma (Toshkent nusxasi) haqida ma’lumot bergan.

So‘nggi yillarda izlanuvchan olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov sa’y-harakatlari bilan ayni shu devonning yana ikki qo‘lyozmasi aniqlandi. Bular shu devonning yangi aniqlangan **Tehron nusxasi** (Eron, Islom sho‘ro majlisi kutubxonasi, 14197-raqamli qo‘lyozma - hijriy 888-yil, safar oyi / melodiy 1483-yil, mart-aprelda ko‘chirilgan) va yana shu devonning **Istanbul nusxasi** bo‘lib, keyingi qo‘lyozma 1485-yilda ko‘chirilganligi aniqlangan [Эркинов, 2018: 51-57; Турдалиев, Эркинов, 2018: 57-62].

Demak, bugun jahon ilmiy jamoatchiligi ixtiyorida shoirning o‘z qo‘li bilan tuzgan birinchi devonining turli yillarda ko‘chirilgan 6 ta qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ulardan 3tasi 1480-1483-yillarda, ya’ni Alisher Navoiy ijodiy takomilining birinchi bosqichida - “Xamsa” dostonlari yozila boshlaguncha oqqa ko‘chirilgan. Bizning qo‘limizda hozircha bu uch devondan biri – 1482-yilda ko‘chirilgan London nusxasi yo‘q. 1480-yilda ko‘chirilgan Parij nusxasi haqida alohida maqolamiz chop etilganligini hisobga olib, endi shoir o‘z dostonlarini yozishga kirishgan 1483-yilda tuzilgan **Tehron**

**qo‘lyozmasi** atrofida so‘z yuritishni boshlaymiz. Bu qo‘lyozmaga oid umumiy ma’lumotlar Aftondil Erkinov maqolasida bor [Эркинов, 2018: 51-57].

“*Badoyi’ ul-bidoya*” devonining shoir hayot paytida shakllantirilgan 6 nusxasida keltirilgan g‘azallar soni barchasi bir-biridan farq qiladi. Eng ko‘pi birinchi ko‘chirilgan Parij nusxasida – 731 g‘azal (Bizning keyingi hisobimizda g‘azal 735ta chiqdi. Yana aniqlash kerak). Keyingi – London nusxasida - Hamid Sulaymon ma’lumotlariga ko‘ra faqat 571 g‘azal keltirilgan, ya’ni bir devonning o‘rtada 2 yillik tafovut bilan ko‘chirilgan nusxalari orasidagi tafovut 160 g‘azalni tashkil etadi. Ammo buning evaziga London nusxasiga 1980-yilgi qo‘lyozmada mavjud bo‘lmagan 3 tarje’band, 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 41 qit’a kiritilgan bo‘lib, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fardlar soni ham sezilarli darajada ko‘paytirilgan. “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij nusxasida mavjud bo‘lib, devonning keyingi nusxalaridan tushib qolgan g‘azallarning aksariyati ikkinchi devon “*Navodir un-nihoya*” tarkibiga kiritilgan. “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning yangi aniqlangan **Tehron nusxasida** biz aniqlashimiz bo‘yicha 618 g‘azal mavjud. Demak, 1 yil o‘rib ko‘chirilgan bu nusxada London nusxasiga nisbatan g‘azallar soni 47 taga ko‘paygan, ammo Parij nusxasiga qaraganda 113 g‘azal kam. Devonning 1484-yilda ko‘chirilgan Boku nusxasida, yana Hamid Sulaymon ma’lumotlariga tayansak, 603 g‘azal, ya’ni Tehron nusxadan biroz (15taga) kamaygan, yangi topilgan Istanbul nusxasi (hijriy 889, milodiy 1484/85-yillar) nuqsonli bo‘lgani tufayli (orada varaqlar tushib qolgan) undagi g‘azallar miqdori haqida aniq xulosa chiqarish qiyin [Турдалиев, Эркинов, 2018: 57-62]. “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning ko‘chirilgan yillariga ko‘ra shoir hayotligida kitobat qilingan oxirgi qo‘lyozmasi - Toshkent nusxasi – 1486-milodiy yiliga (hijriy 891-yil) to‘g‘ri keladi. Undagi g‘azallar soni - 657ta. Devonning turli nusxalaridagi boshqa she’riy janrlar miqdorida ham farqlar mavjud. Bir devonning turli yillarda ko‘chirilgan nusxalari orasidagi bunday o‘zgarishlarni qanday izohlash mumkin.

Parij nusxasiga oid maqolamizda bu nusxada bor, Toshkent nusxasida yo‘q 79 g‘azalning birinchi misralari ro‘yxatini keltirgan edik [Имомназаров, 2018: 16-24]. Shulardan 76tasi keyincha

“*Navodir un-nihoya*” tarkibiga kiritilgan. Yana o’sha maqolada tilga olingen har ikki nusxada ham uchramagan, ammo “*Mukammal asarlar to ‘plami’*”ning 1-jildiga kiritilgan 27 g‘azalning dastlabki misralarini keltirib, ulardan 14 g‘azal “*Navodir un-nihoya*” devoni tarkibida ham uchrashini ta’kidlab o’tgan edik. Demak, ushbu ro‘yxatdagi 13 g‘azal devonning London va Boku nusxalarida uchrashi mumkin.

Olti devon muqoyasasi deganda biz bugun qo‘limizda shu kungacha mavjud bo‘lgan “*Ilk devon*”, “*Oqqiyunli muxlislar devoni*”, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning ilk protodevoni bo‘lmish Parij nusxasi, shoir hayotligida ko‘chirilgan bizga ma’lum oxirgi varianti bo‘lmish Toshkent nusxasi va keyingi devon “*Navodir un-nihoya*”ning Abdujamil kotib ko‘chirgan (“*Mukammal asarlar to ‘plami’*”ning 2-jildi sifatida nashr etilgan) nusxasi bilan yangi topilgan Tehron nusxasining ilk qiyosiy tahlilini nazarda tutmoqchimiz.

Bu qiyosiy tahlildan qanday natijalarga erishish mumkin? Shu kungacha mavzuga oid nashr etilgan maqolalarimizda – “Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligining dolzarb masalalari”, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij nusxasi”, “Uch devon muqoyasasi (Alisher Navoiy she’riyatida lirik janrlar xronologiyasiga doir)”, “XXI asr navoiyshunosligi: metodologiya muammolar” – XXI asr boshlariga kelib shu yo‘nalishda yig‘ilib qolgan muammolar tahlil qilingan va ularning ba’zilariga yechimlar izlangan edi [Имомназаров, 2017: 6-10; 2018: 12-17; 2019: 13-19]. Biz hanuzgacha Hamid Sulaymon birinchi bor qisqacha tavsif qilgan London nusxasi matnini qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lmadik. Tehron nusxasi ayni shu nusxdan keyin ko‘p o‘tmay kitobat qilingan. Unda 1482-yili ko‘chirilgan matnga nisbatan g‘azallar miqdori birmuncha oshgan, ammo baribir 1480-yil nusxasidan sezilarli darajada kam. Yangi topilgan nusxadagi eng asosiy yangilik shundaki, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning bu nusxasi shoir lirik merosining boshqa janrlarini aks ettirishda Parij nusxasidan keskin farq qilib, London, Boku va Toshkent nusxalari bilan to‘la uyg‘un keladi. Bu holat bizning oldingi maxsus maqolamizda 1480-yil nusxasi shoir tomonidan keyincha rad qilingan protodevон ekanligi haqidagi xulosamizni yana bir marta tasdiqlashga xizmat qiladi. Bu - birinchi natija.

Albatta, 1482-yil va undan keyin ko'chirilgan nusxalar orasida ba'zi juz'iy farqlar ham bor. Bular asosan turli lirk janrlardagi she'rlarning miqdoriga oid. Masalan, Hamid Sulaymon jadvallaridagi ma'lumotlarga ko'ra London nusxasida 571 g'azal, 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 3 tarje'band, 41 qit'a, 78 ruboiy, 10 tasi lug'z, 52 muammo, 10 tuyuq, 42 fard mavjud, Boku nusxasida g'azal 603ta, muxammas 5ta, ruboiy 62ta, fard 48taga o'zgargan bo'lib, qolgan janrlar miqdori oldingi nusxadan farq qilmaydi, Toshkent nusxasida 657 g'azal, 83 ruboiy, 50 fard mavjud bo'lib, qolgan janrlar sanog'i London va Boku nusxalari bilan birxil. Tehron nusxasida esa g'azallar soni 618ta, yana 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 3 tarje'band, 49 qit'a, 79 ruboiy, 10 ta lug'z, 53 muammo, 10 tuyuq, 51 fard mavjud. Demak, London nusxasiga nisbatan g'azallar 47taga, qit'a - 8taga, ruboiy 1taga, muammo ham 1taga, fard 9taga ko'paygan, qolgan janrlar miqdori o'zgarmagan.

Oldinroq "Ilk devon" va "Oqqyunli muxlislar devoni" "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasi bilan solishtirganda ma'lum bo'lishicha [ИМОМНАЗАРОВ, 2018; 12-17], har uch devonda 45 ta g'azal qaytarilgan, 1-nchi va 3-nchi devonlarda qaytarilgan g'azallar 117ta, 2-nchi va 3-nchi devonlar uchun umumiyo bo'lgan g'azallar miqdori 205ta (Demak, "Oqqyunli muxlislar devoni"dagi 19ta g'azal "Badoyi' ul-bidoya"ning ilk variantiga kirmagan<sup>1</sup>). Biz MAT 1-jildiga tayangan holda 5 devondagi g'azallarning qiyosiy ro'yxatini tuzib chiqdik. Uning asosida quyidagi natijalar ma'lum bo'ldi.

Birinchidan, "Badoyi' ul-bidoya"ning biz tahlilga tortgan har uch nusxasida va MAT 1-jildida quyidagi 12 g'azal o'zgarishsiz kelmoqda:

№ 1 - *Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-xudo,*

№ 2 - *Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,*

№ 3 - *Ey, mus 'hafi ruxsoring azal xattidin insho,*

№ 4 - *Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga,*

<sup>1</sup> Maqolada «Oqqyunli muxlislar devoni»dagi g'azallar sonini 223ta deb ko'rsatgan edik, devonning kirill yozuvidagi nashri signal variantida 222ta g'azal berilgan bo'lib, asl nusxadagi ikki g'azal tushib qolgan ekan, bu xato tuzatilgach, 2-nchi va 3-nchi devonlar uchun umumiyo bo'lgan g'azallar miqdori maqolada keltirilgandek 203ta emas, balki 205ta bo'lib chiqdi.

№ 5 - *Yo rab, ulus nihoni emastur nihon sanga,*  
№ 6 - *Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,*  
№ 7 - *Zihi javlongahing aflok uza maydoni «av adno»,*  
№ 8 - *Zihi hiloling o'lub oy boshig'a tiyg'i balo,*  
№ 9 - *Har gadokim, bo 'ryoyi faqr erur kisvat anga,*  
№ 10 - *Falak nilufaridin chashmayi mehr o 'ldi gar paydo,*  
№ 11 - *Manga ne manzilu ma'vo ayon, ne xonumon paydo,*  
№ 12 - *Ham ramad tekkan ko 'zungga jismi bemorim fido,*  
Parij va Toshkent nusxalari to №19gacha o'zgarishsiz keladi,  
ammo Tehron nusxasidagi g'azallar tartibi №13 dan o'zgara  
boshlaydi:

№ 13 - №21 - *Nuqtayi mushkdur bu yo xoli aning jabin aro,*  
№ 14 - №29 - *Ey, alifdek qomating mili buzulg'on jon aro,*  
№ 15 - №32 - *Mehnat o'qidin qabaqdek qolmisham afg'on aro,*  
№ 16 - №45 - *Kimki ko 'rsa mushki nob ul sunbuli serob aro,*  
№ 17 - №31 - *Vahki, rasvomen yana devonavu oqil aro,*  
№ 18 - №13 - *Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro,*  
№ 19 - №37 - *Ey, alifdek rost qadding hasrati jonlar aro,*  
MAT 1-jildidagi -

№20 - *Savodi xoli aning la'li ruhparvar aro - deb boshlangan*  
Toshkent nusxasi bilan muvofiq keluvchi g'azal Parij nusxasida  
ham, Tehron nusxasida ham uchramaydi.

MAT 1-jildidagi keyingi №21-45 g'azallar tartibi ham Toshkent  
nusxasi bilan muvofiq keladi, №21dan boshlab to №29gacha Parij  
nusxasida bir tartib raqamiga kamaygan holda davom etadi.

№21 - №20 - №44 - *Ming zaxm urdi xanjari ishqing bu tan aro,*  
№22 - №21 - №41 - *Necha ko 'nglum yora bo 'lsa, rahm qilmas  
yor anga,*

№23 - №22 - №22 - *Ul parivashkim, bo 'lubmen zoru sargardon  
anga,*

№24 - №23 - №24 - *Sinsa ko 'nglumda o'qung surtub isig'  
qondin anga,*

№25 - №24 - №14 - *Chin kiyigi desam ko 'zin, vah nedurur itob  
anga,*

№26 - №25 - №30 - *Ko 'rgali husnungni zoru mubtalo bo 'ldum  
sanga,*

№27 - №26 - №27 - *Qahring o 'lsa barcha ishimdin malolattur sanga*,

№28 - №27 - №38 - *Iydi ruxsoring ko 'rub, bo 'ldi ulus hayron sanga*,

№29 - №28 - №28 - *Javru zulming garchi o 'lmaklik nishonidur manga*,

MAT 1-jildi va Toshkent nusxasida - “Ul malohat ganji<sup>1</sup> hajrida buzug‘ maskan manga» (№30) deb boshlanuvchi g‘azal yana Parij va Tehron nusxalariga kirmay qolgan. Keyingi g‘azallar MAT 1-jildi va Toshkent nusxasida o‘zaro muvofiq davom etadi, Parij nusxasida endi tartib raqami 2 nomeraga oqsab keladi:

№31 - №29 - №36 - *Vahki, ishqing zohir etsam vahm erur o 'lmak manga*,

№32 - №30 - №23 - *Agarchi yo 'q talabingdin dame qaror manga*,

№33 - №31 - №25 - *Lablaringdin garchi qon yutmoq damo-damdur manga*,

№34 - №32 - №26 - *To seningdek qotili xunxoraye bordur manga*,

№35 - №33 - №33 - *Labing sori tokim nazardur manga*,

№36 - №34 - №34 - *Shahr bir oy furqatidin baytul-ahzandur manga*,

№37 - №35 - №39 - *Menmudurmenkim sening vasling tuyassardur manga*,

MAT 1-jildi va Toshkent nusxasida navbatdagi “Ko 'zlarimda ishqdin suv erdi uyqu o 'rnida” deb boshlanadigan 38 tartib raqamli g‘azal yana, Parij va Tehron nusxalarida yo‘q.

Navbatdagi “mahdi ulyo” Xadichabegimga bag‘ishlangan mashhur “Behi rangidek o 'lmish dardi hajringdin manga siymo” deb boshlanuvchi g‘azal har uch nusxada (№39 - №36 - №23) uchraydi, ammo undan keyingi quyidagi 3 g‘azal -

№40 - *Yor aksi chunki aylar jilva may ko 'zgusida*,

№41 - *Kimsa hargiz ko 'rmadi chun ahli davrondin vafo*,

№42 - *Mir 'oti husnung tiyradur bu ohi dardolud aro* - faqat Toshkent nusxasida mavjud bo‘lib, Parij va Tehron nusxalarida uchramaydi.

---

<sup>1</sup> MAT 1-jildida bu so‘z “kunji” deb xato berilgan.

Keyingi **3 g‘azal** esa barcha **5 nusxada** (“*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Toshkent, Parij, Tehron nusxalari va “*Ilk devon*”, “*Oqqyununli muxlislar devoni*”), keltiriladi:

№43 - №37 - №20 - №39 - №5

*Yer tutar ko ‘nglumda gardundin judo bo ‘lg‘on balo,*

№44 - №38 - №40 - №30 - №11

*Orazu xolingni bir dam ko ‘rmasam, ey dirlrabo,*

№45 - №39 - №35 - №7 - №19

*Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo,*

Va, nihoyat, MAT 1-jildida 46-tartib raqami ostida kelgan “*Zor jismimg‘a xadanging zaxmidin ortar navo*” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal endi Toshkent nusxasida uchramaydi va shundan boshlab MAT 1-jildi bilan Toshkent nusxasi o‘rtasida tartib raqamidagi muvofiqlik buziladi. Endigi ro‘yxatda Toshkent nusxasining tartib raqami MAT 1-jildidan bir raqamga kechika boshlaydi. Masalan, “*Yor dardim so ‘rmayin ko ‘nglumni mahzun qildilo*” misrasidan boshlanuvchi g‘azal MAT 1-jildida №47, Toshkent nusxada №46, Parij nusxasida №41, Tehron nusxasida №16 tartib raqami ostida keladi. Keyingi g‘azallar xuddi shu tartibda (5-qator “*Ilk devon*”):

№48 - №47 - №42 - №17 - №31

*Sorig ‘ og‘riq bo ‘ldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,*

№49 - №48 - №43 - №18

*Ko ‘nglum o ‘rtansun agar g‘ayringga parvo aylasa,*

№50 - №49 - №44 - №19

*Qosidekim yordin bir so ‘z rivoyat aylasa,*

№51 - №50 - №45 - №43 - №34

*Bag‘ir xunobidin za ‘f o ‘ldi g‘olib xasta jonimg‘a,*

№52 - №51 - №46 - №46 - №48

*Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,*

Qofiyasi “alif” harfi bilan tugallanuvchi g‘azallar MAT 1-jildida 52ta, Toshkent nusxasida 51ta, Parij nusxasida 46ta, Tehron nusxasida ham 46ta. “*Ilk devon*”da bu ro‘yxat 49tani, “*Oqqyununli muxlislar devoni*”da esa 22tani tashkil qiladi.

“*Badoyi’ ul-bidoya*”ning har uch nusxasida “*Ey, mus ‘hafi ruxsoring azal xattidin insho*” - deb boshlanuvchi 3-tartib

raqamli g‘azal “*Oqqyunli muxlislар devoni*”da “*Ey, safhai ruxsoring azal xattidin insho*” shaklida birinchi bo‘lib kelgan. № 13 - №21 - *Nuqtayi mushkdur bu yo xoli aning jabin aro* - deb boshlanuvchi g‘azal esa bu devonda №4 bo‘lib keladi. № 14 - №29 - raqamli g‘azal 7-tartib raqamida “*Ey, alifdek qomating mili duzulmush jon aro*” - shaklida beriladi. “*Ey, alifdek rost qadding hasrati jonlar aro*” -, deb boshlanuvchi № 19 - №37 - raqamli she’r esa Oqqyunlilar tuzgan devonda 20-tartib raqami ostida keladi.

“*Ilk devon*”dagi “*Iloho, podishoho, kirdigoro*” - deb boshlanuvchi 1-g‘azal na “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning har uch nusxasida, na “*Navodir un-nihoya*”da uchramaydi. Bu g‘azal shoir o‘zi tuzgan devonlardan faqat “*Xazoin ul-maoniy*” tarkibidagi 1-devon bo‘lmish “*G‘aroyib us-sig ‘ar*”dagina 5-tartib raqami bilan keltirilgan. Buning sababi balki “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning boshlanishiga “*Ashraqat*” g‘azalining qo‘yilishi bilan bog‘liqdir. Chunki bu g‘azal shoir tomonidan o‘zi tuzgan birinchi devon uchun maxsus yozilganligi aniq sezilib turadi. “*Ilk devon*”dagi - “*Zihi javlongahing...*” - deb boshlanuvchi 2-g‘azal “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning har uch nusxasida № 7 o‘rindan joy olgan. “*Har gadokim...*” - deb boshlangan 3-g‘azal “*Badoyi’ ul-bidoya*” qo‘lyozmalarida 9-tartib raqami ostida keladi. Ayni shu g‘azal mazmuniga oid masalada bir jiddiy muammo bor. Ma’lumki, “*Ilk devon*” hijriy 870 (milodiy 1465-1466) yili mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan deb hisoblanadi. Ammo she’r mazmuni, ayniqsa, uning oxirgi 5 bayti har qanday e’tiborli insonda ishtiboh uyg‘otadi:

*Shohg‘a shahlig‘ musallamdur, agar bo‘lg‘ay mudom  
Shohlig‘ tarkin qilib, darvesh o‘lur niyat anga.  
Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig‘, magar  
Shohi G‘oziykim, tuyassar bo‘ldi bu davlat anga.  
Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, bor  
Shohlig‘ surat anga, darveshlik siyrat anga.  
To shahu darvesh bo‘lg‘ay, aylagil, yo rab, ayon  
Shohdin xizmat anga, darveshdin himmat anga.  
Gar Navoiy so‘z uzatti, faqrdin ermas demang,  
Bo‘limg‘uncha hukm shahdin, qayda bu jur‘at anga?*

She'mning birinchi qismi - 8 bayt davomida jamiyatdagi ikki birbiriga zid toifa vakili shoh va darvesh qiyoslanadi va birinchisidan ikkinchisi yuqori qo'yiladi. Ammo 9-baytdan boshlab shoir o'z qarashlariga isloh kiritadi, ya'ni hukmdorlik va ma'naviy yuksaklik bir kishida birlashishi mumkin, va buning yagona misoli *Shohi G'oziy*, ya'hi shoirning yoshlikdan qadrion do'sti va hamfikri bo'lmish Husayn Boyqaro ekanligi ochiq e'tirof etiladi. Savol tug'iladi: Axir devon ko'chirilgan hijriy 870-milodiy 1465-1466-yillari Hiro taxtida Abusaid mirzo o'tirgan edi-ku, Husayn Boyqaroning *Shohi G'oziy* unvoni u Hirotni egallab Xuroson taxtiga o'tirganidan so'ng joriy bo'lgan emasmidi? Bu savol meni anchadan buyon qiy nab kelayotgan edi, ushbu maqolani yozish jarayonida yana "*Ilk devon*"ning 1968-yilda Hamid Sulaymon nashr ettirgan faksimilesini qo'lga oldim. Xayollar og'ushida kitobni varaqlar ekanman, birdan yarq etib 505-506-yillar ilgari ko'chirilgan kitobning bir sahifasi o'z rangiga ko'ra boshqa barcha sahifalaridan keskin farq qilib turganligi diqqatimni jalb etdi. Avvallari shunga e'tibor qilmagan ekanman. Bizgacha etib kelgan qo'lyozmaning barcha sahifalari odatiy sarg'ish tusda bo'lsa, ayni ko'pchilikda ishtiboh uyg'otadigan 3-tartib raqamli g'azal ko'chirilgan sahifa (3a) asosi ko'kimdir rangda ekan. Diqqat bilan yana qarab chiqdim, bunday keskin o'zgarish qo'lyozmaning boshqa biron sahifasida kuzatilmaydi. Demak, ushbu sahifadagi yozuv yuvilgan, so'ng matn qayta yozib chiqilgan, degan xulosaga keldim. Sababi tushunarli. Alisher Navoiy o'zining yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan temuriy shahzodadan umidlari katta edi va uning Hiro taxtiga o'tirishi shoir uchun ayni muddao bo'lgan. Sultonali Mashhadiy haqida Mirzo Bobirning yozganlari ham shuni ko'rsatadiki, bu davrda iste'dodli xattot har ikki do'st uchun ham qadrli bo'lgan. Shunday sharoitda yaqin do'sti ijod namunalari aks etgan devonning boshlanish qismida shoh va darveshni bir-biriga zidlashtirish va darveshni shohdan ulug' bilish mazmunidagi g'azal joy olishi, albatta, yangi taxtga o'tirgan hukmdorga o'ta hurmatsizlik bo'lur edi. Ammo agar shu ruhdagi g'azal yuqorida keltirilgan misralar bilan yakunlansa, butkul boshqacha ruh kasb etar va yosh shoir orzulariga ham muvofiq tushishi tabiiy edi. Demak, matnshunoslikda har bir eng arzimas tuyulgan jihatga ham jiddiy e'tibor talab etilar ekan.

Qiyosiy tahlilni davom ettiramiz. “*Ilk devon*”dagi “*Ul parivashkim...*” - deb boshlanuvchi 4-g‘azal yuqorida keltirilgandek, MAT 1-jildi va Toshkent nusxasida №23, Parij va Tehron nusxalarida №22 - tartib raqamlarida, “*Oqqyunli muxlislar devoni*”da esa №13-tartib raqami ostida keladi. 5- g‘azal (“*Sinsa ko ‘nglumda o ‘qung*”) Toshkent nusxasida №24, Parij nusxasida - №23, Tehron nusxasida №24 - tartib raqamlarida uchraydi. 6-g‘azal (“Ey, etti manzar tarhig‘a...”) “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning biz qiyoslayotgan nusxalarining hech qaysisida uchramaydi.

“*Ilk devon*”dagi №№7, 30, 31, 34, 39 - g‘azallar qiyosi yuqorida keltirilganini hisobga olib, “*Ilk devon*” va “*Oqqyunli muxlislar devoni*”dagi keyingi g‘azallarni “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij, Tehron va Toshkent nusxalari bilan tartib raqamlariga ko‘ra qiyoslashni endi ihchamlashtirib ro‘yxat tarzida keltiramiz (1-tartib raqami “*Ilk devon*”ga, 2, 3, 4 - lari tartib bilan Toshkent, Parij, Tehron nusxalariga va 5 - “*Oqqyunli muxlislar devoni*”ga tegishli<sup>1</sup>):

№10 - ( *Necha ko ‘nglum...* ) - №23 - №22 - №22.

№14 - ( *Agarchi yo ‘q...* ) - №32 - №30 - №23 - №9.

№19 - ( *Mir’oti husnung...* ) - №42. (Faqat BBning Toshkent nusxasida).

№21 - ( *Savodi xoli aning...* ) - №20. (Faqat Toshkent nusxasida).

№28 - ( *Manga ne manzilu...* ) - № 11 - (BBning har uch nusxasida).

№32 - ( *Kimsa hargiz...* ) - №41 (Faqat Toshkent nusxasida).

№41- ( *Ham ramad tekkan...* ) - № 12 - (BBning har uch nusxasida).

№47- ( *Zor jismimg‘a...* ) - BBning Toshkent nusxasida yo‘q. - №40, №42

№48- ( *Ne navo soz aylagay...* ) - №52, №46, №46.

Demak, “*Ilk devon*”dagi qofiyasi “*alif*” harfiga tugaydigan g‘azallar 49ta bo‘lib, ulardan 19tasi (№№2, 3, 4, 5, 7, 10, 11, 14, 19, 21, 28, 30, 31, 32, 34, 39, 41, 47, 48) “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning turli nusxalarida qaytariladi, qolgan 1, 8, 9, 11, 12, 13, 15, 16, 17, 18, 20, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 29, 33, 35, 36, 37, 38, 40, 42, 43,

<sup>1</sup> Bundan buyon matnni soddalashtirish uchun «*Ilk devon*»ni ID, «*Oqqyunli muxlislar devoni*»ni OMD, “*Badoyi’ ul-bidoya*»ni BB deb belgilab olamiz.

44, 45, 46, 49 - tartib raqamli g‘azallar esa (30ta g‘azal) “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning har uch nusxasida ham uchramaydi.

Ana endi rejamizdagi **6-nchi devon** “*Navodir un-nihoya*”ning Abdujamil kotib ko‘chirgan nusxasiga e’tibor qaratamiz. “*Ilk devon*”ning “*Badoyi’ ul-bidoya*” nusxalarida uchramaydigan 30 g‘azalidan nechtaşı va qaysilari keyingi devon tarkibida uchraydi?

№15 - №34 - *Chog ‘irg ‘a tushkali yo ‘qtur qaroru xob manga,*  
№18 - №19 - *Telba ko ‘nglum yorasi hadsiz tani uryon aro,*  
№19 - №25 - №42 - *Mir ‘oti husnung tiyradur bu ohi dardolud aro,*

№21 - №27 - №20 - *Savodi xoli aning la ‘li ruhparvar aro*  
№29 - №40 - *Ul oy bu telba bila yormu ekin, oyo,*  
№32 - №43 - №41 - *Kimsa hargiz ko ‘rmadi chun ahli davrondin vafo,*

№35 - №44 - *O ‘tg ‘a solg ‘il sarvni, ul qaddi mavzun bo ‘lmasa,*  
№40 - №16 - *Xil ‘atin aylabmudur ul sho ‘xi siyminbar qaro,*  
№42 - №37 - *Davr el sog ‘arini qildi mayi nob to ‘la,*  
№44 - №12 - *Gul uzra xatti mushkin birla to qilding raqam paydo,*

№49 - №8 - *Mahvasho, sarvqado, lolaruxo, siyntano.*

Shunday qilib ma’lum bo‘lmoqdakim, “*Ilk devon*”dagi qofiyasi “*alif*” harfiga tugaydigan 49ta g‘azaldan 11tasi “*Navodir un-nihoya*”ga o‘tgan ekan. Eng qizig‘i, 11 g‘azaldan 3tasi “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Toshkent nusxasida ham uchraydi. 19 g‘azal yoniga yana 8ta qo‘silsa, 27ta bo‘ladi va “*Ilk devon*”dagi keyingi ikki devonga kirmay qolgan g‘azallar soni 22taga tushadi.

“*Oqqyunli muxlislar devoni*”da “*alif*” harfiga tugaydigan g‘azallar 21ta bo‘lib, ulardan 6tasi (№№5, 9, 11, 12, 13, 19) “*Ilk devon*”ning 39, 14, 30, 10, 4, 7 - tartib raqamli g‘azallarini qaytaradi. “*Be*” harfiga tugaydigan g‘azallar “*Ilk devon*”da 37ta, “*Oqqyunli muxlislar devoni*”da 12ta, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij nusxasida 23ta, Tehron nusxasida ham 23ta, Toshkent nusxasida 25ta.

“*Ilk devon*”dagi “*Be*” harfiga tugaydigan 37 g‘azaldan 18tasi BBning Toshkent nusxasida, 17tasi Parij va Tehron nusxasida uchraydi, yana 10ta g‘azal “*Navodir un-nihoya*”ga o‘tgan. “*Oqqyunli muxlislar devoni*”dagi 12 g‘azalning 10tasi ham “*Ilk*

*devon*”dagilar. “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning har uch nusxasida esa 12ta g‘azalning barchasi uchraydi.

“Te” harfiga tugaydigan g‘azallar “Ilk devon”da 7ta, “Oqqyunli muxlislar devoni”da 3ta, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning har uch nusxasida 12ta.

“Se”dan “Xe”gacha “*Ilk devon*”da 10ta, “*Oqqyunli muxlislar devoni*”-da 6ta, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij nusxasida 18ta, Tehron nusxasida ham 18ta, Toshkent nusxasida 20ta.

“Dol”dan “Zol”gacha “*Ilk devon*”da 10ta, “*Oqqyunli muxlislar devoni*”-da 6ta, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij nusxasida 9ta, Tehron nusxasida ham 9ta, Toshkent nusxasida 11ta.

“Re” harfiga tugaydigan g‘azallar “*Ilk devon*”da 29ta, “*Oqqyunli muxlislar devoni*”da 38ta, “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij nusxasida 111ta, Tehron nusxasida 99ta, Toshkent nusxasida 110ta.

“Te”dan “Re”gacha “*Ilk devon*”dagi 56ta g‘azaldan 14tasi (№87, 88, 89, 90, 91, 118, 124, 125, 131, 134, 138, 139, 140, 143) “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Toshkent (№ 80, 82, 83, 84, 85, 207, 189, 209, 228, 201, 184, 205, 122, 202) va Parij nusxalarida (№73, 75, 76, 77, 78, 197, 178, 199, 216, 190, 173, 194, 111, 192) 14tadan, Tehron nusxasida esa 12ta (№ 77, 73, 78, 79, 80, 183, 191, 170, 151, 188, 149, 196,). 11tasi “*Navodir un-nihoya*”da (№92-100, 103-130, 108-142, 114-143, 116-190, 117-171, 120-164, 123-209, 133-167, №131 - 183 va 143-176 har ikki devonda qaytariladi). Bu orada “*Oqqyunli muxlislar devoni*” bilan “*Ilk devon*”dagi g‘azallarning kesishgan joyi faqat 2ta (№87 - 35, №89 - 36).

“*Badoyi’ ul-bidoya*”ning har uch qadim qo‘lyozmalarini qiyoslaganda “Re” harfiga tugaydigan g‘azallar oxirigacha Toshkent nusxasida faqat quyidagi 3 g‘azal uchramaydi:

№45 *Zor jisming‘a xadanging zaxmidin ortar navo,*

№164 *Ul quyoshkim sultanat avji uza tobon erur,*

№188 *Vaslidin gar bargi guldur hajrdin gar no‘gi xor.*

Toshkent nusxasida mavjud, ammo Parij va Tehron nusxalarining har ikkisida hanuz uchramaydigan g‘azallar birmuncha ko‘proq (raqamlash 1-jild bo‘yicha berildi):

№20 *Savodi xoli aning la‘li ruhparvar aro,*

№30 *Ul malohat kunji hajrida buzug‘ maskan manga,*

- №38 Ko 'zlarimda ishqdin suv erdi uyqu o 'rnida,  
 №40 Yor aksi chunki aylar jilva may ko 'zgusida,  
 №41 Kimsa hargiz ko 'rmadi chun ahli davrondin vafo  
 №42 Mir 'oti husnung tiyradur bu ohi dardolud aro,  
 №58 Eyki ruxsoring erur xo 'bu xating ham marg 'ub,  
 №59 Tiyg' ila xoki tanimni har taraf yording kelib,  
 №97 Girih-girih chu tugarsen — etar ayog 'ingga soch,  
 №98 Ko 'rub dardim, tarahhum qilmading hech,  
 №112 Dudi oh ermas ko 'ngul uyin qaro qilg 'onda dard,  
 №116 Buki har yondin ko 'kartibdur yuzumni koji dard.  
 Jami 12ta g 'azal.

Endi Parij va Tehron nusxalarini o 'zaro qiyoslaydigan bo 'lsak, quyidagicha manzara hosil bo 'ladi. Avvalo MAT 1-jildidagi dastlabki 140 g 'azalning 128tasida har ikki qo 'lyozmada tartib raqamlari o 'zgargani bilan g 'azallar o 'zgarishsiz qaytariladi. Ammo 141 g 'azaldan boshlab Tehron nusxasidagi g 'azallar soni Parij nusxasidan ortda qola boshlaydi, ya 'ni quyidagi g 'azallar Tehron qo 'lyozmasida umuman uchramaydi:

- №141 Ul malohat sham 'idin mundoqki jismim yonadur;  
 №153 Ikki ko 'zumki dardu balo jo 'yboridur;  
 №156 Qatlima tiyg' o 'lgalikim charx ishi ozordur  
 №162 Chiqtı ov azmig 'a javlon aylab ul chobuksuvor;  
 №165 Telba ko 'nglum, vahki, har soat birov sori borur;  
 №189 Bag 'rimni tiyg' i hajr ila yuz pora qildilar;  
 №190 Ulki, yuz mendek jahonda volavu shaydosi bor;  
 №193 Kecha har kavkab ko 'rungach, yodima oyim kelur;  
 №196 Ikki zulfung xasta ko 'nglumga qarong 'u kechalar;  
 №199 Kunduz ul xurshidi raxshondin ko 'zumda yosh erur;  
 №202 Ul o 'tlug ' chehrag 'a zarbaft xil 'at ne yaroshibdur;  
 №205 Bukim, ko 'ngulning ul oysiz ne sa 'b holati bor;  
 №207 Tovushkim uy toshidin kelsa, dermen bag 'ri toshimdur  
 №210 Chun meni majnun boshin atfol toshi sindurur;  
 №212 Sham 'ul oy hajrida har tun kuymagim ogohidur;  
 №216 Birov g 'ami yana ko 'nglumga qo 'zg 'olon soladur;  
 №218 Bargi nay to 'n ichida nol kibi beli nihondur;  
 №219 Har kishikim, bir so 'z ul badmehrdin taqriri bor.

- №222 *Beliyu og ‘zi ko ‘rar-ko ‘rmasda chun pinhon erur;*  
 №223 *Yuzi gulchehra soqiyning tarab hukmig ‘a tug ‘rodur;*  
 №224 *Dud yanglig ‘ dema ko ‘nglum ohi dardoludidur;*  
 №227 *Orazing husnun fuzun qilg ‘on hiloliy qosh erur;*  
 №228 *Netib tuz etay qadkim — jismimda shikanlardur;*  
 №230 *Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar;*  
 №231 *Boshtin-ayog ‘ yalang tanim uzrakim toza dog ‘ erur.*  
 Jami: 25 g‘azal.

Quyidagi g‘azal Tehron qo‘lyozmasidagina mavjud va nafaqat Toshkent nusxasida, balki Parij nusxasida ham uchramaydi:

- №164 *Ul quyoshkim sultanat avji uza tobon erur.*

Ushbu dastlabki qiyosiy tahlillardan qanday xulosalarga kelish mumkin. Avvalo, Tehron nusxasining Parij va Toshkent nusxalaridan farqlanishi borasida. Ko‘rdikki, 13-g‘azaldan boshlab 1483-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozmadagi she‘rlarning tartib raqamlari 1480 va 1486-yillardagilardan keskin farq qila boshlaydi. Shundan taxmin qilish mumkinki, Tehron qo‘lyozmasi shoirning tahriri ostida ko‘chirilgan emas. Bu farazga aniqlik kiritish uchun, albatta, London nusxasini ko‘rish kerak bo‘ladi. Ammo Parij va Toshkent nusxalaridagi tartibning umumiyligidan kelib chiqqanda 1482-yilda ko‘chirilgan London qo‘lyozmasi ham asosan shu tartibga muvofiq bo‘lsa kerak, degan tasavvur haqiqatga yaqin tuyuladi.

**Ikkinchidan**, 1983-yilgi qo‘lyozma 1486-yilgi nusxadan ko‘ra mundarijasiga ko‘ra (g‘azallar tartibiga emas) 1980-yilga nusxaga yaqin turadi (dastlabki 140 g‘azalda to‘liq mos keladi).

**Uchinchidan**, 141 g‘azaldan boshlab, to 232 g‘azalgacha Tehron nusxasida Parij nusxasidan 25 g‘azal kam uchrashi 1983-yilgi qo‘lyozmaning Parij nusxasidan emas, balki hozir bizning qo‘limizda mavjud bo‘lmagan 1980-yilgi London nusxasidan ko‘chirilganlik ehtimolini kuchaytiradi.

**To‘rtinchidan**, Parij nusxasidagi 129-nchi (MAT 1-jildida 141-nchi) g‘azaldan to 218-nchi (MAT 1-jildida 232-nchi) g‘azalgacha Tehron nusxasiga kiritilmagan 25ta she‘rdan quyidagi 16tasi keyinchalik “*Navodir un-nihoya*” tarkibiga kiritilgani ma’lum bo‘ldi (1-raqam - MAT 1-jildi bo‘yicha, 2-raqam - 746-nchi qo‘lyozmada, 3-raqam - “*Navodir un-nihoya*”da):

- №153 - №141 - №201- *Ikki ko 'zumki dardu balo jo 'yboridur,*  
 №156 - №144 - №188 - *Qatlima tiyg‘ o 'lgalikim charx ishi ozordur*
- №193 - №179 - №236 - *Kecha har kavkab ko 'rungach, yodima oyim kelur;*
- №196 - №182 - №182 - *Ikki zulfung xasta ko 'nglumga qarong‘ u kechalar;*
- №199 - №185 - №237 - *Kunduz ul xurshidi raxshondin ko 'zumda yosh erur;*
- №202 - №188 - №208 - *Ul o 'tlug‘ chehrag‘a zarbaft xil'at ne yaroshibdur;*
- №205 - №192 - №176 - *Bukim, ko 'ngulning ul oysiz ne sa 'b holati bor,*
- №207 - №193 - №189 - *Tovushkim uy toshidin kelsa, dermen bag‘ri toshimdur;*
- №210 - №196 - №241 - *Chun meni majnun boshin atfol toshi sindurur;*
- №212 - №198 - №207 - *Sham‘ ul oy hajrida har tun kuymagim ogohidur;*
- №216 - №202 - №205 - *Birov g‘ami yana ko 'nglumga qo 'zg‘olon soladur;*
- №219 - №205 - №173 - *Har kishikim, bir so 'z ul badmehrdin taqriri bor.*
- №222 - №208 - №242 - *Beliyu og‘zi ko 'rar-ko 'rmasda chun pinhon erur;*
- №224 - №210 - №210 - *Dud yanglig‘ dema ko 'nglum ohi dardoludidur;*
- №228 - №214 - №216 - *Netib tuz etay qadkim — jismimda shikanlardur;*
- №230 - №216 - №183- *Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar.*

Jami: 16 g‘azal.

Bunga qo ‘shimcha MAT 1-jildidagi №230 bilan № 277 orasida yana Parij nusxasida mayjud, ammo Tehron nusxasiga kiritilmagan quyidagi g‘azallarni ham qo ‘shsak (1-raqam - MAT 1-jildi, 2-raqam - Parij nusxasi, 3-raqam - “*Navodir un-nihoya*”):

№244 - №229 - №244 - *Bo‘ldi shomu jong‘a ul oy hajridin qayg‘u hanuz*, №248 - №233 - №244 - *Sarvqadlar agar biru gar yuz*,

№250 - №235 - №272 - *Ul pari ko‘yida men devonani band aylangiz*,

№253 - №238 - №259 - *Onsiz o‘lmoq erur o‘lmoq jonsiz*,

№266 - №251 - №286 - *Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas*,

№269 - №254 - №285 - *Gar meningdur yor lo‘li bo‘lsa shoh etmon havas*,

№273 - №257 - №319 - *Yozuqsiz, jurmsiz bedod etar fosh*,

№275 - №260 - №329 - *Manga emdi sarz ila gul muddaosi qolmamish*.

Jami: 8 g‘azal.

Ushbu ro‘yxatga “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij nusxasi” maqolasida keltirilgan 76 g‘azalni ham qo‘sksak, ma’lum bo‘ladiki, 746-inventar raqamli 1980-yilda ko‘chirilgan shoirning o‘z tashabbusi bilan ilk bor shakllantirilgan protodevondan  $16+8+76=100$ ta g‘azal 1487-yili Abdujamil kotib tomonidan ko‘chirilgan “*Navodir un-nihoya*” devoniga ko‘chib o‘tgan ekan.

**Beshinchidan**, 20 jildlikning oxiriga ilova qilingan “*Rasmiy devonlarga kirmagan she’rlar*” rukni ostida keltirilgan g‘azallarning aksariyati yangi topilgan devon qo‘lyozmalari tarkibida mavjud ekanligi ma’lum bo‘lib bormoqda. Masalan, yangi topilgan Tehron qo‘lyozmasida “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning Parij va Toshkent nusxalari hamda MAT 1-jildida uchramagan birqator she’rlar ko‘zga tashlandiki, quyida ular haqida ma’lumot keltiramiz (1-raqam - Tehron nusxasi, 2-raqam - OMD).

№158 - №58 - *Sensizin, ey umr, jismim ruhdin begonadir*,

№224 - №92 - *Ulki shakkardek labina to‘tiyi jondir magas*,

№309 - №106 - *Garchi elga jon bag‘ishlar husni ruhafzolig‘ing*,

№489 - №179 - *Bu yomon tole’ ayirdi yorni men zordin*,

№532 - №182 - *Sipehru mehr yuzingdin nishonadur barcha*,

№608 - №220 - *Munchakim har dam etar ko‘nglumga hajringdin g‘ame*,

№610 - №221 - *Falak jafosidin ul oyg‘a bo‘lmasun darde*.

Tehron nusxasidagi 224,309,489, 532, 610 - tartib raqamli g‘azallar MAT 20-tomda ilovasida uchraydi. Ammo №158 va №608 u erda ham uchramaydi.

Yana bir g‘azal faqat Tehron nusxasida va 20-tomda uchraydi:

*№504 - Bog‘ aro chiqmas xiromon sarvi ozodim yana,*

490-tartib raqamli g‘azal esa faqat Tehron nusxasidagina uchraydi:

*Necha kim ko‘zdin yiroqtur qadding ey, siyminbadan,*

*Gar yaqin boqsam aliftek rost jonim ichra san.*

*Dersan ul guldan xabar de, pirahan chok aylama,*

*Chun otin tutting qolurmu chok bo‘lmay pirahan.*

*Ul mo‘g‘ulchin ko‘zlarining bodomidin mushki Xito*

*Ko‘hu sahroni kezib istarman og‘uyi Xo‘tan.*

*Garchi sen yoqting nazarni , jonni kim oldi desam,*

*Noz ilan boqib tabassum aylabon aytur: “Qachon?”*

*Chizsa suratgar o‘shal oy suratin devor uza,*

*Chun musavvirdin namudor o‘lg‘usi bir pirahan.*

**Oltinchi** va eng asosiy xulosa shundan iboratkim, 6 devon muqoyasasiga biz asos qilib olgan “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning 1483-yili ko‘chirilgan Tehron qo‘lyozmasi oldingi maqolalarimizda olg‘a surilgan g‘oyani, ya’ni “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning 1480-yili ko‘chirilgan Parij nusxasi devon tuzish bo‘yicha shoirning ilk tajribasi bo‘lib, keyincha ushbu variant ijodkor tomonidan tubdan isloh qilingan va biz bugun tasavvur qilgan “*Badoyi’ ul-bidoya*” devonining haqiqiy mundarijasi 1482-yili ko‘chirilgan bugungi kunda Buyuk Britaniyada saqlanuvchi qo‘lyozmadan boshlanadi, deb bildirilgan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. Tehron qo‘lyozmasi shoir topshirig‘i va kuzatuvi ostida ko‘chirilmagan, bunday xulosaga kelishimiz sababi Parij va Toshkent nusxalari uchun umumiyligi bo‘lgan tartib Tehron nusxasida saqlanmaganligidir. Ammo Toshkent nusxasidan oldin va Parij nusxasidan keyin London nusxasiga tayangan holda tuzilganligi aniq.

Alisher Navoiyning lirik merosi matnshunosligi yo‘nalishida oxirgi yillarda olib borgan izlanishlarimiz natijasida muhim bir xulosaga kelindi. Ma’lumki, Hamid Sulaymon o‘z davrida shoir hayot paytida ko‘chirilgan qator mo‘tabar qo‘lyozmalar matniga tayangan holda shoir lirik merosini yaratilish davriga ko‘ra 4

bosqichga ajratgan edi: 1) Yoshlik lirikasi – 1465-yilda, shoir 24 yoshga to‘lgan paytda davrning mashhur xushnavisi Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan “*Ilk devon*”dagi she’rlar asosida; 2) Yigitlik davri lirikasi – Husayn Boyqaro tavsiyasi bilan shoir o‘zi tuzgan “*Badoyi’ ul-bidoya*” devoni asosida; 3) O‘rtal yosh lirikasi – shoir o‘zi tuzgan ikkinchi devon - “*Navodir un-nihoya*” asosida; 4) Qarilik davri lirikasi – “*Xazoyin ul-maoniy*” devonlari tarkibidagi oldingi devonlarga kirmagan she’rlar asosida.

O‘tgan asrda zabardast navoiyshunos ustoz erishgan yutuqlarni bugungi qo‘lga kiritilgan yangiliklarga tayangan holda jiddiy isloh qilishga to‘g‘ri keladi. Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, “*Navodir un-nihoya*” devoni mundarijasi aslo “*Badoyi’ ul-bidoya*” devoni yaratilgandan keyingi shoir ijodidan darak bermas ekan. Aslida devon tuzish harakatini boshlagandayoq Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlari yozilguncha bo‘lgan davrda o‘zi yaratgan asarlar bir devonga joy bo‘lmasligini bilgan va 1) “*Badoyi’ ul-bidoya*” va 2) “*Navodir un-nihoya*” nomlari bilan 2 devon tuzishni rejalahtirgan. Shoir dastlab birinchi devonga ko‘proq kichik hajmli she’rlarni kiritib, kattaroq hajmdagilarini (tarje’band, muxammas, musaddas kabilarni) ikkinchisiga qoldirmoqchi bo‘lgan. 1480-yilgi Parij qo‘lyozmasi shundan darak beradi. Ammo keyincha fikri o‘zgargan va 1482-yilgi London qo‘lyozmasi vujudga kelgan. Bizning nazarimizda, bunga asosiy sabab “*Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast...*” tarjibandining yozilishi bo‘lgan. Bu asar “*Ashraqat*” g‘azali bilan ajib bir uyg‘unlik hosil qilib, Alisher Navoiy o‘z qo‘li bilan tuzgan birinchi devoniga g‘oyaviy-mazmuniy mukammallik baxsh etgan. Nihoyat, shoir ilk lirik majmuasidan to‘liq qoniqish hosil qilib, ko‘nglida shakllanayotgan epik ko‘lamni amalga oshirishga astoydil kirishgan.

Alohibda g‘oyaviy-mazmuniy mukammallik kasb etgan ushbu devon o‘z davrida keng doirada mashhurlik kasb etib, undan u yoki bu darajada juz’iy o‘zgarishlar bilan, turli janrlardagi yangi yozilgan she’rlarni qo‘shish bilan ko‘plab nusxalarda ko‘chirilgan va ular dunyoning turli mintaqalariga tarqab ketgan. Ammo buyuk alloma san’atkor xayolida shakllanayotgan yangi-yangi g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish bilan band bo‘lib, boshlanishda rejalahtirgan

ikkinchi devonni ham mukammal tuzishga ko‘p rag‘bat qilmagan. Balki “Xamsa” yakunlangach, Abdujamil kotib yoki boshqa bir yaqin inson ikkinchi devon rejasini eslatgan bo‘lsa, shoir bu yumushni ishonchli kotibiga topshirib qo‘yaqolgan bo‘lishi ham mumkin. Natijada ikkinchi devon birinchidek e’tibor bilan tuzilmagan va birinchidek shuhrat ham qozonmagan. Qolaversa, bu davrga kelib yangi yozilgan she’rlar hisobidan hajman ham o‘ta kengayib ketgan. Amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugun qo‘limizda mavjud Abdujamil kotib tuzgan “*Navodir un-nihoya*” devoni o‘tgan asrda ustoz Hamid Sulaymon olg‘a surgan g‘oyani – shoir lirik merosini 4 davrga bo‘lib o‘rganish va shoir o‘zi tuzgan ikkinchi devon – “*Navodir un-nihoya*” asosida uchinchi davr – **O‘rta yosh lirikasini** alohida ajratish fikrini XXI asr dastlabki manbashunoslik tadqiqotlari mutlaqo tasdiqlamadi. Qiyosiy tahlillar “*Navodir un-nihoya*”ning shoir hayot paytida ko‘chirilgan bugungi mavjud qo‘lyozmasi ijodkorning turli yillarda, jumladan, shoir o‘z qo‘li bilan tuzgan birinchi devonga kiritilgan she’rlar bilan bir davrda yaratilgan she’rlar bilan qorishib ketganligi aniq ma’lum bo‘ldi. Alisher Navoiy o‘zining lirik merosini tartibga solish masalasiga keyinroq yana qaytdi - endi 4 devondan iborat “Xazoyin ul-maoniy”ni yaratdi. Mana shu ulkan majmuuning yaratilishini shoir lirik merosini davrlashtirishdagi uchinchi bosqich deb qabul qilish mumkin. Albatta, bu borada uzil-kesil xulosaga kelish uchun “*Badoyi’ ul-bidoya*”ning bizga ma’lum bo‘lgan shoir hayot paytida ko‘chirilgan barcha nuxxalarini qiyoslash kerak bo‘ladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. И момназаров М. “Бадойиъ ул-бидоя”нинг Париж нусхаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2018 йил, 1-сон. – Б. 16-24.
2. И момназаров М. Алишер Навоий лирик мероси матншунослигининг долзарб масалалари / “Алишер Навоий ва XXI аср»: Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Т.: Тамаддун, 2017. – Б. 6-10.
3. И момназаров М. XXI аср навоийшунослиги: методология муаммолари / “Алишер Навоий ва XXI аср»: халқаро илмий-назарий анжумани материаллари. – Т., 2019. – Б. 13-19.

4. Имомназаров М. Уч девон муқоясаси / «Алишер Навоий ва XXI аср»: халқаро илмий-назарий анжумани материаллари. – Т.: Турон-икбол, 2018. – Б. 12-17.
5. Турдиалиев А., Эркинов А. “Бадойиъ ул-бидоя”нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси / «Алишер Навоий ва XXI аср»: халқаро илмий-назарий анжумани материаллари. – Т., 2018. – Б. 57-62.
6. Турдиалиев А., Эркинов А. “Бадойиъ ул-бидоя”нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси / «Алишер Навоий ва XXI аср»: халқаро илмий-назарий анжумани материаллари. – Т., Турон-икбол, 2018. – Б. 58-59.
7. Эркинов А. “Бадойиъ ул-бидоя”нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи қўлёзмаси / «Алишер Навоий ва XXI аср»: халқаро илмий-назарий анжумани материаллари. – Т., 2018. – Б. 51-57.

# PECULIARITIES OF MĪR ALĪ-ŠĪR NAVĀYĪ'S PERSIAN POETRY AND OTTOMAN TURKISH POETRY

Benedek PÉRI

Department of Turkic Studies  
Eötvös Loránd University  
(Hungary)

## *Annotatsiya*

*Mazkur maqolada Alisher Navoiy forsiy ijodining Usmonli turk imperiyasidagi ahamiyati xususida ma'lumot beradi. Shuningdek, muallif Usmoniyalar hukmdori sulton Selim I ijodini o'rgangan holda Navoiy asarlari bilan o'zaro taqqoslaydi. Bildirilgan nazariy qarashlarni baytlar orqali misol keltirish bilan isbotlaydi. Navoiy baytlari boshqa Usmoniy adabiyot ijodkorlarining g'azallari bilan vazn jihatdan ham, tuzilish va hajman necha baytni qamrab olinganligi bilan ham o'zaro taqqoslanadi.*

*Kalit so'zlar:* forsiy she'riyat, devon, g'azal, qit'a, aruz, vazn, tahrir, qofiya, uslub.

## *Annotation*

*This article discusses the significance of Alisher Navoi's Persian work in the Ottoman Empire. The author also studies the works of the Ottoman ruler Sultan Selim I and compares them with the works of Navoi. Examples provided confirm the stated theoretical views. The Navoi's couplets are comparable to the ghazales of other Ottoman writers in both weight and structure and size.*

**Key words:** Persian poetry, dīvān, ghazal, kit'a, prosody, meter, editing, rhyme, style.

Navāyī's Turkī poetry however, was appreciated not only by literary connoisseurs; it was also acknowledged by professional poets. His pieces, especially his ghazals were considered touchstones of poetic quality for a long time and many poets endeavoured to imitate them both in the eastern and the western part of the Turkic speaking

world. Many Ottoman poets tried their hands at composing ghazals in Navāyī's language and style, among them such outstanding artists as Nedīm (d. 1730) and Şeyh Gālib (d. 1799) [Sertkaya, Osman Fikri, 1970: 133-138; Çetindağ, Yusuf: 2006].

It seems that the new Ottoman imperial literary paradigm created in the second half of the 15<sup>th</sup> century could not have evolved without Navāyī's ghazals. A well-known anecdote preserved in many Ottoman sources relates that Navāyī sent thirty-three of his Turkī ghazals to Sultan Bāyezīd I (1481–1512) who liked the poems so much that he gave orders to Ahmet paşa (d. 1496–97), one of the eminent poets of the period to compose poetry in Navāyī's style. According to Kinalızāde Hasan Čelebī a mid-16<sup>th</sup> century author of a poetic anthology, Ahmed paşa's poems earlier lacked artistic fervour and elegance but through studying and imitating Navāyī's ghazals his style became refined and his way of expression polished [Kinalı-zade Hasan Çelebi, 1989: 531]. It is not utterly clear et whether the story is true but still, it indicates the extent how deeply Navāyī's poetic art influenced the development of Ottoman ghazal poetry [Kleinmichel, Sigrid, 1999: 77-211].

It is clear from what has been said so far that Navāyī's poetry composed in Turkī exerted a profound influence on the development of various Turkī classical literary traditions (Čağatay, Turkī-i cajamī, Ottoman). Compared to his collections of poems in Turkī, Navāyī's Persian *Dīvān* seems to have been forgotten. Knowing the enormous impetus his Turkic oeuvre gave to the development of classical literature in Turkī this situation leads to the following questions quite naturally: what can be said of Navāyī's Persian poetry in this respect. How was it received? Was it accepted into the Persian literary tradition? If it was, how deep and how fast it did become embedded. The easiest way to answer these questions is to find out whether Navāyī's Persian poetry was imitated in any way because this would show that his poetry was acknowledged as a part of the tradition. For the purposes of this paper I chose to take a deeper look at the Persian ghazals of the Ottoman sultan Selim I for several reasons.

First of all because he was Navāyī's near contemporary and

he seems to have been a talented poet. Secondly, because he used almost exclusively Persian for poetic purposes, he composed quite a few imitation poems and he chose his models from among the works of poets whom the Ottomans considered “the classics”. Last but not least my choice fell upon Selim’s poetry because Latīfī, an Ottoman literary critic from the first half of the 16<sup>th</sup> century, a near contemporary of the sultan, claims that Selim was inspired by Navāyī poetry: [Latīfī ; Haz. Rıdvan Canım, 2000: 150]

Şu'arā-yı vilāyet-i Rūmdan andan ġayrı kimesne Fārisī dīvān tedvīn etmedi ve şī'r-i Türkī-yi terk edüp ol tarza gitmedi. Ekser-i evkātda Dīvān-ı Nevāyī tetebbu<sup>c</sup> ederdi. Eşcār-ı Nevāyīye anlarañ iltifāti rağbet ü şöhret verürdi.

“Except for him no other Ottoman poet did compile a Persian *dīvān* and no other poet left Turkī poetry for this style. He imitated Navāyī’s *Dīvān* most of the time. Navāyī’s poetry became acknowledged and famous because of the interest he took in it.”

The context of Latīfī’s comment makes it clear that the *dīvān* Selim imitated was Navāyī’s collection of Persian poems which he seems to have liked so much that he tried to imitate it. In classical poetry imitation is a versatile method for creating poetry. It can be used to show off with one’s skills and brag about poetic talent but it can also be applied in a more humble way, to express a poet’s recognition of other poets’ works. Navāyī’s Persian imitation ghazals (*javābs*) following the poetic framework, that is the metre, rhyme, *radīf* combination of the selected model, were motivated by this feeling of appreciation and gratitude towards the poems he admired and used for inspiration, at least this is what one of his Persian *kitāas* implies:

Tatabbu<sup>c</sup> kardan-i Fānī dar ašcār  
Na az da'vā u na az ḥud-numāyī-st  
Ču arbāb-i suhan sāhib-dilān-and  
Murād-aš az dar-i dil-hā gadāyī-st [Dīvān-ı Fānī, 1035: 300]  
“When Fānī imitates poems,  
He does not wish to brag or to show off.  
Since [real] poets are people with a [good] heart,  
He came with the intent to pay homage and humbly beg.”

Before trying to discover in what ways Navāyī influenced and shaped Selim's poetry, a few words should be said about the sultan's Persian pieces. Latīfī's claim that Selim composed poetry almost exclusively in Persian seems to be true as only a handful of his Ottoman poems have been discovered scattered in poetic anthologies. His choice of language might have been motivated by political considerations. It is not without reason to think that his poems were meant to be part of the Ottoman-Safavid propaganda war with the purpose of proving that Selim complied with the Timurid concept of an ideal ruler who was a successful military leader and at the same time a sedentarized and highly cultured *adīb*, talented and skilled enough to compose good pieces of poetry [Péri, Benedek, '*From Istāmbōl's throne a mighty host to Irān guided I;/Sunken deep in blood of shame I made the Golden Heads to lie*': Yavuz Sultan Selim's Persian poetry in the light of the Ottoman-Safavid propaganda war. In: Proceedings CIEPO Budapest (Forthcoming)].

The greatest part of Selim's poetic output is represented by his ghazals many of which are imitations or emulations. The sultan seems to have selected his models very consciously, mainly from among authors of 13<sup>th</sup>–15<sup>th</sup> century Persian poetry and composed imitations modelled, among others, on ghazals by Sa‘dī (d. 1291/1292), Amīr Husrav (1253–1325), Hāfiẓ (1325–1392), Salmān Sāvajī (d. 1396), Kamāl-i Ḥujandī (d. 1400), Kātibī Turšizī (d. 1434–6), Jāmī (1414–1492) and last but not least Navāyī (1441–1501) [Péri, Benedek, 2015: 113–130].

Selim's Persian poems were collected into a *dīvān* that was edited and published by Paul Horn in 1904 [*Dīvān-i balāqat-<sup>c</sup>unvān-i Salīm Hān-i avval*, 1904]. Horn's edition which is based on seven manuscripts contains 300 odd poems. Research work done in the past ears led to the discovery of hitherto unknown manuscripts containing a great number of unknown poems. For the purpose of the present paper, besides using Horn's edition I will heavily rely on material that would be published first in my new critical edition of Selim's *dīvān*.

Selim resorted to a wide range of poetic techniques to compose imitation poems and thus the influence of his models, Navāyī's poems

among them, can be observed at various levels. The textual analysis of Selim's poems does not seem to confirm Latīfī's statement that Selim imitated Navāyī's poetry, at least not in the sense that the sultan composed poetic replies to Navāyī's ghazals. Only a few of Selim's imitation poems might be considered *javābs* inspired by Navāyī's original pieces of poetry labeled *muhtara*<sup>c</sup> 'invented' in Navāyī's Persian *dīvān*.

Nevertheless, Selim seems to have followed in the footsteps of Navāyī as far as the choice of models is concerned and his *dīvān* include more than twenty ghazals that were modelled upon poems Navāyī also chose to imitate. These Selim ghazals often contain couplets inspired by Navāyī's *bayts*.

One of the rare instances when Selim composed a poetic reply to one of Navāyī's original poems is his poem starting with the *matla*<sup>c</sup>

*Z-ān na-nālam gar firāk-i h̄̄t̄ zār-am mī-kušī*

*Vah ki bar ummīd-i vasl az intizār-am mī-kušī* [Dīvān-i Sultān Salīm , 13392]

"I am not complaining because you kill me with your absence,

Alas, you kill me with the expectation and hope of meeting [you]."

This poem seems to be composed as a *javāb* to Navāyī's ghazal beginning

*Ay šab-i ġam čand dar hijrān-i yār-am mī-kušī*

*Zanda mī-dāram tu-rā bahr-i či zār-am mī-kušī* [Mīr ḨAlī-Šīr Navāyī "Fāni", Dīvān: 1375]

"Ah, night of sorrow, how many times do you kill me in the absence of my beloved?

I keep you alive, why are you killing me so cruelly?"

Selim's poem, though it shares the metre (*ramal-i musamman-i maḥzūf*), rhyme (-ār), *radīf* (*mī-kušī* 'you kill me') combination of Navāyī's ghazal, is very different from its model, perhaps because the relatively easy metre and the wide range of rhyming words provided Selim with a relatively greater freedom in writing his emulation poem. Compared to Navāyī's seven couplet long ghazal the sultan's ghazal consists of only five bayts. Moreover, the two poems share only two rhyming words, *intizār* 'waiting' and *humār*

‘wine headache’. It is also interesting to observe that while Navāyī’s poem contain many references to wine drinking Selim seems to deliberately avoiding this motif as he refrains using terms that refer to the consumption of wine even in the couplet that has *humār* as the rhyming word.

A unique copy of Selim’s *dīvān* kept in a library in Tehran was the only one to preserve a ghazal that appears to have also been inspired by one of Navāyī’s original poems. The metre, rhyme, *radīf* combination used in this ghazal is very rare and from among poets of the classical tradition only Navāyī seems to have used it [Metre: *ramal-i musamman-i mahzūf*; rhyme: -ū; *radīf*: *ma-rā*].

Selim’s poem in this case is not an imitation trying to create a close replica of the model’s text but more of an emulation endeavouring to imitate the style of Navāyī’s ghazal. However, intertextual allusions hidden in the text, the structure of the couplet, the shared key words and the rhyming word applied suggest a close connection between Selim’s and Navāyī’s second bayts.

Navāyī II.

*Gāh čašm āyad girān dar kaffa-yi ḡaṣq-am zi ḡam*

*Kūh-i Farhād-aš agar yak sū nahī yak sū ma-rā* [Mīr Ḩalī-Šīr Navāyī “Fānī”: 1375]

“Eyes are in trouble if someone wishes to weigh the sorrows of my love

And Farhād’s mountain is placed into one of the pans of the scale and I am placed into the other.”

Selim II.

*Banda-yi ān čašm-i fattān-am ki bā sad šarm u nāz*

*Yak taraf aḡyār-rā mī-sāyad az yak sū ma-rā* [Dīvān-i Sultān Salīm, 13392: 86]

“I am the slave of those magical eyes that with hundred ways of coquetry,

Cast glances at one side on my rivals and at me on the other.”

The first ghazal of the *dīvān* of Hāfiẓ became a very popular model for imitation during the Timurid period and both Navāyī and Selim composed poetic replies to it. Though these two imitation poems follow different lines, at one point they seem to converge

and intertextual hints in Selim's third couplet indicates that it was inspired by Navāyī's fifth couplet.

Selim III.

*Savāb-i hajj KUNAD HĀSIL fakīh ammā na-mī-dānād*

*Ki dar bī-hāsilī dārand ēuššāk-i tu hāsil-hā*

“A jurist harvests the fruits of reward for completing a pilgrimage but he does not know

That these fruits are useless in the eyes of your lovers.”

Navāyī V.

*Man u bī-hāsilī ki-z ēilm u zuhd-am ān či hāsil šud*

*Yakāyak dar sar-i mašūk u may šud jumla hāsil-hā*

“Me and the uselessness of all that I have harvested by learning and austerity,

All the things I harvested were spent on my beloved and wine.”

The dichotomy of empty, meaningless orthodox religious practices and the mystic's successful spiritual quest facilitated by the entheogens of love or wine is an often recurring *topos* in classical ghazal poetry. This is the key motif in both couplets and it is expressed by both Navāyī and Selim in a very similar way, using the same or very similar tropes, words and phrases. The parallelisms between the two *bayts*, the pair of opposing notions of fruitful (*hāsil*) and fruitless (*bī-hāsil*), the compound verb in the first hemistich with the same none verbal element (*hāsil kunad; hāsil šud*) which serves to secure a poetic focus on the concept of ‘fruitfulness’, the antithesis of orthodox religion and the mystical path represented by a jurist (*faqīh*) versus lovers in Selim's ghazal and by the term asceticism (*zuhd*) and the figure of the beloved in Navāyī's poem respectively, the appearance of two verbal nouns (*ēuššāq/māšūq*) formed from the same Arabic radicals and last but not least the use of the same rhyming word, seems to confirm the reader's suspicion that the basic idea for Selim's couplet came from Navāyī's *bayt*.

The poetical framework consisting of the metre *ramal-i musamman-i mahzūf*, the rhyme – *ār* and the *radīf nīst* appears to have been a popular one in the Persian poetic tradition and a huge paraphrase network of interconnected poems developed out of it that extended up to the 20<sup>th</sup> century. Poems belonging to the

paraphrase network shared a common and ever growing *mundus significans*, signifying universe and it was up to poets to choose from this common set of poetic devices. Navāyī's ghazal using this poetical framework was meant as *javāb* to a poem by Hāfiẓ but the model poem appears to have been lost [Dīvān-i Fānī, 1035: 68-69]. Selim on the other hand used multiple sources for inspiration. His first couplet is a *tazmīn*, a poetic quotation taken from a ghazal by Humāyūn Isfaraynī (d. 1496 or 1503).

Humāyūn I.

*Juz ġam-i dūrī halāk-i ḥāšiq-i bīmār nīst*

*Nīst bīmī az ajal gar hijr bā ū yār nīst* [Dīvān-i Humāyūn, 13651: 9a; Majmū'a-yi sih dīvān, 2658: 39b, 40]

„Only the sorrow of [his beloved's] absence can kill an ailing lover.

He should not fear death if separation is not accompanying him.”

Selim I.

*Juz ġam-i dūrī halāk-i ḥāšiq-i bīmār nīst*

*Nīst bīmī az ajal gar hijr bā ū yār nīst* [Dīvān-i Sultān Salīm, 13392: 78-79]

The key idea in the seventh couplet, the *maṭka<sup>c</sup>* of Selim's ghazal is the opposition of the lover's desires versus the ascetics (*zāhid*) longing for Paradise. From among the poems of the paraphrase network this motif, though in a more elaborate way, is present only in Navāyī's ghazal.

Selim VII.

*Bas ki zāhid-rā ḥayāl-i Kavsar-ast u bāg-i huld*

*Čūn Salīm ammā juz hasrat-i dīdār nīst*

“An ascetic keeps dreaming of the Kavsar and Paradise,  
The only desire Selim has, is to see [his beloved].”

Navāyī

*Zāhidā dar ravza gar may az kaf-i dast-i dīdār nīst*

*Ravza-ī ḥuštar ma-rā az kulba-yi hummār nīst*

*‘Āšikān-rā hīč jannat nīst čūn gulzār-i vasl*

*Kavsar u Tūbā misāl-i l̄al u kadd-i yār nīst* [Dīvān-i Navāyī, „Fānī”, 1375: 122]

“Ascetic! If wine is not given to us by our beloved in Paradise,

We will not prefer the celestial gardens to a hut inhabited by drunkards.

Eden can't be compared with the rose garden of being together [with beloveds]

The river Kavsar and the Tuba tree isn't equal to the ruby lips and the body of our beloved."

Both Navāyī and Selim composed a poetic reply to a ghazal by Amīr Šāhī (d. 1453) that uses the metre *muzāri<sup>c</sup>-i musamman-i ahrab-i makfūf-i mahzūf*, the rhyme *-amī*, and the *radīf digar* 'another' [Dīvān-i kāmil-i Hāfiẓ, 1382: 51]. Though the two imitation poems have hardly anything in common the *matla<sup>c</sup>* of the sultan's ghazal contain vague hints suggesting that couplet might have been inspired by Navāyī's lines.

Selim I.

*Bā-ān ki nīst ḡayr-i tu-am mahramī digar*

*Har lahza bā-hayāl-i tu gūyam ḡamī digar* [Dīvān-i Sultān Salīm, 13392: 84a]

"Except for you I do not have a confidant,

So I keep complaining of my sorrows to a vision of you."

Navāyī III.

*Gūyam ba-nazd-i pīr-i muğān javr-i muğbača*

*Čūn nīst-am ba-dayr juz ī mahramī digar*

"I keep complaining about the young magus to the old man of the magi,

Because except for him I do not have another confidant in the convent."

Though the poetic context of the two couplets is different, they have a similar structure, both of them focuses on the poet who is complaining of his miserable state to the only person or thing he can confide in. Moreover, the two couplets share some key words and ideas (*gūyam* 'I say' used in the meaning, 'I complain', *nīst* 'does not exist' and the words *juz/ḡayr* in the meaning 'except for').

A ghazal by Hafiz using the metre *ramal-i musamman-i mahbūn*, the rhyme *-ān* and a rare *radīf ki ma-purs* 'so do not ask' inspired both Navāyī and Selim to compose a poetic reply

to it [Dīvān-i kāmil-i Hāfiẓ, 1382: 192]. Key elements of the two *matla'*s, especially the evident similarities between the first *mistrā'* of Selim's ghazal and the second hemistich of Navāyī's suggest that the *bayt* was inspired by the first couplet of Navāyī's poem.

Selim I.

*Bī-tu dāram alamī dar dil-i sūzān ki ma-purs*

*V-ān-čunān sūhta-am z-ātaš-i hijrān ki ma-purs* [Dīvān-i Sultān Salīm, 13392: 55a]

“Without you there is sorrow in my burning heart, do not [even] ask about it,

The fire of your absence has burnt me so much that do not [even] ask about it.”

Navāyī I.

*An čunān sūhta-am az ḡam-i hijrān ki ma-purs*

*K-ātaš-am zad ḡam-i hijrān-i tu dar jān ki ma-purs* [Dīvān-i Navāyī, „Fānī”, 1375: 197–198]

The sorrow of [your] absence burnt me so much, do not [even] ask about it,

The sorrow of [your] absence stroke a fire in my soul, do not [even] ask about it.”

Selim's poetry contains a handful of more examples that might be interpreted as a piece of textual evidence of Navāyī's influence on Selim's ghazal poetry but the intertextual allusions in these lines extending to merely one or two “suspicious” words or phrases are very vague. Only a much deeper comparative analysis of the loci in question, which would in some cases involve the close reading of imitation poems composed by other poets as well, could ascertain whether the similarly looking elements in Selim's and Navāyī's poems can be attributed to Navāyī's influence.

As far as the textual paralellisms between Navāyī's and Selim's Persian ghazals are concerned the research work hitherto done on the field has yielded seemingly meagre results which, as it has been suggested earlier, appear to confirm Latīfī's statement only partially. It might be possible however, that Latīfī, who was evidently well-versed in the workings of the classical poetic tradition, did not refer to single poems of Navāyī but meant his

collection of Persian poems as a whole. In this case the sentence in question (*Ekser-i evkātda Dīvān-i Nevāyī tetebbu<sup>c</sup> ederdi*. “He imitated Navāyī’s Dīvān most of the time”) can be interpreted as meaning that the sultan used Navāyī’s *dīvān* as a reference work from whence he learnt how to compose imitation poems and how to select his models. This theory however plausible it may be can only be confirmed by a deeper comparative analysis of the poetic devices Selim and Navāyī applied in their Persian ghazals.

As a conclusion it can be said that the evident connection, the textual paralellisms between of Selim’s and Navāyī’s Persian *dīvān* clearly indicate that Navāyī’s Persian poetry was already considered part of the classical Persian literary tradition in the early 16<sup>th</sup> century, not long after the poet’s death. If it had not been the case Selim who targeted an educated Iranian audience that was well-versed in the classical poetical tradition and could differentiate between good and bad poetry would not have turned to Navāyī’s Persian *dīvān* for inspiration. Nevertheless if we wish to discover how deeply Navayī’s Persian pieces became embedded in the tradition more comprehensive research should be conducted.

### **Bibliography:**

1. Çetindağ, Yusuf, *Ali Şir Nevāi’nin Osmanlı Şiirine Etkisi*. Ankara, 2006. *Dīvān-i balāğat-cunvān-i Salīm Hān-i avval*. Ba-ihtimām-i Pavul Horn. Berlin, 1904.
2. *Dīvān-i Fāni*. Kitābkhana, Mūza va Markaz-i Asnād-i Majlis-i Şūrā-yi Islāmī, 1035.
3. *Dīvān-i kāmil-i Hāfiż*. Ba-ihtimām-i Muhammad Kazvīnī va Kāsim Ganī. Tīhrān, 1382.
4. *Dīvān-i Humāyūn*. Kitābkhana, Mūza va Markaz-i Asnād-i Majlis-i Şūrā-yi Islāmī, 13651.
5. *Dīvān-i kāmil-i Hāfiż*. Ba-ihtimām-i Muhammad Kazvīnī va Kāsim Ganī. Tīhrān, 1382.
6. *Dīvān-i Sultān Salīm*. Kitābkhana, Mūza va Markaz-i Asnād-i Majlis-i Şūrā-yi Islāmī, 13392.
7. Kinalı-zade Hasan Çelebi, *Tezkiretü ’ş-Şu<sup>c</sup>arā*. I. Haz. İbrahim Kutluk. Ankara, 1989.

8. Kleinmichel, Sigrid, Mīr ḡAlīšēr Navā'ī und Ahmed Paşa. // *Archivum Ottomanicum* 17 (1999) 77–211.
9. Latiffi, Tezkiretü's-Şua'arâ ve Tabsiratü'n-Nuzamâ. İnceleme-Metin. Haz. Ridvan Canım. Ankara, 2000.
10. *Majmū'a-yi sih dīvān*. Kitābhāna, Mūza va Markaz-i Asnād-i Majlis-i Šūrā-yi Islāmī, 2658.
11. Mīr ḡAlī-Şīr Navāyī "Fānī", *Dīvān*. Ba sa'ī u ihtimām-i Rukn ad-Dīn Humāyūn Farruh. Tīhrān, 1375.
12. Péri Benedek, I. Szelim szultán kiadatlan perzsa versei I. (Unpublished ghazals by Yavuz sultan Selim. Part I.) // *Keletkutatás* 2015 tavasz, 117–122.
13. Péri Benedek, I. Szelim szultán kiadatlan perzsa versei II. (Unpublished ghazals by Yavuz sultan Selim. Part II.) // *Keletkutatás* 2015 ősz, 113–130.
14. Péri, Benedek, 'From Istāmbōl's throne a mighty host to Irān guided I;/Sunken deep in blood of shame I made the Golden Heads to lie': Yavuz Sultan Selim's Persian poetry in the light of the Ottoman-Safavid propaganda war. // In: Proceedings CIEPO Budapest (Forthcoming).
15. Péri, Benedek, *Az indiai Timuridák és a török nyelv. A török írás és szóbelisége a mogul-kori Indiában (Indian Timurids and Turkic Language. // Turkic Language and Literature in Mughal India)*. Piliscsaba, 2005.
16. Péri, Benedek, Szelim szultán perzsa ġazaljai I. Az első megközelítés. (The Persian ghazals of Sultan Selim I. A First Approach). // In: Dévényi Kinga (szerk.), *Varietas Delectat. Tanulmányok Kégl Sándor emlékére*. Budapest, 2010, 21–45.
17. Sertkaya, Osman Fikri, Osmanlı şairlerinin Çağatayca şiirleri. *Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi* 18 (1970) 133–138.

# ALISHER NAVOIY ASARLARIDA “DUNYO” TIMSOLI VA UNING TALQINLARI

## THE IMAJE OF “DUNYO” (“WORLD”) AND ITS INTERPRETATION IN THE WORKS OF ALISHER NAVAI

Nurboy JABBOROV

ToshDO ‘TAU

(O‘zbekiston)

### *Annotatsiya*

*Maqolada Alisher Navoiy lirik asarlari, “Xamsa” dostonlari va “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasini misolida “dunyo” timsoli va uning talqinlari masalalari tadqiq qilingan. Muallifning aniqlashicha, buyuk mutafakkir “dunyo” timsolini ikki xil ma’noda: 1) inson yashab turgan dunyo; 2) odamzodni ma’rifatdan to’suvchi parda sifatida talqin etilgan. Ilmiy tahlillar natijasida, shoir dunyoqarashining asoslaridan kelib chiqib, Alisher Navoiy asarlarida tarkidunyochilik g‘oyasi ifodalangan. Ulug‘ shoir asarlarida dunyoniga emas, dunyoga bo‘lgan muhabbatni – dunyoparastlikni tark etish g‘oyasi badiiy talqin etilgani ilmiy asoslangan.*

**Kalit so‘zlar:** ijod konsepsiysi, dunyo, dunyoparastlik, poetik timsol, hayot falsafasi, inson kamoloti, badiiy talqin.

### *Annotation*

*The article examines the issue of the image of the “world” and its interpretation on the example of lyric works, dastans “Khamsa” and tazkirs “Nasoiim ul-muhabbat” by Alisher Navoi. According to the author, the great thinker described the image of the “world” from two different perspectives: 1) the world in which a person lives; 2) as a barrier preventing its perfection. As a result of scientific analysis based on the poet’s worldview, it was proved that the idea of renunciation of the world is not expressed in the works of Alisher Navoi. It is scientifically substantiated that in the work of the great poet, the idea of renouncing love for worldly luxury, and not the world, is artistically interpreted.*

**Key words:** concept of creativity, peace, love of worldly luxury, poetic image, philosophy of life, human perfection, artistic interpretation.

O'zbek va jahon navoiyshunosligida bugungi kungacha salmoqli ilmiy-nazariy yutuqlarga erishilgani ma'lum. Tadqiqotchilar tomonidan buyuk shoir va mutafakkir dunyoqarashi hamda falsafiy konsepsiyasining asoslariga doir ilmiy muammolarga e'tibor qaratila boshlagani bu borada yangi natijalarga yo'l ochishi aniq. Alisher Navoiy asarlarida ramz va timsollar poetikasi bir qadar o'rganilgan. Lekin "dunyo" timsoli va uning talqinlari muammosi, ayrim maqolalardagi u yoki bu masala tadqiqi munosabati bilan bildirilgan mulohazalarni istisno qilganda, alohida tahlil etilmagan. Holbuki, ushbu muammoning o'rganilishi buyuk mutafakkir dunyoqarashining asoslari yuzasidan yangi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi.

Alisher Navoiy asarlarida dunyo timsoli ikki xil ma'noda qo'llangani kuzatiladi: 1) inson yashab turgan dunyo; 2) odamzodni ma'rifatdan to'suvchi parda. Hazrat Navoiy asarlari uchun ilmiy-ma'rifiy asos vazifasini o'tagan ilohiy manba – Qur'oni karimda va muborak hadislarda ham "dunyo" tushunchasi ana shu ikki ma'noda zikr etilgan. Alisher Navoiyning "dunyo" tushunchasiga yondashuv konsepsiysi ushbu ikki mo'tabar manbaga asoslanadi. Jumladan, Qur'oni karimdagi: "Rabbimiz, bizga bu dunyoda ham yaxshilikni, oxiratda ham yaxshilikni bergin" [Qur'oni karim 2: 201] oyatida ikki dunyo – inson tug'ilib yashayotgan va oxirat olami yaxshiliklarini tilash ma'nolari ifodalangan. "Dunyo" istilohining "odamzodni ma'rifatdan to'suvchi parda" mazmunida qo'llanishi esa mana bu oyatda yaqqolroq ko'rindi: "Va sizga berilgan narsalar bu dunyoning matohi va ziynati, xolos. Allohning huzuridagi narsa yaxshiroq va boqiyroqdir. Aql yurgizmaysizlarmi?" [Qur'oni karim 28: 60]. Hazrat Alisher Navoiy dunyoqarashi islam e'tiqodining asoslari bo'lgan ana shu kabi ilohiy amrlar ruhida shakllangan va kamolga yetgan. Buyuk mutafakkir asarlarida ko'plab tasavvufiy timsollar qatori "dunyo" timsoli talqinida ham islam ma'rifati

turadi. Komil shaxs va yetuk islom allomasining bu dunyoqarashi ijod konsepsiysi darajasiga o'sib chiqqan. "Dunyo" timsolining har ikkala talqinini shoir asarlari misolida tahlil etishga harakat qilamiz.

**1. "Dunyo" timsolining inson yashab turgan makon ma'nosida talqin etilishi.** Ushbu timsolni bu ma'noda qo'llar ekan, ulug' shoir uning qiymati Do'st yodi bilangina baland ekaniga urg'u beradi. "G'aroyibu-s-sig'ar" devonining 7-g'azali maqta'i ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Navoiy xush ko'rар olamni oting zikridin, yo'qsa,  
Anga do'zax aro o'tdekdurur dunyou mo fiho. [Navoiy 2011 (1): 28].

Hazrat Navoiy asarlarini tadqiq etgan zamonamiz olimlarining aksari "dunyo" va "din" istilohini qarama-qarshi qo'yadi. Ular nazdida, bu ikki tushuncha bir-biriga zid, bir-birini inkor etadi. Bizningcha, bunday qarash tafakkurimizga kommunistik mafkura solgan kishan natijasidir. Moddiyunchilikdan qolgan bir asoratdir. Bunday mezon asosida yondashilsa, tabiiyki, hazrat Navoiy asarlari mohiyatiga yetib bo'lmaydi. Buyuk shoir asarlaridagi ma'nolar xazinasini moddiyunchilik kaliti bilan ochish amri mahol. Chunki bunday dunyoqarash hazrat Navoiy e'tiqodiga, ijod konsepsiyasiga ham zid ekan ayon. Buyuk bobokalonimiz asarlariga ular oziqlangan asl manbalar asosida yondashilsagina beqiyos bu xazina o'z sirlarini birma-bir ocha boshlaydi. Aslida, dindan, xususan, islomiyatdan ko'zlangan bosh maqsad – insoniyatning axloqini mukammal darajaga ko'tarish ekanı ma'lum. Muhammad alayhissalomning: "Men makorim axloqni (olianob xulqlarni) mukammal darajaga yuksaltirish uchun yuborildim", mazmunidagi hadisi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ana shu mezondan yondashilsagina yuqoridagi bayt mazmunini to'g'ri talqin etish mumkin: *Navoiy olamni Sening otingni yod etish imkoni borligi uchungina xush ko'radi. Yo'qsa, dunyo va undagi barcha narsalar uning uchun bamisoli do'zax o'tiga aylanadi.* Demak, hazrat Navoiy uchun dunyoning, inson umrining asl mohiyati Haq taoloning zikri bilan bog'liq. Yaratganning yodisiz dunyo o'z mohiyatini yo'qotadi. Ma'lum bo'ladiki, hazrat Navoiy uchun dunyo, din va Tangri taolo ma'rifati bir-birini taqozo etuvchi, biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmaydigan tushunchalardir.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida Abu Ya’qub Nahrajuriy tilidan mana bunday ta’rif keltirilgan: “Dunyo – dengiz, oxirat – uning sohili, kemasi – taqvo. Odamlar safar qiluvchilardir” [Navoiy 2011 (10): 164]. Chuqurroq e’tibor berilsa, ushbu ta’rifda dunyoning mohiyatini hazrat Navoiy qanday tushungani, buyuk adibning falsafiy tafakkuri nechog‘liq teran ekani yaqqol namoyon bo‘lgan. Bunday yondashuv dunyo, oxirat va inson hayoti tushunchalarining o‘zaro chambarchas bog‘liq ekani isbotidir.

Buyuk mutafakkir nazdida, komil inson ikki dunyo obodligini maqsad qilmog‘i zarur. Muborak hadis mazmunidan kelib chiqib, “Dunyo – oxiratning ekinzoridir”, degan xulosaga kelishi sababi shunda. “Hayrat ul-abror”ning beshinchi maqolatida o‘qiymiz:

*Dunyo erur mazraai foxira,  
«Addunyo mazraatu-l-oxira».*

*Munda ekib anda o‘rarsen yaqin,  
Jahd etkim bo‘lmaq‘asen xo‘shachin.*

*Munda ekinlarga tafovut durur;  
Yaxshirog‘i judu saxovat durur;*

*Tarki tama’qilki saxo ul emish,  
Bazlda sarf etki ato ul emish* [Navoiy 2011 (6): 131].

Ulug‘ shoir fikricha, odamzod bu dunyo hayotida nima eksa, oxiratda shuni o‘radi. Lekin ekinlar orasida ham o‘zaro farq bor va ularning yaxshirog‘i saxovatdir. Saxiylik qilmoqqa quvvati kelmagan kishi tamani tark etmog‘i zarurki, u ham saxovatdir. Chinakam saxovat esa mol-mulkidan ehson qilmoqdir.

Navoiyning buyukligi shundaki, u ushbu g‘oyalarni asarlarida yozish bilangina cheklanmagan, balki hayotda ham aynan shunday yashagan. G‘iyosiddin Xondamirning yozishicha: “...karomat egasi bo‘lgan bu Amir (*hazrat Navoiy – N.J.*) mansab va lavozimda ishlab yurgan chog‘lari qashshoqlar va darveshlarga moddiy yordam berish hamda yo‘lovchilar va musofirlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida Xuroson mamlakatining turli joylarida ko‘plab xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, ko‘priklar va hammomlar qurbanlar”

[Xondamir 2018: 121]. Bundan tashqari, “Makorim ul-axloq”da yozilishicha, Ixlosiya madrasasi qarshisidagi Xalosiya xonaqohida har kuni mingdan ortiq qashshoq va miskinlarga lazzatli taomlar berilgan, har yili muhtoj kishilarga ikki mingga yaqin po’stin, chakmon, ko’ylak, ishton, yengil do’ppi va oyoq kiyim ulashilgan.

Ma’lum bo’ladiki, “dunyo”ni inson tug‘ilib o’sgan va yashab turgan makon ma’nosida talqin etar ekan, buyuk ijodkor uni insonga ezgu amallar qilmoq, kamolotga erishmoq uchun berilgan imkoniyat, deb qaragan. Buyuk shoir bu dunyodagi umrni behuda o’tkazmaslik, ogoh qalb, uyg‘oq tafakkur bilan yashash g‘oyasini ilgari suradi. Vaqtni “nafas” tushunchasi bilan ifodalagani ham ulug‘ mutafakkirning inson umriga yuksak mezon asosida yondashgani isbotidir. *“Har nafasing holidin ogoh bo’l, Balki anga hush ila hamroh bo’l”* [Navoiy 2011 (6): 262], deya insonni dunyo hayotiga mas’uliyat tuyg‘usi bilan qarashga da’vat etadi. E’tiborga sazovor jihat shundaki, buyuk mutafakkirning o’zi umrini ana shu yuksak mezonga muvofiq yashadi.

**2. “Dunyo” timsolining odamzodni ma’rifatdan to‘suvchi parda sifatidagi talqini.** Hazrat Navoiy asarlarida ushbu timsol bu ma’noda keng va ko’lamli qo’llangan. Teran falsafiy mazmun va mukammal badiiyat asosida ifodalangan. Ulug‘ mutafakkirning dunyo haqidagi qarashlari chuqur hayot falsafasini mujassam etgani bilan alohida ahamiyatga ega. Buyuk shoir falsafiy qarashlari negizida ham Qur’oni karim ta’limoti turadi. Oli Imron surasidagi mana bu oyat mazmuni buning isbotidir: “Odamlarga ayollardan, bolalardan, to‘p-to‘p tillo va kumushdan, go‘zal ottardan, chorvadan, ekin-tikindan iborat shahvatlarning muhabbatи ziynatlandi. Ular dunyo hayotining matohidir. Va Alloh – huzurida go‘zal qaytar joy bor Zotdir” [Qur’oni karim 3: 14]. Mazkur oyati karimani Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf quyidagicha tafsir qilgan: “Oyati karimada ushbu narsalarning muhabbatи ziynatlandi, deyilmoqda... Modomiki, ushbu rag‘batlar inson tabiatida bor ekan, Allohnинг O‘zi insonni shunday yaratgan ekan, bu narsalar inson hayotini muhofaza qilishda, uning go‘zal va zavqli kechishida xizmat qilmog‘i lozim. Shuning uchun islom dini bu narsalarni man qilishni emas, tartibga solishni yo‘lga qo‘ygan. Islom kishilarni tarbiya qilib, shahvat daryosida halok

bo‘lmaslikka chaqiradi. Inson mazkur shahvatlarning quli bo‘lib qolmasligi kerak. Balki, u ularning xojasi bo‘lib, o‘z tasarrufiga olishi darkor” [Shayx Muhammad Sodiq 2008: 316-317].

Hazrat Navoiy asarlarida ham dunyo emas, dunyoparastlik inkor etiladi. Dunyoni emas, dunyoga muhabbatni tark etishga chaqiriladi. Mana bu bayt ayni shu konseptual qarashni ifoda etgani bilan ahamiyatlidir:

*Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,  
Bir yo‘li bo‘lma zabun bu zoli makkor ollida.* [Navoiy 2011 (1): 47]

Buyuk shoir she’rlarida “dunyo” timsoli aksar “ayol” obrazi orqali suvratlanadi. Asli arabcha so‘z bo‘lgan “dunyo” ayol jinsi (jenskiy rod)ga mansub ekani ma’lum. Yuqoridagi oyati karimada ham odamlarga ziynat qilib ko‘rsatilgan shahvatlar haqida so‘z ketar ekan, birinchi navbatda, “ayollar” tilga olingan. Hazrat Navoiy dunyo arusi – kelinchagini taloq qilishni erlikning muhim sharti sifatida talqin etadi. Ziynatlanib kelin suvratida ko‘ringani bilan u, aslida, “zoli makkor” – makru hiylani hayotiy a’mol qilgan kampir ekanini aytib, uning oldida hech qachon zabun bo‘lmaslikka chaqiradi. O‘zagi “dun” bo‘lgan “dunyo” so‘zi, bundan tashqari, “turbanlik”, “pastlik” ma’nolarini ham anglatadi. Ya’ni, buyuk mutafakkir nazdida, dunyo – insonning Haq ma’rifatiga erishmog‘i yo‘lidagi to‘sinq, uni turbanlikka qulatguvchi illatdir. Ham lug‘aviy ma’no, ham jins, ham asl mohiyat, ham badiiy talqin jihatidan bu darajadagi uyg‘unlik – yuksak balog‘at va fasohat samarasi. Bunday mutanosiblik, birinchidan, hazrat Navoiyning falsafiy va poetik tafakkuri nechog‘liq teran va o‘zaro uyg‘un ekanini ko‘rsatsa, ikkinchidan, ulug‘ shoir asarlaridagi g‘oyalar mo‘tabar manbalardan oziqlangani isbotidir.

Mana bu baytda ham teran hayot falsafasi ulug‘ shoir konsepsiyasiga muvofiq talqin etilgan:

*Olg‘ali dunyo arusin, eyki, sotting naqdi din,  
Umr sotib, marg olmoq angla, bu sotig ‘-olig’.* [Navoiy 2011 (4): 305]

Tasavvufshunos Sayyid Sajjodiy “dunyo” timsolini izohlar ekan, Abu Homid G‘azzoliyning mana bu fikrlarini keltiradi: “Dunyo

jodusining avvali shuki, u seniki bo‘lib ko‘rinadi, go‘yo doimo shunday bo‘lib qoladigandek yoki shunday qaror topgandek. Holbuki, u og‘uvchandir, borgan sari sendan uzoqlashadi, o‘z harakatida darajama-daraja davom etadi. Uning misli soyadirki, u hech qachon birday turmaydi. U harakatlanib, o‘zgarib boradi. Ma’lumki, sening umring ham xuddi shunday bardavom o‘tib boradi.

Dunyoning yana bir sehri (makri) shuki, u senga do‘sit bo‘lib ko‘rinadi. Bu hol seni o‘ziga oshiq qilguncha davom etadi. Nogoh bir vaqt uning senga dushmanligi ko‘rinadi. U nobakor ayolga o‘xshaydiki, erga o‘zining kelishgan joylarini ko‘rsatib, oshiq qiladi va xonasiga boshlab, u yerda halok qiladi” [Sajjodiy 1992: 394].

Tabiiyki, bu fikrlar ulug‘ shoirning yuqoridagi bayti mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bayt mazmuni: *Dunyo kelinchagini olmoq uchun din naqdini sotgan, ey kimsa! Bu sotig‘-olig‘ning mohiyatini anglaginki, umringni halokatinga almashding.*

Hazrat Alisher Navoiy asarlarida dunyo timsoli “yaltiroq chivin” obrazi orqali ham badiiy talqin etiladi. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi 22- qit’aga: “Takalluf ahlining dunyog‘a sheftalig‘idavu dunyolikka fireftalig‘ida”, degan sarlavha qo‘yilgan. “Takalluf ahli” – o‘zini kulfatga solganlar toifasi. Ulug‘ mutafakkir nazdida, ular dunyoga mubtalo bo‘lgan va dunyolikka aldangan kimsalardir. Demak, hazrat Navoiy nazdida, dunyoparastlik – o‘zini kulfatga solmoqdir. Qit’ada ana shu falsafiy qarash ta’sirchan obraz vositasida poetik talqin etilgan:

*To ‘nni zarbaft aylabon xiffatdin uchqan har taraf,  
Yo‘q ajab gar bor esa dunyo matoi kom anga.*

*Ul chibinkim, ko‘zga oltun yanglig‘ yashnar xil’ati,  
Ko‘pragi, bilkim, najosat uzradur orom anga.* [Navoiy 2011 (1): 713]

Qit‘a mazmuni: *Zarbaft to ‘n kiygani bilan g‘ururlanib, har tarafga yengilgina uchib yurgan kimsaning yashashdan maqsadi dunyo matohi bo‘lsa, bunga ajablanmaslik kerak. U ustki tarafi ko‘zga bamisoli oltinga o‘xshab ko‘rinadigan chivinga o‘xshaydiki, oxir-oqibat orom oladigan joyi najosatdir.* Ya’ni, hazrat Navoiy fikricha, dunyo matohini umr mazmuniga aylantirgan kishi pok yashamog‘i

mahol. Chunki u ushbu muddaosiga erishmoq yo‘lida har qanday tubanlikdan, hatto haromdan ham qaytmaydi. Bunday kimsa zohiran oltinday tovlansa ham, aslida najosat ichida yashaydigan chivinning holiga tushmog‘i muqarrar. “Mahbub ul-qulub”dagi mana bu so‘zlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: “*Zarbaft kisvatlig‘ dunyoguzin najosat ustidagi yiltirog ‘uchi chibin*”. [Navoiy 2011 (9): 532].

“Favoyid ul-kibar” devonidan olingan mana bu baytda ham ayni shu mohiyat ifodalangan:

*Dunyo asbobi najosat kebidur mazbalada,*

*Pokravlar nechuk o‘zni anga qilg‘ay mash’uf.* [Navoiy 2011 (4): 308]

Hazrat Navoiy dunyo asbobi – ashylarini najosatga qiyoslagani bejiz emas. Zero, dunyo matohiga hirs qo‘yish odamzodning ko‘nglini qoraytiradi. Uning qalbida mol-dunyoga egalik qilish yo‘lida hech qanday yomonlik va qabohatdan qaytmaslik hissini paydo qiladi. Buyuk bobokalonimiz insoniyatni ana shu illatdan saqlanishga chaqirish barobarida, o‘zi hayotda bunga to‘liq amal qilgani e’tiborga loyiqidir. Xondamir “Makorim ul-axloq”da ul zotning “...hech qachon o‘tkinchi mol-dunyoga bo‘lgan muhabbat changini va bu dunyoning narsalariga bo‘lgan qiziqish g‘uborini o‘zining himmat etagiga qo‘ndirmagan”ini [Xondamir 2018: 116-117] ta’kidlagani ulug‘ mutafakkirning so‘zida o‘zi aks etganidan, yozganlariga hayotda to‘liq amal qilganidan dalolat beradi. Buyuk shoir hirsu havas xirmoni barbod, nafsu havo qasri barafrod, zulmu sitam joniga bedod bo‘lmog‘i el shodligi va mamlakat obodligining asosi ekanini ta’sirchan badiiy talqin etdi. O‘zi namuna bo‘lib, butun salohiyatini ana shu g‘oyalarining hayotda tasdig‘ini topishi yo‘liga safarbar qildi. Mamlakat hukmdori Sulton Husayn Boyqaroni shunga da’vat etdi. Yurtda osoyishtalik, jamiyatda ma’naviy yuksalish bo‘lishiga amalda ham erisha oldi.

Shu o‘rinda masalaning muhim bir jihatiga e’tibor qaratish zarurati seziladi. Hazrat Alisher Navoiyning dunyo haqidagi ushbu qarashlari zinhor tarkidunyochilik ma’nosida tushunilmamasligi zarur. Bu muammoni alohida o‘rgangan tasavvufshunos Ibrohim Haqqul mana bunday yozadi: “Tark yoki tarki dunyo degani nisbiy bir gap bo‘lib, uni jahondagi har turli yomonlik, g‘irromlik, tubanlik,

g‘ayriinsoniyliklarga tanqidiy munosabat mazmunida anglash lozim” [Haqqulov 2017: 12].

Haqiqatan, hazrat Navoiy asarlarida dunyonи emas, uning hoyu-havaslarini tark etish g‘oyasi badiiy talqin etilgan. Zero, buyuk mutafakkir e’tiqodining asosi bo‘lgan islomda ham, ushbu muqaddas din asosida shakllanib taraqqiy etgan ulug‘ Navoiy mansub naqshbandiya tariyatida ham tarkidunyochilik va dunyoga hirs qo‘yish qoralangan. Ijodda ham, hayotda ham dunyoga bo‘lgan muhabbatni tark etish g‘oyasi ustuvor sanalgan. Bu esa, shaxs va jamiyat ma’naviyati yuksalishida asos-zamin vazifasini o‘tagan.

Xulosa qilib aytganda, hazrat Alisher Navoiy asarlarida “dunyo” timsolini badiiy talqin etar ekan, insoniy kamolot yuksakligida turib ijod qilgan. Ushbu timsolini odamzod yashab turgan makon sifatida tasvirlaganda ham, uni kamolotdan to‘suvchi parda o‘laroq ta‘vil etganda ham, Sharq islom e’tiqodi nuqtai nazaridan turib munosabat bildirgan. Dunyoparastlikni qoralash orqali inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishni shaxs va ijodkor sifatidagi muqaddas burchi, deb bilgan. Eng muhimmi, asarlarida ilgari surilgan ulug‘ vor g‘oyalarga hayotda ham og‘ishmay amal qilgan. Buyuk mutafakkir asarlaridagi barcha zamonlar uchun ahamiyatli sanalgan bu kabi obraz va timsollar mohiyatini yanada chuqur va ko‘lamli tadqiq etish navoiyshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardandir.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сигар. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
4. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.

5. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011.
6. Сайид Сажжодий. Фарҳанги истилоҳоти ва таъбироти ирфоний. Техрон, 1992.
7. Хондамир, Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ. - Тошкент: Академнашр, 2018.
8. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Биринчи жуз. – Тошкент: Шарқ, 2008.
9. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi (Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf). – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020.
10. Ҳаккулов И. Навоий шеъриятида “тарк” тушунчаси ва талқинлари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, 1-сон.

# NİZAMI GÖNCƏVİNİN “İSGƏNDƏRNAMƏ”SİNDE MÜDRİK VƏ İDEAL OBRAZIN TƏRƏNNÜMÜ

## A SONG OF A WISE AND IDEAL IMAGE IN THE «ISKANDERNAMA» OF NIZAMI GANJAVI

Almaz ÜLVİ (Binnətova)

*Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu  
(Azərbaycan)*

### *Özet*

Bu məqalədə Nizami Gəncəvinin «İsgəndərnamə» dastanı məsələsi və bu əsərdə müdrik və ədalətli kral obrazının bədii şərhindən bəhs olunur.

**Anahtar kelimeler:** Nizami Gəncəvi, “Xəmsə”, “İsgəndərnamə”, Azərbaycan ədəbiyati, fars-tacik ədəbiyati, İsgəndər obrazi, Y.E.Bertels, H.Arası, dahi sərkərdə, ideal şah.

### *Annotation*

This article discusses the issue of Nizami Ganjavi's epos “Alexander's Letter” and the artistic interpretation of the image of the wise and just king in this work.

**Key words:** Nizami Ganjavi, “Khamsa”, “Iskendername”, Azerbaijani literature, Persian-Tajik literature, the image of Alexander, E.E.Bertels, H. Arası, genius warrior, ideal shah;

Nizami Gəncəvi dünya ədəbiyyatının ən parlaq nümayəndələrindən biridir. “Bu gün dünyanın bütün ölkələrində adı böyük hörmət və məhəbbətlə çəkilən, öz adı ilə birlikdə doğulduğu Gəncə şəhəri və onu etirən Azərbaycan xalqını da şöhrətləndirən dahi söz ustası Nizami Gəncəvi təkcə bir ölkənin, bir qitənin deyil, bütün bəşəriyyətin fəxr etdiyi nadir sənətkarlardandır” [1, 233]. O, dünya ədəbiyyatı xəzinəsinə qiymətli töhfələr vermişdir. Nizami Gəncəvi ədəbiyyat aləmində özünün “Xəmsə”si (“Beşlik”) ilə məşhurdur, buraya ona dünya şöhrəti gətirən beş romantik poema daxildir.

Bir janr forması olaraq “Xəmsə” yaradılmasına görə dahi Nizami Gəncəviyə borcludur. Məlum olduğu kimi, şərq xalqları ədəbiyyatında onlarca “Xəmsə” var ki, bunlar Nizami Gəncəvi “Xəmsə”-sinin əsas ideya-bədii xüsusiyyətlərini təkrarlayır. Qeyd etmək lazımdır ki, Firdovsinin “Şahnamə”sinin “Xəmsə”nin yaradılmasında böyük rolü olmuşdur. Nizami Gəncəvinin “Xəmsə”sində üç poemanın – “Xosrov və Şirin”, “Yeddi gözəl” və “İsgəndərnamə”nin əsas mənbələrindən biri məhz Firdovsinin “Şahnamə” əsəridir. Bununla bağlı olaraq Nizami Gəncəvi “Yeddi gözəl”də yazar:

*O zaman aradım, tarixə keçdim,  
İncə ürək açan dastanlar seçdim.  
Şahların çox uzun tarixi vardi,  
Birindən bir əsər yazmaq olardı.  
Bir dərin fikirli varmış ki, o tək  
Yazmış bu şeyləri nəzmə çəkərək.  
Yerdə qırıntılar qalmış ləldən,  
Onu da çoxları buraxmaz əldən.  
Gövhər ustadirək mən də yaratdım,  
Belə xəzinəni ortaya atdım [7, 27].*

Bu misralarda Nizami Gəncəvi “şahların çox uzun tarixi” deyərkən Əbu Mənsurun “Şahnamə”sini, “bir dərin fikirli” sözləri altında isə Firdovsini nəzərdə tutur. Hesab edildi ki, hər hansı beşlik tipli əsərlərin ekun hissəsi bütün bu top-lunun ideya-bədii xüsusiyyətlərinin parlaq ifadəsi olmalıdır. Bu ənənə Xəmsə yazılmasının dahi təşəbbüsçüsü, başqa sözlə, janr forması kimi “Xəmsə”nin banisi tərəfindən qoyulub. Nizami Gəncəvi “İsgəndərnamə” poemasını yazarkən məhz bu cür hərəkət edib. O, əsər üzərində uzun illər işləmiş və onu ölümündən bir qədər əvvəl bitirmişdir. Nizami Gəncəvinin beş poeması arasında “İsgəndərnamə” ən sonuncudur və bu əsər onun yaradıcılığında xüsusi er tutur. Cəsarətlə deyə bilərik ki, bu poema onun vəsiyyətidir: “Yeni dövlət quruluşu olaraq xəyalı, hökmdarsız xalq hakimiyyəti fikrini” söyləməsi [1, 127]” və s. bu kimi arzularını diqqətə çəkmək olar.

Azərbaycan ədəbiyyatında Nizami Gəncəvi irsinin ən məşhur və dərin tədqiqatçısı akademik Həmid Araslı hesab olunur. Ondan sonra Əliyar Səfərli və Xəlil Yusiflinin tədqiqatlarını deyə bilərik. Nizami

Gəncəvi yaradıcılığının digər tədqiqatçısı Qulamhäuseyn Əliyev bu ədəbi abidə ilə bağlı deyir: “Şairin sonuncu əsəri – “İsgəndərnamə” təbiət, başlıcası isə insan cəmiyyəti haqqında o zamankı biliklərin mübaliğəsiz olaraq ensiklopediyası kimi düşünülmüşdür. Ona görə də Nizami Gəncəvi sanki ehtiyatlanır ki, oxular bu və ya digər səbəb üzündən onun qiymətli fikirlərini anlamaya bilərlər” [4, 8] Y.E.Bertels məhz bu barədə belə deyir: “O, poemanın bütün dərin fikirlərini başa düşmək qüdrətində olan dinləyici arzusundadır” [3, s.445]. Nizami Gəncəvi özü bununla bağlı deyir:

*Belə bir dəyərli gövhərlə, dostlar,  
Bir gövhər sevənə ehtiyacım var.  
İstərəm eylə bir kamil dinləyən,  
Şairlik sırrını öyrənsin məndən! [5, 7]*

Nizami Gəncəvi yaradıcılığının süjet və ideya-mövzu əsaslarını nəzərdən keçirərkən, belə bir sual yaranır: Nizami Gəncəvi nə üçün öz “Xəmsə”sinin son hissəsində Makedoniyalı İsgəndərə müraciət edib və o, hansı mənbələrdən faydalananı? Nizami Gəncəvinin həyat və yaradıcılığını tədqiq edərkən, belə bir nəticəyə gəlmək olar ki, dahi şairi ideal hökmdar – alicənab, qüdrətli, adil hökmdar obrazı yaratmaq fikri tərk etməmişdi. Elə bir hökmdar ki, başqlarına nümunə olsun, onları öz xalqlarının taleyi barədə düşünməyə vadər etsin, insanları iztirablardan qurtarsın, xalqın xoşbəxtliyi və firavanlığı qayğısına qalsın. Özünün daha əhəmiyyətli bədii əsərini yaradarkən şair qarşısına böyük əksəriyyət tərəfindən başa düşülmək vəzifəsi qoymuşdu. İdeal hökmdar ideyasının əks olunması üçün Makedoniyalı İsgəndər obrazı daha məqsədə uyğun idi. İsgəndər ən məşhur və populyar sərkərdələrdən biri sayılırdı. “Zülqərneyn “Qurani-Kərim”in “Kəhf” surəsində öz ölkəsini ədalətlə idarə edən hökmdar kimi təqdim edilir. Ona Allah dərgahından elm və hikmət bəxş olunmuşdu. Dünyanın həm qərbinə, həm də şərqiñə hakim olduğuna görə Ona “hər iki cəhətin hökmdarı” mənasını bildirən “Zülqərneyn” ləqəbi verilmişdi.” (“Qurani-Kərim”in 83-98-ci ayələrində İsgəndər və Zülqərneyn adı ilə haqqında bəhs edilir) [8].

Bu obraz və süjet bütün dünyada tanındı. Makedoniyalı İsgəndər haqqında rəvayətlər ellin-Roma mədəni mühitində artıq çoxdan bitkin roman kimi formalaşmışdı. Şübhəsiz, makedoniyalı

istilaçının obrazı ilə bağlı əhvalatların müxtəlif xalqlar arasında qeyri-adi şəkildə geniş yayılma-sından Nizami Gəncəvidə xəbərdar idi.

Müxtəlif dillərdə müxtəlif versiyaların mövcudluğu da şairə məlum idi. Nizami Gəncəvi özü “İsgəndərnamə”də yazar ki, bu poemaya başlayarkən İsgəndər haqqında yazılanları öyrənmək məqsədilə çox zəhmət çəkib. O, bütün bu yazınlara tənqidi yanaşırdı. Nizami Gəncəvi onu da qeyd edir ki, poemanın yazılmamasından öncə müxtəlif mənbələr üzərində gərgin iş aparıb. Lakin araşdırıldığı materiallalar arasında bütünlükə İsgəndərə həsr olunan heç bir əsər yox idi:

*İsgəndər haqqında heç bir əsərdə  
Məlumat görmədim yiğcam bir erdə.  
Sözlərlə dolmuşdu xəzinə içi,  
Ancaq hər nüsxədə dağınış inci.  
Hər köhnə nüsxədən əsas alaraq,  
Onu öz şeirimlə bəzədimancaq.  
Ən qədim tarixi əsərlərdən mən,  
Yəhudü, nəsrani, pəhləvilərdən  
Ən incə sözləri əlimə saldım,  
Qabiğı ataraq, məğzini aldım [5, 54].*

Nizami Gəncəvinin sözlərindən gördüyüümüz kimi, şairin poemasının mənbə dairəsi çox genişdir və ona İsgəndər haqqında müxtəlif əsərlər məlum imiş. Onların sırasında həm pəhləvi dilində yazılmış İran, həm yəqin ki, Suriyanın nəzərdə tutulduğu yəhudi və həm də “xristian”, hər şeydən öncə ehtimal ki, gürcü və yunan mənbələri olub. Bəs Nizami Gəncəvi məhz hansı mənbələri göstərir? Bu sualın cavabını Nizami Gəncəvi yaradıcılığının tədqiqatçısı Y.E.Bertelsdə tapmaq olar. O deyir: “Ən eni tarixi əsərlər deyərkən, o, əlbəttə ki, ərəb və fars xronikasını diqqətə alırmış. Bəs yəhudi və xristian kitablarından danişarkən nəyi nəzərdə tuturdu? XII əsrдə Azərbaycanın və ələlxüsus da Gəncənin etnik tərkibinə əsaslanmaqla, güman etmək olar ki, şair ya birbaşa, ya da üçüncü şəxslərin köməyi ilə Suriya, yunan və gürcü mənbələri ilə də tanış imiş. Beləliklə, sərf “müsəlman” rəvayətlərindən başqa, onun antik dünya ənənələrinə doğru ikinci bir yolu da açılmışdı” [3, 350]. Y.E.Bertels Nizami Gəncəvinin öz poemasının materialları üçün istifadə etdiyi mənbələr

dairəsinin qeyri-adi dərəcədə geniş olmasına can atdığını xüsusi qeyd edir. Alim daha sonra yazır: “Hətta İsgəndərin ömür yolunu təsvir edərkən də yalnız İran aristokratiyasına xidmət etmək vəzifəsini qarşısına məqsəd qoyan Firdovsidən tam fərqli olaraq, Nizami Gəncəvi elə bir kitab yaratmaq istəyir ki, Azərbaycanın bütün xalqları üçün məqbul olsun” [3, s.350]. Nizami Gəncəvi üçün İsgəndər - İran şahlarından biri deyil, fəqət Rum (Bizans) hökmardır. Lakin İran tarixinin bir hissəsi olmayan İsgəndər Rum tarixinə də daxil edilməyib: Nizami Gəncəvinin tarix maraqlandırmır. Şairin diqqət mərkəzində bəşəri dəyərlərdir. İsgəndərin həyatı bu dəyərləri dərk etməkdən ibarətdir.

Nizami Gəncəvi İsgəndər obrazını yaratmaq üçün fars mənbələrindən başqa, həmçinin ərəb, yəhudİ və xristian mənbələrindən də istifadə edib. Bu cür müxtəlif mənbələrə müraciət edən Nizami Gəncəvi onlardan yalnız xoşuna gələn süjet və məlumatları seçib, bəyənmədiyi faktları isə göstərməyib. O, həmçinin Firdovsinin süjetini təkrarlamadan da çəkinmiş, müstəsna hallarda və yalnız öz təhkiyəsinin cəlbediciliyini gücləndirmək məqsədilə ona müraciət etmişdir. Nizamiüşunas Həmid Arası qeyd edir ki, “Nizami dilində tez-tez təsadüf olunan xalq ifadələri, Azərbaycan sözləri və zərbü-məsəllərinə rast gəlinir. Fars şərhçilərinə və Avropa tədqiqatçılarına məlum olmayan bu ifadələrin hamısına Azərbaycan şifahi xalq ədəbiyyatının qədim nümunələrində təsadüf olunur” [1, 167]. Nizami Gəncəvinin istifadə etdiyi mənbələr etərinə rəngarəngdir. Bu mənbələr ilk növbədə ərəb, fars, yəhudİ (Suriya) və xristian (yəqin ki, gürcü və yunan) kitablarıdır. Lakin yuxarıda xatırlanan yazılı materiallarla yanaşı, o, Makedoniyalı İsgəndər haqqında erli şifahi Azərbaycan əfsanələrini də poemaya cəlb etmişdir. Bu mənbələrdən əxz edilən məlumatlar şairin yaradıcı təxəyyülü ilə tamamlanmışdır.

İsgəndər obrazının ədəbiyyatda və folklorda əks olunması problemlərinin öyrənilməsinə dair maraqlı tədqiqatlar müəllifi Y.A.Kostyuxin qeyd edir ki, “Nizami Gəncəvi Şərq xalqlarının əksəriyyətinə məlum olan İsgəndər haqqında rəvayətləri poemasına daxil etmişdir - onlardan ən məşhuru İsgəndərin buynuzları ilə bağlıdır. Nizami Gəncəvinin əsərində İsgəndərin vəsiyyəti barədə

hekayət də vardır: İsgəndər vəsiyyət edib ki, onu ovcunda sıxdığı bir çımdık kül və əli yuxarı qalxmış vəziyyətdə dəfn etsinlər. Bu hekayətə Azərbaycan folklorunda rast gəlinir, qazaxlarda da belə bir hekayət vardır.

Bu əhvalatın Nizami Gəncəviyə qədər olmasını, yoxsa şairin yalnız özünəməxsus olduğunu söyləmək çətindir. Lakin Nizami Gəncəvi poemalarının xalq yaradıcılığı ilə bağlılığı faktı səciyyəvidir. Bu hekayət poemanın əsas ideyalarından biri ilə həməhəngdir – həyatın faniliyi. Ona görə də demək olar ki, folklor hekayətləri poemanın ideya məzmununa öz töhfəsini vermişdir. Tamamilə qanuna uyğundur ki, Nizami Gəncəvidə folklor janrları sırasından ən çox iibrətamız hekayətlərə rast gəlinir, belə ki, bu hekayətlərin açıq didaktikası poemanın qarşıya qoyduğu vəzifələrə daha yaxşı cavab verir” [9, 80]. Y.A.Kostyuxinin sözləri bizi belə bir qənaətə gətirir ki, xalq yaradıcılığı da həmçinin poemanın mənbələrinə daxildir və Nizami Gəncəvi folklor hekayətlərinə istinad etmişdir. Bu haqda akademik Həmid Araslıının “Nizamidə xalq sözləri, xalq ifadə və zərbül məsəlləri”, “Nizami və Azərbaycan xalq ədəbiyyatı” və s. tədqiqatları çox qiymətlidir.

Beləliklə, “İsgəndərnamə” poemasının mənbələrini bir erə cəmləyərək və Psevdo Kallisfenin “İsgəndər haqqında roman”ının ayrı-ayrı elementlərini Firdovsinin və Nizami Gəncəvinin versiyaları ilə müqayisə edərək bir sıra oxşarlıqlar aşkarlanır. Qeyd etmək lazımdır ki, Firdovsinin və Nizami Gəncəvinin İsgəndər haqqında poemalarının oxşar və fərqli cəhətlərinə Qulamhäuseyn Beqdili də diqqət etirmişdir. O, “Firdovsinin “Şahnamə”sində və Nizami Gəncəvinin “İsgəndərnamə”sində İsgəndər obrazı” adlı əser yazmışdır [2]. Həmin araştırma iki hissədən ibarətdir. Müəllif birinci hissəni Firdovsinin “Şahnamə”sinə həsr etmiş, “Daranın İsgəndərlə görüşü”, “Firdovsi və dünyani istila edənlərə onun verdiyi dərs”, “Vətənpərvərlik problemi” və başqa bu kimi mövzuları sərf-nəzər etmişdir.

Öz tədqiqatının ikinci hissəsini Qulamhäuseyn Beqdili Nizami Gəncəvi nin “İsgəndərnamə” əsərindəki İsgəndər obrazına həsr etmiş, bu hissəni qırx söhbətə bölmüşdür. Bu hissədə “İsgəndər və Şərq”, “Nizami Gəncəvi və enilməz İsgəndər”, “Əhəmənilər sülaləsinin süqutu” və digər problemlər təhlil edilmişdir. Qulamhäuseyn Beqdilinin

tədqiqatının mühüm xüsusiyyəti onun “İran tarixi”, “Xudoynamak”, “Fars dövləti tarixi”, “Oyinnamak”, “Səmənilər dövlətinin tarixi” və s. kimi mötəbər mənbələrdən istifadə etməsindədir. Q.Beqdilinin əsərinin digər xüsusiyyəti ondan ibarətdir ki, o, Makedoniyalı İsgəndərin hərbi yürüşlərinin xəritəsini təqdim etmiş, həmçinin məşhur alim Vahid Dəstgərdi tərəfindən aparılmış və “Gəncəvinin xəzinəsi” kitabında dərc olunmuş Firdovsi və Nizami Gəncəvinin əsərlərinin müqayisəsini təqdim etmişdir.

Zülmət dünyasında dirilik suyunun axtarışı, Dara və İsgəndər arasında “bəxşış” mübadiləsi, Porla (For) mührəribə, İsgəndərin çarıça Kandaka (Kaydofa, Nüşabə) ilə görüşü və başqları Psevdo Kallisfenin “İsgəndər haqqında roman”ı ilə Firdovsi və Nizami Gəncəvi versiyalarının əsas ümumi epizodlarını təşkil edir. Məsələn, İsgəndərin müdrik və ədalətli Bərdə hakimi Nüşabə ilə görüşü. Məhz belə bir epizod Psevdo Kallisfenin “İsgəndər haqqında roman”ında vardır. Burada Makedoniyalı İsgəndər Əndəlusa yola düşür və çarıça Kandaka ilə görüşür. Ərəb xronikalarında və Firdovsidə Kandaka adı çox asanlıqla Keydofe forması almışdır. Nizami Gəncəvi bu hadisələri bilərkəndən doğma Azərbaycana, sevimli şəhəri Bərdəyə keçirmişdir. O, öz qəhrəmanını Azərbaycana gəlməyə və ağıllı qadın qarşısında baş əyməyə məcbur edir. Nüşabə həm öz ölkəsini, həm də qonşu ölkələri yunan istilasından xilas etməyə nail olur. Nizami Gəncəvi versiyası ilə Psevdo Kallisfenin “İsgəndər haqqında roman” əsəri arasında daha çox təmas nöqtələri tapmaq olar. Bu paralellərə əsasən, Psevdo Kallisfenlə Nizami Gəncəvi arasında İsgəndər haqqında rəvayətlərin çoxsaylı aralıq versiyalarının olmasını təxmin etmək olar.

Görəsən, Nizami Gəncəvi öz qəhrəmanını necə təsvir etmək istəyirdi?

Şairin “İsgəndərnamə”si iki hissədən ibarətir – “Şərəfnamə” və “İqbalnamə”.

Poemanın birinci hissəsi - “Şərəfnamə” sərkərdə Makedoniyalı İsgəndərin hərbi yürüşləri və şücaətləri barədədir.

“İqbalnamə” adlanan ikinci hissədə isə əsas eri ictimai-siyasi və fəlsəfi məsələlər tutur.

Nizami Gəncəvi “İsgəndərnamə”də İsgəndərin fəaliyyətini üç aspektdən təhlil edir:

- 1) dahi sərkərdə və ideal çar;
- 2) müdrik-filosof;
- 3) bəşəriyyətə uca həqiqətlər çatdırıran və əsl xoşbəxt həyat yollarını göstərən peyğəmbər.

Nizami Gəncəvi “İsgəndərnamə”nin birinci hissəsinin giriş fəslində yazır:

Üç qapı tikdim, üç xəzinə demək,

Çəkdim hər qapıda ayrıca əmək [5, 45-46].

Müdriklik qazanmaq – insan həyatının həqiqət yolunda zəruri mərhələdir. İsgəndər ideal hökmər və aqildir, lakin peyğəmbərlək verilməsi - onun erdəki missiyasının artdığını sübut edir. “İsgəndərin məclislərində qədim yunan filosofları iştirak edir. Müxtəlif dövrlərdə İsgəndərlə müasir, ondan əvvəl və sonra yaşamış filosoflar öz fəlsəfi görüşlərini bu məclisdə irəli sürürlər və yadda saxlayaqlı ki, burada iştirak edən filosofların – Ərəstun, Valis, Bəlinas, Sokrat, Farfüryus, Hörmüz və Əflatunun söylədikləri fikirlər Nizaminin şəxsi mülahizəlidir” [1, 137] Aristotel, Platon və Sokratın müdriklik barədə nəsihətləri ilə silahlanan İsgəndər erin müxtəlif guşələrinə həqiqi iman yayır. Əsrarəngiz torpaqların təsvirinə Nizami Gəncəvi az önəm verir, çünki bu torpaqlar fəqət İsgəndərin peyğəmbərlək fəaliyyəti üçün meydandır. Nizami Gəncəvi özü belə deyir:

*O dünya padşahı - böyük İsgəndər,  
Uca ulduzlara o uca rəhbər  
Elmdə o qədər oldu ki, pərgar  
Əqli hər müşkülə saldı bir açar.  
Bir çox viranənin örtdü üstünü,  
Açıdı neçə-neçə bağlı düyüünü.  
Sırlı elmləri İsgəndər qədər  
Yoxdu bu dünyada bilən bir nəfər.  
O, Rumun, Yunanın alimlərindən  
Hər elmi öyrəndi möhkəm, dərindən.  
Daha ulduzları göydə güdmədi,  
Tamam başqalaşdı onun məqsədi.  
Başından lovğalıq tacını atdı,  
Öz başı allahın tacına çatdı [6, 109].*

Hesab etmək olar ki, Nizami Gəncəvi bu cür kamil hökmədar – filosof-peyğəmbər obrazı yaradarkən müasiri olan feudal hakimlərə ədalət, müdriklik və əxlaqi paklıq dərsi vermək istəmişdir. Nizami Gəncəvi poeziyası, o cümlədən “İsgəndərnamə” gələcəyə ünvanlanmışdır.

Nizami Gəncəvinin poeması Şərq xalqları ədəbiyyatında İsgəndər mövzusunun geniş yayılmasında kifayət qədər əhəmiyyətli rol oynamışdır. Bu əsərə müxtəlif dillərdə bir çox nəzirələr yazılmışdır. Nizami Gəncəvinin ənənələrini Əmir Xosrov Dəhləvi, Əbdürəhman Cami və Əlişir Nəvai davam etdirmişdir. Nizami Gəncəvinin poeması onların istiqamətləndikləri mayak olmuşdur.

Bu fəslin sonunda belə bir qənaətə gəlmək olar ki, Makedoniyalı İsgəndərin şəxsiyyəti həmişə ədəbiyyatda xüsusi maraq oyatmışdır. Şübhəsiz, bu mövzunun mənbələri antik əsərlərdir ki, bunlarda dahi sərkərdənin xarakter və fəaliyyətinə əxlaqi-etik qiymət verilir. Antik şair və tarixçilər öz qarşılılarına İsgəndərin həyat və fəaliyyətini təsvir etməkdən daha çox, əxlaqi xarakterli nümunələr qoymağa üstünlük vermişlər. “Şərqdə Ərəstun adı ilə məşhur olan böyük yunan filosofu Aristotelin adının İsgəndərlə əlaqədar olması İsgəndərin şöhrətini daha da artırmışdı” [1, 136]. Şərq xalqları üçün Makedoniyalı İsgəndər mövzusu milliləşmişdir. Fars-tacik ədəbiyyatı Aleksandri İsgəndər adlandıraraq, onu özünün milli eposunun qəhrəmanı etmişdir.

Nizami Gəncəvi özünün İsgəndərdən bəhs edən poemasında isə ideal və ədalətli şah, xeyirxah hökmədar haqqında aydın və möhkəm ideya irəli sürmüş, bununla da İsgəndərin zalim istilaçı olması barədə təsəvvürləri tamamilə alt-üst etmişdir. Nizami Gəncəvi öz poemasının qəhrəmanını hətta peyğəmbər səviyyəsinə yüksəltmişdir.

### **Ədəbiyyat:**

1. Araslı, Həmid. Azərbaycan ədəbiyyatı: tarixi və problemləri. – Bakı, Gənclik, 1998. 732 s.
2. Beqdili, Qulamhüseyn. “Firdovsinin “Şahnamə”sində və Nizami Gəncəvinin “İsgəndərnamə”sində İsgəndər obrazı”.
3. Bertels, Yevgeni Eduardoviç. Великий азербайджанский поэт Низами. – Баку: АзФАН, 1940. 147 səh.

4. Əliyev, Qulamhüseyn. Nizami Gəncəvinin “İsgəndərnamə”si haqqında.
5. Gəncəvi, Nizami. İskəndərnamə [Şərəfnamə] // tərcümə edəni: Abdulla Şaiq; izahların müəllifi Əkrəm Cəfər, ön sözün müəllifi: Qəzənfər Əliyev, elmi redaktor: Xəlil Yusifli. – Bakı, “Lider nəşriyyatı”, 2004, 432 səh.
6. Gəncəvi, Nizami. İskəndərnamə [İqbalnamə] // tərcümə edəni: Mikayıl Rzaquluzadə; izahların müəllifi Əkrəm Cəfər, ön sözün müəllifi: Zümrüd Quluzadə, elmi redaktor: Xəlil Yusifli. – Bakı, “Lider nəşriyyatı” 2004, 256 səh.
7. Gəncəvi, Nizami. Yeddi gözəl // tərcümə edəni: Məmməd Rahim; izahların müəllifi Rüstəm Əliyev, ön sözün müəllifi və elmi redaktor: Xəlil Yusifli. – Bakı, “Lider nəşriyyatı” 2004, 336 səh.
8. Quran-Kərim: Əl-Kəhf surəsi (Tərcüməçilər: Vasim Məmmədəliyev və Ziya Bünyadov). – Bakı, 1992.
9. Костюхин, Евгений Алексеевич. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции (монография). – Москва, Наука, 1972, 190.
10. Bağırov, Abuzər. Y.E. Bertels və Azərbaycan ədəbiyyatı. Bakı: Elm, 2007.

## NAVOIY VA PURIZM

## NAVOI AND PURISM

Berdak YUSUF

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti (O'zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada Navoiyning turk tillariga munosabati, boshqa tillardan so'z olish masalasi haqida fikr yuritilgan. Navoiyning purist emasligi maqolada o'z isbotini topgan.*

**Kalit so'zlar:** turkiy til, Navoiy tili, lahja, purizm, til sofligi

### *Annotation*

*The article discusses Navoi's attitude to Turkic languages and the issue of borrowing words from other languages. The article proves that Navoi is not a purist.*

**Key words:** Turkish language, Navoi language, dialect, purism, language purity

Navoiyning boshqa tillarga, lahjalarga munosabati haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar shoir asarlarida olinma so'zlar juda ko'p ekanligi haqida yozishsa, ba'zilar Navoiy chet tillardan cheklangan holda so'z olganligi haqida fikr yuritishgan. Masalan, A.Rustamov "Navoiy chet so'zlarga juda to'g'ri munosabatda bo'lgan", - deydi [Rustamov, 10: 136]. Boshqa bir o'rinda "Navoiy turkcha lahjalarni mukammal o'rgangan arab va fors tillarini a'lo darajada bilgan va bu tillarda yozilgan ilmiy va badiiy kitoblarni chuqur tahlil qilib yaxshi o'zlashtirgan," - deb yozadi [Rustamov, 10: 135]. Agar A.Rustamov ushbu gapdag'i lahja so'zini til ma'nosida ishlatgan bo'lsa, axir, qanday qilib bir kishi turkiy tillarni mukammal bilishi mumkin. Navoiy arab va fors tillarini mukammal bilganligi haqiqat. Lekin mazkur tillardagi ilmiy va adabiy kitoblarni juda ko'p kishi o'qib o'zlashtirishi mumkinmi? Arab va fors tillarida juda ko'p ilmiy va badiiy asarlar yozilgan-ku!

Mazkur kitobning boshqa joyida “Turkiy lahjalardagi lug‘aviy va grammatic elementlar Navoiy asarlariga chegaralanmagan holda o‘tgan”, – deyiladi. [Rustamov, 10: 135]. Turkiy lahjalar, ya’ni turkiy tillardan “lug‘aviy va grammatic elementlar”ning chegaralanmagan holda o‘tishi mumkin emas. Boshqa turkiy lahja, tillardan leksik birliklar, grammatic shakllar ma’lum bir miqdorda o‘tgan. Bu haqda G.F.Blagova shunday yozadi: “Bunday sharoitda Navoiy va Bobur kabi umum tomonidan e’tirof etilgan so‘z ustalari tufayli she’riyatda o‘g‘uz kelishik shakllarining ancha qat’iy dozirovkasi ishlab chiqilgan” [Blagova, 5: 258].

Bizning kuzatishimiz shuni ko‘rsatadiki, Navoiy asarlarida 46 tadan ortiqroq o‘g‘uz tillariga oid so‘z qo‘llangan” [Yusufov, 13: 101] Demak, Navoiy asarlariga “turkiy lahjalardagi lug‘aviy elementlar” chegaralangan holda o‘tgan.

Fors va arab tiliga oid elementlar Navoiy asarlariga chegaralangan holda o‘tgan, degan fikrga qo‘shilish qiyin. Chet ellik olimlar, shuningdek o‘zbek olimlari, o‘zbek, turk, ozarbayjon kabi turkiy tillarga arab va fors tillaridan juda ko‘plab leksik birliklar qabul qilingani haqida yozishgan. Masalan, E.Nadjip shunday yozadi: “Turk tilli adabiyot bir tomonidan boyiydi, ikkinchi tomonidan arab va fors elementlari bilan to‘lib toshadi [Nadjip, 9:150]. Shu muallif eski o‘zbek tili va Navoiy tili haqida: “Boshqa tomonidan bu til arab va fors tillari hisobiga ancha boyidi. Navoiyda u o‘zining yuksak gullagan davriga etti”, - deydi [Nadjip, 9:248]. Eski ozarbayjon tili haqida A.Axundov: “Eski ozarbayjon tili lug‘at fondining deyarli 90%ni fors va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlardan tashkil topgan”, - degan fikrni keltiradi [Axundov, 2: 166-167].

Taniqli turk tilshunosi M.Ergin XV asr usmonlicha, ya’ni eski turk tili haqida qo‘yidagilarni bayon etadi: “Bu davr turkchaning begona unsurlar tomonidan tom ma’nosi bilan istilo etilyapti. Turkiya turkchasining arab va fors tillari bilan butunlay o‘rab olingan davridir” [Ergin, 1992: 19].

Yuqoridagi iqtiboslardan ma’lum bo‘ladiki, arab va fors tiliga oid leksik birliklar Navoiy asarlariga, hatto eski ozarbayjon, eski Turkiya turkchasiga deyarli chegaralanmagan holda o‘tgan.

Navoiy leksikasi bo'yicha ko'p shug'ullangan B.Bafoyevning "qaydlangan so'zlarning 35,7 prosentini umumturkiy, 64,559 prosentini o'zlashtirilgan so'zlar tashkil etadi", - deb keltirgan raqamlardan ham olinma so'zlar ko'pchilikni tashkil qilishini bilish mumkin [Bafoyev, 1968: 254].

Navoiy asarlarida shunday jumlalar borki, ularda faqat fe'llargina o'zbekcha, xolos. Masalan, "Jahon maz'raida jamiyat donalarin ekti, chun salim gavhari koni maoniy erdi va mustaqim zehni mavridi fayzi subhoniy, kamol ahlig'a tarfiya va ibtihojlar va kalom xaylig'a ravnaq va rivojlar dast berdi". [8:35]. "Ammo bilgilkim, aruz fannikim, nazm avzonining mezonidur, sharif fandur" ("Mezonul-avzon", XVI-45). Quyidagi baytda bitta so'z o'zbekcha, qolganlari forscha. Ikkinci baytda esa bitta so'z o'zbekcha, qolganlari arabcha.

*Osuda charandavu paranda,*

*Uyquda gazandavu daranda* (Layli va Majnun, IX-247).

*Bosirau somiau lomisa,*

*Zoiqau shomma bila xomisa* ("Hayrat ul-abrор", VII-94).

"Muhokamatul-lug'atayn"dan olingan quyidagi yigirma to'rtta so'zdan iborat uzun jumla faqat arabcha va forscha yoki arabcha-forscha unsurlardan iborat: "Va sulton us-salotinki, mazhari lutfi ilohiy va mazhari anvori haqoyiqi nomutanohiydur va farxunda zamiri ulum gavharining daryosi va xujasta xotiri xoksor bandalar zotining kimiyosidur" ("Muhokamatul-lug'atayn", XVI-34).

Shoirning she'riy asarlarida butun bir bayt to'liq forscha yoki arabchadir:

*Diloromu Diloroyu Dilosо,*

*Gulandomu Sumanbo'yu Sumansо* ("Farhod va Shirin", VIII-272).

*Valavhozal-maoniy anta qultum,*

*Taqlu i'lamu yo ayuhannos* ("Badoyi' ul-bidoya", I-619).

Navoiy asarlarida ba'zi baytlarning birinchi misrasi arabcha bo'lgan baytlar ham uchrab turadi:

*Ashraqat min aksi shamsil ka'si anvorul-hudo,*

*Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqti sado* ("Badoyi' ul-bidoya", I-29).

*Bihandik fathi abvobil-maoniy,*  
*Nasib et ko 'ngluma fath o 'lmaq ani* (Ali-şir Nevaı. Ferhad U  
Şırın. Ankara, 1994. 77).

Arab va fors tillarining ta'siri, ulardan so'z o'zlashtirish miyosi hamma davrda bir xil bo'lmasagan. Masalan, turkiy xalqlarning mushtarak obidasi "O'rxun-Enasoy" yodgorliklarida arabcha so'zlar uchramaydi.

Navoiy asarlariga yozilgan lug'atlardagi bosh so'zlarning ko'pchiligi arabcha va forscha so'zlardan iboratdir. Masalan, besh yuz sahifali "Navoiy tili lug'ati"ning (2018-yil) faqat o'n bir sahifasi turkcha so'zlardan iborat. Ular lug'atning 134, 268, 274, 279, 299, 303, 318, 325, 328, 329, 330 - sahifalaridir.

U.Tursunov, B.O'rinoevlar: "Alisher Navoiy - ona tili sofligi uchun tolmas kurashchi", - deganlar. [Tursunov, O'rinoev, 12:67]. Shuningdek, ba'zi olimlar Navoiy purist bo'lganligini iddiao qilishadi.

Olimlarning purizm haqidagi qarashlari bir-biriga yaqin. O.Axmanovaning fikricha: "...purizm – neologizmlarga qarshi kurash, o'zlashma va xalqaro so'zlar va boshqalarini ishlatalishga qarshi chiqish..." [Axmanova, 1:374]. YAqinda nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha lug'at"da purizmga shunday izoh berilgan: "Tilni o'zgarmagan sof holda saqlashga, uni chet so'zlardan, varvarizm, vulgarizmlardan tozalashga konservativlik bilan ortiqcha berilib ketish" [11:374]. A.Hojiyev o'z lug'atida qisqagina qilib: "...purizm – tilning sofligini saqlashga, chet tillardan so'z o'zlashtirishga qarshi chiqish", - deydi [Hojiyev, 14: 83].

Turk tilida terminlar sinonimiyasi kuchli. Purizm terminining tasfiyajilik, o'zlashtirmajilik so'zlaridan iborat ikkita sinonimi bor. Bularidan purizm so'zi mazkur tilda kam ishlataladi. Lug'atlarda tasfiyajilik "tilni chet tillar unsurlaridan tozalash" [Ergin, 6:1206] kabi izohlanadi. Yuqoridaq ta'riflardan ko'rinish turibdiki, purizm turk, rus va o'zbek tillarida berilgan izohlar deyarli bir xil. Bizningcha, purizm "Ruscha-o'zbekcha lug'at"da aytilganiday tilni tozalashga ortiqcha berilib ketishdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, purizm o'z ona tilini chet so'zlardan himoya qilish, til sofligini saqlashga qaratilgan bir ijobjiy harakat

bo‘lgan. 20-yillarda rus tilidan kirgan so‘zlarning o‘rniga o‘z so‘zlarimizni, o‘zbek tilining ichki qonun-qoidalari asosida yaratilgan so‘zlarni ishlatishga harakati boshlangan edi. Masalan, samolyot “uchqich” kabi. Hatto bunday harakat bir vaqtlar rus tilida ham kuzatilgandi. Mazkur tilda samolyot, kislorod, vodorod kabi so‘zlar yasalgan. Biz bilamizki. Mazkur so‘zlar rus tili lug‘at sostavidan mustahkam o‘rin olgan. Lekin o‘zbek tiliga qabul qilingan neologizmlar Markaz ko‘rsatmasiga binoan tildan chiqarib tashlangan.

G. F.Blagova o‘rta asrlardagi turk filologlari kabi Navoiyga ham ma’lum bir ma’noda purizm xos edi,-degan fikrni keltiradi [Blagova, 4: 75]. Albatta, U.Tursunov, B.O‘rinboyevlar fikri ham, G.F.Blagova fikri ham haqiqatga ziddir. G.F.Blagova o‘z iddaosini isbotlash uchun Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asaridan quyidagi parchaning ruschasini keltiradi: ‘*Va gulshane yo‘qluqti, gullari sipehr axtaridin duraxshandaroq; harimi atrofi el ayog‘i etmakdin masun va ajnosi g‘aroyibi g‘ayr ilgi tegmakdin ma‘mun*’. Ko‘rinadiki, bu matnda purizm belgilari yo‘q.

Agar Navoiy purist bo‘lsa edi, bu qadar ko‘p begona til unsurlarini ishlatmagan bo‘lardi. Navoiyning maqsadi fors tili bilan musobaqalasha oladigan kuchli, boy bir adabiy til yaratish edi. Shuning uchun arabcha va forscha so‘zlardan mo‘l-ko‘l foydalangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1969.
2. Ахундов А. О двух периодах истории азербайджанского литературного языка // Проблемы современной тюркологии. – Алма-ата, 1980.
3. Бафоев Б. Навоий лексикасининг баъзи масалалари // Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент, 1968.
4. Благова Г.Ф. Андижанский говор по материалам “Бабурнаме” // Советская тюркология. – Баку, 1977. - №3.
5. Благова Г.Ф. Грамматическая вариантность в условиях наддиалектности (на материале средневековых тюркских памятников) // Типы наддиалектных форм языка. – М., 1981.

6. Ergin M. Türk Dil Bilgisi. – Istanbul, 1992.
7. Misalli Büyük Türkçe Sözlük: Ankara, 2005.
8. Muhammat al-lughatain. By Mir Ali Shir. Leiden. 1966.
9. Наджип Э. Исследования по истории тюркских языков. XV-XVI вв. - М., 1989.
10. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: 1979.
11. Русча-ўзбекча лугат. Икки жилдли. – Тошкент, 2013.
12. Турсунов У., Б. Ўринбоев. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент, 1983.
13. Юсуфов Б., Ширинова М. Навоий асарлари тилида ўғузлаҳжасига хос унсурлар // Ўзбек тили ва адабиёти 2018, - №4.
14. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.

# **TA'LIM BOSQICHLARIDA ALISHER NAVOIY LIRIK MERO SINI O'RGANISH MUAMMOLARI**

## **PROBLEMS OF STUDYING ALISHER NAVOI LYRIC HERITAGE IN EDUCATIONAL STAGES**

**Boqijon TO'XLIYEV**

*Toshkent davlat sharqunoslik universiteti  
(O'zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada Navoiy lirikasidagi ayrim obrazlarning ikki xil talqini, navoiyshunolslikning galdag'i vazifalari borasida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ruboyi, kunduz, mavzun, quyosh, may, mahzun, ravshan, azal, tasavvuf, talqin, so'z, shakl, ma'no.*

### *Annotation*

*The article is devoted to two interpretations of some images in Alisher Navoiy's lyrics, suggests some views regarding further research on the problem.*

**Key words:** *Alisher Navoiy, rubai, morning, bright, Sun, wine, sad, clear, gazel, mysticism, definition, word, form, meaning*

Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish, adib asararini tadqiq va tahlil etish har qachongidan ham dolzarblashib bormoqda. Badiiy adabiyotda shakl va ma'no mutanosibligini ta'minlash adib uchun qanchalik zaruriy shart bo'lsa, uni ayni shu tarzda to'la va mukammal darajada his etish, tushunish ham shu darajada muhimdir. Bu adabiyotning, adabiyotshunoslikning eng qadimiy va eskirmaydigan muammolari sirasiga kiradi. Har bir zamon bu muammoning yangi qirralariga duch kelaveradi. Ularni hal qilish uchun yangidan-yangi kuchlarni sarflash va ko'plab ilmlarni o'zalashtirish zaruriyati ortib boraveradi. Bu gap qadimgi obidalarni, yozma adabiyotimizning ilk namunalarini o'rganishga ham, hozirgi adabiy jarayon mahsullarini kuzatishga ham bir xilda

taalluqlidir. Gap mumtoz adabiyot ustida boradigan bo'lsa, bu borada ham uning nihoyatda dolzarbligini e'tirof etish joiz. Biz fikrimizni Alisher Navoiyning bir ruboysi misolida izohlashga harakat qilamiz:

*Kunduz ko 'rsang o 'zungni mahzun, qadah ich,  
Andoqli, quyosh ravshanu mavzun qadah ich.  
Ul damki, quyosh botti, shafaqgun qadah ich,  
Jomingni qilib nechukki gardun, qadah ich* [Навоий, 1988: 561].

Shakl va mazmun mutanosibligiga e'tibor bermaslik, birinchidan, asarning asl mohiyatini anglash, tushunish va his etishga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchidan, asar muallifi haqida ham noto'g'ri baholarning yuzaga kelishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Ayniqsa, poetik so'zning noto'g'ri talqini, ramz va uning mohiyatini to'g'ri anglamaslik matnni mutlaqo boshqacha yo'sinda tahlil va talqin qilishga olib kelishi aniq. Natijada muallif ko'zda tutgan badiiy haqiqat bilan o'quvchi, kitobxon yoki tadqiqotchi "kashf etgan" badiiy olam bir-biriga uyg'unlashmay qoladi. So'z va ma'no, matn va talqin muallif ko'zda tutgan poetik mazmun inkishofi uchun yo'naltirilganida esa natija kitobxon bilan asar muallifi o'rtasida munosib ko'priq bo'ladi.

Endi yuqoridaagi ruboiy mutolaasiga kirishaylik. Unda qo'llangan so'zlar mumtoz she'r muxlislari uchun mutlaqo tushunarsiz emas. Ehtimol, bu qutlug' dargoh ostonasiga endi qadam qo'yayotgan yosh muxlislarda biroz muammo bo'lishi mumkindir. Ularni ham ko'zda tutgan holda ayrim so'zlar ma'nosin lug'at tarzida keltirish foydadan holi bo'lmas:

*mahzun – hazin, xafa, qayg'uli, g'amgin.  
qadah – piyola, jom, may idishi.  
ravshan – yorug', nurli, yorqin; aniq, tiniq.  
mavzun – kelishggan, chirolyi.  
shafaqgun – ufqrang, ufq rangiga.*

*o 'xhash; quyoshning chiqishi yoki botishi oldidan ufqda  
hosil bo'ladigan qizg'psh rang.*

*Gardun – osmon.*

Inson har doim shodu xurramlik bilan yashamaydi. Unda xursandchilik, baland kayfiyat bilan birga g'amginlik, hayotiy iztirob

va qiyinchiliklar ham bo‘lishi mumkin. Bir qarashda ruboiyning bиринчи misrasida qо‘llangan “mahzun” so‘zi shu ma’noni anglatadi. Ana shunday tushkun kayfiyatdan qutilish uchun taklif etilayotgan chora “qadah ichmoq”dir. Buni hayot daqiqalarini g‘animat bilish, uning har lahzasini munosib o‘tkazishga da’vat sifatida ham tushunish mumkin. Ayniqsa, ikkinchi misra bilan (“*Andoqli, quyosh ravshanu mavzun qadah ich*”) tanishish bu fikrni ko‘proq quvvatlayotganga ham o‘xshab turadi. Zero, kunning “ravshanu mavzun”, ya’ni charog‘on: yorug‘ va ko‘ngil zavqiga munosibligi his etib turilsa, xursandchilik, ko‘ngilxushlik qilish uchun mayl va rag‘bat paydo bo‘ladi. Bu kunduz kuniga tegishli mulohazalar.

Endi vaqt oqimi o‘zgaradi. Quyosh botadi.

Shafaq – ufq va shu ufqdagi quyoshning botishi oldidan paydo bo‘ladigan qizil-sariq rangdagi ko‘rinish, manzara. “Shafaqgun” – shafaqqa o‘xhash rangdir. Bu mayga nisbat berilgan rang o‘rnida qо‘llanmoqda. Ta’kidlash lozimki maylarning orasida mazkur rangdagisi nisbatan ko‘proq qadrlanar ekan. Shunga ko‘ra, bunday may ichishda uning hajmini yanada orttirish “tavsiya” etilmoqda. May quyiladigan idish sig‘imining “gardunga o‘xhashi”, ya’ni osmonday katta hajmli bo‘lishi talab etilmoqda. Bunday tasvirlarni mumtoz adabiyotda keng qо‘llanadigan mublag‘aning navbatdagi ko‘rinishi sifatida qabul qilish mumkin.

Ruboiyda “kunduz”, “quyoshning ravshan va mavzun” bo‘lgan holati, nihoyat, “quyosh botti” deyiladigan zamonlar haqida gap borayotgani ham anglashilib turibdi. Buni vaqt nuqtai nazaridan sahardan to oqshomgacha, ya’niki butun kun davomidagi muddat sifatida ilg‘ash ham qiyin emas. Uni yanada kengroq tasavvur etadigan bo‘lsak, insонning butun umri sifatida ham talqin etish imkoniyati mavjud.

Ruboiy matning yuzaki qismidagi ma’no talqinlari taxminan mana shunday bo‘lishi mumkin. Agar biz ushbu talqin bilan kifoyalananadigan bo‘lsak, Hazrat Alisher Navoiyni ashaddiy mayxo‘r va bu ruboiyni mayxo‘rlikka da’vatning o‘ziga xos namunasi deb baholashimizga to‘g‘ri keladi. Vaholanki, bu asl haqiqatga mutlaqo zid bo‘lib, hayotda Navoiyning mayxo‘rlikka qarshi kurashgani, hatto Husayn Boyqaro timsolida bu ishni kamaytirishga muntazam

da'vat qilib kelganini yaxshi bilamiz. Shunga qaramay, ruboiyning yozilishida hech qanday g'ayritabiylar yo'q. Hamma gap undagi so'zlarining asl va ko'chma, aniqrog'i ramziy ma'nolarini to'g'ri o'qish va to'g'ri tushunishda, xolos.

Hamma gap "qadah" va "ich" so'zlarining talqiniga bog'liq. Agar bu so'zlarining adib ko'zda tutgan ma'no qirralari to'g'ri ilg'ansa, she'rning mutlaqo boshqacha olamlardan bahs yuritayotgani ma'lum bo'ladi. Buning uchun lug'atlarga murojaat etish joizdir. Qadahning *jom*, *sog'ar*, *kosa*, *may idishi* singari sinonimlari ham mayjud. "Jom" kelib chiqishiga ko'ra forsiy so'z bo'lib, tasavvufda "ma'rifat bodasi bilan limmo-lim to'lgan orif qalbidir" [Сажжодий, 1370, 270].

Agar bu mulohazalar e'tiborga olinsa, o'z-o'zida "ichmoq" fe'lining ma'no qamrovlari ham o'zgacha bo'ladi. Uni "o'qimoq", "bilmoq", "anglab yetmoq", "bahramand bo'lmoq" tarzida izohlash imkon yuzaga keladi. Shunda may ichganda yuz berishi mumkin bo'lgan ko'tarinkilikning irfoniy ma'nosini "ma'rifat sarxushligi" tarzida tasavvur qilish qiyin kechmaydi.

Modomiki shunday ekan, ruboiyning talqini ham asos e'tibori bilan o'zgaradi. Shu silsiladagi "kunduz", "quyoshning ravshan va mavzun" bo'lgan holati, nihoyat, "quyosh botti" ifodalaring mazmunida ham yangi qirralar namoyon bo'ladi. Vaqt ifodalari uchun xizmat qilayotgan so'zlar haqiqatda ham yuqorida ko'rsatilgan ma'nolarni mujassamlashtirgan. Faqat tasavvufiy mazmun va talqin ularning ma'no qamrovlarini kengaytirgan. Endi ular inson umridagi alohida ma'naviy bosqichlarning o'ziga xosliklarini aks ettirishi bilan e'tiborni tortadi. Zero, bu yerda insonning tug'ilishidan, aniqrog'i, o'zini anglay boshlaganidan to umrining oxirigacha bo'lgan oraliqdagi "yo'l xaritasi" – harakatlar strategiyasi ifodalangan.

Qorong'ilikdan chiqqan va kunduzga qadam qo'yayotgan inson jaholat bosqichidan qutulib ma'rifat ostonasiga yetib kelgan solik insondir. Unda ma'rifatga tashnalik bor. Orzu qilib orzusiga yetmagan, dildagi o'yini amalga oshirolmagan, yoxud tilagiga zid vaziyatga tushib qolgan odam kayfiyati "mahzun" so'zi bilan ifodalanganadi. Bu so'z hozirgi adabiy tilimizda ham faol qo'llanadi. U "hazin, mungli, g'amgin, xafa" ma'nolarini anglatadi [5, 573]. Mahzunlikning sababi mana shu.

Tashnalikning qondirilishi esa moddiy jihatdan uning ehtiyoj va talabiga mos narsa va predmetning berilishi (mazkur holatda ichimlik ichish) bilan ado etilgan bo‘lar edi. Ma’naviy olamda – irdoniy talqinda esa mana shu ma’rifiy bilimga bo‘lgan ehtiyojning bajarilishi nazarda tutilgan. Demak, bu odam orifning, ma’rifat saboqlariga qodir bo‘lgan kishining, demakki, ustoz yoki pirning marhamatidan bahramand bo‘lmog‘i lozim.

Ma’rifat inson qalbiga nur sochadi. Bu nur uning butun borlig‘ini, ichki olamini ham munavvar qiladi. Xuddi shunga o‘xshash ma’rifat nurlaridan qanchalik ko‘p bahramand bo‘lsa, unga intilish va ishtiyoq ham shunchalik ortib boraveradi. Demak, bolalikdan o‘rtta yoshga qarab o‘tayotgan ma’rifat shaydosining qalbida ham yangi shavq va ishtiyoq paydo bo‘laveradi. Quyoshning “ravshanu mavzun”ligi zamon nuqtai nazaridan ulg‘ayib borayotgan shaxsning kamolot pillapoyalariga ishora bo‘lsa, sharoit nuqtai nazaridan endi ko‘p chigal muammolarning mohiyatini anglab yetishga intilayotgan solik – yo‘lovchi insonning kengayib borayotgan ma’rifiy ehtiyoj va imkonlariga ishora hamdir. Bu yerda pir – ustozlar etagini yanada mahkamroq tutish, ma’rifat buloqlaridan yanada ko‘proq foydalanishga da’vatni ilg‘ash qiyin kechmaydi. Yosh ulg‘ayadi, inson olam hodisalarining mohiyatini qanchalik ko‘p bilsa, bilmaganlarining ulardan ham ko‘proq ekanini asta-sekin anglay boshlaydi. Bu holat uni yana ham ko‘proq bilim va ma’rifat olishga undab turadi.

Kamolot pillapoyalaridan yuqorilab borayotgan yo‘lovchi inson – solik mayning tozasini, ya’niki ma’rifiy bilimlarning yanada yuqoriroq darajasini o‘zlashtirish uchun harakat qilmog‘i lozim. Buning uchun esa endi yanada ko‘proq va jiddiyroq harakatlar, shu harakatlarni amalga oshirishga imkon beradigan vositalar va tegishli sharoit taqozo etiladi. Demak, “shafaqgun qadah” shu bilimlarning sifatiga, “gardunsifat” jom esa uning hajmi va miqdoriga ishoradan boshqa narsa bo‘lmaydi.

G‘azallar tahlili va talqini borasida esa yanada muammolarning ko‘pligini e’tirof etish kerak. Xususan, ayni ramzning turli matnlardagi so‘zlar konfiguratsiyasi ichida mutlaqo boshqacha ma’no nozikliklariga ega bo‘lishi kuzatiladi. Birgina “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallarni sharhlash jarayonida mana shunday

hodisalarning rang-barang shakllariga duch kelish mumkin. Ayni bir g'azalning turli talqinlari, ayni baytning turlichay nasriy bayon va ilmiy sharh hamda izohlarnining yuzaga kelishi shugning uchun ham hech bir ajablanarli ko'rinxmaydi.

Shunga ko'ra, mutafakkir adib asarlaridan ta'limning urli bosqichlarida foydalanrishda, ularni tanlash va talqin qilishda o'ziga xos pedagogik hamda didaktik talablarga rioya etish talab etiladi.

Bularning barchasi hali mumtoz adabiyotshunosligimiz, jumladan, navoiyshunosligimiz oldida nihoyatda ulkan va jiddiy vazifalar ko'pligini, ularni ado etish uchun esa navoiyshunos olimlarimizning ham, metodist va amaliyotchi ustozlarimizning ham ko'p mehnat qilishlariga to'g'ri keladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. МАТ, Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сифар. 20 жилдлик, 3-жилд. Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳамид Сулаймон. – Тошкент, Фан, 1988.
2. Алишер Навоий. МАТ, Насойим ул-муҳаббат. Нашрга тайёрловчилар С.Фаниева, М.Мирзааҳмедова. Арабча ва форсча матнларни таржима қилиб, нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир С.Рафиддинов. 20 жилдлик, 17-жилд. – Тошкент, Фан, 2001.
3. Ethem Cebecioğlu. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – İstanbul. Ağaç kitabevi yayinlari, 2009.
4. Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони, Техрон, 1370.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, иккинчи жилд. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти.

# **NAVOYI MEROSI VA MULKDORLIK MADANIYATI. NAVOYI VA BOZOR MA'NAVİYATI**

## **NAVOI HERITAGE AND OWNERSHIP CULTURE. NAVOI AND MARKET SPIRITUALITY**

**Nusratullo JUMAXO'JA**  
*ToshDO 'TAU*  
(*O'zbekiston*)

### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada Alisher Navoyi adabiy merosidagi g'oyalarning bozor iqtisodiyoti tizimidagi inson ma'naviyatiga tatbiqi masalalari yoritilgan. Unda qanday qilib Navoyining o'zidek ham haqiqiy mulkdor bo'lib va ayni paytda, ma'naviy jihatdan komil inson darajasida kamol topish muammolari tahlil etilgan. Shuningdek, Navoyi asarlari asosida davlat va jamiyatni ma'nан adolatli boshqarish muammolari ham tadqiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** mulkdorlik, mulkdorlik madaniyati, ma'naviyat, davlat va jamiyat boshqaruvi, bozor iqtisodiyoti va ma'naviyat.

### *Annotation*

*The article illustrates the role of Alisher Navai's ideas expressed in his literary heritage and their application to human spirituality. Alternatively, the problems of how he was able to become proprietor and at the same time a spiritually mature person was analyzed. Furthermore, the issues of fair moral administration of the state and society were researched based on the works of Alisher Navai.*

**Key words:** proprietorship, the culture of proprietorship, spirituality, the administration of the state and society, market economy and spirituality.

Alisher Navoyi asarlarini mutolaa etar ekanmiz, unda bugungi hayotimizdagi har qanday muammoning ma'naviy yechimini ko'rishimiz mumkin. Shu ma'noda, Navoyi ijodiyoti haqiqiy ma'naviyat qomusidir. Navoyi mulohazalarini voqeiy hayot

manzaralari bilan qiyosan mushohada etarkansiz, beixtiyor qaniydi ulug‘ mutafakkir asarlari, ulardagи hikmatomuz fikr-g‘oyalar yoshlarimizga doimiy hamroh bo‘lsa, degan istak tug‘iladi ko‘nglingizda. Ayniqsa, “Mahbub ul-qulub”dagi pand-u nasihatlar, tanbehu hikoyatu rivoyatlarning turgan-bitgani ma’naviyat malhamlaridir. Shuning uchun ham, Navoyi ushbu nodir asarni “Mahbub ul-qulub”, ya’ni “Ko‘ngillarning sevgani” deb atashida ajoyib hikmat bor. Asardagi har bir hayotiy lavha, har bir toifayu tabaqaning ruhiyati, qiyofasi, ma’naviy olami tasviri hamda u orqali mutafakkir beradigan saboq ko‘ngillarga mahbub bo‘ladi, hayotiy mushkulotlarimizga kushoyish baxsh etadi.

Xususan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlarida bunday ma’naviyat malhamlari juda asqotadi. Asarning “*Tijorat ahli zikrida*”, “*Shaharda olib sotquvchilar zikrida*”, “*Bozor kosiblari zikrida*”, “*Dehqonlik zikrida*”, “*G‘arib va benavolar zikrida*”, “*Mubrim gadolar zikrida*” kabi fasllarida haqiqiy savdogar kim, ustomon olibsotar kim, bunyodkor dehqon ma’naviyatining mohiyati nimadan iboratu, bekorchi boqimandalar hamda xatti-harakati hirs-u tamaga chulg‘angan gadolarning boqibeg‘amligi boisi jonkuyarlik bilan yoritilgan. Navoyi nazdida chinakam savdogar dunyo kezadi va o‘z yurtida noyob bo‘lgan boyliklarni muhayyo qiladi. Xalq bunday jahongashta savdogarning nafaqat olib kelgan mollaridan, balki uning tujjorlik sarguzashtlaridan so‘zlaydigan yetti iqlim ajoyibotlari va dunyo g‘aroyibotlaridan ham tinglab bahramand bo‘ladi.

Savdogarning ishi juda og‘ir, kezi kelganda, u dunyoning mol-u mulki uchun jonining rohatidan, har qanday oromu oroyishdan kechadi, biroq maqsad-muddaosiga erishadi: “*Biri yuz bo‘lurdin boshida ming savdo, bo‘zi katon bo‘lurdin ko‘nglida necha tamanno. Mundoq kishining maqsudi tamom asig‘ bo‘lmasa va bu asig‘ husuli uchun ranji qattig‘ bo‘lmasa, savdo uchun tengizga kema surmasa, dur uchun nahang komig‘a qadam urmasa*”, biri ikki bo‘lmaydi. Uning kasbi kori barakali, ayni paytda juda tahlikali. Faqat jismoniy omonlik jihatidangina emas, balki ma’naviy komillik nuqtayi nazaridan ham tahlikali. Agar u mulkdorlik ruhiyatiga berilib ketsa,

nafsu havasga ruju qo‘ysa, beixtiyor ma’naviyatini mulkiga qurbon qiladi. “*Molin aziz asrab, o‘zini xor etgan*” bunday kishilar hamma zamonlarda mavjud. Navoyi bundaylarning ta’rifini nazmda shunday keltiradi:

*Mundoq kishida yo‘q xirad va hushdin nishon,  
Bilgil gado agarchi erur xojayi jahon.*

Ya’ni u boy-badavlatlikda jahon xojasi martabasida bo‘lsada, ma’nan bir gado ahvolidadir. Bu – bizning zamondoshlarimiz uchun juda ta’sirchan saboq. Jamiyatimizda mulkdorlik ruhiyati shakllanmoqda. Bugun mulkdorlar tabaqasi zamonamiz qahramoni, deyishimiz mumkin. Mulkdorlar qancha ko‘paysa, davlat va jamiyatimiz shunchalik boyiydi. Biroq mulkparastlik ruhiyati boshqacha tushuncha. Navoyi baytida tasvirlanganidek, aql-hushidan nishon qolmaslik darajasida mol-mulkka hirs-u havas bog‘lash mulkdorni mulkparastga aylantirib qo‘yadi va uni ma’naviy tanazzulga tortadi. Demak, bu borada ham me’yorni aql-farosat bilan ilg‘ash muhimdir.

Bozorda narx-u navoni sun’iy ravishda ko‘tarib, xalqqa jabr-zulm o‘tkazuvchi xudbin, to‘ymas, noinsof olibsortalar toifasini Navoyi juda hayotiy tasvirlaydi: “*Elga ziyon aning sudi, o‘ng‘oy olib, og‘ir sotmoq aning maqsudi. Olurda katonni bo‘z deb, sotarda bo‘z vasfida katondin ortug‘ yuz so‘z deb. Sholni to‘rqa o‘rniga o‘tkara olur bo‘lsa, ta‘sir yo‘q, bo‘ryoni zarbaft yerida sota olur bo‘lsa, taqsir yo‘q. Do‘konida barcha mato mavjud, g‘ayri insof*”. Do‘konida insofdan boshqa hamma narsa muhayyo bo‘lgan bunday kimsalar to‘g‘risida Navoyi quyidagicha saboq chiqaradi:

*Bu xayl odam emaslar; yaxshi boqsang,  
Erur suding alardin gar yiroqsang<sup>1</sup>.*

Navoyi insofsizlarni “*odam emas*” deyapti. Demak, insof ham odamiylikning markaziy moyalaridan biri ekan. Mutafakkirning “*Odami ersang, demagil odami, Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami*”, ya’ni xalqning g‘amidan g‘ami bo‘lmaganlarni odam deb hisoblamagin, mazmunidagi shohbaytidan kelib chiqsak, olibsortar

---

<sup>1</sup> Nashrda “yiroqsang” so‘zi “yiroqsan” tarzida xato yozilgan. Noshirlar so‘zning “yiroqlashsang” ma’nosini tushunmaganlar.

xalqni umuman o‘ylamaydigan, faqat o‘z foydasini ko‘zlaydigan xudparast bir kimsa. Biroq, Navoyining olisotarlardan yiroqlashsang, naf topasan, degan maslahatiga amal qilishning iloji yo‘q. Negaki, bozorga tushishimiz bilan ularning domiga duchor bo‘lamiz va ne mashaqqat bilan topgan-tutganimizni o‘z ixtiyorimiz bilan ularning qo‘llariga topshiramiz. Tirikchilik vositalarini ular belgilagan narxda olishga majbur bo‘lamiz.

Xalqimiz insof masalasida “*Tesha bo‘lma, arra bo‘l*”, degan naqlni ishlatadi, ya’ni insofsizni teshaga, insoflini esa arraga o‘xshatadi. Chunki tesha po‘stloqni faqat o‘zi tomonga chopib oladi, arra bo‘lsa ishlaganida qipiqli ham o‘zi tomonga tortadi, ham boshqalarga sochadi. Navoyi ham haqiqiy savdogar arradek savdosidan ham o‘zi bahramand bo‘lsa, ham boshqalarni bahramand etsa, degan fikrni bayon etadi.

Bozordagi tovlamachi kosiblarning fe'l-atvorini Navoyi shunday tasvirlaydi: “*Bozorda savdogar kosib – Tengrig‘a xoin va va ‘dag‘a kozib. Birga arzirni yuzga sotmoqdin alarg‘a ming mubohot, mingga tegarni yuzga olmoqdin alarg‘a yo‘q bir zarra uyot. Rostliq bila savdo alarg‘a ziyonkorliq va va ‘dag‘a vafo alarg‘a badkirdorliq*

”.

Jamiyatda o‘zini g‘arib-u g‘urabo ko‘rsatadigan toifalar ham mavjudki, ular jamiyatdagi sog‘lom ma’naviy muhitga rahna solib yuradilar. Ular mehnat qilib, riyozat tortib, madaniy turmush kechirishga harakat qilmaydilar. Yengilning ostidan, og‘irning ustidan yurib, tekintomoqlik bilan kun ko‘rish, topganini boqibeg‘amlik bilan sarflash, xo‘randalik ruhiyati ularda ustuvor. Navoyi ularning ma’naviy qiyofasini bunday tasvirlaydi: “*Bukun topqonni yeb, tongla g‘amin yemay, tilab nima bermagandin shikoyat so‘zin demay. Vatan va maskanlari xorlig‘ vayronasi, manzil va ma‘manlari xokisorlig‘ koshonasi. Tong otqoch, er va xotuni kasb uchun tarqashib, o‘g‘ul va qizlari ko‘y va ko‘chada butrashib. Har qaysi har nekim hosil qilib, oqshom barcha bir yerga yig‘ilib, topqonlarin tugatmaguncha uyqu mayli qilmay, tongla ne yegumizdur, demak so‘zin bilmay*”. Bozor iqtisodiyoti bunday tanbaltabiat turmush tarzini ko‘tarmaydi. U tinimsiz harakat, ko‘shish va intilishni taqozo etadi. Barakat esa harakatdadir.

Ko‘chadagi tilanchi va gadolar ham jamiyatdagi musaffo manzara hamda ma’naviy muhitni bulg‘aydi. Ularning ko‘pchiligi

aslida muhtoj va nochor kishilar emas. O'ziga tekin pul topishni kasb qilgan, mehnatdan qochgan kimsalardir. Hayotda yetmish va sakson yoshlarida ham tinim bilmayotgan, yo tadbirkorlik, yo dehqonchilik, yo hunarmandlik, yo chorvachilik bilan halol pul topayotgan, farzandu nevarayu chevaralariga bosh bo'layotgan, erkin bozor iqtisodiyoti zamoni kelganidan quvonib, shukronalik tuyib, mol-davlatgina orttirib qolmasdan, qilayotgan ishlaridan zavq topayotgan otaxon va onaxonlarni ko'plab uchratish mumkin. Ayni paytda, barzangiday qorasoqol kimsalarning odamlar qo'liga ko'z tikib, eshikma-eshik yurib tinch aholini bezovta qilayotgan ayrim kimsalar ham bor. Ularning fe'l-atvorini yuqoridagi piri badavlat qariyalar bilan qiyoslab, o'zlariga shunday kasbni ravo ko'rganlariga hayron qolasan, kishi. Navoyi bunday toifadan hazar qilib yozadi: “*Tilanchi va gado ko 'pragi beg 'ayrat va behayo!*. Kunduz kezmaklari ibrom bila eldin nima olmoq uchun, kecha kelib o'g'urlarg'a el jihotig'a ko'z solmoq uchun. Ne ne'mat olib mun'imdin shokir, ne in'om topib mukrim uzrig'a tillari zokir”.

Navoyi aytmissiz, ular mehnatsiz topishga urinadilar, topganlariga qanoat va shukur qilmaydilar, rahm-shafqat va himmat ko'rsatgan kishilarga nisbatan uzrxohlik hamda duoda bo'lmaydilar. Hirsu tamalari tobora baxillikka aylanadi. Orttirgan ne'matlarining huzurini o'zlarini ham ko'rmaydilar, o'zgalarni ham bahramand etmaydilar. Rohatni yo yuvg'uvchi yoki tuproq ko'radi: “*Har diramki tugub, g'assoldin o'zga kishi ochmoq mahol, har siymkim ko'mub, tufrog'din o'zga birov ani yemakka yo'q ehtimol*”.

Alisher Navoyi mehnat ahlini sevadi, qadrlaydi va ulug'laydi. Bunyodkorlik, yaratuvchilik ishqi bilan yongan, evaziga o'zi ham boylik orttirib, elining ham to'q-farovonligini ta'minlaydigan dehqonlarni o'zgacha muhabbat bilan tavsiflaydi: “*Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo 'lin ochar...* Dehqonki, tuzluk bila dona sochar, haq biriga yetti yuz eshigin ochar. Sochqon dona ko'karguncha, o'rub xirmon qilib, mahsulin ko'targuncha qurtu qush andin bahramand va dasht vahshi aning bila xursand. Mo'rilar uyi andin obod va go'rilar xotiri aning bila shod. Kabutarlarg'a andin

<sup>1</sup> Bu so'z nashrda mazmunga teskari ravishda “bahayo” yozilgan.

*mastlig‘, to‘rg‘aylарg‘а andin nishotg‘а hamdastlig‘. O‘roqchig‘а andin ro‘zi, boshoqchingin yorub andin ko‘zi*“. Dehqonning birgina dona sochishi, ya’ni ekin ekish faoliyatidan cheksiz manfaat unadi, uning bog‘dorchilik va boshqa qolgan ishlari ta’rif-tavsifga sig‘maydi, deydi Navoyi. Uning fikricha, dehqonchilik davlat va jamiyat boyligi, to‘qligi hamda farovonligining asosiy manbaidir.

Anglashiladiki, jamiyatda mulkdorlik ruhiyatini shakllantirishda Navoyi asarlarining tarbiyaviy-ta’limiy ahamiyati beqiyosdir. Ulug‘ mutafakkirning o‘zi ham yirik mulkdor bo‘lgan, binobarin, u o‘zidek mard, tanti, himmatli, saxovatli, ma’rifatli mulkdorlik tarafdiridir. Davlat va jamiyat boshqaruvining badiiy talqini.

Yigirma birinchi asr yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularni ma’naviy kamol toptirishda Navoyining milliy davlatchilikka oid qarashlari katta ahamiyatga ega. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili davlat dasturini amalga oshirishda Navoyining bu boradagi fikr-g‘oyalaridan, pandu nasihatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, bugungi yoshlarimiz kelajakda harbiy zabitlar, davlat xizmatchilari, Vatan posbonlari bo‘lib yetishishlari shubhasiz. Shunda Navoyining davlat va jamiyat boshqaruvi yo‘nalishidagi hayotiy-falsafiy fikrlari juda asqotadi. Navoyidagi vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg‘ulari yoshlarimizning doimiy hamrohiga aylansa, lashkar bexatar, Vatan sarhadlari bexavotir, osoyishta bo‘ladi, degan umiddamiz.

Alisher Navoyining davlat va jamiyat boshqaruviga ijodiy munosabati doimiy dolzarb hamda o‘ta hayotiy muhim muammodir. Ushbu mavzu yangi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida, xususan, yigirma birinchi asrning dastlabki yillarda biror o‘rinda deyarli yoritilmagan. Aslida, milliy davlatchilik asoslarini barpo etishning ma’naviy masalalari hamisha Alisher Navoyining diqqat markazida turgan. Zotan, u ulug‘ shoir va buyuk mutafakkir bo‘lishi bilan birga, atoqli davlat arbobi hamda yirik mulkdor shaxs sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. Hozir ham u yashab ijod etgan Hirot shahrida xalq nufuzli o‘tmishdoshini faxr bilan “Amiri kabir” sifatida eslaydi.

Bizning avlodimizning yoshlik davrlarida davlat va jamiyat boshqaruviga, mulkka munosabat batamom boshqacha edi. Bu boradagi nuqtayi nazar kommunistik mafkura asosiga qurilgan edi.

O‘rta maktabning o‘ninchи sinfida buyuk proletariat yozuvchisi Maksim Gorkiyning “Ona” romani o‘qitilardi. Romanning bosh qahramoni Pavel Vlasovning nutqi har bir o‘quvchiga yodlatilardi va uning nutqi qanday o‘zlashtirilganligi baholanardi. Nutq quyidagi so‘zlar bilan boshlanardi: “- *Biz – sotsialistlarmiz! Buning ma’nosи shuki, biz xususiy mulkka qarshimiz!*” Bunda kommunistik mafkuraning nuqtayi nazari yaqqol ifodalangan. Bozor iqtisodiyoti tizimining nuqtayi nazari esa bunga tamoman teskari. Bozor iqtisodiyoti xususiy mulk tarafdori. Bozor iqtisodiyoti tizimida har bir kishining xususiy mulk orttirishi, xususiy mulkka ega bo‘lishigina emas, balki uni ko‘paytirishi, yirik mulkdorga aylanishi qonun bilan kafolatlangan. Mulkdorlik huquqi jamiyatning barcha qatlamlari, toifayu tabaqa vakillariga berilgan. Xususiy mulkdorlikni rag‘batlantirish, takomillashtirish yo‘lga qo‘yilgan. Xususiy tadbirkorlik va fermerlik harakatlariga keng yo‘l ochilgan, banklardan kredit olish, sarmoya orttirish va uni rivojlantirish, mulkdorlik talabgorlarini homiylik yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari yaratilgan. Davlat aholini, xususan, yoshlarni xususiy mulk orttirishlari va shu yo‘l bilan kambag‘allikni tark etishlari uchun foizsiz kredit bilan ta’minlamoqda. Mustaqillikning o‘tgan o‘n olti yilda avvaldan sarmoyaga ega bo‘lmagan ko‘plab oddiy odamlar va hunarmandlar ushbu imkoniyatlardan foydalanib, mulkdor bo‘lishga ulgurishdi. Masalan, oddiy tuproqdan sopol buyumlar yashashni san’at darajasiga ko‘targan, o‘nlab jahon mamlakatlari muzeylarida ijod namunalari saqlansa-da, sho‘ro davrida kosasi oqarmagan, san’atini rivojlantirishga sarmoya topa olmagan g‘ijduvonlik ustoz Ibob Narzullayevning Alisher va Abdullo Narzullayev kabi avlodlari bugun yaxshigina mulkdorga aylangan va dunyo ko‘rgazmalarida xorijiy kulollar bilan teng raqobatlashish salohiyatiga ega. Bunday misollar ko‘p. Bunday mulkdorlar qancha ko‘paysa va kuchaysa, davlat va jamiyat ham shunchalik boyiydi hamda kuchayadi.

Yangi tizim qonuniyatlarini, o‘z-o‘zidan, jamiyatda mulkdorlik ruhiyatini shakllantirishni taqozo etadi. Xo‘sish, unda zamonamiz qahramonlari kimlar bo‘ladi? Zamonaviy yoshlарimizning ma’naviy qiyofasi, axloqi, madaniyati qanday shakllanadi? Tabiiyki, yangi bozor

iqtisodiyoti sharoitlarida yoshlarimiz ma’naviy-axloqiy qiyofasini musaffo saqlash, ularda ma’naviy barkamollik mujassamlashgan mulkdorlik madaniyatini shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qoladi. Bozor iqtisodiyoti tizimi mulkdorlar jamiyati tarafdoi ekan, zamonamiz qahramoni, u qaysi soha va kasb egasiligidan qat’i nazar, mulkdorlar toifasiga mansub bo‘lishi qonuniy holdir. Mana shu o‘rinda Navoyi saboqlariga zaruriyat seziladi. Ya’ni, bozor iqtisodiyoti tizimida shakllanayotgan fuqarolik jamiyati ma’naviy barkamol insonlardan tarkib topishi, boshqaruvdagi davlat xizmatchilari esa ma’naviy komil insonlar bo‘lishi taqozo etiladi. Bunday sifat darajasiga erishish uchun esa Navoyi o‘gitlari suv bilan havodek zarur. Navoyining bu boradagi qarashlari, ayniqsa, “Hayrat ul-abror” dostonining uchinchi maqolotida qiyomiga yetkazib ifodalangan. Xo‘s, Navoyi nazdida, mulku mamlakat egasi kim? Uning ma’naviy sifatlari oddiy xalq vakillari bilan qanday nisbatda? “Shohning munglug“ mushavvashlar bila ne nisbati?”

*Bil munikim, sen dog‘i bir bandasen,  
Ko ‘pragidin ojizu afgandasen.  
Ermas alar tufrog‘u sen nuri pok,  
Xilqat alarg‘avu senga tiyra xok.  
Barcha javorih bila a’zoda teng,  
Surati nav’iyu hayuloda teng.  
Lek hunar ichra, kamol ichra ham,  
Xulqu xushu lutfi maqol ichra ham.  
Ham ravishi adlu ham insof aro,  
Hilmu hayovu bori avsof aro,  
Shar’tariqida ibodatda ham,  
Haq yo ‘lida taqviyu toatda ham.  
Sen tushubon yo ‘l najahidin yiroq,  
Ko ‘pragi sendin yurubon yaxshiroq.*

Navoyining ushbu fikrlarini faqat shohgagina emas, balki barcha davlat xizmatchilariga, mulkdor rahbarlarga nisbatan tatbiq etish mumkin. Albatta, rahbarlar – jamiyatning yetakchilari. Ammo ular, Navoyining fikricha, alohida holatda ko‘pchilikning biri. Tabiiy salohiyatlariga ko‘ra, ular boshqa jamiyat a’zolari bilan teng. Hatto, ularga nasib etmagan ayrim fazilatlar boshqalarda bo‘lishi mumkin.

Navoyi boshqalardagi afzalliliklarga qiyosan, shohni kamtarinlik va xokisorlikka da'vat etadi. Mutafakkirning bunday talabi bizning yangi davlatchiligidagi tamoyillarga ham to'g'ri keladi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga binoan: "**Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir**" (7-modda). Haqiqatan ham, davlat rahbarlarining bitmas-tuganmas zahirasi xalq ommasida mujassamdir. Har bir rahbar shaxs xalq orasidan yetishib chiqadi va xizmat vazifasini bajarib bo'lganidan keyin yana asl o'zaniga – xalq bag'riga qaytadi, oddiy fuqaroga aylanadi. Navoyi sabog'ida ana shu oddiy haqiqatni nazardan qochirmaslik, o'zini xalqdan yuqori qo'ymaslik, xalqdan yiroqlashmaslikka nozik ishora bor.

Rahbariyat xalqning bir qismi ekanligi, o'zini xalqdan ustun qo'yishi noo'rinligi hozirgi metodologiyamiz asoslarida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Prezident I.A.Karimov o'z nutqlarida rahbar ma'naviyati masalalariga qayta-qayta murojaat etadi. Misol tariqasida uning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasidagi so'zlari diqqatga sazovor: "...Arim (rahbar-N.J.) xodimlarning maxsus xizmat libosini kiyishi bilan birdaniga yurish-turishi, xulq-atvori o'zgarib qoladi. Ularning ongida "Biz davlatning o'ta ishonchli odamlarimiz, qolganlar esa biz nazorat qilib turishimiz lozim bo'lgan omma, xolos" degan kayfiyat paydo bo'ladi. Bu, axir, o'tmishga, sho'rolar davriga xos bo'lgan axloqiy tubanlik asorati emasmi ? Davlat muassasalari ... xodimlari bir haqiqatni qulog'iga quyib olsinki, ular ham mana shu xalqning bir qismi, hech kimdan, oddiy odamlardan ortiq joyi yo'q". Rahbar xodimlar odamlarni nazorat qilishi emas, balki ularga xizmat qilishi kerak, deya uqtirardi sobiq yurtboshimiz. O'zbekistonning yangi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham ana shu xalqchil davlat boshqaruvi siyosatini izchil davom ettirmoqda. U "**Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak**" degan tamoyilni boshqaruvning asosiy qoidasiga aylantirdi.

Davlat boshqaruvi xodimlarining xalq oldidagi mas'uliyati masalasida ham Alisher Navoyi hozirgi davlat va huquq nuqtayi nazari bilan yakdil. Ushbu masala Asosiy Qonunimizda quyidagicha yechimini topgan: "**Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar**

**oldida mas'uldirlar”** (2-modda). Navoyi hukmdorning xalq oldidagi mas’uliyatini quyidagicha badiiy talqin etadi:

*Bo 'ldi raiyat galavu sen shubon,  
Ul shajari musmiru sen bog‘bon.  
Qo‘yni shubon asramasa oyu yil,  
Och bo‘rilar to‘masidur bori, bil.  
Boqmasa dehqon chamanin tunu kun,  
Naxli tarin angla qurug‘on o‘tun.  
Bo‘rini dog‘i galadin dur qil,  
Suv beribon bog‘ni ma‘mur qil.  
G‘am yesang, ul gala manofi‘berur,  
Bog‘gulu mevayi nofi‘berur.  
Gala tugansavu qurusa shajar,  
Xud sanga qolmas yana naf‘u samar.*

Navoyi talqinicha, podshoh raiyat, ya’ni xalqning tinch va osoyishtaligi, to‘q va farovonligi uchun mas’uldir. Xalq – poda bo‘lsa, shoh – cho‘pon, xalq – bog‘ bo‘lsa, podshoh – bog‘bon. Qo‘ylarni cho‘pon oyu yil yirtqich hayvonlardan qo‘riqlamasa, bari och bo‘rilarga yem bo‘ladi. Xalqni hukmdor o‘g‘ri, bosqinchi, yulg‘ich, poraxo‘rlardan himoya qilmasa, xalq himoyasiz qoladi,adolatsizlik avj oladi, davlat va jamiyat tanazzulga uchraydi. Bog‘bon mevali daraxtlarini parvarishlamasa, qurigan o‘tinga aylanadi-qoladi. Bu holda nafaqat bog‘ gulu meva berishdan to‘xtaydi, ya’ni xalqning nasibasi quriydi, balki hukmdorning o‘z rizqi ham qirqiladi. Bunday fofianing oldini olish uchun, bo‘rini podadan quvish, bog‘ni esa sug‘orib, obod qilish kerak. Ya’ni, rahbar davlat va jamiyat tarkibini nopol kimsalardan tozalashi zarur.

Mutafakkir zolim hukmdorning zulmi va gunohlari jazosiz qolmasligidan ogohlantiradi, mahshar kunidagi hisob-kitobga va do‘zax azobiga mustahiq bo‘lishiga iqror etadi:

*Kim ne kishikim, sanga mahkum erur,  
Zulminga bechoravu mazlum erur,  
Garchiki yo‘q shavkatu sarmoyasi,  
Sendin erur ortuq aning poyasi.  
Negaki, chun hashr kuni zuljalol  
Zolimu mazlumni aylar savol.*

Hashr kuni Yaratuvchi zolim bilan mazlumni so‘roq qilganida, mazlum yuksaladi, zolim esa aftoda holga tushadi. Unda jabrdiyda molu martabasi bo‘lmasa ham, zolim hukmdordan yuqori maqomda turadi. Unga mehr-muruvvat, bunga esa xor-zorlik yuzlanadi.

*Anga evazdur, sanga sharmandaliq,  
Anga biyiklik, sanga afgandaliq.  
Til chekib ul xanjari po ‘loddek,  
Ochilibon savsani ozoddek.  
Sanga binafsha kibi qaddi nigun,  
Bosh ko ‘tara olmay uyotdin zabun.  
Anga nishotu sanga anduhu g‘am,  
Ul sanga andoqli, anga sen bu dam.  
Har ne xato qilg‘oning o ‘lg‘och hisob,  
Bo ‘lg‘usidur har biriga yuz azob.*

Ya’ni, u qanchalik ko‘p xatoga, gunohga, zulmga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, oxiratda shunchalik azob-uqubat tortadi. Unga faqat birgina vosita – u zulm yetkazgan mazlumning kechirimi najot baxsh etishi mumkin. Umid faqat shundan:

*Qilmasa mazlum gunohing bihil,  
Do ‘zax arodur vataning muttasil.  
Afvin aning tutmasang ummid sen,  
Bilki, tamug ‘o ‘tida jovid sen.*

Agar jabrdiydaning afviga sazovor bo‘lolmasa, zolim do‘zax o‘tida abadiy kuyishi muqarrar. U kimgaki bir ingichka ipchalik ziyon yetkazgan bo‘lsa, mahsharda uning qatli uchun ilonga aylanadi:

*Kimgaki bir rishta yeturdung ziyon,  
Qatlinga ul rishtani bilgil yilon.*

Zulm uchun jazo muqarrarligini uqtirarkan, shoir hukmdorni hushyorlik bilan zulmpeshalikdan voz kechishga undaydi. Zulmni daf etishning birdan-bir oqilona yo‘liadolat o‘rnatish ekanligini mazkur maqolotga ilova qilingan hikoyatda mahorat bilan tasvirlaydi Navoyi.

Navoyining davlat va jamiyat boshqaruvi haqidagi g‘oyalari uning lirik asarlарida ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mana bu asarda g‘azabkor shoh va uning xizmatidagi amaldorlarning ayanchli ahvoli nihoyatda ta’sirchan tasvirlangan:

*Jahon ganjig ‘a shoh erur ajdaho  
Ki, o ‘tlar sochar qahri hangomida.  
Aning komi birla tirilmak erur –  
Maosh aylamak ajdaho komida.*

Shoirning badiiy talqinicha, shoh jahon xazinasi ustida yotgan bamisoli bir ajdaho. U qahru g‘azabga minganida, go‘yoki og‘zidan olov purkaydi. Shuning uchun, uning panohida biror amalga ega bo‘lish, ya‘ni uning maslagi bilan yashash bamisli ajdaho halqumida turib tirikchilik o‘tkazish bilan barobardir. Bunday amaldorlarning maskani shuning uchun ham tahlikali va omonatki, ajdaho – shohning qahri kelganida, yo halqumidagi luqmani bilib-bilmay yoqib yuboradi yoki liq etib yutib yuboradi. Shuning uchun ham shoh saroyiga o‘ralashgan amaldorlarning aksariyati yo benomu nishon yo‘q bo‘lib ketadi yoki ma’naviy-ruhiy majruh bo‘lib oddiy odamlar orasiga qaytadi va gumnom bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti ma’naviyati ham navoyiyona adolatlari boshqaruvni taqozo etadi. Navoyining o‘zi ma’rifatli mulkdori bo‘lgan va ma’rifatli mulkdorlikni yoqlaydi. Agar yosh tadbirkor ma’nana barkamol, ko‘zi to‘q, saxovatli, oliyhimmat bo‘lmasa, nafsi unga g‘olib keladi. Boylik orttirishning esa chek-chegarasi yo‘q. Oqibatda, bunday mulkdorlik ma’naviy inqirozga olib boradi. Navoyi el shod, mamlakat obod bo‘lishining asosiy shartini quyidagi asarida katta badiiy jasorat bilan namoyish etgan:

*To hirsu havas xirmani barbod o ‘lmas,  
To nafsu havo qasri barajtad o ‘lmas,  
To zulmu sitam jonig ‘a bedod o ‘lmas,  
El shod o ‘lmas, mamlakat obod o ‘lmas.*

Demak, bo‘lg‘usi mulkdorlarni ma’naviy kamol toptirish uchun ularning ma’naviy-ruhiy olamidan hirsu havas, nafsu havo kabi buzg‘unchi tamoyillarni barham toptirish, zulmu sitamning jon taslim etishiga erishish zarur ekan. Shundagina, Navoyi orzu etganidek, jamiyatda ma’naviy barkamol mulkdorlar sinfi shakllanadi, el shod, mamlakat obod bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 14-том.  
Маҳбуб ул-кулуб. – Т.: Фан, 1998.
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 7-том.  
Хамса. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991.
3. Каримов И.А. Кўп томлик асарлар. 1-14-том. – Т.:  
Ўзбекистон, 1996-2006-йиллар.
4. Мирзиёев Ш.М. Асарлар, 1-том. Миллий тараққиёт  
йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга  
кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.

# ALISHER NAVOIYNING VAQT KONSEPSIYASI

## ALISHER NAVOI'S TIME CONCEPT

Nafas SHODMONOV

Qarshi davlat universiteti

(O'zbekiston)

### *Annotatsiya*

Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining vaqt tushunchasiga falsafiy va tasavvufiy munosabatlari, jumladan, Alisher Navoiyning bu tushunchaga falsafiy yondashuvi yoritilgan. Ulug'shoirning dahr, zamon va vaqt tushunchalarini talqin qilishda o'ziga xosligi tahlil qilingan. Vaqtini ifodalashda shoirning bir necha o'nlab arabiy, forsiy va turkiy so'zlarni irfoniy, falsafiy, tasavvufiy va dunyoviy ma'nolari mahorat bilan ochib bergeniga diqqat qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** dahr, zamon, qadim, asr, muddat, on, avon, azal, abad, tasavvuf, dunyoviy.

### *Annotation*

This article describes philosophical and mystical attitudes of Eastern thinkers to the concept of time, including Alisher Navoi's philosophical approach to this concept. The originality of the great poet in the interpretation of the concepts of eternity (dahr), tense and time have been analyzed. The author focuses on the poet's masterful interpretation of dozens of Arabic, Persian, and Turkish words with spiritual, philosophical, mystical, and secular meanings realized when expressing time.

**Key words:** eternity, tense, ancient, century, term, moment, primordial, ever, mysticism, secular.

Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari, aqida va e'tiqodi masalasiga doir fikrlar bir necha olimlar tomonidan bildirilgan bo'lsa-da, ularning hech biri falsafaning muayyan mavzulariga bag'ishlanmagan. Bu hol esa buyuk mutafakkirning falsafa ilmi bilan nechog'li yaqinligini aniq tasavvur qilishga imkon bermaydi.

Shuning uchun bu yerda ulug‘ shoir ijodida falsafaning ma’lum mavzusi – vaqt konsepti masalasiga diqqat qaratishni lozim topamiz. Bu esa vaqt haqidagi ilmiy qarashlar tadrijini kuzatishni taqozo qiladi.

Vaqt mavzusi juda qadim zamonlardan falsafada dolzarblik kasb etgani ma’lum. Antik davr olimlarining mashhur asarları yaratilgunga qadar vaqt oqimmi yoki muayyan voqeа hodisalar o‘rtasidagi oraliq hayotning alohida nomlar bilan atalishimi – bular hali aniqlangan emas edi. Vaqtning tabiatи haqidagi qarashlar qadimiy fatalizmga yoki harakatning fizik nazariyalariga asoslanar, ammo ularning keng kosmologik va metafizik qamrovi olam va insoniyat yaratilishi haqidagi hamda sababiyat va zururat to‘g‘risidagi fikrlarga ta’sir ko‘rsatib turardi.

Platonning “Vaqt” asarida vaqt koinot vujudga kelishi bilan birga paydo bo‘lgan muayyan doirada aylanuvchi adadiy (sonlarga muvofiq) xarakterga ega abadiy harakatlanuvchi tasavvur (tasvir) sifatida taqdim etiladi [<https://www.iis.ac.uk/ru/encyclopaedia-articles/concepts-time>].

Aristotelning “Fizika” asarida taqdim etilgan vaqtning mohiyati va mavjudligining dastlabki tizimli rivojlanishi “avval” (proteron) va “keyin” (husteron) nisbatida doimiy harakat o‘lchovi sifatida belgilandi. Aristotel, vaqt butun bir harakat (holos) ekanligi haqidagi da’volarni inkor etib, uning vaqt o‘lchovi (metron) sifatida samoviy sfera (sphaira)ning mudavvar va muntazam harakatda bo‘lishi ekanini isbotladi. Keyinchalik vaqt nazariyasi masalalariga diqqat qaratgan ekseget-neoplatoniklar va yunon olimlari monumental asarlar nashr ettirdilar [Aristotel, 1998: 152].

Bir qator Sharq olimlari ham vaqtini tadqiqot markaziga tortdilar. Jumladan, Ishoq ibn Hunayn (910 y.e.) Aristotelning “Fizika” asarini “At-tabia(t)” nomi bilan tarjima qildi va u musulmonlar orasida turli falsafiy talqinlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilishiga zamin yaratdi. Shuningdek, Al-Kindiy, Abu Bakr Roziy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Ibn Haysam kabi olimlar bu tushunchani turlicha talqin qildilar.

Kalom ilmida ham unga diqqat qaratilib, musulmon peripatetik faylasuflar qarashlari rad etildi va vaqtini o‘zgarishlar namoyon

bo‘lishida virtual, mavhum fenomen sifatida tushundilar hamda o‘z asarlarida nisbatan tor ma’noga ega vaqt istilohi o‘rnida kengroq ma’noga ega zamon istilohini qo‘lladilar [Gerhard Böwering, 1997: 55–66].

Tasavvuf, xususan falsafiy tasavvuf ta’limotida vaqt eng ko‘p ishlangan mavzulardan biri bo‘lib qoldi. Unda yunon falsafasidagi atomizm – narsa yoki hodisalarining zarralarga (juz’larga) bo‘linishi qonuniyatlariga asoslanildi. Shunga ko‘ra, haddiylik (chegaralanish) va davomiylikning turli vaziyatlarini ifodalaydigan barcha so‘zlar o‘ziga xos mohiyat kasb etsa-da, “vaqt” ular orasida markaziy o‘rinni saqlab qoldi. Alisher Navoiy tasavvuf adabiyotining namoyandasasi sifatida bu ta’limot tushunchalaridan unumli foydalandi, lekin ularni bir tomondan saralagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan boyitdi.

Arab tilidagi musulmon adabiyoti manbalarida vaqt ma’nosini ifodalovchi istilohlardan eng ko‘p qo‘llanuvchisi zamondir. Qur’oni Karimda *qidam* (*qadim*) so‘zi bu ma’nodagi istilohlar orasida eng ko‘p qo‘llangan. Alisher Navoiyning vaqt konseptini aniqlashda mazkur manbalaridagi dahr – olamlarning avvalidan oxirigacha bo‘lgan uzlucksiz davomiylik; zamon – boshlanish va oxiri ma’lum davriylik, bor bo‘lish muddati; asr – oraliq vaqt; davom – boshlanib rivojlanuvchi jarayon; ahyon – nisbatan kichik vaqt orasidagi jarayon; muddat – tugash ko‘lami aniq vaqt; on yoki uning ko‘pligi avon – nisbatan qisqa vaqt; azal – boshlanishi yo‘qlik; abad – oxiri yo‘qlik; sramad – boshi va oxiri noayon nisbatan uzoq davomiylik; xuld, xulud – boshi aniq, oxiri noaniq davomiylik; baqo (boqiy) – borning yo‘q bo‘lmasligi; fano (foniy) – borning yo‘q bo‘lishi; avval, ibtido yoki bidoyat – bor bo‘lishning boshi; oxir, intiho yoki nihoya – bor bo‘lishning yo‘q bo‘lish vaqt; mobayn – avval bilan oxir yoki azal bilan abad oralig‘i; lahza – bir qarab boqish muddati kabi juda ko‘p tushunchalar ularning forsiy va turkiy tarjimalariga ham diqqat qaratish lozim. Shuningdek, falsafiy dunyoqarashni ifodalaydigan vujud – borliq (bu tushunchani Navoiy “bud” so‘zi bilan ham ifodalashi kuzatiladi); adam – yo‘qlik (bu tushunchani Navoiy “nobud” so‘zi bilan ham ifodalashi kuzatiladi); vujudi mutlaq – mutlaq borliq (substansiya); mumkinot – borning paydo bo‘lishdan oldingi imkoniyati (potensiya); malo – to‘liqlik; xalo –

bo'shliq; mabda – kelib chiqish zamoni va makoni hamda makon – mavjud bo'lish o'rni kabilarda ham vaqt bilan bog'liklik borligi ularning bu maqsadni aniqlashda ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, shoir ijodida vaqt tushunchasining ifodalanishi, talqin qilinishi va undan ko'zlangan maqsadlar, so'zlar qo'llash tamoyillarini kuzatamiz.

Dahr: arab tilida qadimdan mayjud bu so'z boshlanish va oxirda cheksiz vaqt davomiyligini anglatadi, mutasavviflar ham Imom Buxoriy va Imom Muslimdan rivoyat qilingan bir hadisi qudsiyga tayanib, dahrni cheksiz vaqt sifatida talqin qiladilar. Hadisning ma'nosi shunday: Rasululloh s.a.v. aytadilarki, "Alloh taolo dedi: Odam bolasining dahrni so'kmog'i menga aziyat yetkazadi, Men dahrdirman, kecha va kunduzni almashtirib turaman". Boshqa rivoyatda: Rasululloh s.a.v. aytadilarki, "Alloh taolo dedi: Dahrni so'kmanglar, Men dahrdirman, kecha va kunduzni almashtirib turaman", deyiladi [<http://iswy.co/e3lq7>]. Hadis sharhlari tarjimasida "dahr"ni "zamon" deb tushuntiradilar. Islomdan burungi arablar "dahr"ni "shum taqdir, qora qismat" sifatida ham tushunganlar, boshlariga tushadigan musibatni dahrdan deb bilganlar. Qur'oni Karimda dinsizlarning "bizni faqat zamon (dahr) halok qiladi" (45:24) degan so'zları ham buni tasdiqlaydi. Muqaddas kitobning "Inson" surasi 1-oyatida "hiynun mina-d-dahr" birikmasi qo'llanadi. Uning so'zma-so'z tarjiması "dahr (cheksiz zamon)dan on" (hiyn – "ahyon"ning birligi)dir. Tarjimon va mufassirlar bu birikmani "zamon", "bir zamon" degan talqinda beradilar. Navoiy bu oyatni to'liq holda "Nazmu-l-javohir" muqaddimasida keltirgan. Binobarin, ulug' shoir bu so'zlar ma'nosini juda yaxshi idrok qilgan, o'zlashtirgan. Shunga ko'ra, u ijodida "dahr"ni zamon ma'nosida ham, dunyo ma'nosida ham, taqdir, hayot ma'nolarida ham qo'llagan.

*Voqif o'lkim, **dahr dehqoni** sening qasdingdadur;*

*Ismin oning gul qilib, otin munung shamshod etib* [Navoiy, III, 2011:63].

Tasavvufda ko'pgina masalalar islom va xalq udum-an'analari sintezi orqali yechiladi. Buni juda ko'p so'fiylar ta'limotlarida ko'rish mumkin. Dahr tushunchasi talqinlarida ham bu seziladi.

Alisher Navoiy “Nasoyimu-l-muhabbat”ning Shayx Kamoluddin Abdurazzoq Koshiy zikrida tasavvuf mazhablaridan biri dahriya deb yuritilishi haqida eslatadi.

Falsafiy tasavvufning yirik namoyandası, vahdatu-l-vujud nazariyasi asoschisi Ibn al-Arabi dahr tushunchasini chuqur tahlil qilgan va o‘z qarashlaridan kelib chiqib talqin qilgan. U yuqorida eslangan qudsiy hadis va Qur’oni Karimdagı dahr kalimasi asosida hayot davomiyligining boshi, boshlang‘ich nuqtasini Alloh taologa mansubligini yozadi. U vaqtini Xoliq va maxluqni bir-biriga bog‘lab turuvchi rishta sifatida tushuntiradi. Bunda u dahr, zamon va vaqt tushunchalarining kosmologik, astronomik va boshqa jihatlariga ko‘ra farqlanishiga diqqat qaratadi [Gerhard Böwering, 2013: 114]. Ulardan xulosa qilish mumkinki, dahr insonning aql, tafakkur doirasidan tashqaridagi o‘lcham.

Arab tilida dahr dunyo, olam ma’nolarida qo‘llanmaydi. Tasavvuf orqaligina forsiy xalqlar so‘fiy ijodkorlari dahrnini “dunyo” ma’nosida ham talqin qila boshladilar. Alisher Navoiy ijodida so‘zning “taqdir” ma’nosи juda zaif, lekin uning hayot va unga yaqin boshqa ma’nolarda ham qo‘llanishini ko‘rish mumkin. Umuman, dahr va u bilan qo‘llangan kalimalar orqali ulug‘ mutafakkir olamning mutlaq vujud tajalliyoti va zuhuroti, shuningdek, dunyoning Haq vasliga parda ekani talqinini yaratadi. Bunday talqinlardan xulosa qilish mumkinki, tasavvuf va Navoiy ijodida dahr so‘zining qo‘llanishi kattaroq tadqiqotlarga ham arzirli material bo‘la oladi.

**Zamon:** harakatda bardavom narsa va hodisalarning davomiylik sifatini ifodalovchi tushunchadir. Ya’ni mavjudlik (borliq) va hayotiylik (tiriklik)ning alomatlaridan biri zamondir. Zamon faqat biz yashab turgan olamga xos, boshqalariga emas. Binobarin, dahr dan farqli ravishda, uning boshi va oxiri bor. Ibn al-Arabi zamonni tasavvufiy talqin qilar ekan, zamonu-l-kabir, zamonu-s-sag‘ir, zamonu vohid, zamonu-l-hol kabi bir necha turlarga bo‘ladi va “zamon” tushunchasini qisman kosmologik va qisman nisbiy tushuncha sifatida falsafiy talqin qiladi [Gerhard Böwering, 2013: 112]. Alisher Navoiy vaqt bilan bog‘liq hamma tushunchalarni zamon so‘zi orqali ham ifodalashga harakat qilishida ana shu tamoyillarga tayangani kuzatiladi. U bu so‘z vositasida istalgan irfoniy, tasavvufiy

va dunyoviy qarashlarini ifodalay olgan. Bunda u zamon so‘zi ishtirok etgan turli ko‘rinishdagi birikmalardan (har zamon, bir zamon, oxir zamon, zamoni hayot, zamoni basit va h.) foydalanadi.

*Kelmayu yodimg‘a zamoni hayot,*

*Qilg‘onim ish kelmagan andin uyot* [Navoiy, VI, 2011:302].

Imom G‘azzoliy “Ihyou ulumi-d-din” asarida “Albatta, Robbingiz uchun zamonangiz kunlarida tajalliyot vaqtleri bo‘ladiki, bas, unga o‘zingizni chog‘lang” (Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari) hadisini keltirib, hamma zamonda ham Alloh taolo ne‘matlari hosil bo‘lishi, ilohiy mujdalar yuz ko‘rsatishini, unga ilm bilan chog‘lanish lozimligini ta’kidlab, shaytoniy hamda dunyoviy fitnalardan ogohlantiradi [G‘azzoliy, 2006:11]. Navoiyning zamon haqidagi qarashlarida xuddi shunday ogohlantirishlarni ham ko‘rish mumkin:

*Qiyomat erdi ul mahkim, yuz ochti, ey musulmonlar,*

*Bo‘lung voqifki, bo‘ldi fitnayi oxir zamon paydo* [Navoiy, IV, 2011:39].

“Oxir zamon” iborasi islomiy tushunchalar talqiniga asosan vujudga kelgan bo‘lib, zamonning nihoyasi borligini dalillaydi. Umuman, zamon mavzusining o‘zi juda katta qamrovga ega. Chunki, avval ta’kidlanganidek, shoir vaqt bilan bog‘liq o‘z falsafiy qarashlarini ifodalashda ham, badiiy tasvir talab qilgan holatlarni hal qilishda ham bu so‘zdan foydalanadi. Lekin har qanday holatda ham uning chegarasini qo‘pol ravishda buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi. YA’ni gap tasavvufiy masala ustida borsa, so‘zni tasavvufiy talqinda, dunyoviy masala ustida borsa, istalgan shaklda uni qo‘llaydi. Bunga ba’zi misollar keltirish bilan cheklanamiz:

*Ul parivash ishqidin, nosih, meni man’etmakim,*

*Telbalik vaqtiyu oshiqlik zamonidur manga...* [Navoiy, III, 2011:20].

*Desang zamona sitezini har zamon ko‘rmay,*

*Zamонни xush tutu qilma zamona birla sitez...* [Navoiy, I, 2011:236].

*Navoiy, vaqtni toatg‘a yo ishratg‘a sarf etkim,*

*Sog‘insam o‘rtanurmen tiyra o‘tkargan zamonimdin...*

*Taysan edi ko‘ngul mayi ishqini tortqon zamon,*

*Ko‘rki, ne rom etibdurur emdi oni zamonasi...*

Shuni ta'kidlash lozimki, zamon o‘z muayyan kengligiga ega bo‘lib, u turlicha nomlar bilan yuritiladi. Ular kun (yavm, ro‘z), kecha (layl, shab, shabiston), kunduz (nahor), oy (shahr, moh), yil (sana), asr kabi juda ko‘p tushunchalarning nomlaridan iborat. Shuningdek, davr, davron, mahal, soat, lahza, on, dam, payt, qadim (qidam), avval (moziy), hozir (hol), keyin (ta’xir, mustaqbal) kabi vaqtga xos tushunchalar nomida ham zamon mavjud.

Lekin shunday tushunchalar ham borki, ular inson tomonidan anglangan yoki insoniyat hayotining ibtido va intihosi orasiga xos bo‘lgan zamon doirasidan tashqaridir. Bunga azal, abad, (al-)misoq, me’roj, qiyomat kabi tushunchalar misoldir. Ulardan anglashiladigan vaqt zamonga tobe emas, o‘zicha mavjud. Binobarin, “Hayratu-l-abror”da bitilgan quyidagi misralar shoirning shunday qarashlarini ifodalaydi:

*Ey senga mabdada abaddek azal,*

*Zot-i qadiming abadiy, lam yazal.*

*Ne bo ‘lub avvalda bidoyat senga,*

*Ne kelib oxirda nihoyat senga* [Navoiy, VI, 2011:13]

Akademik A.Rustamov bu satrlardagi vaqt ifodalovchi so‘zlarning ma’nolari birgina Yaratuvchiga taalluqliligin shunday talqin qiladi: “Navoiyning fikriga ko‘ra, mutlaq borliq bor bo‘lib, uning zamon va makon nuqtai nazaridan poyoni yo‘q. U azaliy, ya’ni uning avvali yo‘q, doim bor bo‘lgan. U abadiy ham, ya’ni uning oxiri yo‘q, u doim bor bo‘ladi... Navoiy bu yerda mutlaq borliqning azaliy va abadiyligini tushuntirish bilan birga, yana o’tkir bir mantiqiy xulosa chihargan. Bu – azal va abad tushunchalarining nisbiyligidir. Mohiyat nuqtai nazaridan mutlaq haqiqatga berilgan bu ikki sifatning orasida farq yo‘q. Chunki ikkisi ham zamon nuqtai nazaridan cheksizlikni bildiradi. Shuning uchun Navoiy “azal”ni “abad”dek deydi” [Rustamov, 1979: 7 – 8].

Dostondagi quyidagi baytlar ham Yaratuvchi vaqtiga dalolatdir:

*Zotig ‘a daryoyi qidam chun toshib,*

*Bir yon azal, bir yon abaddin oshib.*

*Davr ishi bu nav’taxayyul topib,*

*Ohki bu davr tasalsul topib.*

*Silsila bu nav' azal to abad,*

*Kelguchiyu ketguchi behaddu ad* [Navoiy, VI, 2011:87]

Lekin shoir ba'zan Yaratuvchiga taalluqli vaqt ifodasining faqat lug'aviy ma'nosidan foydalanib ham baytlar yaratadi:

*Tutub ilgini bu so'z ayturda rust*

*Kim, ul ahd misoqin aylab durust* [Navoiy, VIII, 2011:330]

Alisher Navoiy bulardan tashqari, jarayon anglatuvchi so'zlardan ham vaqt-zamon ma'nosini ifodalashda foydalanadi va ularning har biri ishtirokida sanoqsiz talqinlar yaratadiki, ular ham yirik tadqiqotga asos bo'lishi mumkin. Quyidagi bir g'azalda ulardan nishonalar ko'rish mumkin:

*Yor hijronida sarvaqting 'a yetting, ey ajal,*

*Jon fidong etsam hanuz ozdurki, kelding darmahal.*

*Jon talashmoqliqqa qo'yma la'li hajridin meni,*

*Chun erur ta'xir aro ofot, ko'p qilma hayal.*

*Jonni bot olmoq sanga mushkul esa, jon chekma ko'p,*

*Qo'yki, bu mushkulni bot aylar aning hijroni hal...*

*Hajr bemorig 'a qotil zahr erur hayvon suyi,*

*Ey Masih, asra nafas, bu nuqtada qilma jadal.*

*So'ngg'i kundin halq tarson, men burun kundin vahim,*

*Elga g'am shomi abad keldi, mang'a subhi azal.*

*Ich Navoiy, g'ussa tahlilik 'a gulgun bodakim,*

*Bir piyola la'li mahlul o'ljadi andin badal* [Navoiy, III, 2011:379].

**Vaqt:** tasavvuf olimlari bu tushunchani o'z darajalaridan kelib chiqib ta'riflaganlar va ilmiy talqin qilganlar. Bu ta'riflar mohiyatan bir-birini takrorlaydi. Masalan, Qushayriy o'z risolasida vaqtga ta'rif berar ekan, u mavhum hodisani haqiqatga aylanishini ta'minlashini ta'kidlaydi. Buni shunday misol bilan tushuntiradi: "Seni oy boshiga yetkazdi" deyilganda "yetkazmoq" mavhum, "oy boshi" haqiqatni ta'minlovchi. Binobarin, "oy boshi" "yetkazmoq"ning vaqtidir [[www.al-mostafa.com](http://www.al-mostafa.com)]. Bu ta'rif bir qarashda jo'n va juda soddadir. Lekin vaqtning mavhumni haqiqatga aylantirish to'g'risidagi fikr vaqtning haqiqatni ta'minlovchi omil sifatida belgilab berishi bilan ahamiyatli.

Olim keyin boshqa olimlarning vaqt borasidagi qarashlarini izohlab o‘z fikrlarini quvvatlantiradi. Jumladan, Abu Ali Daqqoqdan u eshitgan bir iqtibosda shunday deyilgan: “Vaqt sen unda bo‘lgan narsadir. Sen dunyoda ekansan, dunyo sening vaqting, uqboda ekansan, vaqting uqbodir. Agar sururda bo‘lsang – vaqting surur, huznda bo‘lganiningda – vaqting huzndir”. Qushayriy bu iqtibosdan xulosa qilib, “darhaqiqat, vaqt inson ustida g‘olibdir”, deydi. Shundan kelib chiqib, “as-so‘fiy ibnu vaqtih” – “so‘fiy o‘z vaqtining farzandidir” degan an’anaviy iborani tasdiqlab, izohlab beradi [www.al-mostafa.com].

Ibn Arabiy vaqtini “sen ichida va ustida bo‘lgan narsa (mā anta bihi wa ’alayhi)”... O‘tmish va kelajakning senga taalluqi yo‘q”, deb tushuntiradi. Keyinchalik Sajjodiy lug‘atida vaqtning tasavvufiy mohiyati uning solikka nasib etgan tavakkul, taslim, rizo hamda moziy va mustaqbal (kelajak)dan forig‘ bo‘lish kabi mazmunga egaligi bilan izohlangan [Sajjodiy, 1370: 789]. Ularning hammasidan kelib chiqadigan xulosa shuki, vaqt o‘zicha mavhum tushuncha bo‘lib, u ikki qismga bo‘linadi: 1) abadiyat ilohiy vaqt; 2) “hozir” insoniy vaqtidr. Alisher Navoiyning vaqt haqidagi deyarli barcha fikrlari keng ma’nodagi “hozir” talqinidan iborat. “Mahbubu-l-qulub”da shoir shunday deydi: “*Zolim va bedard suhbatida nukta surma, nammom na nomard muloyamatida dam urma. Dono ilikdin borg‘ondin so‘z aytmas, o‘tgan yigitlik orzu bila qaytmas. O‘tgan ro‘zgor adamdur. Kelmagandin so‘z aytqon ahli nadamdur va hol mug‘tanamdur. Bir turk bu ma’nida debdurkim: «Dam bu damdur».* Bayt:

*Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,  
Ne uchunkim, dam bu damdur; dam bu damdur; dam bu dam*  
[Navoiy, IX, 2011:544].

Bunga hamohang baytlar ham bor:  
*Chu moziy o‘ttiyu mustaqbal o‘rtada ermas,  
Sengaki hol emas mug‘tanam ne hol o‘lg‘ay* [Navoiy, I, 2011:647].  
*Ne moziydur, ne mustaqbal, aroda sensenu bu dam,  
Ne shod o‘lmoqdurur har dam uzun umrung hisobidin.*  
[Navoiy, IV, 2011:458]

Dunyoviy tafakkurga ko‘ra ham vaqtning ahamiyati katta. Professor Nurboy Jabborov vaqt ma’nosiga ega “nafas” so‘zi orqali donishmand shoir bildirgan hayotiy fikrlarni shunday izohlaydi: “... Nafasning shukri uni g‘animat bilish, behuda o‘tkazmaslik bilan ado etiladi. Buning sharti esa har bir nafasdan ogohlikdir. Hazrat Navoiyning mana bu o‘gtlari shu haqda:

*Jon bila sen to nafas imkoni bor,  
Qadrini bilgilki, nafascha ne bor.  
Har nafasing holidin ogoh bo‘l,  
Balki anga hush ila hamroh bo‘r* [Jabborov, 2013:6].

Mutasavviflar so‘fiyning ilohiy martabasi – holni vaqt nuqtai nazaridan “hozir” ekanini ta’kidlaydilar [G‘azzoliy, 2003:70]. Binobarin, vaqt “hozir”lar majmui. Navoiyning vaqt konsepsiyasini ana shu planda tahliliy tadqiq etish maqsadga muvofiq.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Aristotle. *Physics*, ed. W. David Ross. Oxford, UK: Oxford University Press, 1998.
2. G‘azzoliy, Abu Homid. Ihyou ulumid-din. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2006. – B. 11.
3. G‘azzoliy, Abu Homid. Ihyou ulumid-din. Tavba kitobi. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2003. – B. 70.
4. Gerhard Böwering. Ibn Al-‘Arabī’s concept of Time / Ишрак, Islamic philosophy Yearbook. 2013, №2. – C. 108 – 123.
5. Gerhard Böwering. The Concept of Time in Islam // Proceedings of the American Philosophical Society. – 1997. – Vol. 141. – No. 1. – pp. 55–66.
6. Sajjodiy Sayyid Ja‘far. Farhangi istilohoti va ta’biroti irfoniy. – Tehron: “Tahuriy”, 1370 (fors tilida).
7. Жабборов Н. “Ҳар нафасинг ҳолидин огох бўл...”/“Ҳидоят”, 2013, № 2. – Б. 6 – 7.
8. Навоий, Алишер. Фаройиб ус-сиғар. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги, 2011.
9. Навоий, Алишер. Бадойиъ ул-васат. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот

ва ахборот агентлиги, 2011.

10. Навоий, Алишер. Фавойид ул-кибар. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги, 2011.

11. Навоий, Алишер. Ҳайрат ул-аброр. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. VI жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги, 2011.

12. Навоий, Алишер. Садди Искандарий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. IX жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги, 2011

13. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiyot va san'yat, 1979. – 216 б.

14. [www.al-mostafa.com](http://www.al-mostafa.com). Qushayriy, Abdulkarim. Risala Qushayriyya fi ilmi-t-tasavvuf (arab tilida). – B. 64.

15. <https://www.iis.ac.uk/ru/encyclopaedia-articles/concepts-time>

16. <http://iswy.co/e3lq7>.

# **ALISHER NAVOIYNING KINOYA SHE'RIY SAN'ATINI QO'LLASH MAHORATI**

## **THE ARTISTIC MASTERY OF ALISHER NAVA'I IN THE CREATION OF IRONY**

**Hamidulla DADABOYEV**

*ToshDO 'TAU*

*(O'zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada Alisher Navoiyning she'riy san'atlardan biri bo'lmish kinoyadan nazmda foydalanish mahoratiga diqqat qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *she'riy san'at, kinoya, parafraza, nazm, majoz, ifoda.*

### *Annotation*

*The article focuses on the artistic mastery of Alisher Nava'i in applying irony in the poems.*

**Key words:** poetic art, sarcasm, paraphrase, poetry, metaphor, expression.

Tavalludining 580 yilligi Respublikada ko'tarinki ruhda keng nishonlanayotgan Alisher Navoiy hazratlarining o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiy etishidagi ulkan xizmatlari xususida ko'pdan-ko'p izlanishlar olib borildi, son-sanoqsiz fikru mulohazalar nafaqat o'zbek, balki chet el navoiyshunoslari tomonidan o'rtaga tashlandi.

Navoiy ijodining bot-bot bepoyon ummonga o'xshatilishi bejiz emas, zero, shoir qoldirgan betakror meros shu qadar keng va teranki, insoniyatning dunyo turgunga qadar bu xazinadan bahramand bo'lishiga shubha yo'q.

Adibning nazm va nasrda bitilgan bebaho asarlariida tilshunoslik va adabiyotshunoslikda azaldan mavjud usul va metodlar, chunonchi, she'riy san'atlar beistisno o'z ifodasini topgan.

Hozirgi tilshunoslikda biror so‘z yoki ibora ma’nosini boshqa, aksariyat, obrazli so‘zlar yordamida ifodalash parafraza (yoxud perifraza) termini bilan ataladi. Mumtoz adabiyotda ishlatilgan turfa ma’naviy san’atlardan biri-kinoya zimmasiga yuklatilgan vazifasiga muvofiq parafrazaga mos tushadi. 1981-yilda nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da arabcha **kinoya** o‘zlashmasiga “masxaralash, kulish uchun aytilgan pardali gap; qochirim, iztehzo, piching, kesatiq” tarzida izoh berilgan (I,386). 1988-yilda chop etilgan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” da **kinoya** 1) иносказание, allegoriya; metafora. 2) ironiya, sarkazm deya izohlangan (212). Ko‘rinadiki, terminning izohli lug‘at tuzuvchilari nazaridan chetdan qolgan ma’nosи ikki tillik lug‘at mualliflari tomonidan e’tiborga olingan. Vaholanki, 1969-yilda “Sovetskaya ensiklopediya” nashryotida e’lon qilingan “Farhangi zaboni точкі” lug‘atida **kinoya// kinoyat** 1. g‘ayr az ma’nii aslii xud ba ma’ni mačozii digare kor farmuda shudani kalimavu ibora; 2. ramz, ishora (I, 553) tarzida izohlangan edi.

Mazkur maqolada **kinoya** istilohi ostida muayyan ob’yekt (denotat)ni o‘zga so‘z, so‘z birikmasi bilan ifodalash, ya’ni majoz orqali ob’yekt (denotat)ga ishora qilish nazarda tutildi.

**Kinoya** she’riy san’atining turkiy adabiyotdagi ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” pandnomasida ko‘zga tashlanadi:

*Aniň tört eši ol avïngü körüb  
Kejäšči bular erdi birlä turub.*

Ma’nosi: *Uning to‘rt eshi (chahoryorlar) ko‘rib ovunishga loyiqdirlar. Bular (doim) birga turib kengashchi (bo‘lar) edilar* (48).

Baytning birinchi qatorida qo‘llangan **tört eš** birikmasi Muhammad (sav)ning sodiq izdoshlari, islom dunyosida **chahoryor, choryor, xulafoi roshidin** istilohlari ko‘magida e’zozlangan Abubakr, Umar, Usmon va Aliga ishora qilingan.

XIV asrning oxiri - XV asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan Xo‘jandiy “Latofatnoma” asarida kinoyaning quyidagi go‘zal namunasini ishlatishga muyassar bo‘lgan:

*Sahar vaqtında kim Sultán-i xávar  
Jamálindin jahán boldi munavvar.  
Alib nayza eligä Xusrav-i éin  
Habaš sultánini qavdi jahándin.*

Ma’nosi: Sahar chog‘i Sharq hukmdori (quyosh) chiroyidan dunyo ravshan bo‘ldi. Chin (Xitoy) hukmdori (quyosh) qo‘liga nayza olib, Habashiston shohi (zulmat, tun) ni yer yuzidan quvib yubordi (34-35).

Baytlarda keltirilgan **Sultán-i xávar** va **Xusrav-i éin** izofalari “quyosh”, **Habaš sultáni** birikmasi esa “tun, zulmat, qorong‘ulik” ka ishoradir. “Quyosh, yoritqich” ga ishora qiluvchi kinoyalar tarkibidagi **xávar** “Sharq va Chin (Yer kurrasining sharqida joylashgan Xitoy) istilohlari matniy ma’nodoshlikni voqealantirgan va ayni chog‘da, Yer kurrasining g‘arbidagi Habashiston (Efiopiya) ga nisbatan ma’lum darajada antonimiyani yuzaga chiqargan. “Zulmat, tun” ni majozan **qara zäji** juft so‘zi bilan ifodalash ilk bor “Qutadg‘u bilig” da kuzatiladi:

*Belinläb udundi körtürdi başin  
Qara zäji qilmış yüzini işin.*

Ma’nosi: *Cho ‘chib uyg‘ondi, boshini ko‘tardi, qora habash yuzini pardalabdi (zulmat ketib, tong yorisha boshlabdi)* (3247).

Alisher Navoiyning nazmida kinoyadan qay darajada foydalangani masalasi, bizningcha, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesimida, ya’ni lingvopoetika nuqtai nazaridan maxsus tadqiq qilinishga loyiq. Zotan, kuzatishlar shoiring ayni she’riy san’atga tez-tez murojaat qilganini ko‘rsatadi. Fikrni ayrim ashayoviy materiallar bilan dalillashga harakat qilamiz.

“Saddi Iskandariy”ning hamd bobida adib Allohnning sifatlarini vasf etishda tubandagi baytni keltiradi:

*Ato yetti-yu, to ‘rt qilding ano,  
Natija uch etting bulardin yano* (12).

Birinchi misradagi **yetti ato** birikmasi ostida “yetti qavat osmon, etti falak” nazarda tutilgan bo‘lsa, **to‘rt ano** esa to‘rt unsur-tuproq, suv, havo va o‘tga ishoradir. Ushbu misradagi **to‘rt ano** birikmasi, shuningdek, to‘rt fasl-ko‘klam, yoz, kuz, qishni ifodalashga yo‘naltirilgan. Ikkinchi qatorda qo‘llangan **uch et=** birikmasi har

faslning uch oydan iboratligiga ishoradir. “Najm ul-javohir” da Navoiy **to‘rt ano** o‘rnida **anosiri arba** izofasini qo‘llagan (15). “Sab’ai sayyor”ning bir o‘rnida keyinga izofaning o‘zbekcha **to‘rt unsur** kalkasi ishlatilgan:

*To ‘rt gavharg ‘a bergasen tartib,*

*To ‘rt unsurni qilg ‘asen tarkib* (49).

“Saddi Iskandariy”ning beshinchchi bobida to‘rt oromgoh kinoyasi “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dastlabki to‘rt doston, ya’ni “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” hamda “Sab’ai sayyor” ga nisbatan ishlatilgan:

*Chiqar yo ‘lida to ‘rt oromgoh,*

*Beshinchisi maqsad biloishtiboh* (35).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol ishlatilayotgan **she’riyat mulkining sultonı** parafrazining Alisher Navoiyga nisbatan qo‘llanilishini hamma biladi. “Saddi Iskandariy” ning sakkizinchchi bobida doston muallifi ustozи Abdurahmon Jomiyni **nazm elining shahi** birikmasi bilan sarafroz etgan:

*Munga tegrukim nazm elining shahi,*

*Bu ish borcha dushvorining ogahi* (61).

Ma’nosi: *Bu kezda nazm ahlining shoh shoiri bo‘lmish, bu ishning butun qiyinchiliklaridan xabardor* (Jomiy hazratlari).

Diniy falsafaga ko‘ra, Tangri taolo jannat qatori, jahannamni ham yaratgan. Zero, insoniyatning bir bo‘lagida go‘zal xulq, yaxshi sifatlar, boshqa bo‘lagida yomon xo‘y, badfe‘l qiliqlar aksini topadi. Shu bois insonlar ikki: yaxshi va yomon guruahlarga bo‘linib, ikki uy, ya’ni jannat va do‘zaxni to‘ldiradilar:

*Ki, el qismi komu balo aylagay*

*Kim, ul ikki uyni to ‘lo aylagay* (SI, 65).

Alisher Navoiy tilning bosh ash’yosi hisoblanmish so‘zga o‘ta ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lgan. Muayyan so‘zning ma’no-mohiyatidan kelib chiqqan holda uni o‘z o‘rnida mohirlilik bilan qo‘llagan, boshqalardan ham shuni talab qilgan. “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” hikmatli so‘zida shoirning tilga, so‘zga bo‘lgan hurmati, dunyoqarashi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Arab tilidan ancha barvaqt o‘zlashgan **xayl** so‘zi “guruh, to‘da; harbiylar” ma’nosi bilan eski o‘zbek adabiy tilida faol

iste'mol qilingan. Shoir “Saddi Iskandariy” ning XV bobida ushbu o'zlashmani to'rt soni bilan sintagmatik munosabatga kiritadi va uni:

*Ki, bu to'rt xaylki topti ado  
Ki, ko 'k toqig'a soldilar ko 'p sado.*

Baytda Eronda hukmronlik qilgan to'rt sulola, ya'ni peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniyalar va sosoniyarning shohlariga ishora sifatida qo'llangan. Arab tilidan turkiy hamda fors-tojik tillariga o'zlashgan **arus** leksemasi “kelin, kelinchak” ma'nosida qo'llangan. Har ikki tilda mazkur o'zlashma “zamon, davr; asr” semasidagi boshqa bir arabcha, ya'ni **dahr** istilohi bilan birikib, **arusi dahr** izofasini voqelantirgan va fasllar kelinchagi, ya'ni “ko'klam fasli” ni ifodalashga yo'naltirilgan. Navoiy ayni izofani “Xazoyin ul-maoniy”da qayd etilgan ma'noda ishlatgan:

*Tunu kun jilva qilma ey arusi dahr, bergil naqdi jom,  
Demagil xunbahodur ushbu yo kobinmidur? (IV a, 111).*

Ikkinci qatordagi **kobin** istilohi “nikoh oldidan kuyov tomonidan kelinga berilishi shart bo'lgan mol, mablag‘, ya'ni mahrni anglatgan.

“Ulkan gavdali va katta xartumli hayvon, ya'ni fil” semasi eski o'zbek adabiy tilida **pil / fil** zoonimi bilan anglashilgan. Navoiy ushbu zoonimni **falak** o'zlashmasi bilan sintagmatik munosabatga kiritadi va “quyosh” ga kinoya qiluvchi **falak pili** relyativ izofasini yasaydi:

*Yana ming teva – har bir ko'htan,  
Falak pilicha har biriga badan (SI, 371).*

Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida **sohiri hind** izofasini “hind sehrgari”, “hind jodugari” ma'nosida ishlatgan:

*Ko 'rgach bu tilisim sohiri hind,  
Jodulig' ishida mohiri hind (56a21).*

“Favoyid ul-kibar”da ayni izofa hind sehrgari, jodugari kabi asarlari bilan kishilarni o'ziga rom etgan Amir Xusrav Dehlaviyga ishora sifatida qo'llangan:

*Biri mo'jiz bayonliq sohiri hind,  
Ki, ishq ahlini o'rtar so'zu xoli (IV a443).*

“Sab'ai sayyor”da o'zbekcha muqobili – **hind sohirini** ishlatgan:

*Kim, qilib Hind sohiri kina,  
Ul dag'i qo'ydi oncha ganjina (49).*

Ma'lumki, arabcha **shayx** istilohi eski o'zbek adabiy tilida "qari, mo'ysafid; tasavvuf bilimdoni; imom" ma'nolarini ifodalagan. Navoiy "Lison ut- tayr"da bu o'zlashmani **ma'naviy** so'zi bilan biriktirib, **shayxi ma'naviy** izofasini yasaydi va uni "Mantiq ut-tayr" asarining muallifi Shayx Fariduddin Attorga nisbatan qo'llaydi:

*Xam bu daftar ichra Shayxi ma'naviy*

*Kim, demish qushlar tilidin masnaviy (210-13).*

Shu o'rinda, "Saddi Iskandariy"ning oxirgi bobida **shayx** istilohining Nizomiy Ganjaviyga ishora sifatida qo'llanganini eslab o'tish foydadan xoli bo'lmash:

*Manga shayx birga ko 'rishmak hamon,*

*Muborak ayog 'ig 'a tushmak hamon.*

Ma'nosini: *Men Nizomiy bilan ko 'rishgan hamon, o'zimni uning muborak oyoqlariga tashladim (574).*

Nizomiyni o'z salafi deb bilgan Navoiy "Sa'bai sayyor"da **Ganja ganjuri** (Ganja shahri xazinası) birikmasi yordamida u kishini madh etgan:

*Ganja ganjurikim, chekib ko 'p ranj,*

*Qo 'ymish erdi jahon aro besh ganj (49).*

Ikkinchisi misradagi **besh ganj** birikmasi Nizomiyning "Panj ganj" nomi bilan mashhur bo'lgan "Xamsa" siga ishoradir.

"Farhod va Shirin" dostonida Alisher Navoiy "Ganjada oltinlar, durlar sochuvchi" ma'nosini ifodalovchi forscha **ganjposhi Ganjaorom** izofasini Nizomiy va uning "Panj ganj" asariga ishora tarzida qo'llagan:

*Aning bu ganjidin topmay kishi kom,*

*Nechukkim, ganjposhi Ganjaorom (13).*

Ma'lumki, "Saddi Iskandariy"ning oxirgi boblaridan birida yetti hakimning Iskandar onasiga ta'ziya bildirishga kelgani xususida so'z yuritilgan. Baytlardan birida Navoiy Iskandarning onasiga nisbatan **Bonuyi iffatpanoh** "nomuslik xonim" izofasini ishlatgan:

*Nechunkim, vasiyat yozib erdi shoh,*

*Amal qildi Bonuyi iffatpanoh.*

Mazmuni: *Shoh (Iskandar) qanday vasiyat yozib yuborgan bo 'lsa, iffatpanoh bonu (ona) unga to 'la amal qildi.*

Navoiy Iskandarning onasi obrazini matonatli, sabrli, dono va tadbirkor, qator fazilatlarga ega ayol sifatida tasvirlaydi. Adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, Iskandarning onasi obrazi yuqoridaq siyratlari bilan “Farhod va Shirin” dostonidagi bosh qahramonlardan biri Mehinbonu obraziga yaqin turadi.

Mumtoz adabiyotda ilmi nujunga oid anchagina astroponimlar aksini topgan. Chunonchi, yetti sayyoraning beshinchisi sifatida talqin qilingan **Mars** arabcha **Mirrih** va forscha-tojikcha **Bahrom** kosmonimlari qatori, **turki falak** izofasi bilan ham nomlangan. Rangi qizil, jang va qahramonlik ramzi sanaluvchi Marsning majozan **turki falak** tarzida atalishida turkiylarning jangovarligi, qahramonligi va jasoratiga ishora mavjud:

*Debon turki falak otqanda zihlar,*

*Tavahhum toridin ochib girihi lar.*

Ma’nosi: *U (Farhod) o‘q otganda Mirrih ham ofarinlar o‘qiydi* (FSh, 71).

“Farhod va Shirin”ning qirqinchi bobida shoir **telba qush** va **ishq** **bulbuli** birikmalari orqali Farhodga ishora qilgan: va ul xiylagar afsun rishtasi domin ochib, tazvir ashki donasin sochib, ul telba qushni giriftor qilg‘ani, balki bul ish bila ul ishq bulbulining xushin uchurg‘ani (313).

Xullas, Alisher Navoiy nazmiyda bitilgan asarlarida she’riy san’atlardan mohirona foydalangan, xususan, kinoya lafziy san’ati yordamida faqat o‘ziga xos ifodalarni qo’llashga muvaffaq bo‘lgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Farhod va Shirin. MAT. Sakkizinch tom. –T.: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Sab’ai sayyor. O’ninch tom. –T.: Fan, 1992.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. O’n birinchi tom. –T.: Fan, 1993.
4. Alisher Navoiy. Xamsa. Layli va Majnun. Ilmiy-tanqidiy matn. Tuzuvchi: Porso Shamsiyev (qo‘lyozma).
5. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Ilmiy –tanqidiy tekst, tayyorlovchi: Sh. Eshonxo‘jaev. –T.: 1966.

6. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. G‘aroyibus-sig‘ar. Birinchi tom. –T.: 1963.
7. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. Favoyidul- kibar. To‘rtinchi tom. –T.: 1965.
8. Xojandi. Latafat-name. Kniga o krasote Vvedenie, transkripsiya teksta, perevod, glossariy, grammaticheskiy ukazatel. E.I. Fazilo va. –T.: Fan, 1976,
9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (Saodatga yo‘lllovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi f.f.n. Q. Karimov. –T.: Fan, 1971.

# **ALIŞIR NAVAI'NIN MUHAKEMETÜ'L LUGATEYN ESERİNİN TÜRKÇE'YE KATKILARI**

## **CONTRIBUTIONS OF ALISHIR NEVAI'S MUHAKEMETÜ'L LUGATEYN WORK TO TURKISH**

**Elçin Ali oğlu İBRAHIMOV**  
*Azerbaycan Milli Bilimler Akademisi*  
*(Azerbaycan)*

### **Özet**

*Türk Dünyası'nın en önemli ortak şahsiyetlerinden olan Ali Şir Nevai, Türk dilinin ve edebiyatının gelişmesinde önemli katkıları olmuş büyük bir ediptir. Çağataycayı klasik bir şiir ve nesir dili haline getiren Ali Şir Nevai Türk Edebiyatına otuzdan fazla değerli eser kazandırmıştır.*

*Ali Şir Nevâî, Türkçe'nin asırlardır ihmal edilişine karşı bayrak açtığı eseri Muhakemetü'l-Lügateyn'dir. Türkçe'nin hem sanat hem de bir ilim dili olduğu görüşünde olan Ali Şir Nevâî, adı geçen eserinde Türkçe ile Farsçayı karşılaştırır ve Türk dilinin Farsça'dan birçok bakımdan üstünlüğünü savunur.*

**Açar sözlər:** *Türk Dünyası, ortak şahsiyetler, Ali Şir Nevâî, Türk edebiyatı, Türkçe.*

### **Annotation**

*Ali Shir Nevai, one of the most important common personalities of the Turkic World, is a great man who made important contributions to the development of the Turkish language and literature. Ali Shir Nevai, who made Çağatayca a classic poem and prose language, has contributed more than thirty valuable works to Turkish literature.*

*Muhakemetü'l-Lügateyn is the work of Ali Şir Nevâî, who unfurled a flag against the neglect of the Turks for centuries. Ali Shir Nevâî, who believes that Turkish is both a language of art and a language of science, compares Turkish with Persian in his last work and defends the superiority of the Turkish language over Farsi in many respects.*

**Key words:** Turkish World, Common Personalities, Ali Şir Nevâî, Turkish Literature, Turkish.

Türklerin Araplar ve Farslarla münasebetleri neticesinde yazar ve şairlerimiz arasında başlayan Arapça ve Farsça hayranlığı bir zaman sonra had safhaya ulaşmıştı. Hatta Arapça ve Farsça bilmeyen bazı yazar ve şairler eserlerinin ön sözlerinde Türkçeden başka dil bilmediklerinden eserlerini Türkçe yazmak zorunda kaldıkları için okuyucudan özür dilemek zorunda bile kalmışlardı. Hâlbuki Türkçe özellikle Sultan Orhan ve Sultan Murad zamanında tıpkı kitapları yazılabilcek kadar gelişmişti. Sonraları ise cahilce bir yaklaşımla Türkçenin kaba bir dil olduğu algısı mesela Sinan Paşa gibi meşhur bir yazarı bile etkilemiş olmalı ki Tazarrunâme isimli meşhur eserini Türkçe yazdığını için okuyucusuna, bu eser her ne kadar Türkçe yazılmış olsa bile siz muhtevasına bakınız, diyor. (Eğerçi ol nüsha bir Türkî kitap gibidir surette, amma camii enva-ı ulûmdur hakikatte. Her taife haz alsun diye Türkî diline sokuşturdum.)

Türkçenin kücümsemiği hor hâkir görüldüğü zamanlarda bir kısım Türkçe âşıklarının çıkışları elbette göz ardı edilemez.

Ali Şir Nevâî, Türkçenin asırlardır ihmâl edilişine karşı bayrak açtığı eseri Muhâkemetü'l-Lügatîn'dir. Türkçenin hem sanat hem de bir ilim dili olduğu görüşünde olan Ali Şir Nevâî, adı geçen eserinde Türkçe ile Farsçayı karşılaştırır ve Türk dilinin Farsçadan birçok bakımdan üstünlüğünü savunur.

İki dilin karşılaşılması esasına dayanan eserinde Nevâî, Arapçanın bütün dillerden üstün olduğunu söylemektedir. Buna gerekçe olarak da Arapçanın din dili üzerine kurulu olmasını gösterir. Ali Şir Nevâî, Arapçadan sonra en önemli dilleri ise Türkçe, Farsça ve Hintçe şeklinde sıralar.

Muhâkemet-ül-Lugatîn'i önemli kılan hususların en başında Türk yazar ve şairlerinin kahir ekseriyetinin Farsça bildikleri ve Farsça şiirler yazdıkları bir ortamda Türkçenin lügat zenginliğini, gramer şekillerindeki esnekliğini ortaya koyarak Türk gençlerinin güzel sanarak Farsça şiirler söyleme sevdasından vazgeçip öz dillerine iltica etmelerini savunmasıdır. Nevâî, zamanın gençlerini Türk diline karşı ilgisiz kalmamaları konusunda uyarır

ve onları biraz da hırpalar: “*Türkün bilgisiz ve zavallı gençleri güzel sanarak Farsça şiirler söylemeye özeniyorlar. İyi ve etraflı düşünseler, Türkçede bu kadar genişlikler, incelikler, derinlikler ve zenginlikler durup dururken, bu dilde şiir söylemenin ve sanat göstermenin daha kolay, şiirlerinin daha beğenilir olacağını anlarlar.*”

Eserde iki dil karşılaştırılırken duygusalıktan ziyade bilimsel ölçütler kıtas alınmıştır. Bugün bile dilbilimciler bir dili değerlendirdirirken o dildeki fiilleri ve mecazları hesaba katmaktadır ki Nevâî de böyle yapmış iki dili önce fiiller açısından karşılaştırmış Türkçedeki hemen her hareket için farklı kelimeler kullanıldığına dikkat çekmiş sonra Türkçedeki yakın anlamlı kelimelerin zenginliğini örneklerle izah etmiştir. Dilin söz varlığını da inceleyen Nevâî, akrabalık adlarını, ev, mutfak, giyecek ve savaş kültürüyle ilgili kelimeleri Altay dillerinin önemli bir özelliğini teşkil eden erkek ve dişi oluşuna göre adlanan hayvan ve kuş adlarını, organ adlarını, cinsine ve yaşına göre çeşit çeşit olan atların ve onların vazgeçilmez eşyası eyer ve diğer binit takımının parçalarına kadar adını sayarken, milletinin zengin bir kültür birikimine sahip olduğunu anlatmak istemiştir. Nevâî, bu kelimelerin hemen hiçbirinin Farsçada olmadığını, söylemek istediği Türkçedeki bu kelimelere başvurulduğunu belirtmiştir.

Ali Şîr Nevai, Türkçeyi yüksek bir sanat dili halinde işlemeye çalışan, bu görüşü savunan ve Türk diline değer kazandıran üstün bir bilgin ve devlet adamıdır. Şiirlerini Türkçe ve Farsça yazan Ali Şîr Nevai, Arapçayı da çok iyi öğrenmemiştir. Meşhur ilim adamlarından Molla Cami, onun şiir arkadaşlarındandır. Kaşgarlı Mahmut'tan sonra Türk diline en büyük hizmet eden kişi olarak tanınan Ali Şîr Nevai, Türkçe'yi bırakarak eserlerini Farsça verenlere ithafen yazdığı Muhâkemetü'l-Lügateyn adlı kitabında Türkçe ile Farsça'yı karşılaştırarak pek çok erde Türkçe'nin üstünlüğünü savunmuştur.

Bu makalemizde bir Türkçe sevdalısı ve aşağı olan Ali Şîr Nevainin Türk Dünyasında özellikle Azerbaycanda ve Türkiyede öğrenilmesinden geniş şekilde bahsetmeye çalışacağız. Özellikle son dönemlerde Ali Şîr Nevai ile bağlı yapılan çalışmalarдан bahsedeceliğiz.

Nevai edebi mirası Azerbaycan edebiyatında, o kadar içten bir ere sahip ki, bir defasında Samet Vurgun konuşmalarında “ben ve benim arkadaşlarım son yıllara kadar bilmiyorduk Nevai Özbek şairidi...” [Binnetova, 2009:10].

Azerbaycan-Özbek edebi ilişkilerinin tarihi çok eski olsa da, bu ilişkiler tarihinde XV. Yüzyıl özel bir dönemi kapsıyor. Bu dönem büyük Özbek şairi Ali Şir Nevainin adıyla bağlıdır [Nağıyeva, 2001: 3].

Arapça ve Farsçaya da çok iyi derecede hakim olan Nevai, bu dillerdedeki edebî söyleyişleri Türkçeye uyarlayarak dilin zenginleşmesine katkıda bulunuyordu. Hayatı boyunca Türkçe'nin İran edebiyatı seviyesinde eserler verecek kadar zenginleşmesi için çalışmıştır Türkçenin söyleyişlerine uygun kullandığı sözcüklerle sonraları ”Nevai dili” olarak vasiplandırılacak olan özgün bir söyleyişe sahipti. Ondaki Türkçe sevgisi milli şuuru eserlerinde görmek mümkündür. Edebiyatın temelini dil oluşturur. Nevai, Orta Asya Türk Edebiyatına kullandığı dil ve edebi eserleriyle millilik vasfi kazandırmıştır.

*“Farsçanın resmi dil olarak hüküm sürdüğü Fars edebiyatının Câmî ile zirveye ulaştığı ve münevverlerin Farsça öğrenip bu dille yazmayı meziyet saydıkları bir devirde Nevâyî'nın Türkçe'nin Farsça'dan aşağı kalmayacak bir dil olmadığını müdafaa etmesi, Türkçe'yle de yüksek bir edebiyat vücuda getirmesinin mümkün olacağını bizzat eserleriyle ispat etmesi ve enilerin Türkçe yazmaları hususunda teşvikte bulunması gözönüne alınrsa bu hizmetin derecesi ve önemi daha iyi anlaşılır”* [Tarlan, 1942:8].

“Nevai bütün bu ilim ve sanat çalışmalarıyla şaire, resme ,musiki ve mimariye hizmetleriyle aynı zamanda popüler bir şöhret kazanmış ve geniş bir halk tarafından devamlı surette sevilmiştir. Devrinin ve çevresinin örnek adamı idi” Nevai, ”ilim uğrunda bir çok emek sarfetmiş, tarih ahlak kelam ve tasavvufa dair eserler vücuda getirmiş; edebiyatın nazari kısmında çalışmış ve devrinin en büyük münnekidi olmuştur.”

“Nevai bütün eserlerini özel bir amaçla kaleme almıştır. Örneğin ”Siracü'l-Müslimin”, yurttaşlarına Müslümanlığı iyice tanıtmak, onlara dini görevlerini öğretmek için kaleme alınmıştır. Lisanu't\_Tayr

tasavvûfi bir eserdir. Attar'ın “Mantıkut’ Tayr”ından esin alınarak eni baştan yazılmıştır. Hikayelerin hepsi başkadır. *Mahbûbu'l-Kulûb*’ içinde bulunduğu toplumun aynasıdır. Ahlâkî bir eserdir. *Nesâyimü'l-Mahabbe*’ da Câmi'nin Nefâhat'ül-Üns’ünde eksik bıraktığı Türk şeyhlerini de almıştır. Muhakemetü'l-Lugateyn Türk dilinin haklı bir savunmasıdır. Şair bu eserinde Türkçe ile Farsçayı karşılaştırıyor. Türk dilinin daha zengin daha üstün olduğunu kaydediyor.” “Sab'a-yı Seyyare’sinde kendi eserine hitaben “yoluna kendi vatanında başlamasını ve halka inmesini ısrarla istemektedir. Halka inmek ise ancak milli dil öz ana Türkçe ile kabil idi. Ali Şir'in de asıl aradığı bu idi” [Levend, 1966:291] “Mizânü'l-Evzân” adlı risalesiyle Türk nazım ve musiki şekillerini tanittır” [Köprülü, 1989:434].

Nevai'nin Divan şiirinde tam bir tekamül seviyesine ulaştırdığı milli nazım şekilleri arasında tuyuğ gibi zarif bir şekil; milli zevke uyarak ve bilerek kullandığı redif ve cinaslı kafiyeler ve aliterasyonlar vardı. Türkçe kök ve eklerin Arap ve Fars kelimeleriyle de birleşerek meydana getirdikleri eni cinaslar, Nevai'nin dilinde Türkçe'yi alabildiğine zenginleştiren bir zevk unsuru seviyesine varmıştı” [Banarlı, 424].

Türkçenin cinas ve kafife için uygun bir dil olduğunu örneklerle anlatan Nevai, Türk dilinin zenginliğine verdiği örneklerle sık sık işaret eder. Türkçenin Farsçadan üstün olduğunu ifade ederken örnek olarak verdiği “ördek” sözcüğünü Farsça'da aynı anlamda kullanılan “mürgâb” ile şu şekilde mukayese eder; “Türkçede her çeşidinin başka adı olan “ördek”e Fâriside sadece mürgâb deniyor. Halbuki Türkçede ördeğin erkeğine “suna”, dişisine “burçin” denir. Ördeğin ayrıca “çörke, almabaş, çakırkanad, temürkanad, alapeke, bağçal” ve başka isimleri de vardır.” Bir başka örnekte Türkçe yüz kelime ile “ağlama”的n ifade edildiğini belirterek bunun karşılığında Farsçada sadece tek sözcükle bunun karşılandığını söyleyerek Türkçenin zenginliğini dile getirir.

Yüzyıllardan beri sürüp gelen Fars-Türk kültür mücadelesi böylece (Ali Şir Nevai ile) Türklerin ve Türkçenin lehine doğru kaymakta idi. İbrahim Kafesoğlunun belirttiği gibi: “Ali Şir Türkçede hem Nizami, Attar, Sâdî, Hüsrev-i Dehlevî, Hâfız gibi İran edebiyatının büyük ustadlarının sanat mahsulleriyle boy ölçüsecek

eserler meydana getirmiş, hem de klasik şiirin en yüksek seviyesine çıkardığı Çağatay Dili vasıtasıyla Türkçenin mükemmel bir dil olabileceğini ispat etmişti ve bu sebeple Çağatay Dili ve Edebiyatı Kaşgar'dan Kazan'a, Kırım'a Delhi'ye Tebriz'e ve İstanbul'a kadar bütün Türk dünyasında 16. Yüzyıldan 19. Yüzyıla kadar muazzam bir itibar kazanmıştır” [Kafesoğlu, 1969: 9].

Nevai Türk Dünyası Edebiyatının bilge bir abide şahsiyetidir. Türk Edebiyatı’nda da Nevai’nin büyük tesiri vardır. Özellikle klasik edebiyatımızda şairler Nevai’yi anlamak için Çağatayca öğrenme ihtiyacı hissetmişlerdir. Onun eserlerini okuyup ona nazireler yazmışlardır. Nevai’ye göre ”halka halkın dili ile” hitap edilmeli ve eserler verilmeliydi. Gerçek bir Türk milliyetçisi olan Nevai, Türkülükle gurur duyar, Türklerin yaratılış, anlayış ve kavrayış bakımından kimseye benzemediklerini ve bütün milletlerden üstün olduklarını belirtir: “Yakın kılmamış halk sending kişi” (Muhakkak ki Allah senin gibi bir insan yaratmadır) diyerek Türk ırkını över. Eserlerinden bu duyguya ve düşüncelere sıkça rastlanır.

“Hamsesine giren eserlerin her birinde kahramanları ideal bir Türk kahramanı kılığına sokmuş, hikayelerine ulusal bir hava vermeye dikkat etmiştir. Ferhâd u Şirin mesnevisindeki Ferhât, karakter ve çizgileri belirsiz bir kişi değil, Türkle ilgili özellikleri taşıyan bir kahramandır. Bu mesnevisine Harzem ve Hoten Türklerinin hayatından alınmış bir roman kimliği katmıştır. “Sedd-i İskenderî” de böyledir; Türk tarihiyle ilgili bir çok tablolar er almıştır. Nevai’de dil bilinci ve milliyetçilik duygusu öylesine köklüdür ki, Türkçe konuşup yazmayanları, Türk soyundan olsalar bile Türk saymaz” [Dizdaroğlu, 1966: 294].

Türkçenin milli dil olmasında ve gelişmesinde verdiği eserlerle büyük katkıları olan Nevai, Türkçeye büyük hizmet ve emek vermiştir.

“Yabancı bir dilin edebiyat dili olarak kabul edildiği bir devir ve çevrede milli duyu ve şuurla ve imrenilecek bir cesaretle ortaya atılmış Türk Dilinin istiklâlını savunan onun Farsça’dan üstün olduğunu savunan, onun Farsça’dan üstünlüğünü ispat eden ve çok değerli eserleriyle eni bir edebi dil kuran Nevai, Türk dili ve kültürüne sonsuz hizmetlerde bulunmuştur. O, Orhun yazıtlarından

beri uyanık ve canlı gördüğümüz milli duyu ve şuurun Türkük ve Türkçülük ruhunun en büyük temsilcilerinden biridir. Milli dil ve edebiyatın meydana gelmesinde sayısız emeği geçen Türkçecilik davasının öncülerindendir” [Timurtaş, 1966:304].

Hayırsever bir kişiliğe sahip olan Ali Şir Nevai çok zengindi. Servetini ilim ve sanat için harcamıştır. “Horasan’da 370 parça hayrât inşa etmiştir. Bunlardan 90’ı kervansaraydı. Bu hayrât içinde mescitler, camiler, tekkeeler medreseler, köprüler vardı” [Tarlan, 1942: 3].

Fuzûlî’den Nedim’e kadar bir çok şairi etkileyen Ali Şir Nevai üzerinde doğulu ve batılı bir çok bilim adamı tarafından üzerinde araştırmalar yapılan Nevai’nin eserlerinin bir çok nüshası Türk Dünyası kütüphanelerinin ortak eserleri arasında erini alır. Türkiye Kitaplıklarında bulunan Nevai yazmaları Agâh Sırrı Levend tarafından yayınlanmıştır. Daha sonraki araştırmalarla bu eserlerin sayısının daha fazla olduğu tespit edilmiştir.

Büyük sanatçı Nevâyî aradan geçen beş yüz yıla rağmen bugün hâlâ değerini ve önemini korumaktadır. Onun Türk dili ve kültürüne yaptığı hizmetler hep yâdedilecektir. O sanatçı kişiliği, Türk dili sevgisi ve duyarlılığıyla kendisinden sonraki bütün Türk Dünyası şair ve yazarlarını etkilemiştir. Nevai külliyatının bütün Türk Dünyasında anlaşılaçağı şekilde uyarlanması ve eni nesillere tanıtılması gereklidir.

Nevainin Azerbaycan edebiyatıyla ilişkilerini Firudin Bey Köcerli, Salman Mümtaz, Ali Nazim, M.Dadaşzade, H.Araklı, V.Zahidov, V.Abdullayev, H.Rüstəmov, M.Kuluzade, C.Nağıyeva, A.Ü.Binnetova ve başkaları çok geniş şekilde eserlerinde vermişler [Nağıyeva, 2001: 4-5].

Elbette Nevai Türk Dünyasında özellikle Türkiyede ve Azerbaycanda her zaman yüksek düzeyde araştırılmıştır. Buna örnek olarak edebiyat listesinde kullanılanları göstere biliriz. Azerbaycanda hem Sovyetler döneminde hemde günümüzde Nevai mirası bir özellik taşımıştır.

### **Kaynakça:**

1. Âgâh Sırı Levend, “Ali Şir Nevai” Türk Dili Dergisi, C.XV, S.173, Şubat, 1966.
2. Ahmet Caferoğlu. Türk Dili Dergisi, C. XV, S.173, Şubat 1966.
3. Ali Nihat Tarlan. “Ali Şir Nevâyî”, İstanbul 1942.
4. Almaz Ülvi. “Ali Şir Nevai Azerbaycan Edebiyatında”, Bakü, Kartal, 2009.
5. Cennet Nağıyeva. “Azerbaycanda Nevai”, Bakü, Tural-Ə” 2001.
6. Fuat Köprülü: Edebiyat Araştırmaları 2, İstanbul 1989.
7. Hikmet Dizdaroğlu. “Nevaide Dil Bilinci”, Türk Dili Dergisi, C.XV. S.173, Şubat 1966.
8. İbrahim Kafesoğlu. “Ali Şir Nevai Devri Tarihine Bir Bakış”, S.45, İstanbul 1962.
9. Kemal Eraslan. Çağatay Şiiri, Türk Dili, Türk Şiiri Özel Sayısı II, Divan Şiiri, sayı 415-416; 1986.
10. Nihat Sami Banarlı. Resimli Türk Edebiyatı Tarihi I.

## NAVOIYNING IDEALI

### THE IDEAL OF NAVOI

Zuhriddin ISOMIDDINOV

*O'zbekiston Milliy kutubxonasi*

(O'zbekiston)

#### *Annotasiya*

*Mazkur maqolada Navoiy idealidagi komil inson tushunchasiga ta'rif berilgan. Farhod, Majnun obrazlari tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** komil inson, shaxs, komillik, badiiy ijod, hayot.

#### *Annotation*

*This article describes the concept of a perfect man in the Navoi's ideal. The images of Farhod and Majnun were analyzed.*

**Key words:** perfect person, personality, perfection, artistic creation, life.

1978-yil edi. "Toshkent oqshomi" gazetasi bir necha oy davomida uch-to'rt savolli bir so'rov nomda e'lon qildi va taniqli kishilar ning unga bergan javoblarini chop etib turdi. So'rvonnomada "Siz uchun ideal inson kim?" degan bir savol ham bor edi. Albatta, har kim bunga javoban, o'zi ideal odam deb bilgan kishisining nomini darj etdi, buning aksicha, dunyoda ideal shaxs bo'lishi mumkin emas, deganlar ham bo'ldi. Bu so'rvonomaning yodimda qolganiga sabab, mashhur bir san'atshunos olim, "Men uchun ikki ideal inson bor. Ularning biri – KPSS Markaziy Komiteti Bosh sekretari Leonid Ilich Brejnev, ikkinchisi esa O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Sharof Rashidovich Rashidov", deya "siyosiy hushyor" javob bergen edi.

Kim biladi, o'sha keksa kommunistning so'zlari samimiyyidir, sevgan odamlarini aytgan bo'lsa bordir. Lekin... nevlay, Brejnev yo Rashidov ish-lavozimdan ketsa, o'shaning ertasiga ham professor shunday javob qilarmidiykin, degan ishtibohdaman. Bu orada bu ikki

*ideal shaxs ham, ularni ideallashtirgan domla ham olamdan o‘tib ketishdi. Shuning uchun men bu gaplarni istehzo qilib yozayotganim yo‘q. Ammo kim davlat rahbari bo‘lsa, unga sajda qilishga shay, tug‘ilgan bolalariga uning ismini, otasining oti va familiyasini qo‘yib, gerdayib e‘lon qilayotganlar ham kam emas.*

*Yana bir toifa kishilar borki, rahbari xudojo‘y bo‘lsa, namoz-u niyozga beriladi, buning aksi yuz berganda esa – g‘irt ateist bo‘lib oladi. Taajjubki, u holda ham, bu holda ham o‘zini haq deb biladi, boshqalarga ham shuni uqtiradi. Nimayam deymiz, idealidagi shaxsga taassub qilyapti-da.*

Xo‘sh, ideal inson bormi o‘zi hayotda, bor bo‘lsa, kim o‘zi u va bunday oliyshon odam qanday sifatlarga ega bo‘ladi? Biz har sohada millatimiz quyoshi bo‘lgan Alisher Navoiyni ibrat namunasi deb bilamiz, uning tutumlarini o‘zimizga ibrat qilib olishga harakat qilamiz. Shunday ekan, Navoiy kimni ideal shaxs deb bilganini, uni qanday vasf etganini aniqlash muhim. Bunga ikki xil javob bor.

Birinchisi – Navoiy ham, boshqa barcha ahli islom singari, Muhammad alayhissalomni ideal deb bilgan, bu aksiomani dalillashning esa hojati ham yo‘q.

Ikkinchisi esa, adabiyotshunos olimlar, Navoiyning ideali – “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod obrazidir, shoир o‘z ideallarini shu siymoda mujassam qilgan, deb aytishadi. Chunonchi, “O‘zSE”ning “Alisher Navoiy” degan maqolasida “Farhod jahon adabiyotida umumbashariy xislatlarni jam etgan **eng komil** obrazlardan biridir”, deb qayd etiladi (1-tom, Toshkent – 1971, 257-bet). Farhod – Navoiy uchun ideal inson obrazi ekanligi haqidagi fikr undan avvalroq professor Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida (1965, 446) ham berilgan edi. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da esa “Navoiy Farhod obrazi orqali **ideal inson** haqidagi gumanistik qarashlarini ifodalab, eng yuksak insoniy fazilatlarni madh etgan”, deb bitiladi.

Ammo, mantiqan, kishining ideali bitta bo‘lishidan kelib chiqadigan bo‘lsak, bu o‘rinda ma’lum bir ziddiyat yuzaga kelayotganday: Navoiy uchun ideal kim – Rasuli akrammi yoki o‘z dostonidagi Farhod?

Shu o‘rinda, bir “lirik chekinish”. Yaqinda bir ulamo o‘z qavmi

bilan suhbatlashib o‘ltirar ekan, Navoiyning “Kelmadi” raifli g‘azalini talqin etishga urinib, “Olimlar bu g‘azalda qaysidir bir qiz tarannum etilgan, deb aytishadi, chunki ular Navoiyning asl g‘oyalarini bilishmaydi. Aslida, Alisher Navoiy yor deb Olloho ni ko‘zda tutgan”, deya XX asr o‘zbek mumtoz adabiyotshunoslarini yalpisiga “brak”ka chiqarganini Internetda ko‘rib qoldim (<https://www.youtube.com/watch?v=ExtO0CuTiwY>). “Unchalik emasdир, qori inim, – dedim ichimda. – Siz ular faoliyat yuritgan zamonlar ruhidan bexabarsiz-da, basharti, ular o‘sha davrda Navoiy Olloho ni vasp etgan, deb aytishganida, uning ijodini o‘rganish yo‘li taqa-taq yopilar, u ham Yassaviy, So‘fi Olloyor, Sulaymon Boqirg‘oniy kabi “diniy-mistik” degan yorliqqa munosib ko‘rilar, biz Navoiy ijodini tadqiq etishga endigina kirishayotgan bo‘lar edik. U rahmatlilar bugungi hur zamonlar kelishini, mustaqil bo‘lishimizni tushlarida ham ko‘rmagan. O‘sha sharoitda ming azob bilan bu ulug‘ ijodkorni xalqqa taqdim etish yo‘llarini topishgani uchun ular boshiga malomat toshlarini otish o‘rniga, ruhlariga atab tilovat qilish joiz emasmi?..”

Falsafa fanida uchinchisi istisno qonuni bor. Unga ko‘ra, ikki qarama-qarshi fikrning yo unisi, yo bunisi to‘g‘ri bo‘ladi. Ikkovi teng haq bo‘la olmaydi. Ammo bu ikki xil fikr sirdangina bir-biriga zid bo‘lib ko‘rinsa, ularni o‘zaro muvofiqlashtirishga bo‘lgan urinishni eklektikaga moyil ekan, deb qoralash xato.

Bizningcha, Rasuli akram ham, “Farhod va Shirin” dostoni qahramoni ham Alisher Navoiyning idealidir. Endi ana shu fikrni isbotlashga urinib ko‘ramiz.

Islom an‘analariga ko‘ra, Muhammad alayhissalomni (boshqa payg‘ambarlarni ham) obraz sifatida tasvirlash mumkin emas, uning qiyofasi, ruhiy kechinmalari haqida badiiy to‘qimaga o‘rin berlmaydi. Shuning uchun uning hayotnomalari, hadislarga sharhlar, payg‘ambarlar tarixiga oid adabiyotlardagi materiallargina mavjud. Badiiy asarlar, teatr sahnasi va kinofilmlarda Rasululloh ko‘rinmaydi, hatto ovozi ham berilmaydi, rasmi chizilmaydi. Na’t g‘azallar va diniy rivoyatlarda payg‘ambar ulug‘lanadi, ammo obraz darajasiga yetkazilmaydi. Bu – taqiq mavzu. Holbuki, u zotni ulug‘lamay, ibrat qilib ko‘rsatmay turib, islomning o‘zagi bo‘lgan tarbiya borasida yaxshiroq natijaga erishish qiyinligi ham ayon.

Biz islomning o‘zagi tarbiya deyar ekanmiz, bu favqulodda gap emas, zero payg‘ambar alayhissalomning o‘zi, men eng go‘zal axloq egasiman va xulqlarni kamolga o‘tkazish uchun yuborilganman, deb marhamat qilgan.

– Xo‘sish, obrazini yaratish mumkin bo‘lмаган bir sharoitda Muhammad alayhissalomning fazilatlari qanday qilib ko‘rsatiladi?

– Boshqa obrazlarga payg‘ambar hayotiga taalluqli ayrim voqealarini, u zotning o‘zgalar bilan savol-javoblari va hokazolarni indirish orqali!

Ulug‘ so‘z san’atkori Navoiy o‘z ideali bo‘lgan payg‘ambar alayhissalomning hayoti, hadislarida bayon etgan fikrlarini u yoki bu munosabat bilan, u yoki bu ko‘lamda tasvirlab o‘tmasligi mumkin emas edi.

“Farhod va Shirin” dostonini o‘qisangiz, bir qarashda Farhod qayoqda-yu, Muhammad alayhissalom qayoqda, degan e’tiroz yuzaga chiqishi aniq. Biroq biz payg‘ambar alayhissalom Farhod obrazining prototipi qilib olingen deyayotganimiz yo‘q, balki u zotga taalluqli u yoki bu jihatlar epizodik tarzda, o‘shanda ham ancha mubham va murakkab bir tarzda Farhodga nisbat berib aks ettirilgani va aynan ana shu xislatlari bilan Farhod ideal obraz darajasiga ko‘tarilganini ta’kidlab o‘tamiz, xolos.

I. Muhammad alayhissalom islom dini targ‘ibotiga yangi kirishgan paytlarda u zotni o‘ldirishga jazm etgan kishilar bo‘lgan. Payg‘ambar hayotiga oid asarlarda buning tafsiloti ko‘p. “Kim seni endi mening qo‘limdan qutqarib qola oladi?!” deya aziz boshi uzra qilich ko‘targan kimsalarga qarab, Rasululloh “Olloh qutqaradi!” deb aytishi bilanoq qotil qo‘lidan qilich yerga tushib, holi yomon bo‘lib, shu sababli islomni qabul qilgani bir necha bor qayd qilingan (Payg‘ambar qoshiga yomon niyat bilan kelib, ul zoting bir nazari bilanoq islomga kelgan hazrat Umar ham ularning biri edi).

Navoiy dostonida tasvirlanishicha, Farhodni behush holda asir olib, Xisrav qoshiga keltirishadi. Tabib dorisidan o‘ziga kelgach, Farhod Xusravga nazar tashlaydi. Farhodni asir olgan Xisrav uni o‘ldirish oldidan bir ko‘rish, savol-javob qilib, “aybi”ni bo‘yniga qo‘yish niyatida edi, ammo uni ko‘rishi bilanoq holati o‘zgaradi, yomon fikridan qaytadi:

*Shukuhidin etib Xusravg ‘a tag ‘yir,  
Qilib ishq o ‘ti ko ‘nglig ‘a ta ‘sir:  
Unutti aylamakni qatlu bedod,  
Anga boqib takallum qildi bunyod.*

Ya’ni, qotil Xusrav asir holdagi Farhodni ko‘rishi bilanoq, uning shukuhini ko‘riboq, o‘ldirish fikridan qaytadi. Bu esa rasul alayhissalom hayotidagi boyagi kabi holatlarning ishorasidir.

II. Muhammad alayhissalom kishilarni imonga da’vat eta boshlagach, bundan xavotirga tushgan Makka mushriklari u zotga bir necha bor murojaat qilishgan va “da’vodan voz kechsa”, evaziga boylik, obro‘ va hatto sultanat va’da qilishgan. Biroq Rasuli akram muddaosi bu emasligini, Haq taolo amri bilan ish yuritayotganini aytib, bunday “yog‘liq” takliflarni rad etadi. Chunonchi, Alixon Sog‘uniy “Tarixi Muhammadiy” asarida yozganday:

*“Ichlaridan birovlari so ‘zga turib, (dedi):*

— *Ey Muhammad, ...bizlar bu ish ustida sen bilan ochiq so ‘zlashgani keldik... Agar bu ishdan maqsading mol topish bo ‘lsa, mol yig ‘ib berib, seni boy qilaylik, agar izzat-obro ‘istagan bo ‘lsang, butun Quraysh qabilasi ustiga seni rais qilib ko ‘taraylik, agar podshoh bo ‘lish ko ‘nglingga tushgan bo ‘lsa, seni podshoh qilib, taxtga chiqaraylik. Yo ‘q, agar jinlar tarafidan sehrlangan bo ‘lsang, mol-dunyomizni ayamay, aning chorasisiga kirishaylik. Yo tuzalursan, yo bizni ma ‘zur tutursan... Mana shunga o ‘xshash so ‘zlarni aytib, ilgari Utba aytgan so ‘zlarni qaytadan takror qildilar.*

*Payg‘ambarimiz alardin bu so ‘zlarni eshitganlari so ‘ngida:*

— *Sizlar deganlarining hech birisi menda yo ‘qdir. Bu ishda mening maqsadim mol topish yoki obro ‘-martaba orttirish emas, yo sizlarga podshoh bo ‘lish emas. Lekin shuni bilinglarki, meni Allah taolo inson olami ustiga payg‘ambar qilib yubordi, o‘z tarafidan menga Qur‘on otlig‘ ulug‘ kitob indirdi. Bu kitobda insonlar uchun ikki jahonda saodat topish yo ‘llarini ko ‘rsatdi. Mo ‘minlarni jannat ne ‘matlari ila suyuntirishga, kofirlarni do ‘zax azobi ila qo ‘rqitishga meni buyurdi. Tangrim buyruqlarini sizlarga etkazdim, ustimga yuklangan yalavochlik (elchilik) vazifasini ado qildim, har holda sizlarga xayrixohdurman. Hech qanday boshqa muddaoim yo ‘qdur. Agar so ‘zimni qabul qilsanglar, keltirgan*

*dinimiga kirsanglar, dunyo va oxirat saodatidan topgan ulug‘ nasibalaringdur. Agar bu so‘zimni rad etib, meni yolg‘onchiga chiqarsanglar, u holda Alloh amrini kutib, sabr qilishdan boshqa choram yo‘qdur; – dedilar*” (“Movarounnahr”, 2017, 57- b).

Ana endi “Farhod va Shirin” dostonining eng kulminatsion o‘rinlaridan biri bo‘lgan 41-bobini olib qarang. Unda Farhod Xusrav bilan bahslashadi, aniqrog‘i, Xusravning savollariga oqilona, mantiqiy javoblar qaytarib, uni mot qiladi:

*Dedikim: Ishqdin yo‘q juz ziyon bud!*  
*Dedi: Bu keldi savdo ahlig‘a sud.*

*Dedi: Joningg‘a bu ishdin alam bor!*  
*Dedi: Ishq ichra jondin kimga g‘am bor?*

*Dedi: Bu ishq tarki yaxshiroqdur!*  
*Dedi: Bu sheva oshiqdin yiroqdur!*

*Dedi: Kishvar beray, kech bu havasdin!*  
*Dedi: Bechora, kech bu multamasdin!*

*Dedi: Ol ganju qo‘y mehrin nihoni!*  
*Dedi: Tufroqqa bermon kimyon!*

*Dedi: Ishq ichra qatling hukm etgum!*  
*Dedi: Ishqida maqsudumg‘a etgum.*

*Dedi: Joningg‘a hijron kinakashdur.*  
*Dedi: Chun bor vasl ummidi xushdur.*

*Dedi: Bu ishda yo‘q sendin yiroq qatl!*  
*Dedi: Bu so‘zlaringdin yaxshiroq qatl.*

*Dedikim: Shahg‘a bo‘lma shirkatandesh!*  
*Dedi: Ishq ichra tengdur shohu darvesh!*

*Nechakim bo‘ldi mushkil so‘z xitobi,*  
*Base oson anga etti javobi...*

Muhammad alayhissalomning raqiblari unga e’tiqodini tark etishi evaziga nimani va’da qilishgan bo‘lsa (boylik, qabila raisligi, podshohlik), Xisrav ham Farhodga Shiringa ishqini unutishi badaliga xuddi shu narsalarni berishni bo‘yniga oladi (*Ol ganju qo‘y mehrin nihoni!* – *Kishvar beray, kech bu havasdin!*). Farhod ham, deyarli payg‘ambar alayhissalom bergen javoblarni aytib, Xisravni lol-u malul etadi.

Savol tug‘ilishi mumkin – Xisrav bilan Farhodning o‘zaro bahsi Navoiydan avval “Xamsa” ijod etgan Nizomiyning “Xisrav va Shirin”, Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostonlarida ham bor, xo‘sish, ular ham ana shu g‘oyani ilgari surishmaganmi?

Navoiyning g‘oyibona ustozlari va peshqadamlari bo‘lgan bu ikki siymoga chandon hurmat bajo keltirgan holda, ular Farhod obrazini o‘z qarashlarining tajassumi (bosh qahramon) qilib olmaganlarining o‘ziyoq bu savolga javob tasdiq ma’nosida bo‘lmasligini aytish kerak. Biz bu ikki dostondagi mazkur bahs-u

javob bilan ham tanishib chiqdik. Albatta, ular ham yuksak badiiyatga ega. Qolaversa, shu bahs epizodi borligi Navoiyga turki berganki, “Farhod va Shirin” dostonida ayni epizod mavjud. Hatto dialoglar misra boshida “Biguft”, “bigufto” (Navoiyda “dedi”, “dedikim”) so‘zlarining kelishi va ularning hajmi (25-26 bayt) birxilligi ham har uch dostonda bir-biriga monand. Biroq “Farhod va Shirin” dostonidagi bu dialogning avvalgilaridan muhim bir farqi bor: “Xusrav va Shirin” (Nizomiy) hamda “Shirin va Xusrav” dostonlaridagi dialoglar raqiblarning omonsiz tortishuvi emas, ikki suhbatdoshning mukolimasidan iborat bo‘lib qolgan. Buning ustiga, biz ta’kidlab ko‘rsatgan savol-javoblar – boylik beray, yo istasang podshohlik beray, bu havasdan kech, yoki o‘ldiraman kabi makr va po‘pisalar va unga Farhodning mardonavor, oqilona javoblari (Muhammad alayhissalomga qilingan va’da va tahdidlar hamda u zotning kofirlarga javobiga monand baytlar) Nizomiyning ham, Dehlaviyning ham dostonida yo‘q.

III. Farhodda ideal insonga xos bo‘ladigan hamma narsa – kamtarlik, ulug‘vorlik, boylik, davlat va shavkatga ruju qo‘ymaslik, har jihatdan poklik, shu bilan birga, omma tomonidan e’tibor va izzat etarlicha bor:

*Bo ‘lub shahlar eshigining gadoyi,  
Va lekin ul gadolar xoki poyi.  
Anga teng podsholig’, yo gadolig’,  
Gadoliqqa teng etmay podsholig’.*

Farhod yuksak nasl-nasab egasi (shahzoda) bo‘lsa-da, kambag‘al, oddiy odamlarga qalban yaqinroq. Uning bu xislati ham Muhammad alayhissalomga borib tutashadi. Payg‘ambar alayhissalom ham nasabi jihatidan quraysh qabilasining eng ulug‘ xonadoniga mansub, ammo da’vati eng avvalo faqir va miskin kishilar qalbidan joy olgan, islom dini zodagonlar va boylar ichida emas, dastlab asosan mehnat ahli orasida yoyila boshlagan.

IV. Muhammad alayhissalom hamisha rostgo‘y bo‘lgan, nafaqat tilida, balki dilida ham o‘zgalarga nisbatan aslo g‘ubor bo‘lman. Chunki uning qalbida “Shaqqi sadr” voqeasidan so‘ng ezgulikdan boshqa narsaga o‘rin qolgan emas. Shuning uchun ham u kishini

sharaflab, odamlar Muhammad amin (rostgo‘y, ishonchli kishi) deb atashgan va hamma hurmat qilgan.

Alisher Navoiy Farhod ta’rifida shunday deb yozadi:

*Demon ham ko ‘ngli poku ham ko ‘zi pok,  
Tili poku so ‘zi poku o ‘zi pok.  
Munungdek tiynati pokiga loyiq,  
Duosin aytibon pok i xaloyiq.  
(Ko ‘ngli ham pok, ko ‘zi ham pok demayman,  
Tili pok, so ‘zi pok, o ‘zi pok, deb ham o ‘tirmayman.  
Shunday pok tiynatligiga yarasha,  
Jami xaloyiq uni duo qilar edi).*

V. Shoir “Farhod va Shirin” dostonini “mehnatnoma”, “mehnat dostoni” deb atagan. Mehnat so‘zining asl ma’nosи, hozirgiday mashg‘ulot, ish faoliyati emas, musibat, badbaxtlik, ranj-u azob, uqubat, mashaqqatdir. Shuning uchun ham shoir Farhod ismining ma’nosini badiiy sharhlar ekan, shunday deb yozgan edi:

*Firoqu rashku hajru oh ila dard,  
Birar harf ibtidodin aylabon fard...,*

Ya’ni, Farhod ismining o‘zi ham bor “firoq”, “rashk”, “hajr”, “oh” va “dard” so‘zlarining ilk harflaridan tarkib topgan. Hayoti esa doim mashaqqat bilan – avval ilmu hunar egallash mehnatida, keyin esa ishq va u tufayli boshiga kelgan balolar iskanjasida o‘tib itmomiga etadi.

Nosiriddin Rabg‘uziyning yozishicha, aynan payg‘ambarlarga Olloh taolo eng katta balolarni sinash uchun taqdir qilar ekan. Boshqa nabilar tarixini keltirib o‘tirmasdan, Muhammad alayhissalom hayotnomasiga nazar tashlashning o‘ziyoq bu naqlning to‘g‘ri ekaniga asos bo‘la oladi va bu dalil ham Farhod obrazi Rasulullohga qay bir jihatlari bilan monand ekanini ko‘rsatadi.

VI. Eng og‘ir damlarda Farhodga Shopur hamrohlik qiladi, uni doimo qo‘llab-quvvatlaydi, holidan xabar olib turadi. Uni doimo beg‘araz qo‘llab-quvvatlab yuruvchi Shopur qay bir jihatlari bilan hazrat Abu Bakrni kishi yodiga soladi. Xitoydan Armaniya mamlakatiga Farhod Shopur bilan birga keladi (Makkadan Yasrib shahriga Muhammad alayhissalom sodiq do‘sti Abubakr bilan birga kelgani kabi). Bu kabi goh asosli, goho esa elas-elas tasavvur

uyg‘otadigan mushtarakliklar shu bilan tugamaydi, ammo boshqa tafsilotlarga berilishning mavridi emas.

Mumtoz she’riyatning eng ommaviy janri g‘azaldir. G‘azal juda ko‘p ishlangani bois, behad sayqal topgan, mazmunan ham, shaklan ham xilma-xil turlarga ajralib rivojlangan. Chunonchi, mazmuniga ko‘ra, hamd (olloh taologa bag‘ishlangan) g‘azallar, na’t (Muhammad alayhissalom madhidagi) g‘azallar, madh (biron ulug‘ odamga bag‘ishlangan) g‘azallar, faxriya (o‘ziga bag‘ishlangan) g‘azallar singari.

Nazarimizda, ulug‘ Alisherning “Xamsa”sini ham qay bir jihatlariga ko‘ra ana shunday tasnif qilish mumkin. Har bir doston – mohiyatan, katta bir g‘azal, komparativistlar tili bilan aytadigan bo‘lsak, epik qo‘shiqdir. Keng ma’noda olganda, falsafiy-didaktik yo‘nalishdagi “Hayratul abror”ni hamd doston, desa bo‘ladi. Chunki unda oqillar dilini lol etgan sir-sinoatlar, Xalloq yaratgan bu olamning turfa vogeliklari bobma-bob tasvirlangan. Asardagi har bir “maqolot” va “hayrat”dan bevosita parvardigorga murojaat va munojotlar ham o‘rin olgan.

Tartibga ko‘ra, hamddan so‘ng na’t keladi. “Xamsa”ning “Hayratul abror”dan keyingi “Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazida Muhammad alayhissalomga ishoratlar mavjud ekanini dalillagan bo‘ldik.

O‘zining Ollohga bo‘lgan ishqini ta’rifini Navoiy “Layli va Majnun”da beradi, bu asarni, ruhiga ko‘ra, faxriya doston deb atash mumkin.

Navoiy ulug‘ salaflari – Nizomiy, Xisrav Dehlaviy va Jomiylar dostonlaridagi turfa voqealardan chashna olgan. “Sab’ai sayyor” dostonini salaflarga bag‘ishlangan madh doston deb qabul qilish mumkin. Zero aynan shu dostonning bir emas, ikki bobida ular haqida so‘z yuritilgan.

Shuningdek, “Saddi Iskandariy”ning podshoh Iskandar Zulqarnayn haqida ekani o‘zi uni Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan madh doston, deb atashga muayyan darajada izn beradi. Darvoqe, Navoiy aynan Husayn Boyqaroni “Iskandari soniy” deb ta’riflagan, boshqa dostonlarida ham shu sifat bilan ulug‘lab, ularning har birida maxsus bob bilan siylagan.

Basharti bu mulohazalarda jon bor deb topilsa, Farhod – Navoiy

ideal shaxs deb bilgan kishi haqidagi g‘oyalarining tajassumi, deb qabul qilinishi kerak va bu obraz juda ko‘p jihatlari bilan payg‘ambar alayhissalomga monand keladi. Hayot va turmush haqidagi qarash hamda tushunchalarni bor bo‘yicha emas, balki go‘zal bir shaklda, “pardai asror” ortiga olib tasvirlagan holda taqdim etish esa badiiy adabiyotning spesifikasiga xos eng muhim jihatlardan biridir.

Badiiy adabiyotning asosiy xususiyati – hayotini “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” ravishda emas, balki obrazli yo‘sinda ko‘rsatish va shu orqali kuchli ta’sir o‘tkazishdan iborat. Buning uchun epik asarlarda inson obrazi yaratiladi. Ijodkor o‘z qarashlarini shu obraz tilidan bayon etadi.

Navoiy ana shuni chinakam adabiyot deb bilgan. Haqiqatni haqiqat ravishida aytish boshqa-yu, ammo majoz orqali ta’sirchan bir holda taqdim etish boshqa, deb tushungan. Chunonchi, yaqin do‘sti va xodimi Pahlavon Muhammad undan, turkigo‘y shoirlardan eng zo‘ri kim, deb so‘raganida, “*Mavlono Lutfiy holo musallamdur va bu qavmnинг ustodi va malikul kalomidur*”, deb javob beradi. Pahlavon Muhammad shoirga, “*Nechuk Sayyid Nasimiy demadning?*” deb yana savol beradi. Bu savolga berilgan quyidagi javob Navoiyning so‘z san’atining tabiatи haqidagi qarashini ifodalaydi:

“Sayyid Nasimiyning nazmi o‘zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur”.

Buning ma’nosi shuki, Nasimiy Olloh taologa bo‘lgan ishqini bevosita, ya’ni “Yo Olloh, men sening bandangdurman”, tarzida bayon qiladi, “majoz tariqida” so‘z aytuvchi Lutfiy esa obrazli qilib, “Qadu og‘zingg‘a boqsam, oh derman, Seni ko‘rgan sayin “Olloh!” derman”, deya pardalab tasvirlaydi, bu misralarda majoziy emas, haqiqiy yor vasp etilayotganini parda ortida qoluvchi avom emas, xos kishilar tushunadi va shu jihatni bilan Lutfiy malikul kalom hisoblanishi kerak...

Fikr bilan badiiy fikrning farqi ana shunda.

# NAVOIYNING “ILK TERMA DEVONI” (1501) OQQUYUNLILARGA TEGISHLIMI?

## NAVOI’S “FIRST COLLECTION OF DIVAN” (1501) DOES IT MATTER TO AKUYUNLI?

Aftondil ERKINOV

*O'zR Madaniyat vazirligi huzuridagi  
O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy  
boyliklarni tadqiq etish markazi  
(O'zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Alisher Navoiy o'zining “Xazoyin ul-maoniy” she'riy to'plamiga 1492–1498-yillarda tartib bergen. Bu to'plamdagи she'rlardan olib tuzilgan majmualar fanda “Terma devon” deb atalgan. Navoiy hayotdan ko'z yumganidan to'rt oy lar chamasи o'tib, 1501-yili may oylarida Navoiyning dastlabki “Terma devon” tuzilgan. U hozirda Tehron (Eron) shahridagi kutubxonada saqlanadi. Ba'zi belgilariga ko'ra u Oqqa'yunlilar sultanati hududida tuzilgan bo'lishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Oqqa'yunlilar sultanati, terma devon, devon.

### *Annotation*

*Alisher Navai compiled a collection “Treasury of Thoughts” consisting of his poems in 1492-1498. The collections of poems based on the poetry from this collection were called “The Selected Divan”. After about 4 months from the date of Alisher Navai's death, in the spring of 1501, one of the first “Selected Divans” consisting of Navai's poems was composed,. It is currently kept in the library of Tehran (Iran). According to some reports, it could have been compiled on the territory reined by Akkuyunid's dynasty.*

**Key words:** Alisher Nawai, Akkuyunid dynasty, selected divan, divan.

Alisher Navoiyning ixlosmand o‘quvchilari u yashagan davrda ham ko‘p bo‘lgan. Bunga “Ilk devon” (1466-y.) [Навоий, 1968], “Oqqa‘yunli muxlislar devoni” (1471-y.) [Navā’ī, 2015], “Sulton Ya’qub saylanmasi” (1481) [Эркинов, Жабборов, 2019: 36-41] kabi Navoiy she’rlarini o‘z ichiga olgan qator qo‘lyozmalar misol bo‘la oladi. Qizig‘i shundaki, mazkur she’riy to‘plamlar Navoiyning o‘zi emas uning ijodi muxlislari tomonidan yaratilgan. Ularning bir qismi keyingi yillarda aniqlandi [Эркинов, 2020: 88-96].

Yaqinda, ilmiy izlanishlar natijasida Navoiy she’lari jamlangan yana bir majmua aniqlandi. U deyarli shoir yashagan davrda – 1501-yili aprel-may oylarida, ya’ni Navoiy vafotidan 4 oylar chamasi o‘tib ko‘chirib tugallangan. Mazkur qo‘lyozma asarni shartli tarzda Navoiyning “Ilk terma devoni” deb atash mumkin. Hozirgacha mavjud ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, ayni terma devon Oqqa‘yunlilar muhitida ko‘chirib tugallangan. Mazkur sulolaning humronlik davri 1501-yilda tugallanganligi hisobga olinsa, majmua Navoiyning Oqqa‘yunlilar tomonidan amalga oshirilgan so‘nggi e’tirofi sanalishi mumkin. Muhimi, ayni majmua “Ilk terma devon” deb atalishga loyiq. Buning sababini quyiroqda tushuntiramiz.

Eronning Tehron shahridagi Navoiy she’rlari kirgan qo‘lyozma nusxasi bilan tanishish bizni hayratga soldi. 1501-yili Navoiy vafotidan to‘rt oylar chamasi o‘tib, Navoiy she’rlaridan iborat bir terma majmua tuzilgan ekan. U bilan tanishish Navoiy she’riyatiga bo‘lgan ehtirom, shoirning sara she’rlarini saylab olib, majmualar tuzish an’anası u yashagan davrdayoq mavjud bo‘lganligini yana bir bor isbotlaydi. Uni Navoiyning o‘zi tuzmagan, balki u muxlislar tomonidan tartib berilgan. Chunki tarkibida oltmishdan ortiq she’r mavjud bo‘lib, ular Navoiyning mavjud turkiy devonlaridan saralab olingan.

Alisher Navoiy mersoining badiiy qudratining yurtidagi va undan tashqaridagi shuhrati hammaga ma’lum. Uning o‘zi tartib bergen devonlarilan tashqari muxlislari tarafidan tuzilgan yoki ko‘chirilgan she’lari majmualari orqali shoir merosi badiiy kuchi haqida fikr yuritish mumkin. Dastlab, 1466-yili Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan, Navoiy muxlislari tomonidan tuzilgan “Ilk devon” tuzilgandi. Bu davrda Navoiy 25 yoshlarda bo‘lgan. 1471-yili 30 yoshli Navoiyni Temuriylarga (1370–1506) yondosh saltanat

– Oqqo‘yunlilar (1378-1501) ehtirom etib, fanda shartli nom olgan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”ni tartib berishgandi. Navoiy hali o‘zi devon tartib bermagan bir davrda, 30 yoshli shoir Navoiyning yurtidan tashqarida e’zozlanishi katta natija. 1481-yilga kelib, Oqqo‘nlilar hukmdorlaridan Sulton Ya’qub (1478-1490) saroyida, taxminan Tabriz shahrida “Sulton Ya’qub saylanmasi” tuziladi. 40 yoshli Navoiyni yana qo‘shti sulola e’zozlaydi. Bu majmuma garchi bir necha varaqdan iborat va Navoiy she’rlari yoki ularning ayrim qismlarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, odatda, podsholar uchun mo‘ljallab ko‘chiriladigan yuksak darajadagi bezaklarga egaligi bilan ajralib turadi.

Tilga olayotganimiz “Ilk terma devon” qo‘lyozmasi Alisher Navoiy dunyodan ko‘z yumbandan so‘ng, 1501-yili bahorda ko‘chirib tugallangan. Biz ilmiy adabiyotlarda ayni qo‘lyozma haqida biror ma’lumot uchratmadik. Faqatgina Eronda saqlanuvchi turkiy tilli qo‘lyozmalar katalogida mazkur qo‘lyozma haqida bir necha qatorgina ma’lumot keltirilgan va qo‘lyozma “Navoiy devoni” debgina atalgan [Şadi, 2008: 99]. Muallif ayni qo‘lyozma devonga mana shunday umumiy nom bergani uchun qo‘lyozmaning mohiyati – Navoiyning aynan qaysi va qanaqa devoni ekanligi ochilmagan.

Navoiy she’rlaridan tanlab tuzilgan mazkur majmua 42 varaq – 84 sahifadan iborat bo‘lib, Alisher Navoiyning oltmishdan ortiq she’rlari – g‘azal va ruboilarni o‘z ichiga olgan. U Eronning Tehron shahridagi kutubxonada 4919-inventar raqami bilan saqlandi.

Qo‘lyozma so‘ngida uning ko‘chirilish sanasi hijriy hisobda 90-yil, shavvol oyi deb ko‘rsatilgan. Bu sana 1501-yilning aprel – may oylari oralig‘iga to‘g‘ri keladi. To‘g‘ri, bu vaqtida Navoiy vafotidan to‘rt oydan ko‘proq vaqt o‘tgandi. Ammo ko‘chirilish sanasi, har doim ham bu qo‘lyozma tayyorlana boshlangan davr haqida to‘liq ma’ulmot bera olmasligini hisobga olsak, uni tuzishga kirishish, taqriban, Navoiy hayotligi vaqtiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Muhimi – qo‘lyozmada uning ko‘chirib tugallanish sanasi ko‘rsatilgan. Majmua so‘ngida she’rlar matni tugagandan keyin uning ko‘chirilish sanasi keltirilishdan avval, aslida mavjud bo‘lganligi sezilib turgan, kotib ismi bizga noma’lum sabablarga ko‘ra o‘chirilgan. Bu esa, afsuski, qo‘lyozmaning qaerda va kim

tarafidan tayyorlanganligini aniqlashni murakkablashtiradi.

Biz maqolamizni “Navoiyning “Ilk terma devoni” (1501-y.) Oqqyunlilarga tegishlimi?” deb nomlashimiz bejiz emas. Avvalo, Eron kutubxonasi tavsifida ko‘rib chiqayotganimiz qo‘lyozma “Devoni turkmononi Oqqa‘yunlu” (ya’ni, Oqqa‘yunli turkmonlar devoni) deb nomlangan va u Oqqa‘yunli turkmonlar davrida ko‘chirilgan deb yozilgan. Mazkur Oqqa‘nlilar sultanati (1378–1501) yillarda Taxminan qisman hozirgi Turkiya sharqi, Armaniston, Ozarbayjon, shimoliy Iroq va Eron territoriyasida hukmronlik qilgan o‘g‘uz turklar ekanligi ma’lum. Turkmon deganda esa o‘sha davrlarda Eron yashagan o‘g‘uz turkiylari tushunilgan. Bu so‘zni ayni ma’noda Navoiy ham “Farhod va Shirin” dostonida qo‘llagan:

*Olibmen tahti farmoning ‘a oson,  
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.  
Xuroson demakim, Sherouz Tabrez  
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.  
Ko‘ngul bermish so‘zunga turk jon ham,  
Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham.*

Kutubxona tavsifida “Devoni turkmononi Oqqa‘yunlu” nomi qaysi asosda qo‘yilganligi (qo‘lyozma naqshlari, qo‘lyozma yozuvsi uslubi yoki boshqalar...) aytilmagan. Asosiysi – kutubxona tavsifida qo‘lyozmaning Oqqa‘yunlilarga oidligini ko‘rsatilgani. Ko‘rib o‘tayotganimiz Navoiy she’rlar majmuasi “Oqqa‘yunli muxlislar devoni” kabi shoir g‘azalining

*Ey, safhai ruxsoring azal xattidin insho,  
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug ‘ro,*

bayti bilan boshlanadi. Bu bayt dastlab Navoiyning “Badoe ul-bidoya”, keyinchalik “G‘aroyib us-sig‘ar” devonilarida keltirilgan. Ikkalasida ham mazkur g‘azal bilan devon boshlanmagan va u uchinchi o‘rinda keylgan.

Qo‘lyozma Navoiyning quyidagi ruboiy bilan tugallangan:

*Sen borg ‘ali ortmish ko‘ngul zorlig ‘i,  
Oh o‘qlaridin har nafas afgorlig ‘i.  
Bilman unutulg ‘anmu ekandur manga hajr,  
Yo ko‘prak erur bu qatla dushvorlig ‘i.*

Mazkur ruboiiy ham yuqoridagi bayt kabi Navoiyning “Badoye

u'-bidoya” (80-o‘rinda) devonida, keyinchalik “G‘aroyib us-sig‘ar”da (117-o‘rin) keltirilgan.

Bizga ma’lumki, Navoiyning Oqqa‘yunlilar sultanatidagi o‘quvchilari tomonidan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” 1471-yili tuzilgan edi. Undagi g‘azallar tilida Navoiy she’rlarini o‘g‘uzlashtirish holati yaqqol sezilib turardi (masalan, “topmadim” so‘zi o‘rniga “dopmadim”). Ko‘rib o‘tayotganimiz qo‘lyozmada mana shunday jihat yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Vaholanki, bu majmuadan 30 yil avvalgi “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da bunday holat mavjud edi. Savollar ketidan savollar paydo bo‘laverdi.

Majmuani Oqqo‘yunlilar muhitida tayyorlanganligiga doir mana shunday savollar bilan o‘g‘uz turklari qo‘lyozma san’ati, xususan, miniatyuralari bo‘yicha katta mutaxassis, Turkiyada yashovchi professor Lola Uluchga murojaat etdik [Prof. Lola Uluch bilan suhbat. Istanbul shahri (28-fevaral, 2020-yil)]. Qo‘lyozma boshlanishidan bir necha sahifani olima e’tiboriga havola qildik. U kishi qo‘lyozma nusxasi, aniqrog‘i, unvon – qo‘lyozmadagi asar matni boshlanishidan avval keltiriluvchi rangli naqsh bilan tanishib, uning uslubi haqida mulohaza bildirdi: “Fikrimcha, siz menga yuborgan tasvir bemalol Sulton Xalilning Sherozdagي hukmronligi dastlabki yillarda yaratilgan bo‘la oladi. Boshqacha qilib aytganda, u taxminan Alisher Navoiyning “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” qo‘lyozmasi yaratilgan davrlarga oid. Unvondagi naqshi tarkibida mavjud bo‘lgan qoratuproq, zamindek qora rangni men ko‘proq Qoraqo‘yunlilar yoki Sulton Xalil hukmronligining dastlabki vaqtlaridagi qo‘lyozmalardagi naqshlarda uchratib turaman”. Demak, qo‘lyozmadagi bezaklar uslubidan kelib chiqqan holda, Lola Uluch ham uning Oqqo‘yunlilar muhitida yaratilganligini ta’kidlamoqda.

Ma’lumki, Qoraqo‘yunlilar (1410–1468) Oqqo‘yunlilardan kabi sulola bo‘lib, ular ham Oqqo‘yunlilar yashagan zaminda umrguzaronlik qilgan o‘g‘uz turklaridan bo‘lganlar. Qoraqo‘yunlilar bilan kurashlar natijasida Oqqo‘nlilar sultanati ular o‘rnini egallagan. Ma’lumot uchun shuni ta’kidlash mumkinki, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida Qoraqo‘yunlilar hukmdorlaridan Jahonshoh Haqiqiy (1435–1467) [Джабборов, 2020: 35-37] va Oqqo‘yunlilardan Sulton Ya’qubni (1478–1490) shoir hukmdorlar

qatorida eslab, she’rlaridan namunalar keltiradi. Shu ma’noda olib qaraganda, mazkur ikki sulola bilan Temuriylar munosabatda bo‘lganlar. Oqqo‘yunli shahzodasi Sulton Xalil Sheroz hokimi (1471–1478) bo‘lgan davrda 1471-yili Alisher Navoiyning “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” ko‘chirilgan. Xususan, Navoiyning Sulton Ya’qub bilan shaxkiy aloqlari mavjud bo‘lgan. Bu hukmdor davrida Navoiy she’rlaridan tashkil topgan “Sulton Ya’qub saylanmasi” 1481-yili Sherozda ko‘chirilgan [Эркинов, Жабборов, 2019: 36-41]. Ya’ni, Oqqo‘yunlilar qo‘lyozma san’atining Alisher Navoiy asarlari bilan bog‘liq o‘rnlari avvaldan mavjud bo‘lgan.

Professor Lola Uluch bu bog‘lanishlarni biz ko‘rib o‘tayotgan va Oqqo‘yunlilar muhitida ko‘chirilish ehtimoli bor bo‘lgan Navoiy “Ile terma devoni”dan 30 yillarcha avvalgi davriga oid demoqda. Muhimi, biz ko‘rib o‘tayotgan qo‘lyozma majmua L.Uluch fikricha, Oqqo‘nlilar muhitida tayyorlangan bo‘lishi ehtimoli katta. Buni yana bir jihat, mavjud muayyan an’ana tasdiqlaydi. Ko‘rib o‘tayotganimiz majmuagacha Oqqo‘yunlilar muhitida Navoiy she’rlari kiritilgan ikkita qo‘lyozma tayyorlangan. Bular:

1. “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”. 1471-yil.
2. Sulton Ya’qub saylanmasi. 1481-yil.
3. “Ilk terma devon” balki shu an’ana davom sifatida 1501-yili vujudga kelgandir.

Navoiy o‘zi tartib bergen dastlabki devoni – “Badoye’ ul-bidoya” debochasida xalq ichida o‘zining 1000-2000 baytdan ortiqroq she’rlari to‘plab ko‘chirilib tarqalganini, ya’ni ixlosmandlari tomonidan tuzilgan bunday to‘plamlar bir nechta bo‘lganini ta’kidlaydi: “...xaloyiq arosida ming bayt – ikki ming bayt ortug‘roq o‘ksukrakkim o‘zлari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi” [Навоий, 1987: 24]. 870/1465-1466-yilda Hirotda Navoiy she’riyati ixlosmandlari tomonidan tuzilib, Sultonali Mashadiy tomonidan ko‘chirilgan “Ilk devon”dan besh yillar keyin, 1471-yili, yangi bir to‘plam – “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”ning tartib berilishi Navoiy fikrlarini tasdiqlaydi.

1481-yili ko‘chirilgan “Sulton Ya’qub saylanmasi”da bir necha g‘azal va she’riy parchalari mavjud. Shu bois u “Sulton Ya’qub saylanmasi” deb atalgan. Bu nom ham, “Oqqo‘yunli muxlislar

devoni” nomlanishi ham shartli bo‘lib, mazkur she’riy to‘plamlar tarkibidan kelib chiqqan. Masalan, “Sulton Ya’qub saylanmasi”da nafaqat Navoiy she’rlari, balki ularning ma’lum bir bo‘laklari ham bu to‘plamga kiritilgan. Lekin unga nisabatan “Terma devon” atamasini qo‘llash o‘rinli bo‘lmay, buning o‘z sabablari mavjud.

Biz ko‘rib o‘tayotgan “Ilk terma devoni” nomi bejiz vujudga kelmagan. “Terma devon” deb nomlanish ham shartli bo‘lib, navoiyshunoslikda “Xazoyin ul-maoniy” tuzilishi tugallangan 1498-yildan keyin Navoiyning undagi devonlardan (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye’ ul-vasat” va “Favoyid ul-kibar”) olingan she’rlardan tashkil topgan majmualarga nisbatan ishlatiladi. Marhum olim filologiya fanlari doktori Muhammadjon Hakimov fikricha, shartli tarzda nomlanish olgan Navoiy “Terma devon”larida 1500 dan kamroq she’r keltirilgan [Ҳакимов, 1991: 7-8]. Biz ko‘rayotgan devon 84 betdan iborat bo‘lib, unda oltmishtan ortiq she’r keltirilgan. Lekin u Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”dan keyin tuzilganligini hisobga olib, uni saylanma deb emas, (saylanma Navoiy hayotligi davrida, “Xazoyin ul-maoniy”dan avvalgi hodisa bo‘ladi), “Ilk terma devon” deb atadik. 1501-yil sanasini keltirishdan maqsad uning 1471-yili ko‘chirib tugallangan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dan farqlash va Navoiyning eng dastlabki terma devonlaridan ekanligini ko‘rsatishdir. Albatta, bu nomlanish shartlidir. Nomlanishdan tashqari bizning 1501-yil sanasini eslashimiz bejiz emas. Chunki aynan 1501-yilga kelib Oqqo‘yunlilar sultanati hukmronligi o‘z nihoyasiga yetayozgandi.

Agarda Navoiy “Ilk terma devon”i Oqqo‘yunlilar muhitida tuzilmagan taqdirda ham, Navoiy she’riyatiga dastlabki munosabat namunasi sifatidagi xususiyatini – “Terma devon” ekanligini saqlab qolaveradi. Muhimi, kim tomonidan amalga oshirilgan bo‘lishidan qat’i nazar, bu majmuuning Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”dan terib olib tuzilgan eng dastlabki (1501-yil) terma devon hamda Navoiy she’riyatiga zamondoshlari munosabatini ko‘rsatuvchi manba ekanligi.

1471-yildagi 30 yoshli Navoiy bilan 1501-yildagi 60 yoshli Navoiyning orasida katta tafovut bor. 30 yoshli Navoiy she’rlarini o‘g‘uzlashtirishga Oqqo‘yunlilar jazm qilishgandir. 1469-yildan muhrdor va 1472-1476-yillari vazir bo‘lgan va umuman shu

davrlardan boshlab davlat arbobi; Xuroson, Movarounnahr, Usmonlilar sultanati va umuman turkiy dunyoga shuhrati ketgan shoir Alisher Navoiyning she'rlari matnini o'zgartishga balki bu safar haddilari sig'magandir.

Savollar ko'p, taxminlar ham. Asosiysi, Navoiy she'riyatiga munosabatga ega bo'lgan "Ilk terma devon"ning aniqlanganligi. Navoiy yashagan davrga oid yana bir qo'lyozma manba bilan navoiyshunoslikning boyiganligi. Biz mazkur qo'lyozma ustidagi izlanishlarimizni davom ettirib, uning faksimil nashri va tabdilini amalga oshirish niyatidamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Илк девон. Х.Сулаймонов нашри. Тошкент, 1968.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том. Тошкент, 1987.
3. Алишер Навоий. Оққўюнли муҳлислар девони. Нашрга тайёрловчилар А.Эркинов, Р.Жабборов. Тошкент: Шарқ, 2020.
4. Джабборов Р. Оққўюнли муҳлислар девони"нинг Алишер Навоий лирикаси ва давр маданий муҳитидаги ўрни. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд, 2020. – Б. 35-37.
5. Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмалари тавсифи. Тошкент: Фан. 1991. – Б.7-8.
6. Эркинов А. "Алишер Навоий девонларининг аниқланган янги нусхалари (2010–2020 йиллар)" // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари: III Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Наманган, 2020 йил 12-13 июнь, 1-китоб. Наманган, 2020. – Б.88-96.
7. Эркинов А., Жабборов Р. "Навоий шеърлари "Султон Яъкуб сайланмаси"да" // "Алишер Навоий ва XXI аср" мавzuидаги халқаро илмий-назарий анжумани материаллари. Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 36-41.
8. 'Alī Shīr Navā'ī. Dīvān of the Aq qoyunlu Admirers (1471). A.Erkinov (ed.). Tokyo: Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa, 2015;
9. Şadi A. İran Kütüphaneleri Türkçe Yazmalar Kataloğu. Istanbul: Timaş Yayınları, 2008. – S. 99.

# NAVOIY “XAMSA” SIDAGI UCH O’LIM HAQIDA

## THE ISSUE OF THREE DEATHS IN NAVOI'S KHAMSA

Uzoq JO‘RAQULOV

ToshDO‘TAU

(O‘zbekiston)

### *Annotatsiya*

*Tadqiqot Alisher Navoiy “Xamsa” sidagi o‘lim kategoriyasining badiiy talqini va tasvir etilish tamoyillari haqida. Ilmiy konsepsiyaning badiiy-manbaviy asosi sifatida “Hayrat ul-abror”dagi Durroj, “Farhod va Shirin”dagi Xusravshoh hamda “Sab’ai sayyor”dagi shoh Bahrom o‘limi voqealari olinadi. Bu uch o‘lim tasviri qiyosiy usulda shoire e’tiqodi, dunyoqarashi bilan bog‘lanadi va umumlashma xulosalar ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** “Xamsa”, doston, kompozitsiya, syujet, psxologizm, sarlavha, boshlama, yakun, obraz, detal, badiiy tasvir, muallif pozitsiyasi, bayt, misra, qiyos, majoz, ilova, o‘lim epizodi, “yer osti”.

### *Annotation*

*The study is about the artistic interpretation of the category of death in Alisher Navoi’s “Khamsa” and the principles of depiction. The artistic and source basis of the scientific concept is the death of Durroj in “Hayrat ul-abror”, Khusravshah in “Farhod and Shirin” and the death of King Bahrom in “Sab’ai Sayyar”. These three images of death are comparatively linked to the poet’s beliefs, worldview, and generalized conclusions are drawn.*

**Key words:** “Khamsa”, epic, composition, plot, psychology, title, beginning, end, image, detail, artistic image, author’s position, byte, line, analogy, metaphor, appendix, death episode, “underground”.

Xuddi hayotdagi kabi badiiy asar dunyosida ham o‘lim bilan bog‘liq sahnalarining bo‘lishi qonuniydir. Real vogelikda favqulodiy yoki tasodifdek tuyulgan inson o‘limiga nisbatan botinimizda

bir izoh istagi, sabab qidirish xohishi doim bor, buni inkor qila olmaymiz. Ba’zan badiiy asarni o‘qib bo‘lgach, muallifdan mutloq rozi bo‘lmasligimizning ostida ham mana shunday “hayot tajribasi” turgan bo‘lishi, ehtimol. Agar muayyan mazmun tizimidan qahramon o‘limiga oid mantiqiy javob topa olsak, uning rostdan ham tabiiy o‘lim bilan qazo qilganiga ishonsak, muallifga nisbatan rozilik hissini tuyamiz.

Mahoratli yozuvchilarda bunday sahnalar mantiqan asoslangan bo‘ladi. Ba’zi mualliflar o‘z asarlarini o‘limdan xabar beruvchi jumla bilan boshlaydilar va o‘lim sahnasi balan tugatadilar. Boshqa birlari asar fabulasining o‘zi tabiiy ravishda qahramonimni o‘limga olib keldi, deya o‘quvchini ishontirishga urinadilar. Ammo tan olishimiz kerak, o‘lim degan muqarrar hodisa hech qachon muayyan o‘lcham yoki mantiqqa sig‘maydi. Shu sababdan real o‘limga ilkis duch kelgan odam ko‘nglida “hali yosh edi-ku!”, “yashashi mumkin edi!”, “esiz, yaxshi odam edi-da!”, “o‘ladigan odamga o‘xshamasdi-ya!”, “ie, nahotki!”, “yo‘q, mumkin emas!” singari emotsiunal savollar doim mavjud bo‘lgan. Badiiy asar qahramonining o‘limi ham xuddi shu sabab aksar hollarda to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinmaydi. Negaki, o‘limga nisbatan munosabatlarning bu qadar ko‘pligi va xilmalilligi inson tabiatini, botini bilan bog‘lanuvchi bir psixologik holat.

Aslida o‘lim, barcha voqeа-hodisalar singari, mutloq ilohiy hodisa. Ilohiy hodisalar esa bashariy mantiqdan haddan ziyod yuksakda turadi. Ayni sababdan bo‘lsa kerak, komil iymon egalari o‘limga duch kelganlarida “Inna lillahi va inna ilayhi roji‘un” (“Shubhasiz, biz Ollohnikimiz va Unga albatta qaytguvchimiz”), deydilar. Ko‘p hollarda tirishqoq mantiqchilar ham, qismat bilan kelishuvni istamaydigan qaysar “biofil”lar ham o‘lim oldida butun mahluqot ojiz ekanini anglashga majbur bo‘ladilar. Taqdирга tadbir yo‘qligini tushunadilar va unga tan beradilar. O‘ylaymizki, badiiy asar tizimiga o‘limga munosabatning shu, so‘nggi qoidasi yaxshi singdirilsa, o‘quvchini ishontirish qiyin bo‘lmaydi. Har qanday toifa, darajadagi o‘quvchi bunday o‘lim sahnasiiga ishonadi, uni e’tirozsiz qabul qiladi.

Badiiy ijodsiz yashay olmaydigan shoir-yozuvchining maqsad-muddaosi, avvalo o‘zini, so‘ng o‘quvchini aytgan so‘ziga ishontirish

ekan, ishontirish san'atining yo'l-yo'rig'i, haqiqati qayerda? Unga qanday erishish mumkin?

Bu haqli savolning eng to'g'ri va mantiqli javobini, shubhasiz, Hazrat Mir Alisher Navoiy ijodidan topamiz.

O'qiganlarga ma'lumki, universal epik janr bo'lgan Navoiy "Xamsa" sida o'lim sahnalari tasviri kam emas. Iskandar Zulqarnayn, Farhod, Majnun, Shirin-u Layli o'limi tasviri bizni ishontiradigina emas, qalbimizga iztirob lazzatini solib kirib yig'latadi ham. O'lim hodisasining bu kabi yuksak badiiy lahzalari, bunday oliv lahzalarning so'zdagi daqiq tasviri haqida shunga munosib, teran tahlillarga boy, epik ko'lamdagagi tadqiqotlar olib borish lozim. Qayd etish o'rinniki, ayni mavzuni aytilganidek epik ko'lamda talqin etish uchun ushbu mo'jaz tadqiqot ojizlik qiladi. Ayni sababdan maqola "Xamsa"da tasviri kelgan uch o'lim, o'lim bo'lganda ham uch g'aroyib o'limning badiiy talqini masalasiga qaratiladi: "Hayrat ul-abror"dagi Durroj, "Farhod va Shirin"dagi Xusravshoh hamda "Sab'ai sayyor"dagi shoh Bahrom o'limi.

Nogahon, o'quvchi ko'nglida "Shoh Bahrom va Xusravshoh masalasi-ku tushunarli, ammo bu ikki hukmdor obrazi o'limi bilan "Sher va Durroj" hikoyatidagi parranda o'limini nima bog'lab turadi?" degan ishtiboh tug'ilishi tabiiy. Tabiiy bo'lgani uchun biz ham bu ishtibohni e'tiborsiz qoldirmaymiz. O'quvchi e'tirozi tufayli o'z ko'nglimizda ham tomir ota boshlagan ishtibohga tadqiqot jarayonida javob topishga urinamiz.

"Xamsa"dagi tartib bo'yicha birinchi Durroj o'limi tasviri keladi. Bu hikoyat "Hayrat ul-abror"ning "*Rostliq ta'rividakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy va ul uy shabistonni harimida bu sham'i anvar majlisoroy bo'lur va egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek siymbalar yuzida yer tutarkim, boshi kesgulik va agar ajdahodek ganj ustida halqa ururkim, o'lturgulik*" [Navoiy, 1991: 200] tarzida sarlavhalangan o'ninchisi maqolatiga ilova bo'lib keladi. Navoiy "Xamsa" sida sarlavha bayon etilayotgan badiiy konsepsiya yoki voqeani iyoz maqomida jamlab aks ettirishdek yuksak poetik vazifa bajarishi ma'lum [Qurbanov, 2017: ]. Sarlavha mazmuniga tayanib fikr yuritadigan bo'lsak, maqolatda rostlik sifati yolg'on sifati bilan zid qo'yib tasvirlangani, rostga "sham'i

anvar” (nur taratuvchi sham) degan buyuk daraja berilgani holda, yolg‘onga qat’iy tarzda o‘lim hukmi chiqarilgani (“agar egri kishi zulfdek siybarlar yuzida yer tutarkim, boshi kesgulik va agar ajdahodek ganj ustida halqa ururkim, o‘lturgulik”) ayon bo‘ladi. Maqolat-hikoyat tizimida esa “Sher va Durroj” voqeasi mana shu konsepsiyanı asoslovchi, xulosalovchi ilova-majoz bo‘lib keladi. Haqiqat mezonida rost viqor va haybatli, tunganmas quvvatga ega ulug‘ fazilat bo‘lgani uchun muallif uni qudratli, yengilmas sher obrazida majozlashtiradi. Yolg‘on esa, mohiyatiga ko‘ra, o‘ta mayda, hurkak va beqaror, ayni paytda, bo‘rondek vayron etuvchi, yel kabi beor, vabodek yuquvchanligi bois muallif uni yer-u osmonda birdek sayr qila oladigan, ammo foydasi kam Durroj majozi bilan beradi.

Hikoyat syujetiga ko‘ra, behuda ozor chekkan bolalari sabab Sher Durroj bilan ittifoq tuzishga majbur bo‘ladi:

*Ko‘ngli bu ishtin bo‘lub ozorliq,*

*Boshladi Durroj bila yorliq.*

*Dediki: “Mendin sanga yo‘q qasd-u kiyn,*

*Emin o‘lu bil meni dog‘i amin.*

*Vahmni qo‘y, hamdamu hamrozim o‘l,*

*Aysh-u tarab vaqtি navosozim o‘l...”* [Navoiy, 1991: 210]

tarzida badiiy ifoda etadi Navoiy bu holatni. Ammo rost yolg‘on bilan ittifoq tuzishi mumkin emas. Inson havosiz, baliq suvsiz qancha yashay olsa, it mushuk bilan qancha muddat do‘splashsa, rost va yolg‘onning do‘splashi ham shu qadar mo‘rt va o‘tkinchi. Ayni sababga ko‘ra hikoyatdagi Sher va Durroj do‘splashi ham ko‘p o‘tmay tugaydi. Sherga o‘z yolg‘onlari bilan butkul tanilib qolgan, homiysining “...**yolg‘on demakim, shum erur, Kizb tuz el ollida mazmum erur**” degan nasihatini qulog‘iga ilmagan Durroj kunlardan bir kun “saydgar” tuzog‘iga ilinib qoladi. Shu tariqa tuz va kizb o‘rtasidagi ittifoq yakun topadi. Sher esa “pir-pir” ucharoq o‘zini cho‘chitgan, bolalariga ozor bergen, havoyi gaplari bilan ko‘nglini qoldirgan muvaqqat do‘st – Durroj balosidan xalos bo‘ladi. Ovchi tuzog‘ida dod solib yordamga chaqirayotgan Durrojning qismati esa o‘lim bilan nihoyalanadi. Muallif Durroj hayotining yakunini:

*Maxlasig‘a aylamadi iltifot,*

*Toki anga munqati’ o‘ldi hayot* [Navoiy, 1991: 212]

bayti bilan aniq-tiniq tasvirlaydi. Hikoyat shu epizod bilan tugaydi. Ammo kichik bir hikoyatning kinoyaviy tasvirlangan o‘lim voqeasi bilan tugallanishi uning individual, ijtimoiy tafakkur sathlariga ko‘chib o‘tishi, real hayot maydonida yashab qolishi uchun zamin hozirlaydi. Jo‘n o‘quvchini hikoyadagi kinoya ruhi qiziqtiradi. Uning ongida davom etadigan retseptiv jarayon komik rezonans sifatida yashab qoladi. Ikkinchi toifaga mansub o‘quvchi bu hikoyatdan yolg‘on so‘zlashning oqibatini tushunib yetadi, ibratlil xulosa chiqaradi. Yana bir toifa o‘quvchi borki, o‘z yengiltakligi uchun hayoti bilan javob bergen Durroj qismatiga achinish hissini tuyadi. Qalban “katarsis” (“iztirob olovida poklanish”) [Aristotel, 1980:] holatiga tushadi. Ma’naviy darajasiga loyiq ravishda poklanadi ham. Biroq Navoiyning voqelikka, ayniqsa, o‘limdek jiddiy hodisaga munosabatini anglash uchun retseptiv jarayonga xos bu uch holatning o‘zi yetarli emas.

Navoiy shaxsiyati, ijodiy merosini tizimli o‘rganish shundan dalolat beradiki, shoir biror asarida, badiiy sultanatining biror bir fuqarosini shunchaki, o‘zicha o‘limga hukm etmaydi. To‘g‘rirog‘i, avliyo zot e’tiqodi, dunyoqarashi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Navoiy komil iymon egasi sifatida barcha badiiy xulosalari, baholari va hukmlarini Qur‘oni karim, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning aniq ko‘rsatmalarisiz qog‘ozga tushirmaydi. Bu Hazrat Navoiyning qat’iy va o‘zgarmas mezoni.

Voqean, mazkur hikoyatdagi Durrojga chiqarilgan hukm, aslida yolg‘on va yolg‘onchiga chiqarilgan hukmdir. Bu hukm ostida Muhammad alayhissalomning “*Al kazzabu laysa ummati*”, ya’ni yolg‘onchilar mening ummatimdan emas degan muborak hadislari turadi. Qolaversa, Rasulullohning (s.a.v.) yolg‘on o‘ta jirkanch qusur ekani haqida aytilgan hadislari bitta emas. Shu sababdan Navoiy maqolatning sarlavhasidanoq kizb, yolg‘on degan umumbashariy qusurga o‘lim hukmini o‘qiydiki, boshqacha izoh ortiqcha.

“Xamsa”dagi yomon oqibatli o‘lim tasviridan yana biri Xusravshoh o‘limidir. Boshqa tadqiqotda keng to‘xtalganimiz bois, bu o‘rinda, Xusravshohning “Farhod va Shirin”dagi oshiq-ma’shuqaraqib obrazlari tizimidagi raqiblik maqomi, bu uchlik aro kechgan

voqealar bayon etilgan fabula chizig‘i haqida bat afsil to‘xtalib o‘tirmaymiz [Jo‘raqulov, 2016: ]. To‘g‘ridan to‘g‘ri Xusravshoh o‘limi bilan bog‘liq epizodlar tahlili bilan cheklanamiz.

Xullas, Farhod fojiali o‘lim topib, Mehinbonu Xusravshoh bilan ittifoq tuzgan, Shirinni esa bemorligi sabab Arman tog‘laridagi bir qasrga sihatini tiklash uchun jo‘natilgan kunda shahzoda Sheruyaning ko‘nglini ag‘dar-to‘ntar qilgan bir voqea sodir bo‘ladi. Sheruya Shirin jamolini ko‘radi va unga ishqni tushib qoladi:

*Bulut chun ketti, zohir bo‘ldi ul oy,  
Dema oy, oftobi olamoroy.  
Ko‘rub Sheruya ul husni jahontob,  
Ichiga ishq o‘ti soldi nihontob... [Navoiy, 1991: 435].*

Bu ishq Sheruyani shunday g‘arib holatga soladiki, Shirinka erishish yagona muddaosiga aylanadi. Maqsadi yo‘lidagi asosiy raqibi esa otasi edi. Ishq qulligi uni tamom zabit etadi. Ko‘nglida g‘ayriixtiyoriy fikrlar mavj ura boshlaydi:

*Kerak tadbir ala qilmoq xayoli  
Ki, mumkin bo‘lg‘ay ummidi visoli,  
Ato qatlig‘a bu ish munhasirdur;  
Bu ishga ishq g‘avg‘osi musirdur.  
Chu oshiq bordur o‘z qatlig‘a bebok,  
Yanalar qatlidin ko‘nglida ne bok.  
Dedi: “Xusrav agar chiqsa arodin,  
Bo‘lar komim ravo ul dirlabodin.  
Ani daf‘ aylasam olam meningdur;  
Bu mehri olamaro ham meningdur;  
Emas ummid yalg‘uz podshahliq  
Kim, oning vasliyu yuz podshahliq...” [Navoiy, 1991: 435-436]*

Bu so‘zlar hali Sheruyaning tiliga ko‘chgani yo‘q. Muallif uning xayolotidagi rejasini tasvirlayapti, xolos. Muhimi, biz ushbu botiniy holat tasviri vositasida Sheruyaning jon-u jahoni bilan Shirin ishqiga mubtalbo bo‘lganini anglaymiz. U Shirinka yetishish uchun har qanday kimsa jur‘at qila olmaydigan mudhish jinoyat – padarkushlikka ahd qilyapti. Navoiy bu holatni “O‘z o‘limiga parvosi bo‘lmagan oshiqning o‘zgalar o‘limiga ne parvoyi bo‘lsin”, degan

so‘zlar bilan asoslaydi. Aksar hukmdor farzandlarida kuzatiladigan toj-taxt ishtiyogi ham bu ishq oldida ikkinchi darajaga tushib qoladi. Sheruya uchun shohlik maqsad emas, Shirinka erishish vositasi ekani: “Umidi yolg‘iz podshohlik emas, illo, Shirin visoli yuz shohlikdan ziyoddir” so‘zlarida ifodalanadi. Navoiy mazkur bobning boshqa o‘rinlarida ota-o‘g‘il munosabatlari azaldan yaxshi emasligi xususida ham xabar beradi: “Ato hargiz o‘g‘ul ko‘ngliga boqmay /O‘g‘ulg‘a ham ato af‘oli yoqmay...”. Bunga qo‘srimcha ravishda Xusrav o‘limining voqe bo‘lishiga doir yana bir sababni ilova qiladi. Bu Xusravning zolimligi, el-ulusga qilgan jafosi edi: “Ki, Xusrav zulmi haddin oshmish erdi /Jafosi tund seli toshmish erdi...”. Ammo bularning birortasi Xusrav o‘limi uchun asosiy sabab bo‘la olmaydi. Bu o‘limning sababi juda chuqur. Ya’ni:

*O‘g‘ul qilmadi oning qasdi joni*

*Ki, davron istadi Farhod qoni... [Navoiy, 1991: 437]*

Aslida Xusrav joniga o‘g‘li qasd etmadni, balki muqarrar qismat mazlum Farhod xunini Sheruya qo‘li bilan oldi”. Padarkushlik naqadar mudhish jinoyat bo‘lsa, o‘g‘il qo‘lida qatl etilish bundan ming bora ulug‘roq badbaxtlikdir. Bunda o‘g‘ilga nisbatan otaning yutqizig‘i ko‘proq. Chunki o‘g‘il faqat otadan ajraladi. Ota esa ham o‘g‘lidan, ham jonidan judo bo‘ladi.

Shu bilan go‘yo Xusrav qissasi tugagandek. Bu g‘aroyib o‘limning sabab-oqibatlari ayon bo‘lgandek tuyuladi. Illo, Ollohning yozmishida bundanda mudhish jinoyatlarni qilib yashab yurganlar ham kuzatiladi. Chunki o‘lim ular uchun jazo emas, “alamli azob” hali oldinda, oxiratda. Ayni paytda o‘g‘il tomonidan qatl etilish qismatining o‘zi ham shu qadar alamliki, Navoiy buning Farhod xunidan ham og‘irroq yana bir sababini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, o‘quvchi doston syujetidan Xusravni makkor, zolim, tajovuzkorligini va bu kabi ko‘plab qusurlarning qurboni sifatida biladi. Ammo Navoiy Xusrav fojiasining tub ildizlarini asoslashda shularning o‘zi bilan cheklanmaydi. O‘z e’tiqodi, dunyoqarashi, badiiy konsepsiyasiga ko‘ra samoviy mezon bilan asoslaydi. “Tarixi muluki ajam”da o‘qiymiz: “*Yana biri hazrat Risolat sallallohu alayhi vasallam bi’satikim aning zamonida voqe’ bo‘ldikim, bu o‘tkon barcha tajammul va maknatni bu davlatning ming ulushidin*

*bir ulushi tutsa bo'lmaskim, ul hazrat anga din va islom da'vatig'a noma bitib kishi yibordi. Va ul bu muzaxrafot g'ururidin ul hazratning muborak nomasin yirtti va itoat qilmadi. Va o'z mulk va davlatig'i qasd qildi. Va hazrat mo'jizasidin mulkiga zavol dorib, Sheruyaki aning o'g'li erdi ma'mur bo'ldi. Mungakim Farhodning begunah qatlig'a atosini qasos qildi. Va bular barcha ijmol bila o'tti"* [Navoiy, 2000: 248]. Ko'rinaridiki, dostonda keltirilgan Farhodning xuni haqidagi xulosa ham bir vosita. Xusrav "alamli azob"ining asl sababi uning kibri, mol-davlat, saltanat-u martaba g'ururidan havolani, Hazrati Payg'ambarimiz alayhissalotu vasallamning Haq yo'liga da'vat etib yozgan maktublarini yirtib tashlagani, u muhtaram Zotga (s.a.v) itoat etmagani, uning uchun taqdir ochgan saodat eshigini o'z qo'li bilan yopganidir.

"Xamsa"dagi yana bir g'aroyib o'lim tasviri shoh Bahrom obrazi bilan bog'liq. Ye. E. Bertels Navoiy "Xamsa"sigi oid tadqiqotida shoh Bahromning fojiaviy o'limi haqida shunday xulosani ilgari suradi: "Qayd etish joizki, ushbu hodisa (ya'ni Bahromni yer yutishi) ning sababi muayyan ma'noda Bahrom qilmishlari oqibatidir. U qilmishi bois o'z o'limiga sababchi bo'ladi" [Bertels, 1965: 165]. Filologiya fanlari doktori S.Hasanov ham ayni masala to'g'risida Bertelsga yaqin xulosaga keladi. Navoiy Bahromini Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy Bahromlari bilan qiyoslar ekan, shunday yozadi: "Sab'ai sayyor" muallifi shoh qahramonliklari va adolatini madh etib o'tirmaganidek, unga xos salbiy jihatlar haqida ham bir narsa demaydi. Navoiy uning ishratparastligi va buning halokatli oqibatlariga ko'proq urg'u beradi" [Xasanov, 1988: 83]. Bilamizki, Shoh Bahrom "Xamsa"dagi oshiq-ma'shuqa-raqib tizimida muayyan maqomni egallaydi. Ammo u, birinchi navbatda, shoh. Saltanat va ulusga javobgar bir shaxs. Shoh sifatida baholanganda uning kimligi ishqining darajasiga qarab emas, saltanatni qanday boshqargani, raiyat ishiga munosabatiga qarab belgilanadi. O'rtaga ijtimoiy masala tushgandan keyin Bahrom shaxsiyati (ya'ni obrazi) zolim yoki odil degan ikki mezonga ko'ra o'lchanadi. Agar mezon shayini adolat tomonga bosib tursa, u odil shoh, aksincha bo'lsa, zolim shoh sifatida baholanadi. Navoiy "Sab'ai sayyor"idagi badiiy voqelik tahlili bizni Bahromga nisbatan zolim shoh xulosasini ilgari surishga olib keladi.

S.Hasanov badiiy-tarixiy asarlarning barchasida shoh Bahrom shaxsiyatidagi uch sifat takror-takror tilga olinganini ta'kidlaydi: ov ishqisi, ayol ishqisi va aysh-ishratga berilish.<sup>1</sup> Navoiy shoh Bahrom obrazida mana shu uch xususiyatni badiiy mantiq asosida dalillaydi va o'nlab boshqa obrazlar, katta-kichik syujetlar tizimida poetik tasvirini beradi. S.Hasanov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Sab’ai sayyor”ning biror o‘rnida muallif Bahromga nisbatan ochiq antipatiyasini namoyon etmaydi. Ammo badiiy vogelikning tizimli tasviri orqali retseptiv jarayonni Bahrom zolim shoh degan yagona umumlashmaga olib keladi. “Tarixi muluki ajam”da esa shoh Bahrom ismiga qo’shib aytildigan “go‘r” so‘zi uning ovga (yovvoyi eshak ovi) haddan tashqari ruju qo‘ygani bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi. “Sab’ai sayyor”dagi Bahrom-Diloromga doir qoliplovchi syujet liniyasini shu asosga quradi.

“Xamsa”dagi shoh Bahrom yo‘li ov bilan boshlanib, ov bilan yakun topadi. O‘rtadagi barcha voqealar shu ikki ov o‘rtasida bo‘lib o‘tadi. Bahrom hayot mazmunini ovda topib, ov shukuhi bilan yashab yurgan beg‘am bir shoh edi. Ov kunlarining birida dashtda Moniyni uchratib qoldi, Diloromning suratini ko‘rди va oshiqqa aylandi. Shohlik imkoniyatidan (ya’ni saltanat va ulus hisobidan) Diloromning mahrini to‘ladi, maqsadiga erishdi. Ov sabab Diloromdan ko‘ngli qoldi. Ov sabab undan voz kechdi. Ya’ni undagi bir necha yillik hijron iztiroblariga ham ov sabab bo‘ldi. Hijron iztiroblari yakun topib, saodatli visol zamoni boshlandi. Ammo bu uzoq davom etmadidi. Bahrom ehtiyojlarini na yor visoli, na saltanat surish shukuhi qondira oldi. U yana ovga ruju qo‘ydi. Ov sabab u yordan manguga judo bo‘ldi. Ov sabab o‘lim topdi. Ov sabab umi yer yutdi. Bahrom “yer osti” fuqarosiga aylandi.

---

<sup>1</sup> Ammo dastlab akademik I.Orbeli, Y.Bertelslar tomonidan ilgari surilib, keyin bu mavzuga aloqador barcha tarqiqotlarda takrorlangan (qarang: N.Mallayev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. -T., 1974, 163-bet; S.Hasanov, ko‘rsatilgan asar va h.k.) Bahromning genetik jihatdan qadim sharq mifologiyasidagi chaqmoq va jang ma’budi Varaxranga bog‘lanishi haqidagi fikrning Navoiy Bahromiga sira ham aloqasi yo‘q. Voqeana, Navoiy Bahromida ayni mifologik xususiyatlar sezilmaydiki, buning sababi muallifning barcha masalalarga so‘f islom e’tiqodi bilan yondashganida bo‘lsa kerak (- U.J.).

Balki tarixda yashab o'tgan Bahrom go'r hayoti, ba'zi bir elementlar mos tushsa ham, bu tarzda o'tmagandir. Ammo Navoiy o'z badiiy konsepsiyasini dalillash uchun tarixiy Bahrom tabiatidagi mana shu jihat xamirturish vazifasini o'tagan. Metaforik qatlamga o'tar ekan, zolim shoh obraziga xos barcha komponentlarni bir rakursda jamlovchi, ayni paytda boshqa komponentlar harakatini ta'minlovchi universal dvigatel bo'lib xizmat qilgan. Bular shoh Bahrom obrazi bilan bog'liq xususiy tomonlar. Endi bu obraz fojiasini ta'minlagan umumiy jihatlarga diqqat qaratamiz.

Bahromning may va ovga bo'lган ishqи ijtimoiy mavqeyiga putur yetkazdi, jismini yemirdi, ruhiyatini tushirdi, yordan ajratdi, eldan ajratdi, sultanatdan ajratdi, Ollohnинг zikridan, chin abror-odam yo'lidan chalg'itdi.

Bahrom fojiasining asosi ham shunda. Bahrom, birinchi navbatda, yolg'iz odam. Uning vazirlari, ko'plab mulozimlari, lashkarboshi va lashkarlari, munajjimlari, hakimlari, tabiblari bor. Ularning hammasi Bahrom buyrug'iga mahtal. Bahrom nima istasa muhayyo. Ammo uning do'sti yo'q. U qalbini hech kimga ocha olmaydi. U podshohligi bois xalq (yoki avom) ni o'ziga do'st tuta olmaydi. Mulozimlar esa uni faqat hukmdor sifatida biladilar. Uning uchun bir darddosh, do'st bo'lishga o'zlarini noloyiq hisoblaydilar. Yor ham uning uchun ko'ngil xushlovchi, lazzat vositasi, xolos. Ammo bu ham o'tkinchi lazzat. Bahrom esa tugamaydigan, me'daga tegmaydigan lazzat qidiradi, bu lazzatni hukmdorlik, fotihlik, jahongashtalik, bunyodkorlik, hatto muhabbatdan ham emas, aynan, ovdan va maydan topadi.

Psixologik hodisa sifatida ov nima o'zi? Ta'qib etish, bandi qilish, o'ldirish. Bu esa zulm degani. Bahromning til-zabonsiz, paykon oldida ojiz go'rlarga nisbatan zulmi zulmning qaysi darajasiga kiradi? Albatta, zulmning o'ta tuban darajasiga kiradi. Bunday zulm faqat tuban odam tomonidan sodir etilishi mumkin. Bahrom o'zidagi qonga bo'lган ehtiyojini ojiz jonivorlar vositasida qondiradi. Demak, uning o'zi ham ojiz va xudparast. Hayot haqiqati shundaki, xudnamolik (egoizm) oqibatida ro'y bergen o'lim (garchi, Bahrom bilan birga butun boshli lashkarni yer yutgan bo'lsa-da) chin fojia emas. Chunki u bizda ulug'ver tuyg'ular, achinish,

katarsis holatlarini tug‘dirmaydi. Bu hodisa ostida komik pafos sas beradi. Shuuringizda: “Arzimagan ov (go‘sht) shuncha odam hayotiga arziydimi?” degan zaharxanda bosh ko‘taradi. Bundan kelib chiqadiki, Bahrom fojiasi kundalik hayot voqeligidagi qorishiq holatda uchraydigani fojia va komediya uyg‘unligi – turmush tragikomizmidir.

Shoh Bahrom individual-psixologik mexanizmi nuqtai nazaridan “Xamsa”dagi boshqa doston bosh qahramonlarining ziddini aks ettiradi. Agar Farhod o‘zining ruhiy-ma’naviy ehtiyojlariga so‘ngsiz riyoza, mashaqqatli mehnat bilan davo topishga intilsa, Majnun dunyodan voz kechish orqali oshiqlar sultoniga yetdi. Iskandar esa Ollohga sidq va so‘zsiz itoat orqali nabiylik maqomini egalladi, odil shoh timsoliga aylandi. Bahrom bu imkoniyatlarning hammasini nafsi ammoraga boy berdi, Yaratganni unutdi. Oqibatda o‘z qilmishiga munosib jazo oldi. Uni yer yutdi.

“Xamsa”da talqin etilgan shoh Bahrom obrazni faoliyati ko‘p jihatdan islom shariati va Payg‘ambarimiz (s.a.v.) sunnatlariga zid. Avvalo, zolimligi, faqat jamiyatga emas, tabiatgada zulm qilishi uni “alamli azob” sohibiga aylantiradi. Ikkinchidan, u haddan ortiq “xudnamo”. O‘zidan o‘zgani yaxshi ko‘ra olmagan odam hech bir yomonlikdan qaytmaydi. Payg‘ambarimizdan: “O‘zingizga ravo ko‘rgan yaxshilikni birodaringizga ham ravo ko‘rmaguningizcha (komil) mo‘min bo‘la olmaysiz”, degan hadis bor. Uchinchidan, u o‘z hayotini nafsi ammoraga boy berdi. Umrini may va sababsiz o‘ldirish (ko‘ngil ochar ov) dek foydasiz va mudhish ishga sarfladiki, bularning hammasi Olloh Nizomiga xi洛kdir.

Xullas, Navoiy “Xamsa”sidagi bu uch g‘aroyib o‘limning tub ildizlari yagona nuqtaga borib tutashadi: Qur’oni karimdagagi hukmlar va sunnatga amal qilmaslik. Bu uch o‘lim sahnasi tasvirida real odam o‘limidan ko‘ra insoniyat botinida Qiyomat qadar yashaydigani kibr-u manmanlik, zulm, yolg‘on kabi uch qusurning o‘limiga asosiy urg‘u berilgan. Shu bois bu uch o‘limning Navoiyga xos ma’rifiy talqini va ruhiy-ma’naviy ta’siri “Xamsa” doirasida qolib ketmaydi. Retseptiv jarayonlar hosilasi o‘laroq umumbashariy hayot sarhadlarda qayta va qayta tirilaveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий . МАТ. 20 томлик. VII том. Хамса. Ҳайрат ул-аббор. – Т.: Фан, 1991.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. VIII том. Хамса. Фарҳод ва Ширин. – Т.: Фан, 1991.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. XVI том. – Т.: Фан, 2000.
4. Аристотел. Поэтика. – Т.:Faфур Ғулом нашриёти, 1980.
5. Бертельс Е.Е. Избранные труды. Навои и Джами. – М.: Издательство «Наука» Главная редакция восточной литературы, 1965.
6. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. – Т.: Зиё-нашр, 2016.
7. Маллаев Н. Алишер Навоий ва ҳалқ ижодиёти. – Т., 1974.
8. Хасанов С. Роман о Бахраме. Поэма «Сем скиталсев» Алишера Навои в сравнительно-филологическом освещение. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1988.
9. Қурбонов А. Алишер Навоий “Фарҳод ва Ширин” достони сарлавҳалари бадиияти. Филол.фантлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2017.

## MAJOZDAN MAQSAD – HAQIQAT

### THE PURPOSE OF THE ALLEGORY IS THE TRUTH

Sultonmurod OLIM

“Naqshbandiya” jurnali bosh muharriri  
(O‘zbekiston)

#### *Annotatsiya*

*Maqolada Alisher Navoiy (Foni)ning, asosan, “Mahbub ul-qulub” va “Lison ut-tayr”, qisman, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlari ishq va uning turlari tasviri jihatidan o‘zaro qiyosiy tarzda o‘rganiladi, haqiqiy va majoziy ishq talqinida sho‘ro davri olimlari qarashlarining xato jihatlari ko‘rsatiladi, ishq talqinlari asosida buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri asarlari mohiyatini ochishda bir qator yangi nuqtayi nazarlar ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** ishq, Xudo, inson, adabiyot, Navoiy, baqo, fano.

#### *Annotation*

*This article comparatively studies the works of Alisher Navoi (Fani) devoted to the topic of love and its varieties such as “Loving Hearts”, “The Language of the Birds” and “Confusion of the Righteous”, “Farhad and Shirin”, “Laili and Majnun”, “Seven Planets”, “The Wall of Iskandar”. Non-scientific interpretations of Soviet scholars of divine and secular love are criticized, some new scientific conclusions based on the study of love in the work of the great Uzbek poet and thinker are presented.*

**Key words:** Love, God, human, literature, Navoi, union with eternity, renunciation.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”i – oxirigacha mag‘zi to‘liq chaqilmagan o‘ta muhim va noyob adabiy-badiiy yodgorliklardan biri hisoblanadi. Unda, jumladan, shoirlar va oshiqlar juda nozik darajada, navoiyona aniqlik bilan tasnif qilib berilgan [Ushbu satrlar muallifining

quyidagi maqolasida bu tasnif qisman tahlil qilingan, *qarang*: Олим, 2010: 38 – 47].

Asardagi “*Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati*” degan avvalgi qismning “*Nazm gulistonining xushnag ‘ma qushlari zikrida*” deb nomlangan 16-faslida shoirlar tasnif qilinadi. Qiziqliki, bu tasnifda ular ijodiga aynan tasavvuf nuqtayi nazaridan turib yondashiladi. Dadil turib bunday deyishimizga asos bo‘ladigan sabab shuki, tilga olingan 1 arab va 20 fors-tojik shoiri orasida malik ul-kalom Abu Abdullo Rudakiy bilan ustodi suxan Abulqosim Firdavsiy yo‘q. Chunki ularning she’riyatida tasavvuf unsurlari mavjud emas-da.

Shunday qilib, shoirlar guruhlari quyidagilardan iborat:

1. “*Ishlari maoniy xazoyinidin ma’rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm termak* [Навоий, 1998: 24]: Amir ul-mo‘minin Hazrat Ali; Shayx Farididdin Attor; Mavlono Jaloliddin Rumiy [Навоий, 1998: 25].

Muallif bularni “*haqiqat tariqining suxanvari*” [Навоий, 1998: 25] deb ataydi va avliyoyi ogoh, mashoyix va ahlulloh orasida bularga tatabbu’ (o‘xshatma, javobiya, nazira, payrav) qilganlar borligini ham qayd etadi: “*Yana ham avliyoyi ogoh va mashoyix va ahlulloh borkim, bularg‘a tatabbu’ qilibturlar va bular kalomi adosin va haqoyiqi ma’nosin mutahsan bilibdurlar. Bu xayldur haqiqat tariqining suxanvari, balki kimiyogari va kibriti ahmari*” [Навоий, 1998: 25]. Demak, bu – adabiyotdagi bir toifa yo‘li.

2. “*Yana bir jamoatdurlarkim, haqiqat asrorig‘a majoz tariqin mahsul qilibdurlar va kalomlarin* (Nashrda “*kalomlari*” bo‘lib ketgan, biz tuzatib ko‘chirdik – S. O.) *bu uslubda marbut etibdurlar*” [Навоий, 1998: 25]: Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Zahiriddin Sanoiy, Shayx Avhadiddin va Shamsiddin Muhammad Hofiz” [Навоий, 1998: 25].

Mazkur parchada aniqlik kiritilishi zarur bo‘lgan bir nozik nuqta bor. Bu – “*mahsul qilmoq*” qo‘shma fe’li nimani anglatishini bilib olishdan iborat. “*Mahsul*” so‘zi “*natija*”, “*hosil*” degan ma’noni ifodalaydi. Demak, tilga olingan ikkinchi guruh shoirlari haqiqat asrорini, ya’ni Xudoning sirlarini majoz, ya’ni uning suvrati, nusxasi, ramzini tasvirlash, aniqrog‘i, vosita qilish yo‘li bilan aks ettirgan. Shunday tushunish kerakki, haqiqat va majoz aralash, ya’ni sintez

tarzda namoyon bo‘lgan. Demak, ikkinchi guruhning xususiyati birinchi guruh xususiyatidan ana shu nozik jihatni bilan farq qiladi.

3. “*Yana jam’e bordurlarki, majoz tariqi adosi alar nazmig‘a g‘olib va alar bu shevaga ko‘prak rog‘ibdurlar. Andoqkim, Kamol Isfahoniy va Xoqoniy Shervoniy va Xojuyi Kirmoniy va Mavlono Jaloliddin va Xoja Kamol va Anvariyy va Zahir va Abdulvose’ va Asir va Salmon Sovajiy va Nosir Buxoriy va Kotibiy Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy*” [Навоий, 1998: 25].

Anglashilib turibdiki, bu 3-guruhda nomlari sanab o‘tilgan shoirlar asarlarida majoz – birlamchi. O‘rni kelgani uchun shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, bu guruhda tilga olingan Mavlono Jaloliddin aslo Mavlono Jaloliddin Rumiy emas. Bu Mavlono Jaloliddin – 1336-yili vafot etgan Ibni Ja’far Farohoniy. Devon tuzgan, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”iga javob tarzida doston yozgan [Навоий, 1998: 279].

4. “*Yana haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi ikalasi tariqida vofiy va shomil, nazm ahlining muqtado va imomi hazrati shayx ul-islom Mavlono nur ul-millati va-ad-din Abdurahmon al-Jomiy(navvarallohu marqadahu va quddisa sirrahu)durkim, avvalg‘i tabaqa ravishi va kalomida ham sharifmaqol va so‘ngg‘i tabaqaning ham adosi latoyifida sohibkamoldurkim, olamda zavqu hol ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar*” [Навоий, 1998: 25 – 26]. Demak, Abdurahmon Jomiy ijodining o‘zingga bir guruhni tashkil etib turibdi. Uning asarlarida ham haqiqat, ham majoz haddi a’losida tarannum etilgan.

Bu yerda jiddiy hal qilib olishimiz kerak bo‘lgan bir masala bor. Navoiy ustozini va piri Jomiyini ham “*avvalg‘i tabaqa*” va ham “*so‘ngg‘i tabaqa*” yo‘lida kamolot darajasida asarlar yozganini ta‘kidlaydi. “*Avvalg‘i*” deganda haqiqat kuychilar bo‘lgan shoirlar, ya’ni bu tasnidagi birinchi guruh, “*so‘ngg‘i*” deganda majoz kuychilar bo‘lgan shoirlar, ya’ni tasnidagi uchinchi guruhni ko‘zda tutadi. Bu – tushunarli. Demak, Jomiy ham haqiqat tasviri yo‘lida, ham majoz tasviri yo‘lida kamolot kasb etgan.

Gap shundaki, Navoiy ijodi ham – mantiqan va mohiyatan ana shu piri va ustozni doxil bo‘lgan guruhga mansub. Birinchidan, bu tasnifotda turkiy adabiyot qamrab olinmagan. Ikkinchidan, muallif

kamtarlik qilib, o‘zini ana shu to‘rtinchi guruhda qayd etib ketishni lozim topmagan. Biroq, *maqsadi kelajak avlod kitobxonlariga shunday aniqlik kalitini topshirib ketish ham bo‘lgan edi*, deyishga to‘la asosimiz bor.

Garchi turkiy adabiyot qamrab olinmagan bo‘lsa ham, bu tasnifni turkiy shoirlarni guruhlashtrishda ham bermalol qo‘llashimiz mumkin. Navoiy zamonasida aynan shunday yoki shunga yaqin tasnifdan foydalanilganini tasdiqlash uchun qo‘limizda etarli dalil ham mavjud. Bu – Navoiyning “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida keltirilgan hazilga yo‘g‘rilgan bir suhbat.

Tasvirlanishicha, Pahlavon Muhammad shogirdi Alisherdan turkigo‘y shoirlardan qaysi birini ko‘proq tan olishini so‘raydi. Shoир avvaliga hammasini tan olishini aytadi. Ustoz ular hammasi birdek emasligini, ijodlari orasida tafovut borligini, shuning uchun to‘g‘risini aytishini so‘raydi. Navoiy Lutfiyni tilga oladi. Shunda nima uchun Nasimiyni aytmagani sababini surishtiradi. Navoiy ikki sabab ko‘rsatadi: birinchisi – esiga kelmagani, ikkinchisi esa – Nasimiyning haqiqat tariqida she’rlar bitgani. Chunki Pahlavon Muhammad majoz shoirlarini ko‘zda tutgan edi: “*Xotirg‘a kelmadi va bar taqdir kelmoq, Sayyid Nasimiyning nazmi o‘zga rang tushubdur; zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur; balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g‘arazing majoz tariqida aytur el erdi*” [Навоий, 1999: 116].

Pahlavon Muhammad Alisherga kinoyatomuz e’tiroz qiladiki: “*Sayyid Nasimiyning nazmi zohir yuzidin majoz tariqig‘a shomildur va ma‘ni yuzidin – haqiqat tariqig‘a*” [Навоий, 1999: 116].

Gapining isboti sifatida esa bugun ertalab Navoiy bitgan, hali hech kimga ko‘rsatmagan g‘azali maqta’sini “Navoiy” taxallusini “Nasimiy” tarzida o‘zgartirib aytadi:

*Gar Nasimiy siymbalar vaslin istab ko‘rsa ranj,  
Yo‘q ajab, nevchunki, xom etgan kishi ranjur erur.*

Chunki ustozи shoirga bildirmay qoralamani cho‘ntagidan olib, yodlagan va yana joyiga solib qo‘yan, hatto, o‘sha oqshom bir necha shogirdiga ham o‘rgatib ulgurgan edi. Navoiy bu baytda “Navoiy” so‘zidan ko‘ra “Nasimiy” kalimasi munosibroq ekanini tan olib, yozadi ham [Қаранг: Навоий, 1999: 116]. Sababi – “Nasimiy”

so‘zi bilan “*siymbarlar*” so‘zi o‘rtasida nozik ohangdoshlik bor.

Bu yerda bizga eng kerakli nuqta shundan iboratki, Pahlavon Muhammad: “...*Zohir yuzidin majoz tariqig‘a shomildur va ma‘ni yuzidin – haqiqat tariqig‘a...*” – deganida Nasimiy ijodigagina emas, amalda aynan Navoiy ijodiga ham baho bergen edi. Hazilning mohiyati shuni taqozo etar edi.

5. “*Yana adno tabaqasi jamoatedurlarkim, nazm bila faqat* (Nashrda “*faqat bila*” tarzida so‘zlar o‘rnii almashtirib yozilgan, biz, mantiq taqozosiga ko‘ra, tuzatib ko‘chirdik – S.O.) *ko‘ngullar xushnud va xursand va roziyu bahramanddurlar va yuz mashaqqat bila bir baytkim, bog‘lashturg‘aylar, da‘vo ovozasin etti falakdin oshurg‘aylar. So‘zlarida ne haqoyiq va maorif no‘shidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o‘tidin harorat. Ne shoirona tarkiblari ahsan va ne oshiqona so‘zu dardlari shu‘laafgan. Ba‘zidin agar gohi birar yaxshi bayt voqe‘ bo‘lur, ammo o‘n oncha yamon da‘vo zohir bo‘lurki, u ham zoe‘ bo‘lur. Agar biri bir nozuk ma‘nida pisandida pech qilur, ammo o‘n oncha napisand da‘vo bila ani ham hech qilur. Go‘yo o‘zlariga aqidada muvofiqdurlar va so‘zlariga e’tiqodda muttafiq. Turfaroq bukim, har birining so‘zida ma‘no ozroq va o‘zida da‘vo ko‘proq (nauzu billohi min shururi anfusino va min sayyoti a‘molino)*” [Навоий, 1999: 26].

Sezilib turibdiki, Navoiy oldingi to‘rt guruhga mehr, ya’ni simpatiya bilan qaraydi, ammo beshinchchi guruhga nisbatan kuchli nafrati, ya’ni antipatiyasini aslo yashirib o‘tirmaydi. Hatto, bu guruhni “*adno (past) tabaqa*” deb hisoblaydi. Nima uchun? Demak, garchi buyuk mutafakkir tasnidha shoirlarni besh guruhga bo‘lgan bo‘lsa ham, mantiqan va mohiyatan ular ikki katta qismga ajraladi. Birinchi qismga muallif simpatiya bilan qaragan dastlabki to‘rt guruh, ikkinchisiga esa muallif antipatiya bilan qaragan beshinchchi guruh kiradi. Bugungi tushunchalar bilan ifodalashga to‘g‘ri kelsa, shartli ravishda aytish mumkinki, birinchi qismda ilohiy ishqni, ikkinchi qismda esa dunyoviy ishqni kuylagan shoirlar kiritilgan.

Afsuski, Navoiy dastlabki to‘rt guruhga kimlar kirishini aniq qilib aytib o‘tgani holda beshinchchi guruhga mansub biron-bir shoirning nomini tilga olmaydi. Ular nomini qayd etib o‘tganida edi shu shoirlar asarlarini o‘rganish orqali bu tasnidot sirini yanada

aniqroq tarzda ochish imkoni paydo bo‘lar edi. Mantiqan o‘ylash mumkinki, Navoiy beshinchi guruhga kiradigan zamondosh shoirlar toifasini ko‘zda tutgan. Aks holda, bu qadar achchiq-quruq gaplarni yozmagan bo‘lar edi. Shoirlar haqidagi ana shu tasnifni “Mahbub ul-qulub”dagi “*Hamida af’ol va zamima xisol xosiyatida*” deb nomlangan ikkinchi qismning “*Ishq zikrida*” sarlavhasi ostida 10-bobi bo‘lib kelgan parchadagi tasnifotni ko‘rib o‘taylik.

Ishqni ta’riflab kelib, buyuk mutafakkir uning o‘jarligi oldida podshoh ham, gado ham, jabri qoshida fosiq (axloqsiz) ham, porso (xudojo‘y) ham tengligini, oshiq ko‘ngliga ma’shuqqa etish niyatini solguvchi ham, bir jilvasi bilan uning hayoti naqdini oluvchi ham – shu ekanini aytadi. Keyin biz uchun juda qiziq joyi keladi – muallif to‘rt oshiqni tilga oladi: “*Ishq ko ‘histoni bedodining noshodlaridin biri Farhoddur va sahroyi junun zabunlaridin biri Majnundur va shabiston savdosi devonalaridin biri – parvona va guliston havosi noshikeblaridin biri – andalibi devona va otashgoh harorati garmravlaridin biri Xusravi nomiy va maykada dardmandligi nomiyalaridin biri Jomiy (navvarallohu marqadahu nuran vaffaqanallohu)*” [Навоий, 1999: 66]. Ana shu to‘rt oshiqning hammasi – adabiyot bilan bog‘liq. Ikki nafari, ya’ni Farhod va Majnun – inson oshiq timsoli, ikki nafari, ya’ni parvona (pashsha, u shamga oshiq) va andalib (bulbul, u gulga oshiq) – ramziy oshiq, ikki nafari, ya’ni Xusrav (Dehlaviy) va Jomiy – ishqni haddi a’losida kuylagan shoirlar. Shu tariqa asar muallifi ishqni oldindan so‘z san’atiga vobasta qilib qo‘ydi. Chunki bu unga keyin yana kerak bo‘ladi.

“Mahbub ul-qulub”dagi bu parchalarda ishq va ahli ishq, ya’ni oshiq masalasi tahlili qisman amalga oshirildi. Endi ma’shuqni tushuntirishga navbat keladi. Xo‘s, ma’shuq – kim? Mana, uning talqini: “*Bu ta’rif qilg’on ishq va bu bayon etgan ahli ishq ma’shuq vujudi birla qoimurlar va bu ado topqon holotg‘a mansubluklari doim. Va ul ma’shuq husnedin* (Nashrda “husnidin” tarzida xato ketgan, uni “husnedin” deb o‘qish kerak, shunda “bir husndan” degan ma’no anglashiladi, biz tuzatib ko‘chirdik – S. O.). *iboratdurkim, “Innallohu jamilun yuhibb ul-jamol” (“Haqiqatda, Alloh go ‘zaldur va go ‘zallikni sevadi”* [Навоий, 1999: 288]) andin

*xabar berurkim, ishq bu e'tiboru jaloli bila va bu ixtiyoru istiqlolli bila husn saropardayi kibriyo va borgohi istig'nosi tegrasida bir bandayi chovush va bir kamina halqa ba go'shdurkim, har qachon husn sultonini mahbublug' niqoblaridin va masturlug' hijoblaridin chiqmoq asbobin tuzsa va zuhur tajallysi bila jilva gar ko'rguzsa, ul nur oshiqi mahjur ko'zi ravzani shishalari ravzan ko'zi shishalaridek hayron qilib, ishqqi bebok ayyori ul ravzan yo'lidin o'zin ko'ngul ma'murasig'a tashlar va ul ma'murada xarobliq og'oz qilib, xirad va hush xaylig'a qo'zg'aloln sola tashlar. Ul ma'lum emaskim, husn sultonining bu zolim chovushi bedodidin ul mulk ahlining mazlumlari netgay va hollari aning tashaddudi suubatidin ne erga etgay. Bovujudi bu hol ul kishvarning asirlari va ul mulkning qathu toroj ko'rghan ahli faza' va nafirulari ul jilva mayidin masti bexud va ul jamol tamoshosidin volavu hayron bo'lib, aning havosig'a mash'uf va aning tamoshosig'a mag'lub bo'lurlar" [Навоий, 1999: 66 – 67].*

Keltirilgan parchada ikki bor "husn sultonii" birikmasi ishlatiladi. Bu – "Tangri taolo" degani. Demak, haqiqiy ma'shuq – Xudoning o'zi. Keyingi parchada muallif uni "ul sulton" [Навоий, 1999: 67] tarzida yana tilga oladi. Eng muhimmi, shoirlar tasnifida buyuk mutafakkir aynan qalam ahlini ishqni tasvirlash nuqtayi nazaridan guruhlarga ajratgan edi. Bu erda esa endi ishqning o'zini turlarga ajratadi.

Lekin endi boshqa bir o'rinali savol o'rtaga tushadi: xo'sh, ishq ikkiga – haqiqiy va majoziyga bo'linsa, nega Navoiy "Mahbub ul-qulub"da oshiqlarni tasnif qilar ekan, bu tayyor tasnifotdan, umuman, foydalanmadidi, ya'ni bu masalada tamoman boshqa istilohlar qo'lladi? Bundan tashqari, ana shu tasnifotda dunyoviy ishqning o'rni qaerda? Bu savollarga javob bermay turib, "Lison ut-tayr" dostonida yashirin tilsimning kalitini topib bo'lmaydi. Ya'ni: "Lison ut-tayr"da majoziy ishq kuylanganmi yoki haqiqiy ishq tarannum etilganmi?" – degan masala mohiyati ochilmaydi.

Mazkur savolga javob berish uchun avval haqiqiy ishq – nima-yu, majoziy ishq – nimaligini aniqlab olishimiz kerak. Haqiqiy ishq ham, majoziy ishq ham – mohiyatan bitta tushunchaning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ikkalasi ham – ilohiy ishq. Shuning uchun

“haqiqiy ishq” bilan “ilohiy ishq”, bizningcha, teng tushunchalar emas. Boshqacha aytganda, “haqiqiy ishq” va “majoziy ishq” adabiyotdagi hodisani anglatadi. Ilohiy ishq – Xudoga ishq. Uni adabiyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlash usuliga “haqiqiy ishq”, biror allegorik, ya’ni majoziy yo‘l bilan tasvirlash esa “majoziy ishq” deyiladi. Demak, ilohiy ishq tushunchasi haqiqiy ishqni ham, majoziy ishqni ham qamrab oladi.

Bu mulohazalarimizdan shunday xulosa kelib chiqadiki, demak, “majoziy ishq” degani “dunyoviy ishq” degani emas ekan. Chunki, axir, dunyoviy ishq zamirida Xudoga ishqqa ishora ko‘zda tutilmaydi-da.

Majoz va haqiqatga munosabat sho‘ro davrining oxirlariga kelib o‘zgara bordi. Shu ma’noda navoiyshunos Y.Is’hoqovning: “*Navoiyning ishq masalasidagi konsepsiyasining asosiy mohiyati shundan iboratki, majoziy ishq haqiqiy ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Balki majoziy ishq ishq haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma’naviy komil inson uchun majozning o‘zi ayni haqiqatdir*” [Исхоков, 1983: 25], – degan nuqtayi nazarni ilgari surishi sho‘ro davridayoq oldindi tamoman xato qarashlarga bir qadar zarba bergen edi.

Haqiqiy va majoziy ishqqa to‘g‘ri baho berish sari intilishlar jarayoni mustaqillik yillarida izchil davom etdi [Qarang: Ҳаккулов, 1989; Ҳаккулов, 2007; Олим, 1992; Олим, 1993; Вохидов, 1994; Мухиддинов, 1995; Мухиддинов, 2005; Мухиддинов, 2007; Комилов, 2005; Комилов, 2009; Комилов, 2012]. Jumladan, S. Rafiddinov Atoiy ijodini o‘rganar ekan, shunday deb yozadi: “*Atoiy g‘azallarida majoziy ishq haqiqiy ishq yo‘lidagi bir vosita, ko‘prikdir. Chunki Atoiy “majoz tariqi bila haqiqat asrori”ni kuyladi. U “ishq”ni “saodati abadiy” deb biladi va benazir, benuqson Yor jamolini “jumla olam partavi”da mushohada etadi. Atoiy g‘azallaridagi so‘fiyona haqiqatlarda o‘zlikni anglash hamda Yaratuvchini tanishga da‘vat bor*” [Рафиддинов, 1993: 10].

Xullas, “Mantiq ut-tayr”da ham, “Lison ut-tayr”da ham mohiyatan haqiqiy ishq kuylangan. Biroq bu ikki dostonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri Xudo timsoli yo‘q. Simurg‘ ramzan Xudoni anglatib kelgan. Demak, biz bu ikki dostonni har qancha ishqni haqiqiy ta’rifidagi asar sifatida

baholasak ham, ularda majozning ham alohida o‘rni bor. Shuning uchun Navoiyning o‘zi “Muhokamat ul-lug‘atayn”da: “*Chun “Lison ut-tayr” ilhomni bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrорin majoz suratida ko ‘rguzupmen”* [Навоий, 2000: 26].

Bu “Lison ut-tayr”da ishqи haqiqiyни qalamga olish asosiy maqsad bo‘lganini isbotlaydigan muhim asos hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Бухоро, 1994.
2. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 25.
3. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009.
5. Комилов Н. Маънолар оламига сафар (Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар). – Тошкент: Tamaddun, 2012.
6. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. Филол. ф. д. ... дисс. – Тошкент, 1995.
7. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005.
8. Муҳиддинов М. Нури қалблар гулшани. – Тошкент: Фан, 2007.
9. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 14. – Тошкент: Фан, 1998.
10. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 15. – Тошкент: Фан, 1999.
11. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 16. – Тошкент: Фан, 2000.
12. Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Тошкент: Фан, 1992.
13. Олим С. Мажоздан мақсад – хақиқат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 10 сентябрь.
14. Рафиддинов С. Атоийнинг поэтик маҳорати. – Филол. ф. н. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.
15. Ҳақкулов И. Занжирбанд шер қошида (Навоий сабоқлари). – Тошкент: Юлдузча, 1989.
16. Ҳақкулов И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007.

# **IRFONIY MA'NONING BADIY TALQINIDA TABIAT TASVIRINING O'RNI**

## **THE ROLE OF LANDSCAPE IN THE ARTISTIC INTERPRETATION OF SUFI MEANING**

**Karomat MULLAXO'JAYEVA**

*ToshDO'TAU*

*(O'zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada Alisher Navoiyning manzara ifodasidan keng foydalanilgan ishqiy mavzudagi g'azallari o'rganilgan. Muallif ushbu turkum g'azallarni ma'no, timsol va badiiy san'atlar uyg'unligida tadqiq etib, ulardag'i tasavvufiy mazmunni aniqlagan, irfoniy ma'noning tabiat va u bilan bog'liq unsurlar yordamida badiiy talqin etilishiga e'tibor qaratgan.*

**Kalit so'zlar:** *g'azal, ma'no, timsol, tushuncha, ramz, badiiy san'at va tasvir vositalari, manzara ifodasi/peyzaj, badiiy talqin.*

### *Annotatsion*

*In the article, the gazelles of Alisher Navoi on a romantic theme, widely used in landscape expression, were studied. The author researched this category of ghazals in the harmony of meaning, symbolism and poetic figures, identified the sufic content in them, focused on the artistic interpretation of the irfanian meaning with the help of nature and related elements.*

**Key words:** *gazelle, meaning, image, concept, symbol, poetic figures and means of representation, landscape, artistic interpretation.*

Alisher Navoiyning oshiqona g'azallari tarkibida zohiran ma'shuqa – dunyoviy mazmundagi yor, botinda esa Haqning go'zalligi tavsif etilgan g'azallari talaygina. Olamni Haq go'zalligining namoyishi sifatida talqin etgan bu g'azallarida shoir an'anaviy va ayni paytda o'ziga xos manzaralar ifodasi bilan bog'liq timsol va tushunchalarga keng o'rinn beradi. Bu turkum g'azallar "mazmuni, eng avvalo, inson

tavhidiga intilgan Mutlaqiyat ruhoniy kuchining tajalliyisi (jilvasi) bo‘lib, buning evaziga insonning zehni, fahm-idroki ochiladi. Shakl esa Mutlaq borliqning moddiy olam predmetlari ko‘rinishidagi tajallilaridir” (1, 80), – deb yozadi tasavvufni estetik nuqtai nazardan o‘rgangan olim A.Qurbanmamedov.

Bir qarashda ma’shuqa tavsifiga bag‘ishlangandek ko‘ringan mazkur g‘azalda (3, 565) yor – Haq, yaratuvchi ekanligini fahmlash u qadar qiyin emas.

*Emas bog‘ ichra sarig‘ lola zanbaq bilki, har sori*

*Yangi dog‘ o‘rtab ul gul ishqidan sorg‘ordi ruxsori.*

Shoir baytda ***tafri’*** san’atini qo‘llaydi, ya’ni mavjud narsaning asl tabiatini inkor etib, uni o‘z ijodiy niyatiga muvofiq tasavvur eta oladi. G‘azalda ushbu san’atni izchil qo‘llagan Navoiy badiiy maqsadi – kasrat va vahdat olamlari (hodisa va mohiyat) munosabatlari ifodasi uchun juda to‘g‘ri va chiroyli yo‘l tanlagan. Baytda ta’kidlanishicha, chamanda ochilib turgan gul lola emas, balki u yor ishqidan azob chekib, sarig‘ rangga kirgan.

G‘azalning mazmunini chuqurroq anglash uchun badiiy san’at va tasvir vositalarini nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Zero, “... badiiy san’atlarni bilish she’rda mavjud bo‘lgan murakkab obrazlarni anglashga yordam beradi. Aruz, qofiya va she’riy san’atlar bobidagi an’anaviy ta’limotlarni o‘zlashtirib olgan tadqiqotchi g‘azalga uni yozgan shoirning ko‘zi bilan qarashga tuyassar bo‘lgandek bo‘ladi, chunki o‘sha shoir o‘z she’rini she’riyatning majburiy qonunlariga rioya qilib yozgandir” (8,232). Jumladan, mazkur g‘azalda ham ***tafri’ san’atining*** ustunligini sezish mumkin. Manzara ifodasiga uyg‘un g‘azallarda ko‘proq ana shu san’atga murojaat etilganligini kuzatamiz.

Keyingi bayt:

*Bu humrat birla ermas otashin gul oq gul erdikim,*

*Yuzung bargidin o‘t tushti angakim, bo‘ldi gulnoriy*

Gulning qizil rangini yor yuzining olovi ta’siri bilan bog‘lagan shoir fikrini «yuz»ning so‘fiyona ma’nosi bilan bog‘lab, oydinlashtirish mumkin. *Yuz* – ilohiyot manbaini ifodalashiga e’tibor bersak, *gulning* qanday rangda bo‘lishi ham faqat yor – Ilohga bog‘liq ekanligi ifodalananayotganligini tushunamiz.

Keyingi baytda shoir endi tafri' san'atini emas, balki ***tashbejni*** qo'llab daraxt barglariga nazar tashlaydi:

*Shajar yafrog'lari o'qdek qadingning hajrida bordur  
Boshoglarkim, chaman ashki namidin chiqtizangori.*

Bayt uchun "ochqich" bo'loladigan *qad* tushunchasi tasavvuf lug'atlarida vahdat olamiga yuzlanish barqarorligi deb sharhlangan. Baytdagi *chaman ashki* esa yomg'irdan keyingi chamanning namlikni tasavvur etishga imkon beradi. Bu namlik yomg'ir bilan bog'liq bo'lgani uchun *yomg'ir* mafhumining orifona mazmuniga e'tiborni qaratsak. U shunday izohlanadi: "Haq taoloning g'ayb olamidan imkon olamiga tushadigan qamrovli rahmati va fayzi bo'lib, mumkinot borliqlar qobiliyatları darajasida undan nasibalanadilar" (6,179). Baytning botiniy mazmuni: Vahdat olamiga yuzlanib barqarorlikka erishgan bu daraxt barglari hajringda sening rahmatingdan va fayzingdan o'z imkonli darajasida nasiba olgan boshoglarga o'xshaydi. Shoir yomg'irdan keyin zangor rangga kirgan bug'doyzorni rassom darajasida tasvirga ko'chirar ekan, boshogq timsolini hosil sifatida, aniqrog'i, mumkinot olamining g'ayb olamidan bahramandligi hosili sifatida e'tirof etadi.

"Tasavvufning estetik nazariyasida tabiat go'zalligini anglash tabiat hodisalarini badiiy-poetik jihatdan anglab yetishga olib keldi va hayotga chorladidi, so'fiylik adabiyotida bebaho namunalar hisoblangan badiiy durdonalarni vujudga keltirdi"(1, 25).

Haqiqiy (ilohiy) go'zallikdan hech narsa hech qachon ustun bo'lmamas-ligini shoir yana boshqa qiyoslar misolida shunday talqin qiladi:

*Qading ollida bo'lg'on jilvagar oq savsan anglakim,  
Ko'k etti barcha a'zosin sabo kojining ozori.*

Tabiat fonida Haqning sifatlarini ifodalar ekan, shoir keyingi baytda o'z fikrlarini yanada ochiqroq ifodalaydi:

*Dema, kunduz, qorong'u tun edi, pardadin chiqting,  
Jahonni qildi kunduzdek yuzung mehrining anvori.*

Baytda dunyoning yaralishi masalasiga murojaat qilgan shoir so'fiylik nazariyasidagi nur – yorug'likning olam asosida tutgan o'rniiga e'tiborni tortadi. Ko'pgina so'fiylar dunyoning yaralishi nur – yorug'likning yaralishi bilan boshlanganligiga alohida ahamiyat

berganlar. Ayni baytda hazrat Navoiy ham ana shu fikrni diqqat markazida tutadi. **Tafri'** san'ati yordamida kunduzning boshlanishini ilohiy mohiyat nurlari yoyilishi bilan bog'lagan shoir baytini o'qiyotgan kitobxon *yuz*, *avor* kabi tushunchalarning so'fiyona mohiyatini bilishga ehtiyoj sezadi.

Baytdan-baytga o'tib yorning chindan ham Haq timsoli ekanligi oydinlashadi:

*Desamkim, haqdurur mavjudu ashyo har nedur nobud,  
Hubobu mayji bahr uzra erur aning namudori.*

*Bahr* – dengiz timsolida Haqning cheksiz sifat va zot maqomi ekanligi, butun ashyo va borliqlar bu so'ngsiz ummonning to'lqinlari (mavjlari)dan iboratligi nazarda tutilgan.

Demak, dunyoda foniylikka ro'baro' keladigan barcha mavjud narsalar shu dengiz mavjlarining namoyishidir. Olloh va olam (vahdat va kasrat) munosabatlarini juda chiroyli ifodalagan ushbu bayt g'azalning ma'no-mazmunini anglashda, muhim ochqich hamdir.

Oshiqlik savdolari, ishq mashaqqatlari, ular zamiriga singdirilgan irfoniy mushohadalar *gulu bulbul, parvona va sham'* timsollari, ularning o'zaro munosabati kabi tushuncha-qarashlar ifodasi bilan birga kayhoniy andozalarga ham ko'chirilgan. Jumladan, shoir bir g'azalida o'z ahvoliga shunday qiyosni qo'llaydi:

*Oh – gardun, ashk – anjum, nola – ra'du po'ya – barq,  
Xilqatimdin bir ajoyib olam etting oqibat* (6, 56).

Ohlarini gardunga, ko'z yoshlarini yulduzlarga, nolasini momaqaldoiroqqa va, nihoyat, yashinga o'z qadamlarini qiyoslar ekan, oshiq-shoir o'zining azaldan shunday yaratilganiga shukronalar aytgandek bo'ladi.

*Hijron tuni, ey charx, musha'bid gar emassen,  
Ne nav' quyosh tosini xirqangda yoshurdung* (3, 298).

Boshqa baytda esa ma'shuqani quyoshga, charxni esa qora xirqa kiygan (tunning rangidan foydalananligan) mo'sha'bid – ko'zboylog'ichga o'xshatadi. Kam qo'llaniladigan qiyos. Umuman olganda, hijron iztiroollarini kechirayotgan oshiqning ruhiy ahvolini ifodalashda shoir *tun* mafhumining poetik imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. Tun majozan moddiy dunyoni, uning quvonchu tashvishlarini, yor va oshiq o'rtasidagi to'siq ma'nolarini anglatadi.

*Charx* – falakka murojaat qilar ekan (*insho san’atining amr va nahiyl usuli*), dunyoning azaldan shunday yaratilganiga e’tiborni tortadi. *Tun* timsolida ifoda etilayotgan dunyo *Haq* (U quyosh timsolida berilyapti) va *oshiq* o’rtasidagi eng katta to’siq – parda. Bu haqiqatni tun timsolida anglatar ekan, shoir uning o’z ma’nosini bilan birga so‘fiyona ma’nosini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi.

Baytdagi *charx*, *tun*, *quyosh* singari kayhoniy timsol va tushunchalar ifodalayotgan mazmunning ko‘lamni keng. Dard dunyoviylikdan baland. Chunki bu o‘rinda hijronning, iztirobning asosi bo‘lgan sog‘inch – ilohiy sog‘inch. Navoiy g‘azallarining ichki quvvati, o‘zak-asosi va qudrati ana shu ilohiy sog‘inchda.

Shoir bir g‘azalida shunday deydi:

*Tuganmas mehri yo‘q hajrim tuni sharhin savod aylab,  
Varaq aflok o‘lub, ul tun savodin-o‘q midod aylab* (3, 87).

Baytda ifodalanayotgan hijron, sog‘inch tuyg‘usini, adoqsiz muhabbat iztiroblarini faqat insonga nisbatan deb bilish to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Mana shu va bunga o‘xshagan ko‘plab baytlarga asos bo‘lgan mavzu va hatto timsolu qiyoslar Qur’oni Karim oyatlarda ham uchraydi. Luqmon surasida: “Agar yer yuzidagi bor dov-daraxtlar qalamlar bo‘lib, dengiz (siyoh bo‘lsa va) undan so‘ng yana yetti dengiz yordamga kelsa, Ollohnning so‘zlari tugab-bitmas. Albatta, Olloh qudrat va hikmat egasidir” (31: 27), – degan oyatni o‘qiymiz. Ushbu o‘rindagi «Ollohnning so‘zlari» jumlasini avvalgi oyat mazmunidan kelib chiqib, U zotga aytildigan hamdu sanoga tegishli ekanligini bilish mumkin. Hazrat Navoiy diniy manbalardan faqat axloqiy-ta’limiy asarlaridagina emas, balki oshiqona g‘azallarida ham foydalangan. Zamonalr o‘tib, otashqalb shoir Mashrab shu baytni o‘z qalamida mana bunday jonlantirgan edi:

*Shajarlar xoma, daryolar siyohu, yerus ko‘k sahfa,  
Raqam qilsam ado bo‘lmas g‘aming, bisyor sog‘indim* (2, 91).

Oollohgagina bo‘lgan bunday adoqsiz muhabbat firoqi sharhini bitish uchun falak(taqdiri azal ma’nosida) oshiq-shoir kipriklarini qalam, dengizni esa siyohga aylantirgan. Bu darbu iztirob ko‘lamini, bunday adoqsiz ilohiy sog‘inch mashaqqatlarini bundan-da go‘zalroq qiyosda ifodalab bo‘lmas:

*Firoq sharhini har kirpigim yozar, go 'yo*

*Falak mijamni tengiz ichraki qalam qildi (3, 719).*

Oshiqona g'azallarda ma'shuqa tavsifi, oshiqning sharhi holi ifodasida *ishq maskani* tavsifi ham muhim o'rin tutadi. Oshiq-shoir bu maskanni goh *ishq bog'i, hayrat vodiysi, goh sarhadsiz sahro, fano dashti, ishq dashti, balo tog'i, adam sahrosi, goh talab dashti* qiyofasida tasavvur etadi. Fano, talab, ishq, hayrat, tavhid, istig'no kabi obrazli ifodalar bilan berilgan bu birikmalar ishq yo'lining tariqat yo'li ekanligini anglatadi.

Ushbu ***istioraviy birikmalar*** yordamida abstrakt manzaralar tasvirini yaratgan shoir birikmaning bir bo'lagida moddiy borliqqa (*tog', dasht, sahro* kabi tushunchalarga) asoslansa, ikkinchi bo'lak oshiq ruhiy olamiga tegishli mafhumlar (*ishq, fano, hayrat, balo* va hokazo)dir. Bu assotsiativ manzaralar kitobxонни ham ishq olamiga olib kirib boradi, ko'zлари o'рганиб ulgurgan dunyoviy o'lchamdagи manzaralardan balandroqqa olib chiqadi, tasavvuriga erk berishi uchun imkon yaratadi, ruhoniylig va moddiylik asosiga qurilgan inson borlig'i haqida chuqurroq o'ylashga undaydi. Jumladan:

*Kir vodiyi ishq ichra yengilrakki, bu yo 'lda*

*O'zluk yukini tashlamag'on asru xorodur (3,221).*

Mazkur baytda shoir ishq maskanini ishq vodiysi deb nomlaydi. So'fiyona lug'atlarda *vodiy ramziy* ifodasi emiinlik vodiysi tushunchasi asosida sharhlangan bo'lib (7, 552), "...nabiylarning, valiylarning, olimlarning qalblari... Tur tog'idan, ya'ni fayz manbaidan oqib keladigan ma'rifat suvlari va nafis mukoshifa hollari bu vodiylarda oqar", deb talqin etiladi. *Sahro – biyobon, dasht esa ruhoni olam, sifatida izohlangan* (6,778).

Demak, *vodiy, sahro, biyobon, dasht, tog'* singari mafhumlar g'azal-larda, asosan, ruhoniylig olam mazmunida qo'llanilgan.

Ishq vodiysi – ruhoniyat olami. Bu olamga o'zlik yukidan xalos bo'lib, yengillashib kirish lozim. Zero, o'zlik – insонning mosivolloh bilan bog'liq jihatlari, nafsoniy istaklari... Undan voz kechish esa oson emas. Shoiring ushbu turkum asarlarida bu masalaning tez-tez o'rtaga tashlanishi ham bejiz emas:

*Ishq vodiysi xatardur ilm ila qat' aylamak,*

*Solik ersang tashla ma'lumungniyu osuda bor (3,226).*

Bu xatarli maskanni egallash shartlari uning dunyoviy o'lchamlardagi ishqdan baland ekanligini ko'rsatadi. Sen solik bo'lib, ishq vodiysiga kiramadigan bo'lsang, boshingda borini chiqarib tashla, chunki uni ilm bilan egallash xatarlidir, deydi shoir. Solik uchun boshda borini (mosivollohga bog'liq o'ylarini) chiqarib tashlash masalasi tasavvufning ham asosiy shartlaridan biri edi.

Bu yo'lda – ishq maskanida faqat ko'ngil bilan ish ko'rish mumkin. Shuning uchun ham bu haqda so'z ketganda biz tez-tez ko'ngilga murojaatni ko'ramiz:

*Maqomi gah balo tog'idurur, gohi fano dashti,  
Ki ishq ichra berur Farhodu Majnundin nishon ko'nglum*  
(3,484).

Solik va majzub oshiqlar qiyofasidagi Farhod va Majnun timsollarini ***talmeh*** sifatida qo'llagan shoir *balo tog'i, fano dashti istioraviy birkimlari* vositasida ruhoniy olamda kechadagan ishqni, Haq yo'lidagi muhabbatni kuylaydi. Ko'ngil Farhod yoki Majnun erishgan maqomlarga erishish uchun ham balo tog'i, fano dashti maqomiga ko'tarilgan. Tog' va dasht bir tomondan, Farhod va Majnunlarga tegishli (dostonlarga asosan) maskan bo'lsa, ikkinchi tomondan, *balo* – tasavvufiy ma'noda oshiqning oldiga keladigan sinovlar, imtihonlar, *fano esa* – tariqat yo'lining mashaqqatlar sifatida talqin etilishini unutmaslik kerak. Zohiriy va botiniy mazmunning uyg'unligi baytning ichki quvvatini, ta'sir imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Ko'ngil bu maskanga poklanib kirishi yoki ushbu maskandagi mashaqqatlar evaziga o'zlik yukidan xalos bo'lishi shart. Busiz oshiq hech vaqt o'z maqsadiga erisha olmaydi:

*Shohidi maqsud aksi ko'ngluma tushmas deding,  
G'ayr naqshidin magar pok ermas ul ko'zgu hanuz* (3, 244).

Baytdagi g'ayr naqshi – mosivolloh. Shohidi maqsud – Haqiqiy mahbub. Uning aksi ko'ngilda jilvalanishi uchun ko'zgu, ya'ni ko'ngil poklanishi kerak. Mahbub ko'ngilda jilvalanmas ekan, demak u hali illatli – nafs g'uboridin xalos bo'lomagan. Aynan shu to'siq – *hijob – tan* g'ubori ekanligini shoir quyidagi baytda chirolyi dalillaydi:

*Fano yeli qonikim ochsa chehrayi maqsud,  
Ki tan g'uborida bo'lmish hijoblig' ko'nglum* (3, 485).

«Qani endi fano yeli maqsadim chehrasini ochsa, chunki tan degan g‘ubordan – jismidan ko‘nglim bilan Yor o‘rtasida hijob paydo bo‘lgan». Fano – baqodan oldin keladigan maqom. Fano maskanida oshiq nafsoniy ehtiyojlardan mutlaqo xalos bo‘lib, ruhga aylanadi, boqiylik tomonga o‘tadi.

Bu orzu bilan yashagan shoir *fano yeli* ko‘magini boshqa bir baytda *ishq oloviga* almashadi, ya’ni bu hijobdan – to‘sqidan xalos bo‘lish uchun jismni kulga aylantirish va o‘sha kul bilan ko‘ngil oyinasini poklash zarur. O‘shandagina mahbub ko‘ngilning tiniq oyinasida jilvalanishi mumkin:

*Tajallo istasang ul yuzdin o‘rtabon jisming,  
Kuli bila ko‘ngul oyinasin jilo qilako‘r* (3, 133).

Boshqa bir o‘rinda esa ushbu fikrlarini shoir tabiat unsurlarining boshqa ramziy ifodalari bilan bog‘lab tasvirlaydi:

*Ishq vodisig‘a kirgan yonki, andin har quyun,  
Kim chiqar sargashtaedurkim qilibdur xok ishq* (3, 335).

Yoki:

*Tanu jon zavraqin g‘arq etgali girdobi ofatdur,  
Quyunlarkim, yugurur ishq dashtining sarobidin* (3, 534).

Ishq oshiqni tuproqqa barobar qildi, xokisor ayladi. Buni shoir *ishq vodisining quyunlariga* yuklaydi. *Quyun* baytda uning tabiatidan kelib chiqqan holda, mashaqqatlar, sinovlar, toblanish vositasini anglatadi. Bu vodiyiga kirgan solik ana shunday sinovlardan o‘tish jarayonida o‘zligini – nafsimi tuproqqa aylantiradi – yo‘qotadi. Busiz maqsadga erishib ham bo‘lmadsi.

Bu yo‘lning sir-sinoatlari, uni egallash kabi masalalarni hal etisha da shoir yana assotsiativ-istioraviy birikmalarga murojaat etadi:

*Vodiyi hayratda qolg‘onlарg‘a jon xirzi uchun  
Ruq‘ayi maqsud komil nutqi yo i‘lomidur* (3, 152).

Bu yo‘lda mashaqqatda qolganlar omon qolishlari uchun ularga komil zotlarning nutqi, ya’ni so‘z va fikrlari – ko‘rsatmalari kerak, aniqrog‘i, bu yo‘lda pirsiz yurish, rahnamosiz nimagadir erishish mumkin emas.

Oshiq-shoir bu vodiy mashaqqatlarining barchasini boshidan kechirganligini e’tirof etar ekan, bu sargardonlik mahbubiga yetishish maqsadida ekanligi uchun ham uning mashaqqatlaridan

cho‘chimaydi – “g‘am yemaydi”:

*Quyundek gar talab dashtida yo ‘q men yetmagan vodiy,*

*Ne g‘am, sargashtalikda uchrasa mohi jahongardim* (3, 480).

Xullas, bu assotsiativ-istioraviy birikmalar shoirning ham badiiy-estetik, ham ruhiy-ma’naviy olamini yanada mukammalroq anglash uchun muhim vositadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Курбанмамедов А.. Эстетическая доктрина суфизма (Опыт критического анализа). – Душанбе: Дониш.- 1987.
2. Машраб Бобораҳим. Мехрибоним қайдасан. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1990.
3. Навоий Алишер. МАТ. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1987.
4. Навоий Алишер. МАТ. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1988.
5. Навоий Алишер. МАТ. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990.
6. Сажжодий Саййид Жаъфар. Фарҳангги истилоҳот ва таъбиrotи ирфони. – Техрон. 1370 ҳижр.
7. Suleyman Uludag. Tasavvuf terimleri sozlugu. – Istanbul. 1995.
8. Шайхзода М. Асарлар. Тўртинчи том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.

# **“TARIXI MULUKI AJAM”NING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

## **METHODOLOGICAL FEATURES OF “TARIXI MULUKI AJAM”**

**Qodirjon ERGASHEV**

*O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklor instituti  
(O’zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarining uslubi masalasiga bag’ishlangan. Tadqiqotchi asarda adabiy va ilmiy uslub unsurlari mavjudligini ko’rsatib beradi va asar uchun ana shu ikki uslub xususiyatlarining sintezi xos ekanligi haqidagi xulosaga keladi.*

**Kalit so’zlar:** uslub, sintez, adabiy plast, ilmiy plast, badiylashtirish, ilmiy haqiqat.

### *Annotation*

*The article is about matters of the style in “Tarixi muluki Adjam” by Alisher Navoi. The author has pointed out existence of literal and scientific elements in the book and concluded that the synthesis of these elements are appropriate for the book.*

**Key words:** Style, synthesis, literal layer, scientific layer, literalism, scientific truth.

“Tarixi muluki Ajam”ning uslubiy xususiyatlari muallifning asarni yozishda ko’zda tutgan maqsadi, o’z oldiga qo’ygan vazifalari bilan bog’liq ravishda yuzaga kelgan. Tadqiqotchilarning fikricha, “Tarixi muluki Ajam” ulkan asarning bir qismi, to‘g‘riroq‘i, muqaddimmasi sifatida yozilgan. Mana shu hol hamda muallifning tarixiy bilimlarni turkiy ommaga sodda, lo’nda, tushunarli tarzda etkazishdan iborat maqsadni o’z oldiga qo’ygani ushbu asarning uslub jihatidan o‘ziga xos bo‘lib chiqishiga, unga qadar fors tilida

yaratilgan tarixiy nasrda kuzatiladigan an'anaviy uslubdan farq qiluvchi yangi uslubning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, o'rta asr adiblari tarixiy nasrni ham badiiy san'atlar bilan bezab, o'zlarining suxandonliklarini, nasrdagi mahoratlarini namoyish qilib, fasohatu balog'at bilan bitar edilar. Albatta, bir tomondan bu ijobiy hol bo'lib, tarixiy nasrni badiiy nasrga yaqinlashtiradi, tarixiy nasr namunalariga adapbiy asar, nasrning, badiiy ijodnig bir turi sifatida qarash imkonini beradi. Lekin, ikkinchi tomondan, mualliflarning "izhori fazl" qilish uchun ortiqcha tirishuvlari, takallufni haddan oshirib yuborishlari uslubning murakkablashuviga, ko'pchilik uchun tushunarsiz bo'lgan jimjimador, balandparvoz til va uslubning shakllanishiga olib keldi. Mirxon va Xondamirning, ulardan oldin o'tgan bir qator tarixchilarning asarlari xuddi shu uslubda yozilgan edi.

Alisher Navoiy o'ziga xos novatorlik bilan bu yo'ldan bormadi va o'zi uchun yangi bir uslub kashf etdiki, buni birinchi bo'lib prof. A.Hayitmetov ilg'agan va qayd qilib o'tgan edi. "Tarixi muluki Ajamning yozilish stili, - deb yozadi olim bu haqda, - shubhasiz, ko'p tarix kitoblari uslubidan prinsipial farq qiladi. Ma'lumki, XV asrning ikkinchi yarmida bir qancha tarixchilar yashagan. Ularning eng mashhurlaridan Mirxon "Ravzat us-safo"ni yozishga kirishar ekan, Navoiyning unga: "... shunday bir tarix kitobi tartib qilinsinki, uning iboralari majoz, istiora, kinoya va boshqa murakkabliklarga o'ralmagan bo'lsin, sodda, har kimga tushunarli, qisqa va mo'jaz bo'lsin", - deganini aytadi. Lekin Mirxon o'z asarini Navoiy aytgan yo'lda emas, o'z salaflarining traditsion, dabdabali uslubida yozadi..."

Navoiy o'zining yuqoridagi g'oyasini "Tarixi muluki Ajam"ni yozishda amalga oshirgani va garchi mavjud tarixnavislik an'alariga ko'p jihatdan sodiq qolgan bo'lsa-da, uslub masalasida mustaqil yo'l tutganini ta'kidlar ekan, A.Hayitmetov asar uslubiga xos ayrim xususiyatlarni ham ko'rsatib o'tadi: "Biz uning asarida qiyin, murakkab, mazmunsiz, balandparvoz ibora va tasviriy elementlarni, mavhum jumlalarni deyarli ko'rmaymiz. U o'z fikrlarini mumkin qadar sodda ifodalashga intiladi. Chunki, uning fikricha, tarix kitobi katta tarixiy haqiqatlar haqida hikoya qiladi va bunday kitob har qanday o'quvchi

yoki eshituvchiga, xoh u olim bo‘lsin, xoh dehqon, engil tushuniladigan bo‘lishi kerak”. “Tarixi muluki Ajam”da muallif o‘z asarining uslubiy jihatdan sodda bo‘lishiga e’tibor bergenini S.G‘aniyeva ham ta’kidlab o‘tadi.

A.Hayitmetovning “Tarixi muluki Ajam”ning uslubini yangi uslub sifatida e’tirof qilgani va u Navoiy uslubini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlagani diqqatga sazovordir: “Navoiy chuqur ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo‘lgan “Tarixi muluki Ajam”ni yozish bilan o‘zbek tilida tarixiy asar yozishning yangi bir uslubini ham yaratdi... Bu asar.... Navoiyning o‘ziga xos uslubini tekshirishda hamon katta ahamiyatga ega”.

Bizning tekshirishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, “Tarixi muluki Ajam” uslubining asosiy jihatni unda ikki – ilmiy va adabiy uslublar unsurlarining mavjudligi va sintezida namoyon bo‘ladi. Bu hol bejiz bo‘lmay asar strukturasida bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ikki plastning mavjudligi bilan izohlanadi.Bular ilmiy va adabiy plastlar bo‘lib, “Tarixi muluki Ajam”dagi tarixiy ma’lumotlar, faktlar, tarixiy voqealar va hodisalar qaydi ilmiy plastni, ularning badiylashtirilgan bayoni, afsonaviy-romantik talqini adabiy plastni tashkil etadi.

“Tarixi muluki Ajam”da ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Tarixiy ma’lumotlar va bilimlarning tizimlashtirilishi va o‘quvchiga tizimli (sistemali) tarzda taqdim etilishi. Ma’lumki, ma’lumotlar va bilimlarning tizimga solinishi turli tarzda amalga oshirilishi mumkin. Navoiy bunda sulolaviy prinsipni tanlaydi va ma’lumotlar va faktlarni ana shu asosda tizimlashtiradi. Asarda Ajam tarixiga oid ma’lumotlar o’sha davrda hukmronlik qilgan to‘rt sulolaga mos ravishda to‘rt qismga bo‘lib bayon etilgan. Har bir qism o‘z navbatida sulolalarning vakillariga bag‘ishlangan bo‘limlardan iborat. Bunda sulola vakillari ularning hukmronlik yillariga mos ketma-ketlikda zikr qilinadi, ya’ni sulolaviy prinsip bilan birga xronologik prinsip ham amal qiladi.

2. Bayonning aniqligi va ravshanligi. Ilmiy uslub aniqlik va ravshanlikni talab qiladi. Navoiy buni yaxshi tushungan. Uning tarixchi Mirxonida tarix kitobining uslubi sodda, iboralari majoz,

istiora, kinoya va boshqa murakkabliklardan xoli, har kim uchun tushunarli bo‘lishi haqidagi so‘zлari shundan dalolat beradi. Aniqlik va ravshanlikka erishishning eng maqbul yo‘li – soddalik. Shu sababli muallif “Tarixi muluki Ajam”da matn tuzishning kombinatsiyali usulidan deyarli foydalanmaydi, murakkab badiiy vositalar va san’atlarni qo‘llashdan o‘zini tiyadi. Biz asar matnida u yoki bu hukmdor ta’riflangan yoxud uning faoliyatiga baho berilganda aniq, ayni paytda sodda va qisqa sifatlashlar qo‘llaganini ko‘ramiz: oqil, odil, zolim, johdo‘st, badgumon, xiradmand, nodon va hakozo. Masalan, Shopur binni Ardasher haqida: “Va oqilu odil podshoh erdi”; Bahrom binni Hurmuz haqida: “Va bu Bahrom xudoparast erdi, va xiradmand podshoh erdi”; Faridun haqida: “Yaxshi axloqliq, olim va odil podshoh erdi”; Hurmuz binni Nasri haqida: “Ul bag‘oyat mutajabbir va mutavahhish kishi erdi”; Yazdijurd binni Bahrom haqida: “... ul zolim va nodon kishi erdi”.

Muallif faqat hukmdorlarni ta’riflashda emas, ular bilan bog‘liq tarixiy voqealarni bayon qilishda ham aniqlik, ravshanlikka intiladi va bu hol matn kompozitsiyasida o‘z aksini topadi. Matnning ko‘p hollarda uncha uzun bo‘lmagan, ixcham jumla va gaplardan iborat bo‘lishi va ularning har biri konkret bir ma’lumot, axborot yoki faktni o‘z ichiga olishi shundan dalolat beradi va Shopur binni Ardasher zikridan olingen quyidagi parcha misolida bunga ishonch hosil qilish mumkin:

“Chun otasi o‘rnida taxtqa o‘lturdi, ota rasmi va qonunin tag‘yir bermadi va ul tayin qilg‘an elni viloyatlaridin va manosibidin azl qilmadi. Va oqilu odil podshoh erdi. Va anga arz qildilarkim, Qustantaniyada Rum qaysari o‘z haddidin tajovuz qilibtur. Shopur Nisibin shahrin muhosara bila oldi va qaysarning xazoyinin tasarruf qildi. Qaysar o‘z haddin bilib, shafi‘lar vosita qilib, xiroj qabul qildi. Shopur fath va nusrat bila qaytti. Va aning osoridin Xurosonda Nishopurdirkim, ani Tahmuras bunyod qilib erdi, tunganmasdin burun buzug‘luqqa yuz qo‘ydi. Ammo Shopur ani yangi boshtin shatranj bisoti bila vaz‘i bila obodon qildi”.

3. Bayonning izchilligi. “Tarixi muluki Ajam”da Navoiy tarixiy ma’lumotlarni bayon etishda izchillikka qat‘iy rioya qiladi. Asarning har bir qismi xronologik planda ham, mazmun planida ham oldingi

qismlarning uzviy davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif voqealardan oldinga o‘tib ketmaydi. Shuningdek, muayyan fikrlar yoki voqealar bayonini bir nuqtada to‘xtatib, boshqalariga o‘tish, keyin esa yana avvalgi voqealarga qaytish holatlari ham deyarli kuzatilmaydi.

Izchilllik matnning ichki tuzilishida ham saqlanadi. Bunda har bir jumla, ibora va uning mazmuni oldingilari bilan bog‘liq bo‘lib, ulardagi fikrni davom etdirish, to‘ldirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi va bayonni ilgari surib, bayon zanjirining bir xalqasini tashkil etadi.

4. Fikrlarning asoslanishi va dalillanishi, ma’lumot va faktlarning tasdiqlanishi. Ilmiy asarlarga va ilmiy uslubga xos bu xususiyatlar “Tarixi muluki Ajam”da ham mavjud. O‘zi berayotgan ma’lumotlar va bayon qilgan fikrlarni asoslash maqsadida Navoiy bir qator manbalarga murojaat qiladi. “Nizom ut-tavorix”, “Jome’ ut-tavorixi Jaloliy”, “Tarixi Tabariy”, “Jome’ ut-tavorixi Banokatiy”, “Muntaxob ut-tavorix”, “Devon un-nasab”, Hamidulloh Al-Mustavfiyning “Tarixi guzida”, G‘azzoliyning “Nasihat ul-muluk”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Qozi Bayzoviyning tarixiy asari, Mirxonq asarlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari Navoiy adabiy asarlar – dostonlarning tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog‘liq jihatlariga ham e’tibor qaratgan va o‘z kitobida sof tarixiy manbalar bilan bir qatorda ularga ham murojaat etgan.

5. Tahliliy va tanqidiy ruhning mavjudligi. Tahlil va tanqid ilmiy uslubning asosiy komponentlaridir. Navoiyning manbalarga tanqidiy qaragani uning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan quyidagi she’ridan ko‘rinadi:

*Tarix ahlining ixtlofi ko ‘ptur,  
“Shohnoma”ning andoqli lofi ko ‘ptur,  
Ba ’zi mutaassif el gazofi ko ‘ptur,  
Sen degali ham nuktai vofi ko ‘ptur.*

“Tarixi muluki Ajam”ni tahlil qilish Navoiyning yuqoridagi she’rda bildirgan fikrlari shunchaki aytilgan so‘zlar emasligini ko‘rsatadi. Asarning ko‘p o‘rinlarida Navoiy tarixiy manbalar va ularda keltirilgan ma’lumotlarga o‘z munosabatini bildiradi, ularni

tahlil, ayrim o‘rinlarda tanqid qiladi. Masalan, peshdodiy larning oxirgi vakili Girshosb zikrida u tarixiy asarlar mualliflarining Rustami dostonni Girshosb naslidan ekanligi haqida bergen ma’lumotlariga ishonchszizlik bildiradi va shunday yozadi: “Ko‘prak tavorixda Rustami dostonni aning naslidin debdurlar. Ammo faqir qoshida bu qavl yiroqroq ko‘runur, nevchunkim, Zolkim, Rustamning otasidir, aning qoshida sipohsolor erdi va Girshosbni “Guzida”da va xeyli tavorixda Manuchehr nabiralig‘ig‘a chiqaribdurlar va Rustamni Som binni Narimon binni Atrub binni Abtung‘a etkurubdurlar, vallohu a’lam”.

Doro zikrida Navoiy uning o‘limi haqida ikki versiyani keltiradi va “Avvalg‘i qavl sahihroqdur” deya ularning birinchisi ishonchliroq ekanini ta’kidlaydi. Asarning Ashkoniy larga bag‘ishlangan qismida u Hamidulla Mustavfiyning “Tarixi guzida” asarida o‘z fikriga o‘zi qarshi borgan holatni qayd etadi va tanqid qilib shunday yozadi: “Guzida”da Hamiduloh Al-Mustavfiy uch firqa qilib, yigirma bir podshoh bitibdur va ani muluki tavoyifdin tutubdur. Go‘yoki bu xud g‘alatdurmik, alar muluki tavoyif bo‘lg‘aylar, nechunkim o‘zi-o‘q tanoquz kelturubdurmik, muluki tavoyifdin ba‘zini Ashk binni Doro o‘lturdi va Ashkoniyarni bu Ashk binni Doro nasli debdur”.

“Tarixi muluki Ajam”dagi afsona va rivoyatlar, tarixiy voqealarning afsonaviy-romantik tahlili asarning adabiy plastini tashkil etadi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, romantik talqinlar asarda tarixiy voqelikning, ma’lumotlar va faktlar mohiyatining buzilishiga sabab bo‘lmaydi. Mullif tarixiy voqealarni bayon qilishda ularni qanchalik badiylashtirmasin, baribir, tarixiy asos saqlanadi. Masalan, Ardasher Bobak zikrida keltirilgan lavhalarni oladigan bo‘lsak, Ardasher Bobakning Ashkoniyarning so‘ngi vakili Arduvonga qarshi kurash olib borgani, uni engib, hokimiyatni egallagani va yangi Sosoniylar sulolasiga asos solgani tarixiy haqiqat va u “Tarixi muluki Ajam”da o‘z aksini topgan.

Voqealarni badiylashtirib hikoya qilar ekan, Navoiy bunda romantik uslubga xos vosita va motivlardan foydalanadi, jumladan, Ardasher bilan bog‘liq lavhalarda sarguzasht-romantik ruh, sevgi motivi, sir (vazirning qizni o‘ldirmay, bola tug‘ilgandan keyin uni yashirincha katta qilishi va fursat etgan vaqtida Arduvonga haqiqatni

aytib, sirni ochishi), tasodif (Ardasherning sharbat quyilgan idishni olishda tasodifan hayallashi va shu tufayli hayotining saqlanib qolishi) effektlari vositasida yuzaga keladi. “Tarixi muluki Ajam”dagi bir nechta lavhalarda sevgi motivi qahramonning hayotini saqlab qolishga, uning og‘ir ahvoldan qutulishiga xizmat qiladi. Ulardan biri podshoh Arduvon Ardasher Bobakning hayotiga qasd qilmoqchi bo‘lgani va Ardasherni sevib qolgan kanizak bu haqda uni ogohlantirgani hamda ular birgalikda qochib qutulganlaridan. Ushbu motiv bilan bog‘liq boshqa bir lavha Sosoniylar sulolasiga mansub shoh Shopuri Zulaktof zikrida uchraydi. Shopur o‘zining kimligini tanitmay, oddiy odam qiyofasida Rumga boradi. Lekin u erda Shopurni tanib qoladilar. Rum qaysari uni tutib, asir sifatida saqlaydi hamda qo‘sishin tortib, Shopurning mamlakatiga yurish qiladi. Qaysar Shopurni qo‘riqlashga tayinlagan kishining qizi Shopurni ko‘rib, unga muhabbat qo‘yadi va asirlikdan qutqaradi. Ular qochib, birga Qazvinga keladilar. Bu haqda Navoiy shunday yozadi: “.... va qaysar ani tutub, yalong‘ochlab o‘y xomiga tikib, mahbus qilib, sipoh tortib yurub, aning mulkin olib, ko‘p buzug‘luq qildi. Shopurni asrar kishining qizi oshiq bo‘lub, ul hibsdin qutqarib, ikov qochib, Qazving‘a keldilar”.

“Tarixi muluki Ajam” uslubiga xos asosiy xususiyat - ilmiy va badiiy uslublar sintezining yuzaga kelishida hamda tarixiy voqealar va hodisalarning afsonaviy-romantik talqinida sarguzashttalablik, tomoshatalablik motivi ham muayyan rol o‘ynaydi. Yuqoridagi lavhada Shopurning o‘z qiyofasini o‘zgartirib, Rumga borishi ham ma’lum darajada ana shu motiv bilan bog‘liq.

Asarning Bahrom binni Yazdijurd (Bahrom go‘r) zikriga bag‘ishlangan qismida ham mazkur motiv katta o‘rin tutadi. Ushbu qismda muallif Bahrom bilan bog‘liq boshqa voqealar qatorida uning Hindistonga borgani va u erdag‘i sarguzashtlari haqida ham hikoya qiladi. Navoiy bu voqealarga “g‘aroyibi umurdindur” (g‘aroyib ishlardandir – Q.E.) deb baho beradi: “Va Bahromning taxtni qo‘yub, musofarat tariqi bila Hindistong‘a borg‘onin ham, chun g‘aroyibi umurdindur, mujmalan bayon qilali”. Navoiyning yozganlaridan ma’lum bo‘lishicha, Bahromning Hindistonga borishi uchun biron-bir jiddiy sabab bo‘lмаган, faqat sarguzashttalablik, o‘zga yurtni

ko‘rish, tomosha qilish ishtiyoqi uni bu safarga undagan. Navoiyning quyidagi so‘zлari buni ochiq ko‘rsatib turadi: “Bahrom tamoshо va tafarruj va nishotqa moyil kishi erdi va xudroy va zabardast va o‘z tavonolig‘ig‘a e’timod qilib, bulajab ishlarg‘a mutasaddi bo‘lur erdi. Va alardin biri budurkim, Hindiston mulkin ajubasin eshitib, tafarrujini havas qildi va mulkni Narsig‘a topshurub, yoshurun eldin chiqib, Hindistong‘a bordi”.

Yuqoridagi singari romantik motivlar va talqinlar, voqealarning badiiylashtirilib bayon qilinishi “Tarixi muluki Ajam”da zikr etilgan bir qator hukmdorlarga faqat tarixiy shaxslar sifatida emas, adabiy personajlar sifatida ham qarash imkonini beradi. Ularning orasida qiyofalari to‘laqonlilik kasb etgan, shaxsiyatining turli jihatlari ochilib, badiiy obraz darajasiga ko‘tarilganlari ham bor. Mana shu o‘rinda Navoiy uslubining yana bir o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi: u personajlarning bitta-ikkita asosiy, ularni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlariga urg‘u beradi, mazkur shaxslarning boshqa fazilat va nuqsonlari, shaxsiyatiga xos o‘zga turli jihatlar ana shu etakchi xususiyatlar fonida, ular bilan bog‘liq voqealar davomida ochilib boradi.

Buni Xusrav Parviz, Bahromgo‘r obrazlari misolida ko‘rish mumkin. Xusrav haqida hikoya qilganda Navoiy uning tabiatidagi hokimiyatparastlik va zolimlikni asosiy xususiyatlar sifatida ko‘rsatadi. Xusravning zulmi “Tarixi muluki Ajam”da shunday tasvirlanadi: “Bu hazayon jihatidin o‘n etti o‘g‘lini bir hisorga solib, mahbus asrab, qo‘ymas erdikim, xotun kishi alar qoshida yovug‘ay, munajjimlar aytqon amr surat bog‘lag‘ay. Yana o‘z ulusidin, al-uhdatu al ar-ravy, yigirma ming kishini zindong‘a solib erdikim, bulardin ming kishi e‘tiborliq, uluq kishilar erdi. Bir cherikda yaxshi yurumadingiz, deb har kun nechani buyurub erdikim, o‘ltururlar erdi”. Asardagi talqinga ko‘ra, Xisrov Parviz davlatining zavol topishiga va o‘zining o‘ldirilishiga uning xarakteridagi ana shu jihatlar sabab bo‘lgan.

Bahromgo‘rga bag‘ishlangan qismda esa Navoiy Bahrom tabiatidagi aysh-ishratga, tomosha va sarguzashtga o‘chlikni alohida ta’kidlaydi va tasvirlaydi. Bahrom zikrida hikoya qilingan voqealar ham, Bahromning boshiga tushgan ishlar ham uning tabiatidagi aynan

ana shu xususiyatlar bilan bog‘liq ravishda yuz beradi. Bahromning aysh-ishratga berilishi tufayli davlat ishlarida o‘pirilish yuz beradi, hokimiyat zaiflashadi, mamlakat xarob bo‘ladi. Ahvol shu darajaga etadiki, mulkiga dushman hujum qilganda, Bahrom unga qarshi turish uchun kuch topa olmaydi. Turk xoqoni mamlakatni osonlik bilan bosib oladi. Bahrom shaxsiyatining bir qator boshqa jihatlari ana shu istilodan keyingi voqealar davomida ochiladi. Vaziyatni to‘g‘ri baholagan Bahrom qarshilik ko‘rsatish befoyda ekanligigini sezib, o‘zini chekkaga tortadi va ozgina sodiq kishilari bilan mamlakatdan chiqib ketadi. Shundan so‘ng u sabr-toqat bilan qulay paytni poylaydi va ana shunday fursat kelishi bilan kutilmaganda hujum qiladi hamda g‘alaba qozonadi. Bu o‘rinda turk xoqoni istilosidan so‘ng Bahrom shaxsiyatida yuz bergen o‘zgarishlarning ko‘rsatilishi tufayli u o‘quvchi ko‘z o‘ngida statik emas, dinamik obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday dinamik tasvirning “Tarixi muluki Ajam”ning boshqa o‘rinlarida ham uchrashi uni Navoiy tasvir uslubiga xos xususiyatlardan biri sifatida qarash imkonini beradi.

### **Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Ҳайитметов А. Тарихи мулуки Ажам / Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том, – Т.: Фан, 1977. – Б. 448.
2. Фаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 24.
3. Эргешев К. “Тарихи мулуки Ажам”да тарихий ҳақиқат ва афсонавий-романтик талқин // ЎТА, 2006, 5-сон. – Б. 21-25.
4. Эргашев К. Тарих аҳлининг ихтилофи кўптур // ЎзАС, 2001, 18-май.
5. Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 8-жилд. - Тошкент, 2011. – Б. 623-624.
6. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва хукамо. 10 жилдлик, 8-жилд. – Тошкент, 2011. – Б. 542.

# ALISHER NAVOIY “XAMSA” SIDA PROSODIK URG‘U

## PROSODIC FOCUS IN ALISHER NAVOI “KHAMSA”

*Dilnavoz YUSUPOVA  
ToshDO‘TAU  
(O‘zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada aruz tizimi urg‘uga asoslangan she’riy tizim sifatida taqdim qilinib, prosodik urg‘u va leksik urg‘uning farqli jihatlariga diqqat qaratiladi. Muallif Alisher Navoiy “Xamsa” sida prosodik urg‘uning o‘rnini tadqiq qilish asnosida ushbu urg‘u matn bilan munosabatga kirishini ta’kidlaydi hamda urg‘u va poetik mazmun o‘zaro mutanosiblikda degan xulosaga keladi.*

**Kalit so‘zlar:** aruz, leksik urg‘u, prosodik urg‘u, she’riy sistema, kvantitalivlik, kvalitativlik

### *Annotation*

*In the article, the aruz system is presented as a poetic system based on stress. Attention is paid to various aspects of prosodic and lexical stress. The author, examining the place of the prosodic accent in Alisher Navoi’s Khamsa, emphasizes that this stress is associated with the text, and comes to the conclusion that the prosodic stress and poetic content are in harmony.*

**Key words:** prosody, lexical stress, prosodic stress, poetic system, quantitative, qualitative.

### **Kirish**

Jahon she’rshunosligida adabiyotning poetik unsurlarini tarixiylik, qiyosiylilik, o‘zaro ta’sir va aks ta’sir, ob’ektivlik, sinkretizm tamoyillari asosida o‘rganish rivoqlanayotgan bo‘lib, she’rshunoslik ilmini uzviylikda taraqqiy etgan tarixiy jarayon sifatida baholash dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shu ma’noda, she’rshunoslikning tarkibiy qismi bo‘lgan aruzshunoslikning xarakterli jihatlarini

aniqlash, aruz tizimining kvantitativ va kvalitativ xususiyatlarini asoslash, aruzning ritmik unsurlarini o‘zaro qiyosiy jihatdan o‘rganish kabi masalalar jahon aruz ilmining o‘rganilishi zarur bo‘lgan muhim mavzulariga aylanmoqda.

Aruz vazni urg‘uga asoslangan she’riy tizim bo‘lib, aruziy matnda rukn urg‘usi etakchilik qiladi. Eng avvalo, rukn (prosodik) urg‘usini so‘z (leksik) urg‘usidan farqlash zarur. Ma’lumki, gap qurilishida har bir mustaqil so‘z urg‘u oladi va bu *leksik urg‘u* deb yuritiladi. Aruziy matnda esa misra birligi sifatida so‘z emas, rukn qabul qilinganligi uchun unda so‘z urg‘usi o‘z hukmronligini yo‘qotib, rukn urg‘usi etakchi o‘ringa chiqadi, so‘z urg‘usi matndan tashqaridagina hukmronlik qiladi. Shunga ko‘ra, baytda nechta rukn bo‘lsa, shuncha urg‘u mavjud bo‘ladi. Aruzdagi urg‘u faqat cho‘ziq hijo bilan bog‘liq va qisqa hijo hyech qachon urg‘u olmaydi. Arab aruzi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olim E.Talabovning ishlarida aruz tizimida urg‘uning o‘rni bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan [Talabov, 1977; 2004]. Olimning fikricha, aruziy matnda urg‘u ritmni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Arabiy aruzda bo‘g‘inlarning miqdor munosabatlari bilan birga, urg‘ularning, yana ham to‘g‘rirog‘i, urg‘uli bo‘g‘inlarning simmetriyasi mavjud va u ritm yaratishda belgilovchidir” [Talabov, 2004: 25]. Aynan shu xulosani aruzdan foydalanuvchi boshqa xalqlar, xususan fors-tojik va turkiy adabiyot vakillari she’riyati haqida ham bildirish mumkin.

“Aruziy matnda so‘z urg‘usi (leksik urg‘u) bilan ritm urg‘usi (prosodik urg‘u) mutobiq emas – ularda o‘zaro moslik yo‘q. Ahyonda uchrab turadigan mutobiqlik sof tasodifdir. Bayt tarkibidagi so‘z ruknlar tasarrufida o‘z shakl va urg‘u mustaqilligini batamom yo‘qotadi, u misradagi qolip va uning prosodik urg‘usi maromiga bo‘ysundiriladi – mahy etiladi” [Talabov, 2004: 27].

### **“Xamsa” dostonlarida urg‘uning o‘rni**

“Xamsa” dostonlari, barchamizga ma’lumki, 5 ta she’riy o‘lchov doirasida yoziladi. Bu vaznlarda urg‘uning o‘rniga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, quyidagi manzara hosil bo‘ladi:

№		<b>Vaznlar nomi, taqti'i va ularda urg'uning joylashish o'rni</b>		
1.	Sari'i musaddasi matviyi makshuf	Múftailun	múftailun	fóilun
		‐ V V –	‐ V V –	‐ V –
2.	Hazaji musaddasi mahzuf	Mafoiylún	mafoiylún	fauvlún
		V – – ‐	V – – ‐	V – – ‐
3.	Hazaji musaddasi axrab	Maf'úlu	mafóilun	fauvlún
		‐ – V	V – V –	V – – ‐
4.	Xafifi musaddasi maxbun	Foílotun	mafoílun	failún
		‐ V – –	V – V –	V V –
5.	Mutaqoribi musammani mahzuf	Fauvlún	fauvlún	faál
		V – –	V – – V – –	V –

Aruziy matnda urg'uning o'rni nihoyatda muhim. Navoiy dostonlari, va umuman, aruzda yaratilgan badiiy asarlardagi urg'uga e'tibor qaratmaslik aruzga xos ritmik ohangni his etmaslikka olib keladi.

Aslida besh xil she'riy o'lchovda yaratilgan "Xamsa" dostonlari ritmini bir-biridan farqlash uchun ham ulardagi urg'ular o'rniga diqqatni qaratish kerak bo'ladi. Biz Alisher Navoiy "Xamsa"sining har bir dostonida mavjud bo'lgan "Munojot"lardagi urg'uni tahlil qilish orqali dostonlarning ritm xususiyatlariga diqqatni qaratmoqchimiz<sup>1</sup>.

Dastlab "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Munojot"dan olingan parchani ko'rib chiqsak:

<sup>1</sup> Biz bu o'rinda dostonlarning umumiy ritmi haqida tasavvur hosil qilinishi va barcha dostonlarda mavjud bo'lganligi uchun aynan "Munojot"larni tanladik.

Éy sanga mab | dá'da abad | dék azal  
 -'VV- | -'VV- | -'V-  
 Zótí qadi | míng abadiy | lám'azal.  
 -'VV- | -'VV- | -'V-

Né bo 'lub av | válda bido | yát sanga,  
 -'VV- | -'VV- | -'V-  
 Né kelib o | xírda niho | yát sanga.  
 -'VV- | -'VV- | -'V-

Ávväl o 'zung, | óxiru mo | báyn o 'zung,  
 -'VV- | -'VV- | -'V-  
 Bórchag'a xo | líq, borig'a | áyn o 'zung...  
 -'VV- | -'VV- | -'V-

Ko'rinyaptiki, ushbu she'riy o'lchovda urg'u har bir ruknning  
 birinchi cho'ziq bo'g'iniga tushyapti. Urg'uning ruknlardagi bunday  
 tanosubi va qisqa bo'g'inqarning ketma-ket qo'llanilishi engil va  
 o'ynoqi ritmning vujudga kelishini ta'minlayapti.

Endi ishqiy-tasavvufiy mavzudagi doston bo'lmish "Layli va  
 Majnun"dagi urg'ular o'rniga nazar tashlasak:

Pokó si | fatíngda ah | li idrók,  
 -'V | V-'V- | V--  
 So 'z súrma | di g'áyri "mo | arafnók".  
 -'V | V-'V- | V--

Har náv' | ki áylasam | xitobíng,  
 -'V | V-'V- | V--  
 Yuz óncha | biyíkdurur | javobíng,  
 -'V | V-'V- | V--  
 Ulkím, "a | na áfsah" et | ti da'yó,  
 -'V | V-'V- | V--  
 Fosh étti | bu dáv'i ich | ra ma'nó.  
 -'V | V-'V- | V--

Ushbu taqtı'da yana boshqacharoq holatning guvohi bo'lyapmiz:  
 urg'u har bir ruknda turlicha o'rin olgan. Xususan, birinchi ruknda

ikkinchi cho‘ziq bo‘g‘in, ikkinchi ruknda bиринчи cho‘ziq bo‘g‘in va учинчи руқнда со‘нгги bo‘g‘in urg‘uli ekanligini ko‘rish mumkin. Misralarning ikkita cho‘ziq bo‘g‘in bilan boshlanishi va bunda ikkinchi cho‘ziq bo‘g‘inning urg‘u olishi hazin va dardli ohangni vujudga keltiryapti va bu holat Navoiy tomonidan “Firoqnama” deb atalgan doston mohiyatiga mos kelyapti.

“Xamsa”ning so‘nggi dostoni bo‘lmish “Saddi Iskandariy”dan olingan parchani ko‘rib chiqsak:

*Lakal-hám| d, yo ák | ramal-ák | ramín,*  
*V—́ | V—́ | V—́ | V—́*  
*Karam áh | lin etgán | gadoyí | kamín.*  
*V—́ | V—́ | V—́ | V—́*

*Karim o’l | sa olám | da har náv | ’shóh,*  
*V—́ | V—́ | V—́ | V—́*  
*Anga sén | karam qil | ding, ul dás | tgóh.*  
*V—́ | V—́ | V—́ | V—́*

*Karamdín | kishi qáy | da sochqáy | dirám,*  
*V—́ | V—́ | V—́ | V—́*  
*Diram sén | anga qil | mog‘unchá | karám.*  
*V—́ | V—́ | V—́ | V—́*

Agar e’tibor qaratilsa, mazkur she’riy o‘lchovda ruknlarning 3 bo‘g‘indan tarkib topganligi, bandlarning ham yuqorida keltirilgan parchalardan farqli ravishda musaddas emas, balki musamman ruknlardan iborat ekanligi va shunga mos holda urg‘ular soni ham 8 ta ekanligini ko‘rish mumkin. Bu holat jangnomalarga xos shiddatli ritmni keltirib chiqaryaptiki, biz bu haqda yuqorida ham fikr yuritib o‘tgan edik.

Biz keltirgan jadval xamsachilikdagi vaznlarda urg‘uning o‘rnini umumiy holatda belgilaydi. Lekin asar matni bilan bog‘liq holatlarda, xususan, ritmik variatsiyalarga ega bo‘lgan vaznlar haqida so‘z yuritilganda, tabiiyki, urg‘u o‘rni o‘zgarishi mumkin. Ritmik variatsiyalar asar matni bilan munosabatga kirishadi va shunday hollarda urg‘uning o‘rni ham o‘zgaradi va ritmnинг yangi-yangi ko‘rinishlari vujudga keladi. Ushbu qonuniyatdan kelib chiqqan

holda ritmik variatsiyaga ega bo‘lgan vaznlar uchun urg‘u o‘rnini har bir variatsiya bilan bog‘liq holatda ko‘rib chiqishni lozim topdik.

### Ritmik variatsiyalar va urg‘u

Dastlab xafifi maxbun vazniga xos ritmik variatsiyalardagi urg‘ular o‘rnini ko‘rib chiqamiz:

Nº	Ritmik variatsiya nomi	Foilotun	mafoilun	failun
1.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf	– V – –	V – V –	V V –
2.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’	– V – –	V – V –	– –
3.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur	– V – –	V – V –	V V ~
4.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag‘	– V – –	V – V –	– ~
5.	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf	V V – –	V – V –	V V –
6.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’	V V – –	V – V –	– –
7.	Xafifi musaddasi maxbuni maqsur	V V – –	V – V –	V V ~
8.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’i musabbag‘	V V – –	V – V –	– ~

Ma’lumki, ushbu she’riy o‘lchovda Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni yaratilgan. Dostondan olingan ayrim baytlarga e’tibor qaratsak:

*Ikki qattiq hadis eshitdi ajab  
Ixtyiyorin ilikdin oldi g‘azab.*

Ushbu baytda Bahromning ov paytida Diloromdan kiyikni otgani uchun maqtov emas, balki “mashq natijasi” degan bahoni eshitgan vaqtidagi holati tasvirlangan. Baytning har ikkala misrasi yuqorida keltirilgan jadvaldagagi birinchi taqtiga mos keladi, ya’ni:

*Ík-ki qat-tiq | ha-dís e-shit | di a-jáb  
– V – – V – V – V V –  
Ix-ti-yo-rin | i-lík-din ol | di g‘á-zab.  
– V – – V – V – V V –*

E'tibor qaratilsa, baytlarning so'nggi rukni ikki qisqa, bir cho'ziq bo'g'indan iborat bo'lib, so'nggi rukn urg'usi misraning oxirgi bo'g'iniga tushyapti.

Keyingi baytlardan Bahromning g'azabi yanada ortib boradi va vazn jadvaldag'i ikkinchi taqt'i bilan almashadi:

*Shóh-kim qah | ri o 'l-sa mus | táv-li*  
— V — | V — V — | —

*Úl di-yor ich | ra bo 'l-ma-moq | áv-li.*  
— V — | V — V — | —

*Sál-ta-nat g'ay | ra-tí chu zo 'r | ét-tí*  
— V — | V — V — | —

*Lút-fu eh-son | ko 'zí-ni ko 'r | ét-tí.*  
— V — | V — V — | —

*Ís-ta-di qat | l áy-la-mak | ó-ni*  
— V — | V — V — | —

*Kés-mak o-zo | d sár-vi ra' | nó-ni.*  
— V — | V — V — | —

Agar e'tibor qaratilsa, yuqoridagi uch baytda oxirgi rukn ikki cho'ziq bo'g'in-fa'lundan iborat va urg'uning o'rni ham o'zgargan-urg'u misraning so'nggi bo'g'iniga emas, balki oxiridan bitta oldingi bo'g'inga tushyapti. Qiylolang:

*Ikki qattiq hadis eshi | ti ajáb.*  
V V —

*Ixtiyorin ilikdin ol | di g'azáb.*  
V V —

*Istadi qatl aylamak | óni*  
| —

*Kesmak ozod sarvi ra' | nóni.*

| --

Baytlar shu tariqa yuqoridagi ikki vaznning o‘zaro almashinib takrorlanishi asosida davom etadi. Nihoyat Bahrom tongga yaqin g‘azab va may ta’siridan xoli bo‘lgach, yonida Diloromi yo‘qligini ko‘rdi va shoshilinch tarzda uni izlamoqchi bo‘ldi. Agar yori tirik bo‘lsa, uning fidosi bo‘lmoqni, agar o‘lgan bo‘lsa, o‘ziga tig‘ urmoqni istadi. Bu tasvir dostonda quyidagi baytlar vositasida berilgan:

“... *Tirik o‘lsa, bo‘lay fidosi aning,*

*Beribon jon topay rizosi aning.*

*O‘lgan o‘lsa, o‘zimga tig‘ urayin,*

*Diyatig‘a o‘zumni o‘lturayin”.*

Mazkur baytlar tahlil qilinsa, jadvaldagи 5-taqti’ga mos ekanligini ko‘rish mumkin, ya’ni birinchi va uchinchi ruknlar qisqa bo‘g‘in (*failotun* va *failun*) bilan boshlanyapti. Birinchi baytni ko‘rib chiqamiz:

*Ti-rik o‘l-sa’ | bo‘lāy fi-do | si a-níng,*  
*V V -- | V - V- | V V-*  
*Be-ri-bon jón | to-páy ri-zo | si a-níng.*  
*V V -- | V - V- | V V-*

Toj-u taxt nomusi Bahromning bu niyatini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymagach, joni ikki balo o‘rtasida, o‘zi esa ikki ajdarho orasida qolgan chumoliga o‘xshab qoldiki, uni ko‘rgan odam tirik yoki o‘likligini ajrata olmas edi. Mazkur tasvir bayonida vazn yana o‘zgarib, jadvaldagи ikkinchi taqtiga mos she’riy o‘chovga qaytiladi:

*Qo‘ymadi to | ju taxt no | musi,*  
*— V -- | V - V- | --*  
*Aylamakka | o‘luk zamin | bo‘si...*  
*— V -- | V - V- | --*

*Joni ikki | balo aro | sinda,*  
*— V -- | V - V- | --*

*Mo'r iki aj | daho aro | sinda.*  
 -' V-- | V-' V- | --  
*Ne o'luk er | di, ne tirik | soni,*  
 -' V-- | V-' V- | --  
*Bo'lmas erdi | tirik demak | oni.*  
 -' V-- | V-' V- | --

Ko'rinyaptiki, Bahrom ruhiyatidagi ahvolning o'zgarishi ritmiga ham ta'sir qilmay qolmayapti, xususan, Bahromning g'azabga mingan holati bayonida cho'ziq bo'g'inlar bilan boshlanuvchi *foilotun* va *fa'lun* ruknlari, harakat tezlashgan va nisbatan engilroq holatlar tasvirida ikki qisqa bo'g'in bilan boshlanuvchi *failotun* va *failun* ruknlaridan foydalanilmoqda va bunda urg'ular o'rnida ham muayyan o'zgarish vujudga kelmoqdaki, bu holat vazn, urg'u va mazmun o'zaro munosabatda degan fikrni yana bir bor isbotlaydi.

Endi hazaji axrab vaznidagi urg'ular o'rnini ko'rib chiqamiz:

Nº	Ritmik variatsiya nomi	Ruknlari va taqt'i		
1.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Maf'ulu	mafoilun	fauvlun
2.	Hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf	Maf'ulun	foilun	fauvlun

Laylining Majnun bilan bog'dagi birinchi suhbatidan olingan bayt taqt'i va urg'ular o'rnini ko'rib chiqsak:

*K-ey túrfa | yigít ne ho | lating bór,*  
 -- V V-V- V--  
*Ne náv' | g'amú malo | lating bór?*  
 -- V V-V- V--

Endi Laylining Majnun ota-onasi o'limini eshitgandan keyingi so'zlari ifodalangan bayt taqt'i va urg'ular o'rniga diqqat qaratamiz:

*Kim: Ey káj | ráv sipeh | ri xudrój,*  
 - - - - V- V--  
*Zulmungdíń | vóyu yuz | tuman vóy.*  
 - - - - V- V-- -

Ko‘rinyaptiki, ikkinchi baytning mazmuni avvalgisidan ko‘ra ancha iztirobliroq va bunda cho‘ziq bo‘g‘inlar sonining ko‘pligini (qisqa bo‘g‘inlar bir misrada ikkita, xolos) kuzatish mumkin, shuningdek, bиринчи байт билан иккинчи байтда urg‘ular о‘рни ham o‘zgargan. Bu holat jadvalda ifodalangan ikkinchi ritmik variatsiyaning, asosan, mahzun tuyg‘ular ifodasi uchun qulay ekanligini ko‘rsatadi.

“Layli va Majnun” dostonining bosh qahramonlar o‘limi tasviri berilgan 35-bobida ham hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf ritmik variatsiyasining ko‘p qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Mazkur bob dostonning eng ta’sirli boblaridan biri bo‘lib, mahzun tuyg‘ular ifodasi ritm bilan hamohanglik kasb etgan. Laylining o‘limi bayoni berilgan baytlarni kuzatsak:

*Ya’ni “chǔn | išhq ayir | sa jondín,*  
 — — — — V — V —  
*Chiqqungdür | súrxro ‘| jahondín”...*  
 — — — — V — V —

*Jonin Māj | nǔn so ‘zi | da berdí,*  
 — — — — V — V —  
*Hargiz Lāy | lí degil | yo ‘q erdí...*  
 — — — — V — V —

*Tirnog ‘lā | rín chu yuz | ga qo ‘ydí,*  
 — — — — V — V —  
*Tirnog’, tir | nóg ‘cha er/ lar o ‘ydí.*  
 — — — — V — V —

Ma’lum bo‘lyaptiki, Navoiy iztirobli tuyg‘ular bayonida uchta cho‘ziq bo‘g‘in bilan boshlanuvchi ritmik variatsiyaga murojaat qilyapti, misralarda urg‘uli bo‘g‘inlarning yonma-yon qo‘llanishi esa hazin ritmnинг vujudga kelishini ta’minlayapti va bularning barchasi ritmik variatsiya, urg‘u va mazmun o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi poetik unsurlar ekanligini ko‘rsatyapti.

## **Qo'shimcha prosodik urg'u**

Tilshunoslarning ko'rsatishicha, 3 va undan ortiq bo'g'inli so'zlarda ko'pincha asosiy urg'u bilan birga qo'shimcha urg'u ham mavjud bo'ladi va bunday urg'u, asosan, cho'ziq unli bilan tugagan ochiq bo'g'inga tushadi. "Yordamchi urg'u olgan bo'g'inni talaffuz qilishda nafas kuchi (havoning kuchi) asosiy (bosh) urg'u olgan bo'g'indan kam bo'ladi, biroq u urg'usiz bo'g'irlarga qaraganda ortiqroqdir" [Shoabdurahmonov, 1980: 69-70]. Yuqorida aytganimizdek, aruz ruknlarga asoslangan sistema bo'lganligi uchun bunday urg'uni belgilashda so'z tarkibidagi bo'g'irlarga emas, balki ruknni tashkil qilgan cho'ziq ochiq bo'g'irlarga e'tibor qaratiladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, turkiy aruzda qo'llanilgan bahrlar orasida har bir rukni tarkibida 3 tagacha cho'ziq bo'g'in mavjud bo'lgan ramal, hazaj va rajazda yozilgan matnlarda ko'pincha asosiy urg'udan tashqari qo'shimcha urg'u ham mavjud bo'ladi va bunday urg'u cho'ziq ochiq bo'g'inga tushadi hamda asar ritmini hosil qilishda muhim rol o'yнaydi.

Qo'shimcha ritmik urg'uning aruziy matndagi o'rni haqida shunday deyish mumkin:

a) qo'shimcha urg'u, asosan, cho'ziq unlili ochiq bo'g'inga tushadi;

b) ritm yaratishda ochiq cho'ziq bo'g'in yopiq cho'ziq bo'g'indan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega;

v) bir vaznga oid she'rlar qo'shimcha urg'u hisobiga turlicha ritm kasb etishi mumkin va bu holat bir vaznda bir necha xil mazmundagi asarlarni yaratish imkoniyatini olib keladi (bu fikr faqat qo'shimcha urg'u olish imkoniyatiga ega bo'lgan vaznlargagina tegishli).

"Xamsa" vaznlari orasida qo'shimcha urg'ular olish imkoniyatiga ega bo'lgan vazn hazaji musaddasi mahzuf bo'lib, ushbu vazn qo'llanilish jihatdan epik poeziyada etakchi o'rinni egallaydi. XIX asrgacha bo'lgan epik poeziyada mazkur vazn, asosan, ishqiy mavzudagi dostonlarda istifoda etildi. Xorazmiyning "Muhabbatnomा"si va umuman barcha nomalar, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Qutbning "Xisrav va Shirin", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Sayyid Qosimiyning "Ilohiynoma" va "Haqiqatnomा" hamda Alisher Navoiy "Farhod va Shirin"

dostonlarining mazkur vaznda bitilganligi fikrimizni isbotlaydi.

XIX asrdan boshlab ushbu vaznda turli mavzudagi dostonlarni yaratish tamoyili vujudga kela boshladи. Xususan, diniy-didaktik adabiyot vakili bo‘lgan Xolis Toshkandiy qalamiga mansub 20 ga yaqin turli mavzudagi dostonlar, kattaqo‘rg‘onlik Ochildimurod Miriy dostonlari, Nodir Uzlatning Mohlaroyim Nodiraga bag‘ishlangan “Haft gulshan” dostoni hazaji musaddasi mahzuf vaznida yaratilgan edi.

Xo‘sh, nega ushbu vazn epik poeziyada bu qadar keng qo‘llanildi. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin: ushbu vaznning keng qo‘llanilishiga sabab uning xalqona ohangga ega bo‘lishi bilan birga vazn tarkibidagi ruknlarning qo‘s Shimcha urg‘ular olish imkoniyatiga ega ekanligi hamdir.

Yuqorida aytganimizdek, mazkur vaznda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni yaratilgan. Bu vazn doston oxirigacha bir xil tarzda takrorlanib boradi va tabiiyki, umumiy ritmni vujudga keltiradi. Lekin ta’kidlanganidek, hazaji mahzuf vazni tarkibidagi ruknlar qo‘s Shimcha urg‘ular olish imkoniyatiga ega ekanligi va bunday urg‘u asosan cho‘ziq unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘inga tushishimi nazarda tutsak, dostondagi ritmik ohang ana shu holat hisobiga bir oz o‘zgarishi ham mumkin. Boshqacha aytganda, ijodkor cho‘ziq bo‘g‘inlarni qo‘llash paytida (qisqa bo‘g‘in urg‘u olmaydi, shu sababli bu o‘rinda faqat cho‘ziq bo‘g‘inga tayaniladi) cho‘ziq *o*, *u*, *e*, *i* unlilari bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlardan ko‘proq foydalansa, bundagi ritmik ohang aynan shunday bo‘g‘inlar kamroq ishtirok etgan va yopiq cho‘ziq bo‘g‘inlar etakchilik qilgan matn ohangidan farq qiladi. “Farhod va Shirin” dostonidan olingen 4 parchani qiyoslash uchun keltiramiz. Dastlabki parchada Navoiyning “Farhod va Shirin” voqyeasini yozishga kirishishdan avvalgi holati berilgan:

*Manga chun to|lei farxun|da kavkab<sup>1</sup> I  
Bu avj uzra |bisot etti | murattab. 0*

*Malak avval| pari birla| supurdi, 0  
Falak anjum| sirishkidin| suv urdi, 1*

---

<sup>1</sup> Qo‘s Shimcha urg‘uli bo‘g‘inlar tagiga chizilgan holda ko‘rsatildi.

*Bo 'lub saqf o 'r|nig 'a avji |muqarnas* 0  
*Bisoti uz|ra yoydi char|xi atlas.* 1

*Solib mijmar|g 'a tun udi| qamoriy,* 1  
*O 'ti xurshed| o 'lub, anjum| sharori.* 1

*Bu nuzhatgah| mening oro|mgohim,* 2  
*Sipehr aylab| jabini xo|krohim.* 1

Jami: 8 ta

Shirinning Farhodga yozgan maktubidin parcha:  
*Meni zoru| zaifu po|shikasta* 2  
*Boshimdin to| ayoq a'zo |shikasta.* 0

*Firoqing ti|g 'idin yuz po|ra jonim,* 2  
*Ne jonim, bal|ki jismi no|tavonim.* 3

*Kuyub hajr o '|tidin jonu |ko 'ngul ham,* 1  
*Ne kuymakkim| bo 'lub yuz qat|la kul ham* 0

*Ichimga shu '|lai ishqing |tutoshib,* 2  
*Tutoshib de|makim, boshim|din oshib.* 3

*Ichimda bo 'l|sa yuz o 't o|shkoro,* 1  
*Nafas dudin |urarg 'a qay|da yoro.* 1

Jami: 15 ta

Farhodning Shiringa yozgan maktubidan parcha:

*Sanga jonni| fido qilmоq |havosi,* 2  
*Ne haddimkim| bo 'lay ul it |fidosi?* 1

*Sening holing |so 'rarg 'a qay|da yoro,* 2  
*Bas oning ho|lin etsam o|shkoro.* 2

<i>Bukim maktub  aro durlar  qilib darj,</i>	<i>I</i>
<i>Latoyif naq di ko 'p aylab  eding xarj.</i>	<i>I</i>
<i>Aning uzri da ojizdur  bayonim,</i>	<i>2</i>
<i>Ki har harfi g'a bo 'lsun sad qa j<u>o</u>nim.</i>	<i>I</i>
<i>Deb erding men da ham ko 'ptur  g 'amu dard,</i>	<i>I</i>
<i>Bu so 'zdin kuydi  j<u>o</u>ni dard parvard...</i>	<i>I</i>
<i>Jami: 14 ta</i>	

Navoiyning dostonni tugatgandan keyingi holati:

<i>Chu qolmay do stondin nuq ta bo<u>q</u>iy,</i>	<i>I</i>
<i>Tutub sog'ar  to 'la ber tur fa so<u>q</u>iy.</i>	<i>2</i>
<i>Lab<u>o</u>lab chun  etib ul jo m payvast,</i>	<i>I</i>
<i>Dam<u>o</u>dam so 'z  demakda ul  bo 'lub mast.</i>	<i>I</i>
<i>Vale bu do ston qilg 'un cha mastur,</i>	<i>0</i>
<i>Ko 'p aytib so 'z  bag 'qyat bo 'l di maxmur.</i>	<i>I</i>
<i>Ketur, so<u>q</u>iy,  anga bir do 's tg<u>o</u>niy,</i>	<i>2</i>
<i>Ki tutqay do 's tlarga do 's t <u>o</u>ni.</i>	<i>I</i>

<i>Manga tutqil ki, so 'zni ko ' tah ettim,</i>	<i>0</i>
<i>Tinay bir lah za chun manzil g 'a ettim.</i>	<i>0</i>

*Jami: 9 ta.*

Yuqoridagi parchalardan ko‘rinyaptiki, dostonning kirish va xulosa qismida cho‘ziq unli bilan tugallanuvchi ochiq bo‘g‘inlar soni deyarli teng (8 va 9), boshqacha aytganda, qo‘shimcha urg‘u olgan bo‘g‘inlar soni orasida katta tafovut yo‘q. Farhod va Shirinning maktublarida ham qo‘shimcha bo‘g‘inlar sonida o‘zaro o‘xhashlik borligini ko‘rish mumkin. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin:

Dostonning kirish qismida tinch, sokin holatda asarning yozilishi bilan bog‘liq fikrlar bayon qilinyapti va bunda qo‘shimcha urg‘u olgan bo‘g‘inlar ham u qadar ko‘p emas, ya’ni 8 ta. Shirinning Farhodga yozgan maktubi yoki Farhodning Shiringa yozgan maktubi

mazmuniga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ularda asosan iztirobli tuyg'ular bayonining etakchilik qilganligini ko'rishimiz mumkin. Endi qo'shimcha urg'ular soniga diqqat qaratsak, ularning avvalgi parchadagidan ko'ra ikki baravar ko'pligini ko'rish mumkin. Va nihoyat, dostonning yakunlovchi so'nggi 5 baytiga e'tibor qaratilsa, unda yana qo'shimcha bo'g'inlar sonining kamaygani ko'zga tashlanadi. Demak, aytish mumkinki, dostondag'i iztirobli va his-hayajonli holatlar bayonida qo'shimcha urg'ular sonining tinch, sokin holatlar tasviri bayonidan ko'ra 2 baravar ko'proq bo'lishi kuzatilar ekan va bularning barchasi aruziy matnda ritmik urg'u badiiy asar mazmuni bilan o'zaro mutanosiblikda degan xulosaga olib keladi.

### Xulosa

"Xamsa" dostonlaridagi ritmik urg'uni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Aruz urg'uga asoslangan she'riy tizim bo'lib, aruziy matnda so'z urg'usi emas, balki rukn urg'usi etakchilik qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, baytda nechta rukn bo'lsa, shuncha urg'u ham bo'ladi va bunday urg'u ritm yaratishga xizmat qilganligi uchun ritmik urg'u deb yuritiladi. Ritmik urg'u faqat cho'ziq bo'g'inga tushadi va qisqa bo'g'in har doim urg'usiz bo'g'in hisoblanadi.

2. Ritmik variatsiyalar va urg'u bir-birini taqozo etuvchi ritmik unsurlar bo'lib, ritmik variatsiyalar dostonlar matni bilan munosabatga kirishganda urg'ularning o'rni ham o'zgaradi va ritmnинг turli-tuman tovlanishlari vujudga keladi. Xususan, "Sab'ai sayyor" dostonida ritmik variatsiyalarning Bahrom ruhiyatiga mos holda o'zgarishi urg'ular o'rniga ham muayyan ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, "Layli va Majnun" dostonida Laylining o'limi bayoni berilgan baytlarda urg'uli bo'g'inalarning yonma-yon kelishi, hatto bir so'zning ikki ruknga bo'linishi oqibatida ikkita urg'uga ham ega bo'lishi va buning natijasida hazin ritmning vujudga kelishi bilan bog'liq hodisani kuzatamiz. Bularning barchasi ritmik variatsiya, urg'u va mazmun o'zaro uyg'unlikda degan xulosaga olib keladi.

3. Navoiy "Xamsa"si dostonlari orasida "Saddi Iskandariy" eng ko'p ritmik urg'uga ega bo'lgan doston bo'lib, bu holat dostondag'i she'riy o'lchov – mutaqorib bahrining 8 ta rukndan iboratliligi

bilan bog‘liqdir. Bunda ruknlar soni va prosodik urg‘uning boshqa dostonlarga qaraganda ko‘pligi jangnomalarga xos shiddatli ohangning vujudga kelishini ta’minlaydi.

4. Tarkibida uchtagacha cho‘ziq bo‘g‘in mavjud bo‘lgan ruknlarda asosiy urg‘udan tashqari, qo‘srimcha urg‘u ham mavjud bo‘ladi va bu holat bir xil vaznda yaratilgan she’riy asarlarning turlicha ritm kasb etishiga olib keladi. Turkiy poeziyada bunday ruknlardan tarkib topgan bahrlar ramal, hazaj va rajaz bo‘lib, ushbu bahrlarning mumtoz she’riyatimizda keng istifoda etilganligining sabablaridan biri ham shunda. Epik poeziyada, xususan, Alisher Navoiy “Xamsa”sida qo‘llanilgan she’riy o‘lchovlar orasida esa hazaji musaddasi mahzuf ( V – – – V – – – V – – ) vazni ana shunday vaznlardan bo‘lib, Navoiygacha ham, Navoiydan keyingi epik poeziyada ham mazkur vaznning qo‘llanilish darajasi jihatdan birinchi o‘rinda turganligini ko‘ramiz. Alisher Navoiy mazkur vaznning bunday imkoniyatidan samarali foydalanib, qo‘srimcha ritmik urg‘uning doston mazmunini ochishga xizmat qilishini ta’milagan. Xususan, dostondagi Farhod va Shirinning maktablari keltirilgan iztirobli va his-hayajonli holatlar bayonida qo‘srimcha urg‘ular sonining dostondagi kirish yoki xulosalovchi qismlar bilan bog‘liq fikrlar aks etgan tinch, sokin holatlar tasviri bayonidan ko‘ra ikki baravar ko‘proq ekanligi kuzatiladi va bu holat ritmik urg‘uning doston mazmuni bilan o‘zaro mushtaraklik hosil qilganligini ko‘rsatadi. Bularning barchasi aruz vazni kvantitativ she’r tizimi bo‘lish bilan birga kvalitativlik xususiyatlariha ham ega ekanligini isbotlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1991. Т. 7.
2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1991. Т. 8.
3. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1992. Т. 9.
4. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1992. Т. 10.

5. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1993. Т. 11.
6. Талабов А. Араб арузи. – Тошкент: ТошДУ, 1977.
7. Талабов Э. Араб шеъриятида аruz тизими. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004.
8. Тўйчиева Г. Ислом даври шеъриятида аruz тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.бўйича доктор. (Dsc) дисс... – Тошкент, 2018.
9. Шоабдураҳмонов Ш. Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
10. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011.

# **ALISHER NAVOIY VA XUSRAV DEHLAVI**

## **ALISHER NAVOI AND KHUSRAV DEHLAVI**

**Bobonazar MURTAZOYEV**

*Termiz davlat universiteti  
(O'zbekiston)*

### *Annotatsiya*

*Maqolada Alisher Navoiyning Amir Xusrav Dehlaviy haqidagi fikrlari, Dehlaviydan Navoiyning o'rghanishi, ta'sirlanishi, Dehlaviy asarlari xususida bildirilgan bahslarga ham e'tibor qaratilgan. Umuman Hirot adabiy muhitida Dehlaviy ijodi borasidagi fikr - o'ylar, Dehlaviyga izdoshlik masalalari ham ozmi - ko'p qamrab olingan.*

**Kalit so'zlar:** Navoiy, Jomiy, Dehlaviy, "Xamsa", masnaviy, g'azal, qasida, shoir, she'r, tatabbu', izdoshlik, hind, urdu, devon, Xuroson, Hirot, saroy, xushnavis, tazkira.

### *Annotation*

*The article also focuses on Alisher Navoi's views on Amir Khusrav Dehlavi, Dehlavi's study of Navoi, his influence, and debates about Dehlavi's works. In general, the literary environment of Herat is full of ideas about Dehlavi's work - thoughts, and more or less the issues of following Dehlavi.*

**Key words:** Navoi, Jami, Dehlavi, "Khamsa", masnavi, ghazal, qasida, poet, poem, tatabbu, izdoshlik, Hindi, Urdu, Devon, Khorasan, Herat, palace, khushnavis, tazkira.

Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" (1470), "Xamsa" (1483–1485), "Majolis un-nafois" (1491–1498), "G'aroyib us-sig'ar" (1491) "Xamsat ul-mutahayyirin" (1492–1494), "Mezon ul-avzon" (1494), "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" (1495), "Muhokamat ul-lug'atayn" (1499) va "Mahbub ul-qulub" (1500)

asarlarida Amir Xusrav Dehlaviy (1253–1325) ijodiga, hayotiy yo‘liga oid ta’rif - tavsif, xabar va ma’lumotlar mavjud. Alisher Navoiy har bir o‘rinda Xusrav Dehlaviyni chuqur samimiyat bilan tilga oladi, uning ijodiga alohida e’tibor va beqiyos mehr bilan qaraydi. Dehlaviy ijodiyoti haqida Alisher Navoiy umumiyl fikr va mulohazalar bilan chegaralanmaydi, balki adibning tarjimai holiga doir qiziqarli lavhalarni ham hikoya qiladi. Navoiy uchun ustoz adib Dehlaviy ijodiy faoliyatini bayon etishda Dehlaviy asarlarining o‘zi asosiy manba bo‘lgan bo‘lsa, hayoti xususida fikr yuritish uchun Alisher Navoiy tarix va tazkira kitoblariga murojaat qiladi.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Xusrav Dehlaviy tarjimai holiga doir ushbu lavhalarni naql qiladi: “Laqabi Yaminuddindur. Otasi Lochin qabilasining ulug‘laridin ermish. Balx navohisida hamonoki, oni Hindistonda mashhurdurki, turk derlar... (14. 471). Navoiy yuqorida fikrlarini davom ettirib, yana aytadiki: “Derlarki, ba’zi musannoftida bitibdurki, mening she’rim abyoti adadi besh yuz mingdin ozroqdur va to‘rt yuz mingdin ko‘prakdур... Anga ishqu muhabbat mashrabidin choshni tamom bor emish. Andoqki so‘zlaridin zohirdurki va bag‘oyat vajhu holliq erkandur... Ul jum’a kechasi yetti yuz yigirma beshda dunyodin o‘tubdur va umri yetmish to‘rtga yetgandur”(14, 472).

Abdurahmon Jomiy (1414–1492) va Alisher Navoiy rahnamolik qilgan XV asr Hirot adabiy muhitida Xusrav Dehlaviy ijodiyoti nufuzli o‘rinni ishg‘ol etib, adib asarlari tevaragida qizg‘in bahslar, munozaralar bo‘lib turar edi. “Jomiy va Navoiy ..., ijodiy suhbatlar vaqtida Xusrav Dehlaviy haqida so‘z bo‘lganda uning adabiy merosi haqida ehtirom bilan mulohaza yuritganlar”(18. 13–14). Hirotda, umuman, Xuroson, Movarounnahr va Iroqda Amir Xusrav asarlarining ovozasi, dovrug‘i keng yoyilib, shoir ijodi adabiy doiralarning diqqat markazida turar edi. Jomiy asarlari ichida “Amir Xusrav Dehlaviy baytiga sharh bitilgan risola”(12, 57), Sulton Boysung‘ur Mirzo ibn Sulton Shohruk Mirzo (1397–1433) tarafidan adib qalamiga mansub 120 (bir yuz yigirma ming) bayt she’rnинг jamlanishi e’tiborli hodisadir. Davlatshoh Samarqandiy ta’kidicha, Sulton Boysung‘ur Mirzo o‘z izlanishlarini davom ettirib, Mir Xusrav devoniga kirmay qolgan tag‘in ikki ming bayt

she'rni topib aniqlaydi. Ammo bu ishlarni davom ettirish va Xusrav she'rlarini jamlash mushkul ish edi, shu bois Sulton Boysung'ur Mirzo bu ishlarni to'xtatgan ekan (17, 85–90). Bundan tashqari Husayn Boyqaro (1438–1506)ning buyrug'iga ko'ra Xusrav Dehlaviy g'azallaridan o'n sakkiz ming baytning kitobati, she'riyat ixlosmandlariga qulaylik uchun har bir g'azalning qaysi bahr va vaznda yozilganining ko'rsatilishi hodisalari buning yorqin dalilidir. Eslatilgan o'n sakkiz ming baytli Xusrav Dehlaviy devoni Husayn Boyqaro farmoyishiga binoan Alisher Navoiy boshchiligidagi zamon xushnavislariiga g'oyat nozik did bilan ko'chirtiriladi: "... ani g'oyati ziynat va zeb va nihoyatda takalluf va jadval va tazhib bila zamon xushnavislariiga kitobat qildurdilar va aning rivoj va ravnaqin quyoshdek royi olamoroy mashg'ulliki bila falakdin oshurdilar" (13, 38). Shuningdek, Mavlono Muhammad Muammoviy bo'lsa Xusrav Dehlaviy ijodining chinakam muxlisi va ishtiyoqmandi sifatida tan olingan shaxs bo'lib, u ustoz shoirning qator asarlari, she'rlari, risolalari va masnaviyalarini jamlashda ko'pdan-ko'p jonbozliklar ko'rsatgan ekan. "Mir Xusravning ash'or va risolasin va soyir musannifotin andin ko'proq kishi jam' qilmabdur erdi" (10, 37). Taassufki, Hiriy elida "Piri muammoiy" nisbasini olgan Mavlono Muhammad Muammoviy haqida "Majolis un-nafois"da Alisher Navoiy ehtirom ila bitgan qaydlardan bo'lak boshqa manbalarda uning xolis va savob ishini to'ldiruvchi biror jo'yali ma'lumot topilmadi.

Xusrav Dehlaviy asarlariga ergashib nazira bitishlar, tatabbu' bog'lashlar Xuroson, Movarounnahr, Iroq va boshqa hudud hamda mintaqalarda odat tusini olgan edi. Adib asarlariga ergashib asar yozishlar shunchaki izdoshlik, oddiy payrav bo'lmay, balki har bir ijodkor uchun o'ziga xos katta imtihon, nozik sinov edi. Mir Xusravning birligina "Daryoi abror" (Yaxshilar daryosi) qasidasiga Abdurahmon Jomiy va Mir Alisher Navoiydan tashqari birligina Hirot adabiy muhitining o'zida Mavlono Zohidiy, Mavlono Abdulvahhab hamda Mirxonqlar javob yozdi. Tazkiranavislarning e'tiroficha, Amir Xusrav o'zining "Daryoi abror" qasidasini haqida g'urur va iftixor bilan gapirar ekan. Bu xususda Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da ajoyib fikrlar izhor etadi: "Qasoyiddin

Amir Xusravning “Daryoi abror”ikim, mashhur mundoqdurki, der emish bo‘lgayki, “Yuz ming baytdin ortug‘ devonlarim g‘azaliyoti va qasoyid va masnaviyalarim ab’yoti agar olam sahifasidin yuyulsa va davron safihasidin mahv bo‘lsa va bu qasida qolsaki, anda ma’ni istiyfosi vofiydur, bu fan ahlig‘a mening fazoyilim dalilig‘a kofiydur” (13, 24). Ayni shu fikrlar “Xamsat ul-mutahayyirin”da ham takrorlanadi: “Agar aflok havodisi va ro‘zg‘or navoibidin mening borchha nazmim zamona sahifasidin mahv bo‘lsa va bu qasida qolsa menga basdur, nevchunkim, har kishi ani o‘qusa bilurkim, nazm mulkida mening tasarruv va iqtidorim ne martabada erkandur” (12, 37). Jomiy va Navoiyning har bir muloqotida Dehlaviy ijodiyoti, hayoti markaziy mavzuni ishg‘ol etib, adib ijodi atrofida qizg‘in suhbatlar bo‘lar edi. Navoiy bir suhbat chog‘i Jomiyga Dehlaviyning “Daryoi abror” qasidasini ta’rif qiladi: “So‘z asnosida Mir Xusrav... ning “Daryoi abror” otlig‘ qasidasi mazkur bo‘ldi. Bu faqir go‘yo aning ta’rifida mubolag‘a qildim...” (12, 36). Ushbu ta’rif ta’sirida bo‘lsa kerak ko‘p o‘tmay Jomiy “Daryoi abror”ga javob yozadi va uni Navoiyga taqdim etadi, Navoiy qasidani ko‘zdan kechirib kuchli hamda chuqr hayajonga tushadi va o‘zida ham javob yozish niyati tug‘iladi. Demak bundan ma’lum bo‘lishicha, Navoiy oldida ancha og‘ir va murakkab vazifa turar edi, chunki Navoiy birato‘la Dehlaviy (“Daryoi abror”)ga:

*Ko ‘si shah xolivu bongi g ‘ulg ‘ulash dardi sar ast,  
Har ki qone ’shud ba xushku tar, shahi bahru bar ast.*

va Jomiy (“Lujjat ul-asror” – Sirlar teranligi)ga:

*Ko ‘nguri ayvoni shah k-az koxi kayvon bartar ast,  
Raxnho don k-ash ba devori hisori din dar ast.—*

javob qilishi lozim edi:

*Otashin la ’le ki toji xusravonro zevar ast,  
Axtare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.*

Navoiyning yuqoridaqgi bayti eslatilgan Dehlaviy va Jomiy qasidalariga tatabbu’ qilingan “Tuhfat ul-afkor” qasidasining matla’idir, mazkur qasida Husayn Boyqaroga ham ma’qul tushadi: “Podshoh chun o‘qub tahsin qildilar” (12, 37–38).

Xusrav Dehlaviy o‘zining mashhur qasidalarini aksar ustod qasidanavis Afzaliddin Xoqoniy Shervoniy (1120–1199) qasidalariga

ergashib yaratgan. Jumladan Dehlaviyning navbatdagi yana bir qasidasi “Mir’ot us-safo” (Poklik ko‘zgusi) ham Xoqoniyning “Qasidai shiniya”si ta’sirida yozilgandir (shiniya deyilishiga bois qasida qofiyasi “nun” harfi ila tugaydi ). “Mir’ot us-safo”dan ilhomlangan Jomiy “Jilo ur-ruh” (Ruh jilosи) va Navoiy “Nasim ul-huld” (Jannat shabadasи) qasidalarini ijod qilishdi. Xoqoniyning “Qasidai shiniya”si (110 bayt; 15, 101) quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

*Dili man piri ta’lim astu man tifli zabondonash,  
Dami taslim sari ushru sari zonu dabistonash* (1, 145).

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “Mir’ot us-safo” (174 bayt) xususida ushbularni bitadi: “Yana Mir Xusravning “Mir’ot us-safo” otlig‘ qasidasikim (12, 25), xalloqul-maoniy Xoqoniy Shervoniyg‘a) tatabbu’ qilibdur va matla’i budurkim:

*Dilam tifl astu piri ishq ustodi zabondonash,  
Savod ul-vajh sabaqu, maskanat kunji dabistonash.*

Va hazrati Maxdumiy Nuran (nur taratuvchi ulug‘ zot) aning javobinda “Jilo ur-ruh” (130 bayt) otlig‘ qasidani debdurlar va matla’i budurkim:

*Muallim kist, ishqu kunji xomo ‘shiy dabistonash,  
Sabaq nodonivu dono dilam tifli sabaqxonash.*

Va faqir ham “Nasim ul-xuld” (129 bayt) qasidasin ikalasi buzurgvorg‘a tatabbu’ qilibmen va matla’i budukim:

*Muallim ishqu piri aql don tifli sabaqxonash,  
Pai ta’ dibi tifl inak falak shud charxi gordonash* (12, 26).

Demak, ma’lum bo‘ladiki, Navoiy oldida ancha murakkab vazifa turar edi, sababi birdaniga Xoqoniy, Dehlaviy va Jomiy qasidalariga javob yozish, tatabbu’ qilish lozim edi. Qolaversa, Xoqoniyning aynan “Qasidai shiniya” qasidasiga o‘z davrida ko‘plab shoirlar javob yozgani manbalarda qaydini topgan. E’tirof etilishicha, ta’kidlangan qasidaga 38 ta shoir tatabbu’ bog‘lagan ekan, bular orasida Said Imodiddin Nasimi (1369–1417), Fuzuliy (1494–1556; “Anis ul-qalb” – Qalb do‘stligi, 138 bayt) larning borligi e’tiborli. Hatto ushbu qasidaga Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) tatabbu’ qilgan degan aqida mavjud, lekin bu hodisa isbotini topmagan, ammo Nizomiyning Xoqoniy vafotiga bag‘ishlab marsiya yozgani bor

haqiqat (16.-B. 101–105). Shu ishlarni boshlab bergen va ibtidosini qo‘ygan hamda boshqa shoirlarni ham bunga rag‘batlantirgan adib aynan Amir Xusrav Dehlaviy bo‘ladi.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da shoir Husayniy (Husayn Boyqaro 1438–1506) g‘azallari tahlili munosabati bilan bir hodisani hikoya qiladi, aytishicha, ittifoqo Navoiy ustozи mavlono Lutfiy bilan uchrashib qoladi. Bahor chog‘i bo‘lib, yomg‘ir yog‘ib turgan ekan, Lutfiy yomg‘ir bahona Navoiyga Dehlaviyning hindcha (urdu tilida) g‘azallaridan birining mazmunini gapirib beradi: “Mir Xusrav hinducha ash’orida bir ajib-g‘arib ma’ni aytibdur va ul budurkим: mahbub bahor ayyomida bir yon boradurmish bo‘lg‘ay va yog‘in jihatidin yer balchiq bo‘lmish bo‘lg‘ay va aning ayoqi balchig‘din toyib yiqlur chog‘ida g‘oyat nozuklugidin yog‘in rishtasin madadi bila tutub qo‘pmish bo‘lg‘ay” (10, 202). Navoiy g‘azaldagi bu ajoyib tasvirga qoyil qoladi va hayrat izhor etadi, hatto shoir bu voqeani Husayn Boyqaroning Oliy majlisida ta’rif qiladi, lekin shoh bu borada: “Rishtaikim, mayli quyi bo‘lg‘ay, aning madadi bila yiqiladurg‘on o‘zin asramog‘i maholdur” (10, 203), deb e’tiroz bildiradi. E’tirozdan qat‘iy nazar, muhimi Dehlaviyning hatto hind tilida bitilgan she’rlariga ham aynan Hirotda qiziqish katta bo‘lgan ekan. Xusrav Dehlaviyning hind (urdu)cha ash’orlari hozirda, shu kecha - kunduzda ham Hindistonda mashhuru ma’lum, bu she’rlar to‘y - tomoshalarda, xalq sayillarida, bayramlarda kuylanadi, ushbu borada Javharla’l Neru (1889–1964)ning aytganlari g‘oyat maroqlidir: “Olti yuz yil ilgari yozilgan qo‘shiqlarning to hanuz el ardog‘iga sazovor bo‘lib, matnining hech o‘zgarishsiz ijro etilishi hodisasini sira uchratmaganman” (15, 257). Amir Xusrav Dehlaviy elaro mashhuru manzur topishmoq monand ruboilarini uch tilda urdu - hindi, fors - tojik va turkiy tillarda bitadi:

*Forsi buli oina,  
Turki d hindu poina.  
Hindi bulun arsi ai,  
Xusrav kahi kui na bonai.*

Topishmoqdagi oina, poina so‘zlari iiki xil ma’no tashiydi, “oina” urducha “kelmadi”, forsida oynadir, poina urducha “topilmadi”, turkiyda oynadir. Arsi hindicha uch xil ma’noga ega, ya’ni “chaqqon

emas”, “erinchoq” va “oyna” kabilar. Shunday qilib oyna, poyna, arsi so‘zлari hindcha, turkcha, forschada oyna demakdir. Dehlaviy goho o‘zining forsiy ruboiylarini urdu tilining boy xazinasi jilolari bilan bezaydi:

*Raftam ba tamoshoi kanori juyi,  
Didam ba labi on zani hunduyi.  
Go‘ftam: “sanamo bahoyi zulfash che bud?”  
Faryod barovard ki: “dur - dur muyi”.*

Ruboioyning oxirgi misrasidagi mazmun forschada “Sochlarmning har tolasi duru marjondir” bo‘lsa-da, uning urdu tilidagi ma’nosи aslida “dab bo‘l, yo‘qol”dir, Dehlaviy ijodida bu xil ajoyib hodisalar ko‘plab uchraydi (5, 40).

Dehlaviy asarlarining shuhrati Xurosonga yetib kelganidek, Navoiy asarlarining dovrug‘i ham Hindistongacha borib yetadi. Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi Hindiston tazkirachiligi maktabida muhim o‘rin tutadi. Alouddavla Qazviniy (XVI asr), Mir Imomiddin (XVII asr), Shayx Ahmad Ali Hoshimiy (XIX asr) lar qalamiga taalluqli “Nafois ul-malosir”, “Xazinai ganji ilohiy”, “Maxzan ul-g‘aroyib” va mualliflari noma'lum “Tazkirai xarobot” (XVII asr), “Tazkirai shoirot” (XVIII asr) kabi tazkiralar bevosita Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi ta’sirida yaratilgandir. “Xamsat ul-mutahayyirin” va “Mahbub ul-qulub”ning Hindistonda yashab ijod etgan Yusufbek Chovushli (XVI asr) hamda Alibaxt Azfariy (XVIII– XIX asr)lar tomonidan o‘sha davr Hindiston shimolidagi adabiy til forsiyda tarjima etilishi alohida diqqatga molikdir (3, 36–38).

Alisher Navoiy hind shoiri Amir Xusrav she’riyati bilan yoshligidanoq oshno bo‘ldi, Dehlaviyning badiiy merosi Navoiy uchun hamisha ijodiy maktab vazifasini o‘tadi. Dehlaviyning asarlarini Navoiy alohida shavq-zavq bilan mutolaa qilar edi, bu xususda shaxsan Navoiy o‘z qaydlarini ushbu xilda bayon etadi: “*O‘qurug‘a davovindin bu faqir mutolaasig‘a ko‘p mashg‘ul bo‘limg‘on devon oz erkin. Bataksis ishqu dard ahlining rohbar va peshravi Amir Xusrav Dehlaviy devonikim, oshiqlikda dardu niyoz va so‘zu gudoz tariqin ul muntashir qildi va oning ishqil mash‘alidin bu partav olam tiyra xokdonimg‘a yoyildi*” (13, 24). Alisher Navoiy

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi to‘rt kitobning umr fasllariga mos tarzda nomlanishi va ham “Xamsa” asarlarining yaratilishi Dehlaviy an’anasi mahsulidir. Chunki she’riy devonlarni maxsus nom bilan atash biringchi bor adabiyot tarixida Dehlaviy tomonidan amalga oshirilgan edi. *“Bir o‘z asrida ganji ma’naviy Amir Xusrav Dehlaviyni derlarkim, Sulton Malikshoh Alp Arslon otig‘a to‘rt devon murattib qilmish bo‘lg‘ay...”* (9, 14) va “... har qaysig‘a bir munosib ot qo‘yubturlar” (11, 86), ya’ni “Tuhfat us-sig‘ar” (Yoshlik sovg‘alari, 1272), “Vasat ul-hayot” (O‘rta yoshlik hayoti, 1286), “G‘urrat ul-kamol” (Kamolot cho‘qqisi, 1302), “Baqiyat ul-naqiya” (Umr qoldiqlari, 1318, ba’zan “Baqiyai naqiya” deb nomlanadi) kabilar. Biroq adabiyotshunoslardan Sh.Shomuhamedov, B.Musaev (18–B. 35), M.Baqoyev (2, 140)lar Xusrav Dehlaviy kulliyotini besh devondan iborat deb ko‘rsatishsa, (beshinch devon “Nihoyat ul-kamol”, Kamolot cho‘qqisi, 1325 deyiladi)<sup>1</sup>, X.Mirzozoda bo‘lsa shoir devonlar sonini to‘rtta ekanini ta’kidlaydi (6, 115). Bilamizki, Hirot adabiy muhitida Mavlono Ashraf (vafoti 1460) bo‘lsa, Jomiy va Navoiygacha “Xamsa” yozgan hamda to‘rt devon jamlagan edi.

Alisher Navoiy g‘azalchilikda va xamsanavislikda Amir Xusravga tan beradi, uning bu sohadagi xizmatlarini hamisha olqishlaydi. “Mahbub ul-qulub”ning o‘n oltinchi faslida “maoniy ahlining nukta pardozi”lari (11, 22) Shayx Sanoyi (1079–1140), Sa’diy (1208–1292), Shayx Avhadiddin (1274–1338), Xoja Hofiz (1325–1389)lar safida Xusrav Dehlaviy “ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi...”(11, 22) deya e’zoz bilan tilga olinadi. Shu asarning boshqa bir o‘rnida ushbularni o‘qiyimiz: *“Ishq ahli guruhining pokbozlari va shavqu niyoz ahlining nazmtiroz va afsonapardozlari mutaqaddimindin andoqkim, nazm beshasining g‘azanfari va dardu ishq otashkadasining samandari va zavqu hol vodisining pokravi Amir Xusrav Dehlaviydurkim, pok nafas va guftori pok alfoz va maoniylilik ash‘ori ishq ahli orasida g‘avg‘o va vajdu hol anjumani fazosida alolo solibdur”* (11, 66–67). Aslida ayni yuqoridagi ta’rif - tavsifli fikrlar “Badoyi” ul-bidoya”dayoq

---

<sup>1</sup> Aniqlanishicha, “Nihoyat ul-kamol”, ya’ni oxirgi beshinchsi devon Dehlaviy shogirdlari tarafidan tartib berilgan bo‘lib, unda oldingi to‘rt devonga kirmay qolgan she’rlar jamlangan.

ibtido topganiga guvoh bo‘ldik: “*Avvalg‘i zumradin bovujudi dard beshasining g‘azansfari va ishq otashghohining samandari, ma’dani javohiri ma’naviy Amir Xusrav Dehlaviy...*” (8, 14). Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “Devoni Foni” haqida to‘xtalar ekan Xusrav Dehlaviyni Sa’diy, Hofiz, Jomiyalar safida chuqur ixlos bilan xotirlaydi: “Yana forsiy g‘azaliyat devonini Xoja Hofiz tavri (Shayx Sa’diy, Hazrati Maxdumi Nuran)dakim, jami’ suxan adolar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbu’dur, tartib beribmenkim, olti mingdin ab’yoti adadi ko‘prakdurki, ... Va ba’zi Mir Xisravkim, ishq otashkadasining shu’la angizidur dard g‘aribxonasing ashkrezi” (13, 28). Navoiy xoh “Devoni Foni”, xoh forsiy qasidalari, xoh “Xamsa” xususida gapirmasini hamisha ustozni Dehlaviyni yuksak maqtovlarga burkaydi: “*So ‘z ta’rifida bir necha so ‘z deb, shayx Nizomiy bila Mir Xusrav maddohliklarin qil...*” dim:

*Ikki pil o’lsa Xusrav yo Nizomiy,*

*Erur yuz pil chog‘lig‘ pil Jomiy* (12, 75).

Boshqa bir o‘rinda:

*Demangiz bulbul Navoiyni samandardekki, bor –*

*Nazmi ichra shu’lai Jomivu so ‘zi Xusraviy* (9, 496) –

degan Navoiy o‘z she’riyatini (ham turkiyda, ham forsiyda) Jomiy shu’lesi va Xusrav so‘zi (yondirib turadi yoki rashki)siz tasavvur etish mushkul ekanligini ochiq tan oladi. Dehlaviy va boshqa talay ustoz so‘z ustalari haqida bu xildagi samimiyl fikrlarni Alisher Navoiy tasnifotlarida ko‘plab uchratish mumkin. Navoiy ustoz Dehlaviyni nafaqat g‘azalchilikda, balki masnaviy bobida ham yuksak martabada ekanini bot - bot takrorlaydi:

“... va masnaviyda hazrat Shayx Nizomiy va Mir Xusrav Dehlaviy jonibidin dag‘i bu dasturlug‘ ko‘p voqe’ bo ‘luptur” (13, 30). Yoki yana o‘qiyimiz: “... masnaviyda ustodi fan Firdavsiy (934–1020) va nodiri (13, 31) zamon Shayx Nizomiy va joduyi hind Mir Xusrav...” (13, 32).

Alisher Navoiyning Dehlaviy ijodi haqidagi fikrlari alohida diqqatga ega, Dehlaviy ijodiyoti Navoiy ijodining kamoloti uchun yirik manba bo‘lgani shubhasiz. Alisher Navoiy har bir asarida Amir Xusrav Dehlaviyni alohida hurmat va ehtirom ila tilga oladi, ustozni har bir o‘rinda e’zozda e’tirof etadi. Alisher Navoiyning bu

qayd va e'tiroflari shunchaki oddiy axborot bo'lib qolmay, Xusrav Dehlaviy ijodining nozik qirralarini ochib berishda, uni to'ldirishda va ilmiy xulosalar chiqarishda ulkan xizmat qiladi. Alisher Navoiy hech mubolag'asiz o'zbek adabiyotshunosligida xusravshunoslikni, shuningdek, nizomiyshunoslik va jomiyshunoslikni boshlab bergan, qolaversa ayni ibtidosini yaratgan ulug' siymolardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Адабиёти форсу точик дар асрҳои XII – XIV. Қисми I. – Душанбе: “Дониш”, 1976. –348 сах.
2. Бақоев М. Жомий ва Ҳусрав // Абдураҳмони Жомий. Мажмуаи мақолаҳо. – Душанбе, 1965. – С. 137–146.
3. Валихўжаев Б. Алишер Навоийнинг Ҳиндистандаги анъаналариға доир // Адабий мерос.–1982. – № 1(21). –Б.36–38.
4. Гулшани адаб. Намунаи назм иборат аз панж жилд. Жилди 2. Асрҳои XIII– XIV. – Душанбе: “Ирфон”, 1975.
5. Доктор Камар Раис. Творчесво Амира Ҳосрова на языке хиндустани // Амир Ҳосров Дехлави. Науч.Тр. ТашГУ. 1875. Вып. 453. – С. 37–44.
6. Мирзозода Холиқ. Таърихи адабиёти точик (Асрҳои XIII–XIV). Китоби 2. – Душанбе: “Маориф”, 1977.
7. Мирзозода Холиқ. Таърихи адабиёти точик (Аз давраи қадим то асрҳои XIII). Китоби I(II). – Душанбе: “Маориф”, 1989.
8. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. I том. Бадойиль ул-бидоя. –Тошкент: “Фан”, 1987.
9. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 3-том. Ҳазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сигар. –Тошкент: “Фан”, 1988.
10. Навоий Алишер. МАТ. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. Мажолоси ун-нафоис. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1997.
11. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. Махбуб ул-қулуб. Муншаот. Вақфия. –Тошкент: Фан, 1998. Навоий Алишер. МАТ. Йигирма томлик. Ўн бешинчи том. Ҳамсат ул-мутаҳайирин. Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-жавоҳир. –Тошкент: “Фан”, 1999.

12. Навоий Алишер. МАТ. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. Муҳокамат ул-лугатайн. Мезон ул-авзон. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. – Тошкент: “Фан”, 2000.
13. Навоий Алишер. МАТ. Йигирма томлик. Ўн еттинчи том. Насойим ул-муҳаббат. – Тошкент: “Фан”, 2001.
14. Неру Дж. Открытие Индии. Пер. с анг. – Москва: Иностр, лит., 1955.– 649 с.
15. Озарбайжон адабиёти тарихи. Уч жилдли. 1-жилд. –Боку: Оз ССР ФА нашриёти, 1960.
16. Самарқандий, Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). Форс-тожик тилидан Б.Аҳмедов тарж.; Шеърларни С.Раҳмон тарж. килган. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
17. Шомуҳамедов Ш., Мусаев Б. Амир Ҳусрав Дехлавий. – Тошкент: Фан, 1971.

# NAVOIY IJODI BO‘YICHA NOAN’ANAVIY DARS

## NON-TRADITIONAL LESSON ON NAVOI’S CREATION

Baxtiyor FAYZULLOYEV

Xo‘jand davlat universiteti

(Tojikiston)

### *Annotatsiya*

*Maqolada adabiyot darslarida noan’anaviy dars usulidan foydalanish tajribasi Alisher Navoiy ijodi misolida ko‘rsatilib, uning ibratli tomonlariga e’tibor qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ta’lim, dastur, noan’anaviy, usul, krossvord dars, andoza, faoliyat, talaffuz, asar, tahlil.*

### *Annotation*

*The article speaks about unconventional teaching methods at the lessons of literature. The advantage of the given methods has been demonstrated by using Alisher Navoiy’s creative works in the educational process.*

**Key words:** *education, program, non-traditional, method, crossword puzzle, template, activity, pronunciation, work, analysis.*

Mustaqillikdan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani kabi maktab va maorif tizimida ham yangiliklar yuzaga keldi. Xususan, adabiy ta’lim mazmunini tubdan yangilash, darslarni zamon talablari asosida tashkil etish, badiiy asarlarni yangi mezonlar asosida o‘rganish ta’limdagi muhim masalalardan biriga aylandi. Uzoq asrlik tarixiga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimiz namunalari yaqingacha bir tomonlama o‘rganilib, shu asosda talqin va targ‘ib qilib kelindi. Bunday munosabat bugunga kelib tarixga aylandi. Endilikda ajdodlarimiz merosini qanday bo‘lsa, shundayligicha o‘rganish tamoyillari ustuvorlashdi.

Bugungi kunda umumta’lim maktablaridan boshlab oliy o‘quv yurtlarining amaldagi adabiyot dastur va dasturlarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgani

quvonchli holdir. Jumladan, Alisher Navoiyning bebaho merosi bilan o‘quvchilar 5-sinfdan boshlab, 10-sinfga qadar tizimli bir tarzda o‘rganib, o‘zlashtirib borishlari rejalaشتirilgan. Mutafakkir shoирning ulkan ijodiy merosi yoshlарimizning ma’naviy dunyosini boyitishга beminnat xizmat qilib kelmoqda. Bugun Navoiyni anglash milliy o‘zlikni anglash darajasiga aylandi. Bu borada navoiyshunoslik bo‘yicha davlat miqyosida qator ibratlар ishlar amalga oshirildi. Va ular uzlusiz tarzda davom etmoqda. Navoiy shaxsi va uning boy adabiy merosini maktab va maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasalarida yoshlar qalbiga singdirib, ularning ruhiyat olamini boyitishdek mas’ulyatli vazifalar borki, bu bugungi kundagi har bir ziyolidan katta mas’ulyiatni, kasbiga nisbatan pokiza e’tiqodni talab etmoqda.

Zamonaviy ta’limda ijodkor asarini yangi tamoyil talablari bo‘yicha tahlil qilish, shu mezonlar asosda o‘quvchilarga o‘rgatish bo‘yicha jiddiy ishlar qilinmoqda. Professor Q.Yo‘ldoshev o‘rinli ta’kidlaganidek «O‘rganilayotgan har bir asardan mafkura emas, nafosat qidirilsa, qahramonlar mansub ijtimoiy tabaqalarga xos xususiyatlarini topishga emas, balki qahramonlar kechirgan hissiyotlarni, sezimlarni kashf etishga e’tibor qaratilsa, o‘quvchilardan barkamol shaxs shakllantirish mumkin bo‘ladi» [Йўлдошев, 1996: 76].

Navoiyni o‘rganish va tushunish shunchaki faoliyat belmasdan, balki har bir kitobxandan qunt bilan mutolaa qilishni taqozo etmoqda. Shunday ustozlar borki, ularning ilmiy faoliyatining salmoqli qismini Navoiy ijodini o‘rganishga, tadqiq va talqin etishga qaratilganligi bilan tahsinga loyiq. Taniqli navoiyshunos Ibrohim Haqqulov suhbatlaridan birida: «Mana, 30 yildan buyon Mir Alisher Navoiy ijodini baholi qudrat o‘qib, o‘rganib, talqin etaman. Biroq navoiyshunos degan nomga da’vom yo‘q. Men Navoiyning muhibiman. Mana shu muhiblik meni ruhlantiruvchi, charchoqlik va chorasisizliklardan muhofaza qilib, doimiy ravishda nimalarnidir yozib-chizishga undovchi bir asos...» deganida qanchalar haq edi [Ҳаққулов, 2001: 72].

Metodika fanining umumdidaktik prinsiplari sirasida ko‘rgazmalilikka alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Dono

xalqimizda yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal, degan ibratli fikr mavjud. Ta’lim jarayonida Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishda ko‘rgazma maqomidagi krassvord dars usulidan foydalanish yaxshi samara berishini o‘z tajribamiz davomida kuzatdik.

Bir xil qoliplar asosida o‘tiladigan darslar hech bir davrda e’tibor topgan emas. Shuning uchun ham ma’rifat darg‘alari doimo ta’limni mukammalashtirishga intilganlar. Ulug‘ rus yozuvchisi L.N.Tolstoy kundaliklarida shunday yozadi: “Pedagogik faoliyatda metod emas, balki mohirlik san’ati va talant zo‘r ahamiyat kasb etadi. Iste’dod bu muhabbat demakdir. Agar o‘qituvchi loaqal o‘z ishiga muhabbat bilan qarasa, u, albatta, yaxshi o‘qituvchi bo‘la oladi” [Файзуллоев, 2018, 71-73]. Bu fikrlar aytilganiga ancha yillar o‘tgan bo‘lsada, hanuzgacha o‘zning qimmatini yo‘qotgan emas.

Endi maqsadga o‘tsak. Yangi mazmundagi faol darslarning afzalligi nimada? Ularni ta’lim jarayoniga qanday tatbiq etish mumkin? Bu darslarning qanday ko‘rinishlari bor? An’anaviy darslardan ularning farqi nimada? Xususan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda ularning qaysi biridan foydalanish mumkin, - degan haqli savollar paydo bo‘lishi tabiiy. Ta’lim jarayonida faol darslarning *konferensiya dars, sahna dars, babs dars, disput dars, krossvord dars, test dars, klaster dars* kabi bir qator ko‘rinishlari allaqachon sinovdan o‘tib, ustuvorlashgan usullar sirasiga kiradi.

Ijodkorlar faoliyati aks etgan krossvord va boshqotirmalar hammaga ma’lum bo‘lib, bu usul u qadar yangilik emas, albatta. Ta’limda krassvord usulidan foydalanish tajribasi adabiy ta’limdagи o‘ziga xos noan’anaviy dars turlaridan biriga kiritish mumkin. Bu zamonaviy ta’limida yuzaga kelgan yangiliklardan biri hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda gazeta va jurnallar sahifalarda turli shakl va shamoyilga ega krassvorlarga duch kelamiz. Hattoki shunday gazetalar borki, ular butunlay krassvordlardan iborat. Ularni bir ermak yoki bo‘sh vaqt ni o‘tkazish uchun taqdim qilingan «mashg‘ulot» deb biluvchilar ham bo‘lishi mumkin. Aslidachi? Bunday aqliy mehnat turi kishilarni faollikka va faoliyatga undaydi. Ayniqsa, yoshlarda inteliktual tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi. Bu jarayonda ular ko‘pgina narsalarni aniqlashga, bilib

olishga e'tibor qaratib, bilmagan narsalarini bilishga harakat qilib boradilar. Masalaning muhim jihat shundaki, bu usulni ta'lim jarayoniga ham tadbiq etish ham o'ziga xos ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Yaxshisi unga e'tibor qarataylik. Siz ko'rib turgan jadvaldag'i quyidagi krassvord faqat birgina mavzu doirasida tuzilgan belib, u o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Unda mutafakkir shoir Navoiyning hayoti va ijodi ma'lum darajada o'z aksini topgan. Krassvord an'anaviy usulga muvofiq ko'rinishda bo'lib, birinchi ustundagi savollar «*Bo'yiga*» ikkinchi ustundagi savolar esa «*Eniga*» sarlavhasi asosida tuzilgan.Undagi savollarning miqdori - 34 ta bo'lib, ular tematik jihatdan rang-barangdir. Krossvord savollarni mazmuniga ko'ra to'rt qisimga bo'lib, o'rganish maqsadga muvofiq.

Berilgan savollarda Navoiy asarlari hamda ulardagi asosiy timsollarlar nomi, shoirning ustozlari, do'stlari, zamondoshlarining nomi, shuningdek, shoir ijod qilgan adabiy janrlar va u borgan shahrlar nomiga asosiy etibor qaratilganligini kuzatish mumkin.

Ushbu krassvord darsni maktab va oliv o'quv yurtlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish jarayonida tashkil etish yaxshi samara beradi. Chunki bu davrda o'quvchi va talabalar Navoiyning hayoti va uning adabiy merosi bilan to'liq tanishgan bo'ladilar. Masalaning muhim jihat shundaki, krossvordda ko'rsatilgan har bitta savol dars ishtirokchilari uchun notanish bo'lmasdan ularning har biri ta'kidlanganidek dars jarayonida o'rganilgan.

Mashg'ulot qanday tarzda uyuشتirish lozim? Mashg'ulot odatdagidek o'qituvchining rahbarligi ostida olib boriladi. Ko'rgazmadagi savollar umumiylar tarzda sinfga beriladi va ularning har biriga to'g'ri va aniq javob berish talab etiladi (Savollar bolalarga oldindan berib qo'yish ham mumkin). Har bitta javob individual tarzda qabul qilinadi. Shu jarayonda biror o'quvchi doskaga jalb etilib, kattalashtirilgan krossvord jadvalni to'ldirib boradi. Dars jarayonini yanada faollashtirish uchun savollarga to'g'ri javob bergen ishtirokchilar o'qituvchi tamonidan o'z vaqtida rag'batlantirib borilishi ulardagi qiziqishni yanada oshiradi.

O'qituvchining pedagogik mahorati bunda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi, albatta. U savollarning xarakteriga, mazmun va

mudarijasiga qarab o‘quvchilarga taqdim qilib borish zarur. Xullas, 34 ta savolga berilgan javoblar shu tarzda o‘z yechimini topadi. Qisqacha qilib aytganda, bu dars usuli bir qator afzalliklariga ega ekanligini biz ish tajribamiz davomida kuzatib, quyidagi xulosaga keldik. Bular quyidagilardan iborat:

*Birinchidan*, o‘quvchilar Navoiyning hayoti va ijodiga doir savollarga to‘g‘ri javoblar topishda o‘rganilgan bir mavzuni berilgin krossvord vositasida o‘zlashtirib, unda ko‘rsatilan asosiy ma’lumotlarni o‘z xotiralarida yanada mustahkamlab boradilar.

*Ikkinchidan*, krossvordagi savollariga to‘g‘ri javob topish jarayoni o‘quvchilarni o‘ylashga, fikirlashga shuningdek, ularni kitob bilan ishlashga undaydiki, bu eng muhim natijalardan biri deyishga asos bo‘ladi.

*Uchinchidan*, mazkur darsga o‘quvchilar alohida e’tibor hamda katta qiziqish va ishtiyoq bilan ishtirok etishlari, shubhasiz. Bir xil qoliqlar asosida o‘tiladigan darslarga odatlanib, ustozlardan doimo doshnomlar eshitishga o‘rganib qolgan o‘quvchilar ham bu darsdan nimlarnidir o‘rganganligi ayon bo‘ladi. Bu narsa, darsning muvaffaqiyatidan darak beradi.

*To‘rtinchidan*, bunday dars usullardan o‘rni-o‘rnida tatbiq etib borish ayrim o‘quvchilarda mudrab yotgan layoqatlarini yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratadi. Ularda mumtoz she’riyatga qiziqish hisini yanada oshirib, chiston va muammo tipidagi mumtoz lirik janrlardagi asarlarini tushunishlariga ma’naviy zamin tayyorlaydiki, bu ta’lim jarayonidagi mahim vazifalar sirasiga kiradi.

*Beshinchidan*, o‘quvchilar bu jarayonda mutafakkir shoir asarlari va qahramnlari nomini to‘g‘ri talaffuz qilish bilan birga ularni xatosiz yozish bo‘yicha ham grammatik qoidalarni yanada mustahkamlab boradilar. Bu esa ulardagi nutq madaniyati va savodxonlik darajasi rivojlantirishda muhim omil beb xizmat qiladi.


